O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

UMUMTA’LIM MAKTABLARI TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

T O‘ P L A M I

Navoiy-2024

Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya *materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2024. 266 b.*

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan "Umumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida uzluksiz ta'lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o'qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta'lim fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish hamda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferentsiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY'ATI

Mardanov U.R.	*- Navoiy viloyati PMM direktori.*
Pulotov A.M.	*- pedagogika fanlari nomzodi. dotsent.*
Suvonov O.O.	*- texnika fanlari nomzodi, dotsent.*
Pulatov J.N.	*- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
Astanaqulov K.M.	*- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.*
Safarov D.X.	*- psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
Rajabova D.K.	*- bo'lim bosh mutaxassisi.*
Usmonova R.M.	*- dotsent.*
Boboqulov.J.Q.	*- UKTTE bo'limi boshlig'i.*

Texnik muharrir: Axmedov S.T.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining (2024-yil 5-dekabr, 6/1-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Barchamizga ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning bilimi, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog‘liq. Yangi O‘zbekistonda hech bir o‘qituvchi, hech bir o‘quvchi ehtiyoji qondirilmay qolishi mumkin emas. Shunday ekan, har bir rahbarda fidoyilik, adolat, yurtga sadoqat va albatta, o‘z vazifasiga nisbatan mas'uliyat bo‘lishi lozim.

Davlatimiz rahbari tomonidan pedagoglarga qaratilayotgan e'tibor va e'zoz har birimizning qalbimizda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini mujassam etadi. "Pedagoglar maqomi haqida"gi qonunning qabul qilinishi, maktab rahbarlarining menejerlik sertifikatiga ega bo‘lgan kadrlar orasidan "Direktorlar kengashi" orqali tanlab olinayotganligi, sertifikatlash tizimi orqali maxsus ustamalar berilayotganligi, mehnatga yarasha haq to‘lash tizimi shakllantirilganligi, maktab ishiga chetdan aralashishlarga to‘siq qo‘yilganligi sharafli kasb egalarining o‘z ustida tizimli ishlashi uchun alohida motivatsiya bo‘lib xizmat qilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashabbusi bilan yangicha format, yangilangan mazmundagi yangi Milliy dastur asosida yangicha dars uslublaridan foydalanish, yangi avlod darsliklarining tadbiq etilishi, yangi baholash tizimining joriy etilishi, ta'lim sohasi rivojlangan Finlandiya, Singapur kabi davlatlar tajribasini milliy qadriyatlarga tayangan holda, xalqaro mezonlarga moslashtirib, maktab ta'limida joriy etilayotganligi o‘quvchilarimizning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kaskad usulida pedagoglar malakasini oshirish, "Kasbiy rivojlanish kuni", "Kasbiy rivojlanish soatlari", "Metodik mahorat kunlari", "Metodik mahorat soatlari"ni tashkil etish, mentor-o‘qituvchi va tarbiyachilarga 20 foizlik ustamalar belgilanishi Yangi O‘zbekiston o‘qituvchisi va tarbiyachisi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilayotganligidan dalolatdir.

Eng muhimi, ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor va rag‘bat amalda o‘z samarasini berib, bugungi oldimizga qo‘yilgan maqsadlar, bu malakali pedagog-kadrlar tayyorlash, ta'limni sifat va samaradorligini ta'minlash, o‘quv jarayoni me'yoriy hujjatlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish, raqamli texnologiyalar manbalarini rivojlantirish, ta'limning pedagogik, psixologik va uslubiy muammolarini chuqur o‘rganish, ta'limga oid ma'lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni qo‘llashga yo‘naltirilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu sohada Pedagogik mahorat markazimiz jamoasi ham o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Pedagogik markazimiz raqobatbardosh mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida xorijdagi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilayotganligi, professor-

o‘qituvchilarimiz xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda o‘z ma’ruzalari bilan faol ishtirok etayotganligi, universitet va institutlar bilan o‘rnatilgan ilmiy hamkorlik aloqalarimiz natijasi sifatida “Umumta'lim maktablari ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanining o‘tkazilayotganligi fikrimiz dalilidir.

Bugun bo‘lib o‘tayotgan respublika ilmiy-amaliy anjuman maqsadi ham uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib boruvchi ilmiy izlanuvchilarning nazariy va amaliy tavsiyalarini, ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish borasidagi taklif va tavsiyalarni umumlashtirish, pedagog kadrlarni raqamli texnologiyalarga asoslangan kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy qilishdan iboratdir.

Zero, Yurtboshimiz aytganidek, “Taraqqiyotning tamal toshi ham mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan va tarbiyadir”. Har bir rahbar yoki pedagog Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishi, o‘z dunyoqarashi, odob-axloqi, madaniyati va ma’naviyati bilan boshqalarga namuna bo‘lishi kerak. Oldimizda ana shunday yuksak va sharafli vazifa turibdi. Hammamiz birgalikda, bir el, bir xalq bo‘lib birlashib, sidqidildan harakat qilsak, ko‘zlangan marralarga albatta erishamiz!

Bu yo‘lda barchangizga kuch-quvvat tilayman. Doimo sog‘-omon bo‘ling!

E’tiboringiz uchun rahmat!

U.R.Mardanov
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

1-SHO‘BA: TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VA MULT’MEDIALI ILOVALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Mo‘minov S.M.,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish hamda Internet tarmog‘idagi mavjud raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish, axborot texnologiyalari, raqamli ta’lim resurslar, kompyuter, internet, ta’lim, ma’lumotlar, onlayn dars, elektron ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha 2020-yil 30-oktyabr kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi ta’lim tizimini yanada rivojlantirishda tub o‘zgarishlarni yaratdi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, axborot texnologiyalarni joriy etish va ta’lim samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bugun uzluksiz ta’limning quyi bug‘ini, umumta’lim maktablari uchun raqamli elektron axborot ta’lim resurslarini shakllantirish va ulardan ta’lim tizimida foydalanish ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu jihatdan raqamli ta’lim resurslarni ishlab chiqish dolzarbligi namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’lim resurslari asosida o‘qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to‘liq o‘qitish, ma’ruza matnlarini tahrir qilish, o‘quvchilarning topshirgan nazorat natijalarini tahlil qilish, o‘quvchilarga ta’lim resurslari orqali dars o‘tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Raqamli ta’lim resurslarining qulayligi quyidagilardan iborat:

- ulardan chegaralanmagan miqdorda foydalanish mumkin;
- zarur nusxalarda elektron shaklda ko‘paytirish qulay;
- ta’lim olishning masofaviy shaklini amalga oshirish;
- qo‘shimcha tegishli ilmiy va amaliy, video, audio, animatsiya va boshqa ma’lumotlarni kiritish imkoniyatlari keng;
- bir joydan boshqa joyga ko‘chirishda hajm nuqtayi nazardan juda qulay;
- hamisha muqobil(zaxira) variantlari bilan birga foydalanish;
- olingan ma’lumotlar bazasi va zarur adabiyotlar manbaiga havola (ssылka) orqali bog‘lanish mumkin;
- keltirilgan ma’lumotlar asosidagi tushunchalarni namoyish etish orqali tasavvur hosil qilish;
- ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari har qanday yoshdagi istemolchi uchun bir xilligi;
- online tartibda muloqot o‘rnatishini samarali amalga oshirish va boshqalar.

Shuni hisobga olgan holda ayrim ijodkor o‘qituvchilar mustaqil ravishda shunday resurslarni ishlashga harakat qilmoqdalar. Lekin, ularning texnik imkoniyatlari cheklanganligi va elektron ta'lim resurslari haqida yuqori bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lmaganligi sababli ularni umumta'lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanib dars o‘tishlari talabga javob bermayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘quvchi yoshlarni bo‘sh vaqtlarini samarali va mazmunli tashkil etish, ularda shaxsiy rivojlanish hamda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, shu bilan birga internet tarmog‘i milliy segmentidagi kontentlarni sifat va son jihatdan yanada oshirish maqsadida Yagona "Elektron ta'lim" tarmog‘ini joriy etish doirasida o‘quvchilarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan **raqamli ta'lim resurslar, video va animatsion kontentlarni yaratish** yo‘lga qo‘yildi.

1-4 sinf o‘quvchilari uchun **120 ta** 3D animatsion shakldagi multiplikatsion kontentlar va **618 ta** video kontentlar ishlab chiqilgan.

5-8 sinflar uchun - o‘quvchilarning **shaxsiy rivojlanishiga** qaratilgan IT dasturlash, foto va video tahrirlash hamda raqamli marketing yo‘nalishlarida amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan **120 ta** video kontentlar ishlab chiqilib Internet tarmog‘iga joylashtirilgan.

9-11 sinflar uchun - o‘quvchilarni **kasbga yo‘naltirish va kasbiy malakasini** oshirish, kelajak kasblarini eng olis va chekka hududlardagi yoshlarga yetkazish bo‘yicha zamonaviy kasblar *(AUTOCAD, 3DsMAX, 2D va 3D animatsiya)* hamda biznes tushunchalarini shakllantirishga *(logistika ta'minoti bilan ishlash usuli Dispatching, internet tijoratidan unumli foydalanish E-commerce)*, shuningdek, sun'iy intellekt mohiyati va undan foydalanishga qaratilgan **250 dan ortiq** video kontentlar yaratildi.

Bundan tashqari, "Buyuk insonlar hayoti", "Shaxsiy rivojlanish", "Texnologiya haqida", "Tarix" "Eng qiziqarli", "Nima uchun kitob o‘qish kerak" turkumlarida, shuningdek, "STesting" loyihasi bo‘yicha "Matematik savodxonlik", "Tabiiy-ilmiy savodxonlik", "O‘qish savodxonligi" kabi mavzularda jami **70 dan ortiq** animatsion dayjestlar ishlab chiqildi.

O‘quvchi-yoshlarni bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan **"Masofaviy ta'lim platformasi axborot tizimi (Maktab.uz)"ga** joylashtirilgan maktab o‘quv dasturiga tegishli video kontent **15 325 taga**, taqdimot **7 125 taga** va qo‘shimcha video resurslar **708 taga** yetkazildi.

*** Maktab.uz platformaga QR-kodli havola:**

Internet tarmog‘i yordamida umumta'lim maktablarida vazirlik tomonidan yaratilgan elektron ta'lim resurslarida ishlash, ochiq onlayn kurslaridan foydalanish, qo‘shimcha ta'lim olish uchun **YouTube** va boshqa platformalardan foydalanish imkoniyati yaratildi.



2-rasm. YouTube dagi Milliy ta‘lim resurslari” kanali

YouTube dagi **Milliy ta‘lim resurslari**” kanaliga bosqichma-bosqich **joylashtirib borilmoqda.**

*** YouTube platformasida maxsus yaratilgan “Milliy ta‘lim resurslari” kanaliga o‘tish QR-kodli havola:**

Hozirda ushbu platformalarda ko‘rishlar soni jami **2 mln.dan** ko‘proqni tashkil qiladi, shundan **1 million 325 ming marta YouTube** platformasi orqali (obunachilar soni **121 mingdan** ziyod) ko‘rilgan.

Bundan tashqari maqola muallifi ishtirokida “Bizning onlayn-maktab portali – **online.uzedu.uz**” yaratildi. Ushbu **online.uzedu.uz** portalida maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida ro‘yxatdan o‘tib, ular tomonidan ushbu tizimga **7 000 dan ortiq** ta’lim resurslari va videodarslar joylashtirildi.



Ayni vaqtda ushbu resurslardan foydalanishlari uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilar ro‘yxatdan o‘tishlari va o‘zlariga tegishli bo‘lgan dars ishlanmalarini bepul joylashtirishlari hamda Respublika bo‘yicha ommalashtirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, raqamli ta’lim resurslar va videodarslarni ta’lim tizimiga keng joriy etish o‘qituvchi va pedagoglarga katta yordam beradi. Ayniqsa raqamli ta’lim resurslarning amaldagi darsliklardan farqi shundaki, ta’lim resurslardan o‘quvchi individual holda foydalanish, mustaqil bilim olish, matnlarni tinglash va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘QUVCHILARNING DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA VIRTUAL MUHITLARDAN FOYDALANISH USULI

Mirsanov U.M.,
Navoiy davlat unversiteti kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

O‘quvchilarning dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish yo‘llaridan biri, ularning virtual muhitda masofaviy jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rganish madaniyatini shakllantirish qaratishni taqozo etadi.

O‘quvchilar virtual muhitda masofaviy jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rganishi individual tartibda o‘rganishdan sezilarli darajada farq qiladi. Chunki virtual muhitda

masofaviy jamoa bo‘lib ishlagan talabalar interfaol g‘oyalar asosida berilgan masalani dastur kodini onlayn muhokama qilish orqali tengdoshlarining kamchiliklarini tuzatib, o‘z yechimlarini taklif etib boradi [1]. Bu o‘z navbatida O‘quvchilarning dasturlashga oid mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirishga hamda turli murakkab amaliy loyihalarni loyihalash kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi [2]. Shuning uchun bugungi kunda o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatida virtual muhitlardan foydalanib dasturlashni masofaviy jamoa bo‘lib o‘rganish madaniyatini shakllantirish lozim [3].

Berilgan masalani jamoa bo‘lib dasturlashning muhim jihati shundaki, ya’ni O‘quvchilar o‘zaro fikr almashishga, turli g‘oyalarni muhokama qilish orqali yagona yechimni topish qobiliyati rivojlanadi. Bu borada V. S. Sheynbaumning fikriga ko‘ra, jamoa bu umumiy maqsadlarga erishish uchun bir-biri bilan hamkorlik qiladigan bir xil fikrdagi insonlar guruhidir, deb hisoblaydi [4]. Uning ta’kidlashicha, jamoa bo‘lib ishlash quyidagi imkoniyatlarni ta’minlaydi:

- hamkasblar bilan muloqot qilish orqali berilgan masalani yechish madaniyati shakllanadi;
- turli murakkab muammolarni tez va samarali yechish;
- amaliy loyihalarni samarali bajarish;
- berilgan masalani yechish uchun jamoa bilan fikr almashish va yagona qaror qabul qilish.

Bu kabi imkoniyatlar orqali o‘quvchilar fanlarni, shu jumladan, dasturlashga oid motivatsiyasi oshishiga, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga va axborot texnologiyalari sohasidagi turli muammolarni yechishga erishiladi. Shu bois O‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatishda jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini oshirish kerak. Buning uchun dastlab jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatishga mo‘ljallangan masofaviy ta’lim platformalarini va axborot-ta’lim muhitlarning imkoniyatlarini tahlil etish asosida samaralisini tanlab olish va ushbu muhitlarni uzluksiz ta’lim tizimiga joriy etish lozim.

Shuning uchun masofaviy ta’lim platformalaridan, jumladan, Atom, Cloud9 IDE, Visual Studio Live Share, CodeSandbox, Codeshare, CodePen, Collabedit, Codebunk, Repl.it, kodeWeave, SyncFiddle, Google Colab, AWS Cloud9, GitLive, SublimeText kabi muhitlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Ushbu dasturlashga oid virtual muhitlarning imkoniyatlari bilan tanishib chiqamiz.

Atom – “mazkur muhit Linux, macOS, Windows operatsion tizimlari tarkibida ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda virtual muhitda dasturlashni jamoa bo‘lib ishlash imkoniyati mavjud. Ushbu virtual muhit zamonaviy dasturlash tillarini qo‘llab-quvvatlaydi va foydalanuvchilarning bir vaqtni o‘zida dastur kodini yozish, foydalanuvchi tomonidan yozgan dastur kodini kamchiliklarini boshqa foydalanuvchilar aniqlab o‘z yechimlarini onlayn taklif etib boradi” [5].

1.1 AWS Cloud9 – ushbu muhit C, C++, CoffeeScript, Go, Java, PHP, Python va Ruby kabi 40 dan ortiq tillarni qo‘llab-quvvatlaydi. Tavsiya etilayotgan muhit serversiz ilovalarni yaratish uchun kerak bo‘lgan barcha kutubxonalar va plaginlarni o‘z ichiga oladi. Undan foydalanib o‘quvchi-talabalar turli amaliy loyihalarni masofaviy jamoa bo‘lib bajarish imkoniyatini yaratadi [6].

Visual studio code – mazkur muhit Windows, Linux va macOS uchun Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan kod muharriri hisoblanadi. Bundan foydalanib dasturlash

tillari yordamida masofaviy jamoa bo‘lib masalalarni dastur kodini yozish va web ilovalarni loyihalash imkonini beradi [7].

CodeSandbox – ushbu muhit yordamida foydalanuvchilar bir vaqtning o‘zida fayllar va kodlarni tahrirlashi, yaratishi, nomini o‘zgartirishi va yangilashi mumkin. Shuningdek, ular qaysi faylni ko‘rayotganini va hozir nima ustida ishlayotganini guruh a’zolari masofaviy ko‘rish imkoniyati mavjud. Mazkur muhitning asosiy jihatlari quyidagicha [2]:

- ko‘p miqdordagi foydalanuvchilarning masofaviy jamoa bo‘lib dastur kodlarini yozish va ulardagi mavjud muammolarni bartaraf etish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri server/serverlarda fayllarni yaratish va tahrirlash uchun jamoa a’zolariga taqdim etish;
- boshqarish uchun o‘zgarishlarni kuzatish, ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan turli xil kompyuter dasturlari, hujjatlar va web-saytlarni ishlab chiqadigan, ularga xizmat ko‘rsatadigan bir nechta foydalanuvchilarni kuzatish.

Codeshare – ushbu muhit 80 dan ortiq tillarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda videosuhbat, tanlash uchun mavzular, kodni yuklab olish imkoniyati mavjud, ammo har 24 soatda fayllar qayta tiklanadi.

CodePen – ushbu platforma onlayn HTML, CSS, JavaScript tillarda yozilgan kodni tahrirlash va saqlash uchun onlayn muhit hisoblanadi. Mazkur muhitdan foydalanib webga mo‘ljallangan turli loyihalarni masofaviy jamoa bo‘lib bajarish imkoniyatini ta’minlaydi.

Collabedit – real vaqtda o‘quvchi-talabalar bir birlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi webga asoslangan kod muharriri. Ushbu kod muharririning imkoniyatlari quyidagicha: o‘zgarishlar tarixini ko‘rish; sintaksisni ajratib ko‘rsatish; Java, Python, C, C++, C#, JavaScript, SQL, PHP, HTML, CSS kabi dasturlash tillarda kod yozish imkoniyati mavjudligi.

Codebunk – ushbu platforma yordamida kod bilan sahifaga havola yuborish imkoniyati mavjud bo‘lib, bunda 21 ta dasturlash tillarida kod yozish imkoniyatini ta’minlaydi.

Repl.it – mazkur muhitdan foydalanib Python, Lua, JavaScript, Julia, C++, C, C#, HTML, CSS kabi 50 dan ortiq dasturlash tillarida jamoa bo‘lib masofaviy kod yozish imkoniyatini ta’minlaydi. Replit muhitidan kam tajribaga ega bo‘lgan foydalanuvchi xatosiz kodlarni yozishi va PHP, JavaScript, QBasic, Python kabi dasturlash tillarida ba’zi ilovalarni ishlab chiqishi mumkin. Replit yordamida ilovalarni yaratishni jamoa bo‘lib masofaviy o‘rganishni (ishlab chiquvchilar yoki dasturchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan masofaviy juftlik bilan dasturlash uchun juda mos) yoki o‘quvchilarning muvaffaqiyatini kuzatish orqali sinfda dasturlash tillarini o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

kodeWeave – ushbu muhit yordamida onlayn audio va matnli suhbat o‘tkazish orqali HTML, Javascript va CSS tillarida dasturlashni jamoa bo‘lib o‘rganish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga ro‘yxatdan o‘tmasdan ochiq foydalanish imkonini taqdim etadi.

SyncFiddle – mazkur muhit yordamida JavaScript, HTML, CSS dasturlash tillarida turli loyihalarni masofaviy jamoa bo‘ib dasturlashni o‘rganish imkoniyati mavjud. Muhitning yana bir qulayligi shundaki, ya’ni jamoa bo‘lib yozilgan dastur kodlari 7 kun davomida saqlanadi hamda kodlarning o‘zgartirish tarixi saqlanadi.

Google Colab – Python tilida jamoa bo‘lib loyihalarni tayyorlashga mo‘ljallangan bepul bulutli muhit hisoblanadi.

AWS Cloud9 **–** ushbu muhitdan juftlik yoki jamoa sifatida kodni yozish yoki diskka raskadrovka qilish imkonini beradi. Shuningdek, berilgan masalani jamoa bo‘lib kodni onlayn tahrirlash, kamchiliklarni tuzatish ishlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Ushbu muhit dasturlash kursiga kiruvchi o‘quvchi-talabalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

GitLive **–** real vaqt rejimida hamkorlikda kodlash uchun samarali muhit hisoblanadi. U Android Studio, VS Code kabi muhitlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Xususan, "Android Studida va foydalanuvchi o‘rtasidagi muloqot rejimini ta'minlaydi. Bunda jamoa a'zolaridan biri mavjud kodlarga ba'zi o‘zgartirishlar kiritgandan so‘ng, ma'lum bir bo‘lim uchun yangi kodni tahrirlash, ko‘rib chiqish yoki yozishga harakat qilsa, GitLive muharriri kanalida qizil ziddiyat ko‘rsatkichlari paydo bo‘ladi, foydalanuvchi uni tahrirlash yoki yoki faylni birlashtirish paytida olib tashlash imkonini beradi".

SublimeText – "dasturchilar hamjamiyatiga Remote Colab plaginini o‘rnatish orqali ishlab chiquvchi yoki bir nechta ishlab chiquvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan masofaviy dasturlash imkoniyatlarini taqdim etadi". Bundan tashqari, uning loyihaga xos sozlamalari Windows, Linux va macOS kabi operatsion tizimlarga mos ravishda keng sozlanishi mumkin.

Ushbu virtual dasturlash muhitlarining imkoniyatlarini o‘rganish natijasi hamda tajriba-sinov o‘tkazilayotgan ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari bilan so‘rovlar o‘tkazildi. Shuningdek, dasturlashga oid virtual muhitlarning imkoniyatlarini aniqlashga doir baholash mezonlari ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

2-jadval.

Jamoa bo‘lib dasturlashga mo‘ljallangan virtual muhitlarning imkoniyatlari

	Mezonlar	Atom	AWS Cloud9	Visual studio	CodeSandbox	Codeshare	CodePen	Collabedit	Codebunk	Repl.it	kodeWeave	SyncFiddle	Google Colab	**AWS Cloud9**	GitLive	SublimeText
1.	Ochiq foydalanishga mo‘ljallanganligi															
2.	Masofaviy dastur kodlarini o‘zgartirish qulayligi	8	8	8	8	7	8	7	8	8	8	8	8	8	8	7
3.	O‘zgartirilgan dastur kodlarining tarixini ko‘rsatish imkoniyati	9	9	8	9	8	9	9	9	9	9	9	9	9	9	7

4.	Ko‘p miqdordagi dasturlash tillarini qo‘llab-quvatlash imkoniyatining mavjudligi	9	9	9	8	9	8	9	9	9	7	7	8	8	8	9
5.	Hamkorlikda dasturlash uchun ko‘p miqdordagi foydalanuvchilar sonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatining mavjudligi	9	9	9	9	9	9	9	9	5	9	9	9	9	9	9
6.	Bir nechda operatsion tizimlardda ishlash imkoniyatining mavjudligi	9	8	9	8	9	9	9	9	8	9	9	9	9	9	9
7.	Foydalanuvchi-larni link orqali qo‘shish imkoniyatining mavjudligi	8	8	9	7	8	8	9	8	8	8	8	10	8	8	8
8.	Foydalanuvchilar-ning muloqot qilish imkoniyatining mavjudligi	9	9	8	8	9	8	9	8	8	8	8	10	8	9	7
9.	GitHub dan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	10	0	0	10	0	0	0	0	10	0	0	10	9	10	0
10.	Foydalanuvchilar imkoniyatlarini cheklash imkoniyatining mavjudligi	0	0	10	10	5	0	10	0	0	5	5	10	5	5	0
	Maksimal 100 ball	**78**	**68**	**78**	**84**	**71**	**66**	**79**	**67**	**72**	**71**	**71**	**89**	**81**	**83**	**65**

4.5-jadvalda keltirilgan virtual muhitlarning imkoniyatlarini baholash natijalariga ko‘ra, Google Colab muhitning imkoniyati yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ya’ni 100 ballik baholash natijasiga ko‘ra, 89 bal bilan baholandi. Shuning uchun o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulotlardan tashqari vaqtlarda dasturlashni o‘rgatishda Google Colab muhitida foydalanish tavsiya etiladi. Tavsiya etilayotgan virtual muhit ochiq foydalanishga mo‘ljallanganligi bilan samarali hisoblanadi. Ushbu muhitdan

foydalanish uchun o‘qituvchi biron-bir nom orqali guruh hosil qilinadi. Hosil qilingan guruhga foydalanuvchilarni, ya'ni o‘quvchilarning link orqali qo‘shiladi.

Guruhga a'zo bo‘lgan o‘quvchilar jamoa bo‘lib virtual muhitda masalalarni dasturlaydi. Bunda o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish orqali masalalarni dasturlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchilar berilgan masalalarni dasturlash vaqtida muammoga duch kelsa yoki masalani dastur kodida xatolik bo‘lsa virtual shaklda boshqa guruh a'zosi tuzatib qayta jamoaga dastur kodlarini jo‘natadi. Buning natijasida o‘quvchilar masalani dasturlash vaqtida yo‘l qo‘yga xatosini tushunishga imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ularning jamoa bo‘lib dasturlashga oid turli loyihalar tayyorlashga yo‘naltirishga erishiladi.



4.2-rasm. Google Colab muhitida foydalanish jarayoni

Shu bilan birga tavsiya etilayotgan muhitning yana bir qulayligi shundaki, guruh a'zolari berilgan masalani dasturlash uchun chat orqali muhokama qilish va o‘z yechimlarini taklif etish asosida ma'lum bir yechimga kelish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Google Colab muhitidan o‘quvchilar jamoa bo‘lib masalalarni dasturlash madaniyatini shakllantirishga va dasturlashga oid mantiqiy, algoritmik fikrlashini rivojlantirishga hamda kompetensiyalarini shakllantirishga erishish mumkinligi tadqiqot davomida aniqlandi. Shu bilan birga quyidagi afzalliklarga ega:

- o‘quvchilarning bo‘sh vaqti samarali tashkil etiladi. Tavsiya etilayotgan muhit ochiq foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda o‘qituvchi tomonidan berilgan masalani o‘quvchilar jamoa bo‘lib muhokama qilishga va o‘z fikrini bildirishga hamda bahslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning natijasida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga erishiladi;
- dasturlashga oid qiziqishi ortadi. O‘quvchilarning virtual muhitda jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rganishda o‘zaro fikr almashish orqali dasturlashga qiziqishi ortib boradi. Ya'ni, dasturlashni o‘rganish qiyinmasligini va dasturlash orqali axborot texnologiyalari sohasidagi turli muammolar yechish mumkinligini tushunib yetadi;
- dasturlashga oid muammoli masalalarni yechish. O‘quvchilar dasturlashga oid muammoli masalalarni yakka tartibda yechishda turli qiyinchiliklarga duch keladi. Agar o‘quvchi-talabalar dasturlashga oid muammoni jamoa bo‘lib yechimni tez va samarali amalga oshiradi. Ya'ni bunda ular qo‘yilgan muammoni yechish uchun o‘z yechimlarini taklif etish orqali yagona qarorga keladi.

Izlanishlarimiz natijasida shunga guvoh bo‘ldikki, o‘quvchi-talabalarga jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatishda Google Colab muhitida foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu muhitda foydalanish soddaligi va keng qamrovligi bilan boshqa muhitlarda samarali hisoblanadi. Shuning uchun talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatida dasturlashni Google Colab muhitida foydalanib o‘rgatishni tavsiya etamiz.

Shu bois talabalarning dasturlash tillariga oid fanlardan mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi tuzilmadan foydalanishni tavsiya etamiz.



4.3-rasm. O‘quvchilarning dasturlash tillaridan mustaqil ta'limini tashkil etish tuzilmasi

Tavsiya etilayotgan tuzilma yordamida o‘quvchilarning dasturlash tillariga oid fanlardan mustaqil ta'limini samarali tashkil etishga, bo‘sh vaqtini unimli o‘tkazishga, dasturlashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni qisqa vaqt ichida baholashga erishiladi. Buning natijasida o‘quvchilarning dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Владимиров А. И. Шейнбаум В. С. Подготовка специалистов в виртуальной среде профессиональной деятельности – веление времени // Высшее образование сегодня. 2007. – № 7. – С. 2–6.
2. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
3. Mirsanov U.M. Jamoa bo‘lib dasturlashni o‘rgatishda virtual muhitlarning imkoniyatlari // O‘zMU xabarlari. – Тошкент, 2023. – № 1/2/1. – Б. 104-106.
4. Шейнбаум В. С. Компетенция «умение работать в команде» и ее развитие с использованием технологии междисциплинарного деятельностного обучения в виртуальной производственной среде // Педагогика. 2018. – С. 2-9. DOI: 10.25586/RNU.HET.18.02.P.02
5. https://timeweb.com/ru/community/articles/kak-polzovatsya-redaktorom-atom
6. Jay Yeras, Jay McConnell, Tony Vattathil. AWS Cloud9 Cloud-Based IDE Quick Start Reference Deployment. 2019. – 13 p.
7. https://habr.com/ru/post/490754/
8. https://marketplace.visualstudio.com/items?itemName=CodeSandbox-io.codesandbox-projects

"RAQAMLI O'ZBEKISTON-2030" STRATEGIYASINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

Pulatov J.,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada raqamli O'zbekiston-2030 dasturining amaliy ahamiyati, dastur samaradorligini amalga oshirish mexanizmlari, raqamli ko'nikmalarni kengaytirish va innovatsiyalarni joriy etishga doir taklif va tavsiyalar keltirilgan. Key words: raqamli O'zbekiston-2030 dasturi, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti.

So'nggi yillardada O'zbekistonda milliy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish maqsadida qator dasturlar samarali amalga oshirildi hamda sohaga katta hajmda sarmoya kiritildi. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030", "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa tegishli dasturlar milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatning raqamli transformatsiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi" degan fikrda jamiyat taraqqiyoti axborot texnologiyalarini takomillashtirishga ishoradir. Bu borada raqamli iqtisodiyot tushunchasi mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimi ekanligi, bundan tashqari raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat tushunchalari bilan ham izohlanadi.

Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi

Birinchi marta 1995 - yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" terminini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. Shuningdek raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).

2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.

3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

"Raqamli O'zbekiston-2030" dasturining samaradorligini baholashda bir qator jihatlar hisobga olinadi. Ushbu dastur O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli xizmatlarni takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Samaradorlikni baholashda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

1. Raqamli Infratuzilma- dastur doirasida internet aloqasi va raqamli infratuzilma rivojlanishi kuzatilmoqda. Keng polosali internetga kirish imkoniyatlari oshdi, bu esa raqamli xizmatlar va e-tijoratni rivojlantirishga yordam bermoqda.

2. Davlat Xizmatlari-davlat xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni davom etmoqda. "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal"i orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda, bu esa xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

3. E-tijoratning o'sishi- e-tijorat sohasida yangi platformalar va xizmatlar paydo bo'lishi, iste'molchilar orasida onlayn xarid qilish madaniyatining rivojlanishi dastur samaradorligini ko'rsatadi.

4. Fintech rivojlanishi - moliyaviy texnologiyalar sohasida innovatsiyalar va yangi xizmatlar joriy etilishi, banklar va moliyaviy institutlarning raqamli xizmatlari orqali kengayishi dasturning muvaffaqiyatlaridan biridir.

5. Xalqaro hamkorlik- dastur doirasida xalqaro hamkorliklar va tajriba almashinuvi, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion g'oyalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

6. Monitoring va baholash- dastur doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar va tashabbuslarning samaradorligini baholash uchun monitoring tizimlari joriy etilgan. Qolaversa, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish (77-maqsad) maqsadida davlat xizmatlarini "3 qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish hamda "Elektron hukumat" tizimining yangi bosqichi – "Raqamli hukumat" tizimiga o'tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash ko'zda tutilgan . Xususan, so'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida elektron hukumatni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli siyosatni jadallashtirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini va ularning shaffofligini oshirish uchun katta sa'yharakatlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-yilda e'lon qilingan Elektron hukumat tadqiqotida Markaziy Osiyoning barcha besh davlatlarining Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi - EGDI bo'yicha natijalari quyidagi ko'rsatgichlarni namoyon qilgan: Qozog'iston juda yuqori EGDI ko'rsatkichi bilan 193 ta mamlakat ichida 28-o'rinda – 0,8628 ko'rsatgichi bilan, O'zbekiston 69-o'rin (mintaqada ikkinchi) yuqori EGDI – 0,7265, Qirg'iziston 81-o'rin, shuningdek, yuqori EGDI – 0,6977 hamda ikki davlat – Tojikiston 129-o'rinda o'rtacha EGDI 0,5039 va Turkmaniston 0,4808 o'rtacha EGDI bilan 137- o'rinda baholangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida

2030-yilgacha BMTning Elektron hukumat reytingida yetakchi 30 ta davlatlardan biriga erishish belgilangan (57- maqsadning 3-bandi)

Xulosa qilib aytganda, "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot – ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world / K. Kelly. – New York: Viking, 1998.
3. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni.
4. 2022 United Nations E-Government Survey. UN Department of Economic and Social Affairs. September 29, 2022.

ZAMONAVIY INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TA'LIMIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY YUKSALISHI VA 4K-KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

Xaliqova G.T.,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va 4K-ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim strategiyalar ko'rib chiqiladi. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar va texnologiyalardan foydalanish, o'quvchilarda zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: Informatika va axborot texnologiyalari fani, axborot texnologiyalari, kasbiy rivojlanish, 4K-ko'nikmalar, muloqot, hamkorlik, tanqidiy, fikrlash, ijodkorlik, pedagogik dasturiy vositalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari

KIRISH.

Pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy informatika va axborot texnologiyalari ta'limining ajralmas qismiga aylangan. Bundan tashqari dasturiy vositalar o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida emas, balki o'quvchilarda mantiqiy va hisoblash fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Dars jarayonida texnologiyalardan oqilona foydalanish o'quvchilarni o'qishga qiziqtiradi va ularda muammolarni tizimli tahlil qilish hamda samarali qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda o'qituvchilar turli strategiyalar va texnologiyalarni joriy etib, ta'lim samaradorligini oshiradi.

MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM.

Muammoli ta'lim yondashuvi o'quvchilarga real hayotiy muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv ularda mantiqiy fikrlash va hisoblash fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ta'lim jarayonini dolzarbroq qiladi.

Masalan, "Aqlli shaharlar uchun transport tizimini optimallashtirish" muammosini yechish uchun o'quvchilar transport oqimining samaradorligini tahlil

qiladigan algoritmlar ishlab chiqadilar. Ular ma'lumotlar to‘plash va tahlil qilish uchun algoritmik yondashuvlardan foydalanib, turli transport vositalari uchun eng yaxshi marshrutlarni yaratish bo‘yicha yechimlar taqdim etadilar.

HAMKORLIKDA ISHLASH.

Guruh loyihalari va hamkorlikdagi faoliyatlar o‘quvchilarni bir-biridan o‘rganishga undaydi. Muhokamalar va tahlillar ularda fikrlash jarayonlarini boyitadi hamda yangi yondashuvlarni o‘rganishga imkon yaratadi.

GAMIFIKATSIYA VA KODLASH MUSOBAQALARI.

O‘yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish o‘quvchilarni faol qatnashishga undaydi. Kodlash musobaqalari esa o‘quvchilarni bilimlarini amalda qo‘llash va raqobatbardosh muhitda rivojlantirishga yordam beradi.

Misol: Kahoot platformasida informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha viktorina tashkil etish. O‘quvchilar savollarga javob berib, o‘z bilimlarini mustahkamlashadi va o‘zaro raqobatlashadilar.

INTERAKTIV VOSITALAR VA SIMULYATSIYALAR.

Interaktiv dasturlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar murakkab jarayonlarni vizualizatsiya qilib, natijalarni o‘rganadilar. Bu esa ularning ta'lim jarayonini qiziqarli va tushunarli qiladi.

Misol:Tinkercad platformasida 3D model yaratish. O‘quvchilar geometriya va dizayn asoslarini o‘rganadi hamda o‘z ijodkorligini namoyon etadi.

MANTIQIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.

Mantiqiy fikrlash o‘quvchilarni zamonaviy muammolarni tizimli tahlil qilishga va yechimlarni samarali ishlab chiqishga tayyorlaydi. Bu ko‘nikmalar informatika va axborot texnologiyalari, shuningdek, matematika kabi fanlar bilan birga, kundalik hayotda ham zarur bo‘ladi. Masalan, “Bankdagi foiz hisob-kitobi” mavzusida dastur tuzish orqali o‘quvchilar real moliyaviy muammolarni hal qilishni o‘rganadilar.

4K ko‘nikmalarning roli

Muloqot: Bugungi dunyoda samarali muloqot muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘quvchilar o‘z g‘oyalarini ifoda etishlari, o‘z ishlarini taqdim etishlari va muhokamalarda ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan hamkorlikdagi loyihalar orqali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu nafaqat texnik ma'lumotlarni uzatish qobiliyatini oshiradi, balki ularni aniq muloqot muhim bo‘lgan professional muhitga tayyorlaydi.

Hamkorlik: Informatika va axborot texnologiyalari fani turli fanlar va jamoalar bo‘ylab hamkorlikni talab qiladi. O‘qituvchilar hamkorlikdagi o‘quv muhitini osonlashtirishi, o‘quvchilarni loyihalarni kodlash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish yoki ma'lumotlarni tahlil qilishda birgalikda ishlashga yonaltiradi. Bu esa jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir vaqtda muammolarni hal qilish uchun turli xil tajribalar birlashtirilgan haqiqiy dunyo stsenariylarini aks ettiradi.

Tanqidiy fikrlash: Informatika va axborot texnologiyalari fanida tanqidiy fikrlash muammoni hal qilish va qaror qabul qilish uchun juda muhimdir. Kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchilarni ma'lumotni baholash va yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladigan muammolar, amaliy tadqiqotlar va tahliliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari bilan jihozlashi mumkin.

Ijodkorlik: Texnologiyadagi ijodkorlik faqat kodlash bilan bog‘liq emas; yangi dasturiy ta'minot, ilovalar yoki tizimlarni yaratish uchun innovatsion fikrlashni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar mustaqil loyihalar dizayn fikrlash mashqlari orqali o‘quvchilarga o‘z qiziqishlarini o‘rganishga imkon berish orqali ijodkorlikni rag‘batlantirishlari mumkin, bu esa innovatsion g‘oyalar yaratish imkonini beradi.

MUZOKARALAR VA NATIJALAR.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, informatika va axborot texnologiyalari fanida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini tubdan o‘zgartiradi. Quyidagi misollar bu jarayonning samaradorligini ko‘rsatadi:

Scratch orqali dasturlash asoslarini qiziqarli va interaktiv tarzda o‘rgatish;

Tinkercad yordamida 3D dizayn va modellashtirishni amalda qo‘llash;

Kahoot va Quizizz orqali bilimlarni qiziqarli va samarali tarzda mustahkamlash;

Google Classroom orqali o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali aloqa o‘rnatish.

XULOSA.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha samarali ta'limning asosi hisoblanadi. Muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi 4K ko‘nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni zamonaviy ishchi kuchining murakkabliklariga tayyorlashlari mumkin. Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, o‘qituvchilarni rivojlantirishga sarmoya kiritish nafaqat foydali, balki ertangi kunning muammolarini hal qilishga tayyor bo‘lgan innovatsion fikrlovchilar va muammolarni hal etuvchilar avlodini tarbiyalash uchun muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy informatika va axborot texnologiyalari ta'limida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. 4K-ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun mustahkam asos yaratadi. Pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish esa ushbu jarayonni yanada boyitadi. Shuning uchun informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari o‘z kasbiy mahoratini muntazam ravishda rivojlantirib borishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. T.: Fan. 2009. -146 b.

2. D.B.Abduraximov, D.E.Toshtemirov. Mutaxassislik fanlarini o„qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. - 224 b.

3. Yuldashev, U.A, Xudoyberdiev, M.Z, & Axmedov, T.B. (2021). O‘quv jarayonining sifatini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. //Academic researchin educational sciences, 2(3), 1262-1268.

4. Darling-Hammond, L., Hyler, ME, & Gardner, M. (2017). Developing Effective Teachers. Education Policy Institute.1.UNESCO. (2018).

5. UNESCO Framework of ICT Competencies for Teachers. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

MAKTABGACHA TA'LIMDA FAOLIYATLAR JARAYONIDA BOLALARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDOSHUVLAR

Saidova F.A.,
Surxondaryo viloyati "Pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim berish usullari, pedagogik texnologiyalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan zamonaviy, ommabop, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiya, tamoyil, jarayon, natija, integratsiya, zamonaviy pedagog.

Аннотатция: В данной статье рассматриваются современные методы обучения и педагогические технологии, используемые при обучении детей в дошкольных организациях. И показано использование современных популярных инновационных педагогических технологий, применяемых в дошкольных образовательных организациях.

Ключевое слово: дошкольное образование, современный подход, инновационная технология, принцип, процесс, интеграция, современный педагог.

Annotation: This article examines modern teaching methods and pedagogical technologies used in the education of children in preschool educational organizations. Also the use of modern popular, innovative pedagogical technologies used in preschool educational organizations is shown.

Keywords: preschool education, modern approach, innovative technology, principle, process, result, integration, modern pedagogue.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlardan biri bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarning shaxs sifatida asosiy o'rinni egallaydigan, bolalar tomonidan bilish kompetensiyalarini puxta o'zlashtirilishiga yordam beradigan dastlabki ko'nikmalarni shakllantiruvchi davr hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, ayni bosqichda ta'lim-tarbiya jarayonini nazariy va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish muhim pedagogik vazifalardan sanaladi.

Maktabgacha ta'limni o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, bolalarning ongi va tafakkurida mavjud bo'lgan yashirin imkoniyatlarni aniqlash va rivojlantirish; kichik maktabgacha yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarni shakllantirish, qaysiki, bunday yangi imkoniyatlar o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishgagina emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlash;

-bolajonlarda o'rganishga hamda ta'lim jarayoniga nisbatan jonli qiziqishni shakllantirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Uzluksiz ta'lim oldiga qo'yilgan qat'iy talablar barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning ijodkor bo'lishlarini, kundalik yangiliklarni o'z faoliyatida amaliy tadbiq etishni taqazo etmoqda. Shular qatorida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog tarbiyachilarining ham maktabgacha ta'lim jarayonini samarali tashkil etishlari uchun bir qancha talablar qo'yilmoqda. Ushbu

talablarni bajarish uchun maktabgacha talim tashkiloti pedagog tarbiyachisi sohaga doir me'yoriy xuquqiy xujjatlar mazmuni, maktabgacha ta'lim mazmunini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or pedagogik va innovasion texnologiyalardan xabardor bo'lishi lozim.

Pedagog-tarbiyachilar o'z faoliyatlarini tashkil etishda quydagi vazifalarni hal etishlari talab etiladi:

- faoliyatlarni tashkil etishda ilg'or pedagogik va innovasion texnologiyalardan foydalanish;
- faoliyatlarni samarali o'tkazish maqsadida mustaqil ijodiy faoliyat va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish ko'nikmalarini hosil qilish;
- pedagogik-psixologik bilimlar asosida shaxsiy va kasbiy pedagogik innovasion faoliyat kompetensiyalarini egallash;
- guruhdagi tarbiyalanuvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini ilg'ay olish;
- har bir tarbiyalanuvchi bilan individual suhbatlarni bolalarcha tashkil qilish;
- faoliyatlarni olib borish va bolalarga o'yinlar orqali yetkazib berish;

O'yinlar bolalar tarbiyasidagi va bilim olishlaridagi eng asosiy ko'nikma hisoblanishi lozim. Ilg'or pedagog-tarbiyachilardan ana shunday ko'nikma va sifatlarni o'zida mujassam qilish talab etiladi.

Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifati va mazmunini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanilmoqda. Bulardan maqsad mashg'ulotlarda bolalarning faolligini oshirish, mashg'ulotlarning mazmundorligini ta'minlash va o'zlashtirish darajasini yuksaltirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuasidan joy olgan noan'anaviy usul hamda vositalar:

- kreativ tarbiyachilar tomonidan mashg'ulot jarayonida bolalar jamoasini to'laqonli qamrab olish, ularni mashg'ulotlarga faol jalb qilish, bilimlarini oshishini imkonini yaratadi;
- tarbiyachi bolajonlarni mashg'ulot mavzusiga oid boy ma'lumot va axborotlar bilan ta'minlashga erishiladi;
- tarbiyachi tomonidan mashg'ulot maboynida ko'rgazmaliligi ta'minlanib, ushbu jihat yangi mavzuni mustahkamlashda o'ziga xos qulaylik yaratadi.

Masalan, zamonaviy texnologiyalardan mashg'ulot jarayonlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarning faollashtirish maqsadida foydalanmoqdalar. Ammo bular bilan kifoyalanib qolmaslik, zamonaviy pedagogik usul va vositalarning yangi-yangi turlarini yaratish, ularni mashg'ulot jarayonlariga tadbiq qilish tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlaridan ulkan pedagogik mahoratni, ayni paytda chuqur ijodkorlikni talab qiladi.

Maktabgacha ta'limdagi tarbiyachi o'z ijodkorligi bilan har bir mavzuda bolalarga kutilmagan ta'ssurotlarni tuhfa etishi, ularni, chinakam ma'noda, fanlar olamiga olib kira olishi zarur. Buning uchun esa u izlanishda bardavom bo'lishi kerak. Bu usul bolalarda o'z fikrlarini himoya qilish, ilgari surish va bunga o'zgalarni ham ishontirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayni usul hozirgi davrda yanada ahamiyatli bo'lib, yosh avlodni g'oyaviy va mafkuraviy immunitet asosida tarbiyalashda muhim omil bo'ladi. Mazkur usul va vositalar hozirgi kunning muhim talabi-zamonaviy

axborot texnologiyalari asosiga qurilgandagina yuqori pedagogik natijalarni beradi. Negaki, bugungi kunda AKT vositalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun oddiy qoidadek bo‘lib qolgan.

Shundan kelib chiqqan holda, mashg‘ulot zamonaviy pedagogik usul va metodlar asosida zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida tashkil qilinar ekan, bolalar faoliyatlar bo‘yicha bilim-malakalarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda axborot-kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanish malakalarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradilar. Axborot texnologiyalari vositasida mashg‘ulotlarda:

- taqdimot, namoyish dasturlari orqali yangi mavzu bolalarga ixcham, aniq va mazmunli yetkazib beriladi;

- o‘zaro ma'lumot va axborot almashishda vaqt tejaladi. Belgilangan vaqtda yangi mavzu bayoni va mustahkamlash uchun qulay imkoniyat yaratiladi;

- bolalarning axborot qabul qilish, jamlash, tahlil qilish, bir so‘z bilan aytganda, axborot bilan ishlash madaniyati shakllanadi va h.k.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasida faoliyatlar integratsiyasiga tayanish uning muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Globallashuv sharoitlarda bolalarni turli faoliyatlarga jalb etish, ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalalari va ularning yechimini, turli shakl, usul va vositalarini izlab topish MTTlarining metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogik integratsiya faqat pedagogik vositalar, pedagogik maqsadlar uchun munosabatlar va bog‘lanishlar jarayonini o‘zida namoyon etadi.

Integratsiya uchta aspektda ko‘zga tashlanadi:

1. Tamoyil sifatida - yetakchi g‘oya rivojlanishni zamonaviy bosqichining o‘ziga xosligini aks ettiradi, agarda u amalga oshirilsa, ilmiy va pedagogik faoliyatda yuqori ijobiy natijalarga erishilishini kafolatlaydi.

2. Jarayon sifatida – obyektlar va faraz etilayotgan natijalarga mos ravishda yaxlit yangi tizimni yaratish o‘rtasidagi bevosita bog‘lanishlarni o‘rnatish.

3. Natija sifatida – bir biri bilan o‘zaro bog‘lanish asosida obyektlar kasb etadigan shakl (shakllar – interallashgan mashg‘ulot, modulli ta'lim va shu kabilar).

Integratsiya pedagogikada bilimlarni o‘ziga “tortib, ularni yangi talablarga ko‘ra tartiblashtirib, mantiqiy konstruktsiya asosida qandaydir g‘oyalar atrofida jamlaydi.

Shunday qilib, integratsiya bilish sohasini kengaytirib, uni ifodalanishini atamalar nuqtai nazaridan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-dekabr 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PK-2707-sonli qarori.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qo‘ramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 488 bet. .

4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

5. Djurayev R.X., Turg‘unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyoti 2006. - 259 b.

6. F.R. Valiyeva To Develop Professional Training of Professional Education Specialists by Ensuring //International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on International Research Development and Scientific Excellence in Academic Life Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470 2021

YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING HAMKORLIGI

Shadiyev B.M.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamiyat huquqiy hayotining dinamikasini belgilovchi asosiy doktrina sanaladi. Sababi yoshlar huquqiy hayotda uning ertangi kundagi yo'nalishini belgilovchi qator imkoniyatlarga ega muhim ijtimoiy qatlam bo'lsa, huquqiy va siyosiy institutlar huquqiy-siyosiy jarayonlarning asosiy sub'ektlaridir. Faqat shu o'rinda yoshlarning jamiyat huquqiy hayotida o'ziga munosib o'rin topishi uchun muayyan ta'lim-tarbiya, bilim, amaliy ko'nikma va tajriba to'plashiga ehtiyoj bo'ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari huquqiy tizimda o'zining munosib o'rniga ega bo'lishi uchun maqbul mexanizmlarni yaratadi, unda yoshlarni o'z tarkibiga jalb etuvchi elementlar ham mavjud bo'ladi. Muhimi, yoshlar jamiyat huquqiy tizimida o'z ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun muayyan siyosiy institutga uyushishini anglashi lozim. Shu bois masalani yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishida fuqarolik jamiyati institutlarning ta'sirini o'rganish zarur.

Yoshlarga huquqiy tarbiya berishdan ko'zlangan maqsadlardan biri - har bir yosh inson huquqiy madaniyatni o'zlashtirib olishiga erishishdan iborat. Jamiyatga nisbatan huquqiy madaniyat yuridik qadriyatlar va me'yorlar, huquqiy institutlar va muassasalar, huquqiy ong va xulq-atvor dinamik birligining sifat xususiyatini ifodalaydi. Shaxsga nisbatan esa u individ atrof dunyoni idrok etadigan o'ziga xos "huquqiy qonun" bo'lib, u huquqiy reallikni o'zlashtirishning mezoni sifatida gavdalanadi.

Shaxsning huquqiy madaniyati uning huquqiy va siyosiy ijtimoiylashuvi natijasidir, uning butun ijtimoiy tajribasining, ayniqsa, jamiyatda huquq-tartibotni ta'minlashi kerak bo'lgan organlar, davlat apparati xodimlari, barcha mansabdor shaxslar faoliyatini hamda ularning fuqarolar ehtiyojlariga e'tibor bilan qarash darajasini baholashdan kelib chiqadigan tajribasining mahsulidir.

Ana shu ijtimoiylashish jarayonining asosiy qismi inson hayotining dastlabki 2-3 o'n yilligiga, uning yoshlik davriga to'g'ri keladi. Yoshlarni jamiyatning alohida ijtimoiy-demografik guruhiga (qatlamiga) ajratish unga xos bo'lgan yosh yoki psixologik xususiyatlar bilan emas, balki yoshlar bajaradigan o'ziga xos ijtimoiy rol bilan izohlanadi. Bu rol avvalgi avlodlar tajribasi, qadriyatlari, madaniyatini o'zlashtirib olishdan va ularni yangi jihatlar va xususiyatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Huquqiy normalarni boshqa ijtimoiy normalardan farqlab turadigan asosiy belgilardan biri davlatning butun xalq manfaatlarini ko'zlab, bu normalarni majburan ijro ettirishi va ularni buzganlik uchun jazolashi mumkinligidan iboratdir. Tabiiyki,

huquqiy institutlar va ommaviy axborot vositalari davlatning majbur qilishi, huquqbuzarlik uchun yuridik javobgarlikning adolatli hamda zarur ekanini fuqarolarga tushuntirishi lozim. Biroq, qonunni hurmat qilish, to‘g‘ri xulq-atvorning etakchi sababi sifatida uni qo‘llab-quvvatlash hissini qaror toptirishga yordamlashish ham muhim sanaladi. Yoshlarning huquqqa bo‘lgan munosabatida jazodan qo‘rqish ustunlik qiladi. Ular jazoni kuchaytirishni huquqiy normalarga rioya etishning asosiy vositasi deb biladilar.

Fuqarolarimizning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o‘z navbatida, jamiyatimizni yanada demokratlashtirish, erkinlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan chambarchas bog‘liq. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq muayyan masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni nazarda tutadi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Siyosiy partiyalar.
2. Kasaba uyushmalari.
3. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari.
4. Xotin-qizlar qo‘mitalari.
5. Jamoat birlashmalari.
6. Nodavlat notijorat tashkilotlari.
7. Ommaviy axborot vositalari.

“Fuqarolik jamiyati institutlari mustahkam huquqiy poydevor, ya'ni demokratik qonunlar asosida, muayyan huquqiy makonda faoliyat yuritadilar. Ular o‘z huquqiy maqomini to‘la-to‘kis anglab etishi, qonun bilan o‘zlariga berilgan huquq va imkoniyatlardan foydalanish darajasi, qolaversa, davlat organlari bilan bo‘ladigan turli-tuman aloqalarda namoyon bo‘ladigan huquqiy madaniyatning mazmuni, tabiati, mexanizmi ham hali yuridik fanda ilmiy jihatdan etarlicha o‘rganilmagan. Ushbu masalalarni ilmiy tahlil etish, ularning mohiyatiga etib borish fuqarolik jamiyatini barpo etish va huquqiy madaniyatni yuksaltirishdek strategik vazifani muvaffaqiyatli hal qilishga ko‘maklashadi.

Huquqiy madaniyatning yuksak bo‘lishi O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat shakllanishiga va adolatli fuqarolik jamiyati qurilishi yo‘lidagi barcha islohotlarni yuridik jihatdan ta'minlanishiga xizmat qiladi. Uning muammolarini o‘rganish va huquqiy echimini topish bugunning muhim talabidir” .

O‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladiki, yoshlar huquqiy va siyosiy madaniyatining shakllanishida siyosiy institutlarning ta’siri va o‘rni katta. Oldingi paragrafda qayd etganimizdek, siyosiy institutlarning barchasi inson tomonidan boshqarilishi, muayyan siyosiy maqsad va talabga egaligi hamda vorisiylik xususiyati bois ham odamlarga, xususan yoshlarning huquqiy va siyosiy jihatdan yuksalishida katta ta'sir ko‘rsatadi. Chunki, siyosiy institutlar ham davriylik, sivilizasion taraqqiyot, mafkuraviy va tafakkur o‘zgarishi singari voqelikni boshidan kechiradi. Bu esa yangi talab, istak, imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, jamiyatning transformasiyalashuvida buni yaqqol ko‘rish mumkin. Har qanday o‘zgarish va islohotlar esa o‘z navbatida yangicha fikrlaydigan, aniqrog‘i yoshlarga ehtiyoj sezadi. Tabiiyki, bu yoshlar uchun o‘z ijobiy ta'sirini ko‘rsatadi.

Buni umumbashariy demokratik tamoyillar va jamiyatni erkinlashtirish jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi bevosita yoshlar tomonidan to‘g‘ri idrok etilishiga bog‘liq. Mamlakatimizda kechayotgan demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini qurish bilan bog‘liq vazifalar odamlardan zarur huquqiy bilimlarga va yuqori huquqiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi. Huquqiy bilimlarning sayozligi va huquqiy madaniyatning past bo‘lishi islohotlar jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, hatto ijtimoiy larzalarga olib kelishi mumkin .

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, huquqiy va siyosiy munosabatlar turli xil siyosiy institutlar hamda turli xil ijtimoiy- siyosiy kuchlar o‘rtasida amalga oshadi. Boshqacha aytganda, u yoki bu ijtimoiy guruhlar, kuchlar siyosiy munosabatlar sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlar o‘z xohish irodasi, mustaqil tanlash orqali hamda manfaatlarining mushtarakligi nuqtai nazaridan kelib chiqib o‘zlari istagan siyosiy institutlarni tanlab ular bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishadi.

DARS JARAYONIDA MULTMEDIA TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Muxamadiyeva L.,
Navoiy viloyat pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Ta’lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, har tomonlama yetuk bilimdon, jismoniy baquvvat, ma’naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish hamda kun sayin oshib borayotgan axborot - ta’lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir.

Buning uchun ta’limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning ta’lim diqqat markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash, iqtidorli, iste’dodli va o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘quvchilarga individual yondashish, har bir o‘quvchining eng yaxshi sifatlarini aniqlash, uni rivojlantirish va ularning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati va shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlagan holda har bir darsni tashkil etishga e’tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi tezkor axborot, globallashuv jarayoni biz o‘qituvchilar zimmasiga juda katta vazifani yuklaydi, bu ham bo‘lsa yoshlarni axborot bo‘ronlaridan himoya qilish. Bugungi kunda ilg‘or o‘qituvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan dars o‘tishini tasavvur etish mumkin bo‘lmay qoldi, chunki hozirgi tezkor davrda o‘quvchilar diqqatini ilm olishga qaratish uchun quruq doska va bo‘r yoki ikkita plakat kamlik qiladi. Dars jarayonida AKTdan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi: ko‘rgazmalar- xarita, rasm, jadval tayyorlashning imkoniyati cheksiz bo‘ladi, bu birinchidan, ikkinchidan esa, o‘qituvchning vaqti, mablag‘i tejaladi, o‘quvchilar faolligi oshadi, nafaqat iqtidorli o‘quvchilar, balki past o‘zlashtiruvchilarning ham darsga bo‘lgan qiziqishi ortishini tajribalar ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi uchun yangi imkoniyatlar ochib berilmoqda.

Tan olishimiz kerakki, tarix fani uchun elektron darslik va multimediyali dasturlar juda kam, biroq, izlanuvchan pedagoglarimiz taqdimotlar dasturidan foydalangan holda dars o‘tishmoqda.

Bundan tashqari tarix darslari uchun tarixiy xaritalarni topish ham anchagina muammoli masala. Ushbu muammolarni hal qilishning ham yo‘li zamonaviy AKTdan foydalanishdadir, ya’ni internet orqali har qanday ma’lumotlarni topish mumkin. Buning uchun esa, avvalo, tarix fani o‘qituvchisi kompyuterdan foydalanishni, internet tarmog‘idan ma’lumot olishni bilishi kerak.

Ushbu tahlillar asosida tarix daslarida elektron darsliklardan foydalanishning zarurati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. O‘quvchilarda bilimlarni aniq tizimli shakllantirish.
2. Darslarning ko‘rgazmaliligi oshishi.
3. O‘quvchilar qiziqishining ortishi va mustaqil izlanishning tashkil etilishi.
4. Shaxs sifatlarining shakllanishi. Elektron darslikdan foydalanish o‘quvchida o‘z-o‘zini nazorat qilish va tartibli ishlashni hosil qiladi, ma’suliyat va javobgarlik hissi ortadi.

Elektron darsliklardan foydalanishning ahamiyati

Elektron darslikdan foydalanish jumladan, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

• har bir o‘quvchiga bilim olishda o‘z yo‘nalishini ta’minlovchi ochiq ta’lim tiziminishakllantirish;

• o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirib, ta’lim jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirish;

• o‘quv-tarbiyaviy jarayon davomida o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlarini samarali tashkil etish;

• kompyuterdan o‘quv jarayonini individuallashtirish maqsadida foydalanish va umuman yangi idrok etish vositalariga murojaat etish;

Ta’limning oddiy texnik vositalaridan farqli ravishda, elektron darslikdan foydalanish o‘quvchilarga ko‘p sonli tayyor, qat’iy tanlab olingan, tegishli ravishda tashkil etilgan bilimlarni taqdim etish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini, yangi bilimlarni mustaqil egallash, turli axborot manbalari bilan ishlash malakalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Elektron darsliklardan foydalanish quyidagi didaktik masalalarni hal etishga yordam beradi:

• fan bo‘yicha tayanch bilimlarni o‘zlashtirish;

• o‘zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish;

• imtihon muhitiga psixologik tayyorlash;

• juda chalkash savollarga javob berishga o‘rgatish;

• AKT dan foydalanib, o‘quv materiali bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

• o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

• umuman o‘qishga va fanni o‘zlashtirishga motivatsiyani shakllantirish;

• o‘quvchilarga o‘quv materiallari ustida mustaqil ishlashlarida o‘quv-metodik yordam ko‘rsatish;

• qulay ta’lim muhitini va axborot manbalarini mustaqil tanlash va izlash imkoniyatlarini ta’minlash, ya’ni o‘quvchini imtihonlarga qisqa vaqtlarda tayyorlash, shu jarayon davomida unda ko‘plab foydali umumta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish;

• eng asosiysi, mustaqil, erkin fikrni rivojlantirish.

Faoliyatning yangi turi, kompyuter bilan ishlashga qiziqish hisobiga ta'lim sifatini oshirish multimediya texnologiyalaridan foydalanish ustunliklaridan biri hisoblanadi. Fan bo'yicha mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanish mashg'ulotni yanada ko'rgazmali va qiziqarli qilib o'quvchilarning faol va anglagan holda ish yuritishlarini tashkil etishning yangi metodi bo'lib qolishi mumkin.

Darslarda elektron darsliklardan foydalanish o'quv-tarbiyaviy jarayonda o'quvchining diqqat, xotira, fikrlash faoliyatini faollashtirib, psixologik aniq rejimlar, ta'lim va pedagogik o'zaro munosabatlarni insonparvarlashtirish, yaxlitlik nuqtayi nazaridan ta'lim jarayonini shakllantirish asosida qurishga imkon beradi. Mavzuni o'rganishning har qanday bosqichida va darsning har qanday bosqichida multimediyali taqdimotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sohasida AKT dan foydalanish dars samaradorligini oshirishni ta'minlashda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish; o'quvchini har tomonlama rivojlantirish; axborot jamiyati sharoitlarida maktab bitiruvchilarini hayotga tayyorlash; global axborotlashtirish jarayonlari sababli kelib chiquvchi ijtimoiy buyurtmani bajarish kabi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

Elektron darslikdan foydalanish nafaqat o'qituvchi mehnatini osonlashtiradi, balki past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ko'proq darsga jalb qilishga, o'quvchining uyda mustaqil dars tayyorlashini zerikarli emas, balki qiziqarli bo'lishiga imkon beradi. Bu esa sinf samaradorligi oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'rinli va unumli foydalanish o'quvchilarning bilish jarayonlariga quyidagicha ta'sir qiladi:

- o'quvchilarning ixtiyoriy bo'lmagan e'tiborlarini ham kuchaytiradi;
- tushunchalar va nazariy xulosalar chiqarishga o'tishni ta'minlaydi;
- g'oya va mantiqiy elementlarga obraz ko'rinishini beradi;
- o'quv materiallarini o'zlashtirish bosqichida ijodiy fikrlashga yordam beradi;
- O'quv materialini tez va oson o'zlashtiradi;
- o'tilgan materiallarni takrorlash va mustahkamlash jarayonida faollikni oshiradi;

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA MULTIMEDIYA ILOVALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Murtazoyeva S.M.,
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi Informatika va AT fani metodisti

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimi global miqyosda tobora innovatsion texnologiyalarni, xususan, elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarini o'z ichiga olgan metodlarni keng qo'llamoqda. Bu texnologiyalar ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchilarga individualizatsiyalashgan yondashuvni taklif qilish va ularning o'rganish jarayonini qiziqarli hamda samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Elektron ta'lim resurslari (ETR) va multimediya ilovalarining samarali qo'llanilishi, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Ushbu maqolada elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Аннотация: Современная система образования в глобальном масштабе все чаще использует инновационные технологии, в частности электронные образовательные ресурсы и мультимедийные приложения. Эти технологии играют важную роль в повышении эффективности обучения, предлагая учащимся индивидуальный подход и делая их обучение интересным и эффективным. Эффективное использование электронных образовательных ресурсов (ETR) и мультимедийных приложений открывает новые возможности для преподавателей и учащихся. В данной статье анализируется роль и значение электронных образовательных ресурсов и мультимедийных приложений в повышении эффективности образования.

Annotation: The modern education system utilises globally increasing innovative technologies, particularly including e-learning resources and multimedia applications. These technologies play an important role in enhancing the effectiveness of education, providing students with an individualised approach and making their learning interesting and effective. Effective use of e-learning resources (ETRs) and multimedia applications opens up new opportunities for teachers and students. This article analyses the role and significance of electronic educational resources and multimedia applications in improving the effectiveness of education.

Tayanch so'zlar: interaktiv darsliklar, video, matn, zamonaviy texnik vositalar, kollaboratsiya.

Ключевые слова: интерактивные учебники, видео, текст, современные технические средства, коллаборация.

Keywords: interactive textbooks, video, text, modern technical tools, collaboration.

Elektron ta'lim resurslarining o'rni va ahamiyati

Elektron ta'lim resurslari (ETR) — bu o'quv materiallari, interaktiv darsliklar, onlayn kurslar, videodarslar, simulyatsiyalar va boshqa raqamli vositalardan iborat to'plamdir. ETR o'quvchilarga har bir mavzu bo'yicha chuqurroq o'rganish imkonini beradi va o'qituvchilarga darslarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. ETRning asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. Foydalanuvchi uchun qulaylik: Elektron resurslar vaqt va makon cheklovlaridan mustaqil holda ishlatilishi mumkin. Bu, ayniqsa, masofaviy ta'lim va o'quvchilarning shaxsiy jadvaliga moslashish imkoniyatini beradi.

2. Interaktivlik va motivatsiya: Elektron darsliklar va testlar orqali o'quvchilar faqat o'qib chiqmay, balki mavzuni interaktiv tarzda o'rganishlari mumkin. Masalan, virtual laboratoriyalar yoki simulyatsiyalar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar. Bu ularning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishni yanada samarali qiladi.

3. Ko'p formatdagi materiallar: Elektron ta'lim resurslari nafaqat matnli, balki audio, video, grafikalar va animatsiyalar kabi turli shakllarda mavjud bo'lib, bu o'quvchilarning turli o'rganish uslublariga mos keladi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim — bu o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslublarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil qilishdir. Bu yondashuv, har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini

inobatga olgan holda, ta'limni yanada samarali va moslashtirilgan qilishni maqsad qiladi.

Shaxsiylashtirilgan ta'limda quyidagi asosiy tamoyillar mavjud:

1. O‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirish: Har bir o‘quvchining bilim darajasi, qobiliyatlari va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi turlicha bo‘lishi mumkin. Shaxsiylashtirilgan ta'limda o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari, kuchli tomonlari va zaif jihatlari hisobga olinadi.

2. Erkin tanlov va muvozanat: O‘quvchilarga o‘z ta'lim yo‘lini tanlashda ma'lum darajada erkinlik beriladi. Misol uchun, o‘quvchilar turli kurslar, loyihalar yoki o‘rganish metodlarini tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

3. Yordam va qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilarga o‘zlarining o‘rganish jarayonlarini samarali boshqarishlari uchun turli yordamchi resurslar va qo‘llab-quvvatlash tizimlari taqdim etiladi. Bu, masalan, repetitorlar, mentorlar yoki onlayn materiallar bo‘lishi mumkin.

4. Yakuniy baholash va izlanish: Shaxsiylashtirilgan ta'limda o‘quvchilarning o‘zgarishini baholashda an'anaviy testlardan ko‘ra, o‘zgarishlar va ilgari surilgan maqsadlar asosida baholash tizimi qo‘llaniladi. Bu ko‘proq individual progressni va o‘rganishning turli yo‘llarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim texnologiyalar (masalan, onlayn platformalar, sun'iy intellekt va analitik vositalar) yordamida ham qo‘llab-quvvatlanadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada samarali va interaktiv qiladi, individual yondashuvni ta'minlaydi.

Shaxsiylashtirilgan ta'limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga ularning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir, bu esa o‘z navbatida ularning motivatsiyasini oshiradi va o‘rganish samaradorligini yaxshilaydi.

Multimediya ilovalarining ta'limdagi ahamiyati

Multimediya ilovalari ta'lim jarayoniga turli xil audio, video, matn, rasm, animatsiya va boshqa interaktiv elementlarni qo‘shish orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ular o‘rganayotgan materialni tezda va samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Multimediya ilovalarining asosiy afzalliklari:

1. Ko‘p sezgilarni jalb qilish: Multimediya resurslari nafaqat ko‘rish, balki eshitish va ba'zan hissiy reaktsiyalarni ham rag‘batlantiradi. Masalan, interaktiv video va animatsiyalar o‘quvchilarga mavzuni har tomonlama tushunishga yordam beradi.

2. Mavzu boyligini ta'minlash: Multimediya ilovalari mavzularni yanada boyitadi, chunki ular matnli ma'lumotlarni va tasvirlarni birlashtirib, murakkab kontentni tushunarli va qiziqarli qilib taqdim etadi.

3. O‘rganish jarayonini yengillashtirish: Multimediya ilovalari o‘quvchilarga kontentni o‘z shaxsiy tezligida o‘rganish, tushunmagan yoki qiyin joylarni qayta ko‘rish imkoniyatini beradi.

4. Kooperativ o‘rganish: Birgalikda ishlash va kollaboratsiya qilish imkoniyatlari taqdim etadigan multimediya platformalari yordamida o‘quvchilar bir-birlarining fikrlarini o‘rganadilar va yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar.

Elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri

Elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ko'plab omillarga bog'liq. Ularning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi uchun bir qator shartlar mavjud:

1. O'qituvchilarni tayyorlash: ETR va multimediya ilovalarini samarali ishlatish uchun o'qituvchilarni yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tayyorlash zarur. Bu pedagogik mahorat va texnik bilimlarni birlashtirgan holda ta'lim samaradorligini oshiradi.

2. Texnik infratuzilma: Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik vositalar, internet aloqasi va kompyuterlarni ta'minlash zarur. Aks holda, elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish qiyinlashadi.

3. Mahsulotning sifatini oshirish: Elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarining sifati o'quvchilarning o'rganish jarayonini to'g'ri boshqarish uchun muhimdir. Yuqori sifatli va yangilangan resurslar o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalari ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga yangi texnologiyalar orqali interaktiv, qiziqarli va samarali o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu texnologiyalardan to'liq foydalanish uchun o'qituvchilarni tayyorlash, texnik infratuzilmani yaxshilash va resurslarning sifatini ta'minlash zarur. Faqatgina shu holatda elektron ta'lim va multimediya ilovalari o'quv jarayonini yanada samarali va innovatsion darajaga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Polat, F. (2011). Elektron ta'lim va multimediya ilovalari. Istanbul: E-kitob.
2. Jonson, D., & Brown, M. (2017). The Role of Multimedia in Education: A Review of Research. Journal of Educational Technology & Society, 20(1), 55-67.
3. Gagné, R. M. (1985). The Conditions of Learning. New York: Holt, Rinehart & Winston.

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Qurbonova X.T.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida axborot texnologiyalari orqali, bilim berishning yangi usullarini amaliyotga joriy etishga, o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga hamda o'quvchilarning faolligi va qiziqishini orttirishga xizmat qilishi yoritilgan.

The article discusses the use of information technology in primary education to introduce new methods of teaching, broaden students' worldviews, and increase student engagement and interest.

В статье обсуждается использование информационных технологий в начальном образовании для внедрения новых методов обучения, расширения мировоззрения учащихся и повышения вовлеченности и интереса учащихся.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinflar, aqliy rivojlanish, ko'rgazmali materiallar, o'yin-topshiriqlar , kasbiy mahorati

Boshlang‘ich ta’lim – ta’lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq bo‘ladi va bu boshlang‘ich maktab “ko‘nikmalar maktabi” bo‘lib keladi, ya’ni o‘quvchi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim bosqichi sifatida qaralgan. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. O‘quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta’lim jarayoniga AKT ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Ta’lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan uzluksiz foydalanishning ahamiyati katta. O‘qitishning axborot texnologiyasi- bu axborot bilan ish olib borish uchun maxsus usullar, pedagogik texnologiyalar, bilim berishning yangi usullaridan foydalanish va bilim darajasini baholashdir. Yangi texnologiyalar bilan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda, ma’naviy va insoniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish:

-ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga;

-bilim berishning yangi usullarini amaliyotga joriy etishga;

-dars davomida o‘uvchilarning faolligi va qiziqishini orttirishga;

-o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirishga;

-elektron darsliklardan unumli foydalanishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi dars davomida axborot texnologiyalarini unumli foydalana olsa, nafaqat o‘quvchilarga yangicha bilim berish imkoniyatlarini yaratadi, balki ularning mustaqil tayyorlanish va shaxsiy fikrlash qobiliyatini boyitishga ham xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari: multimediya imkoniyatlarini qo‘llash annimatsion videomateriallar va slaydlardan foydalanish o‘quvchilar uchun o‘tilgan mavzu yuzasidan batafsil ma’lumot berishga imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z bilim-ko‘nikmalarini shakllantirib, mustaqil o‘rgatishga harakat qiladi. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonida kompyuterni foydalanishga, modellashtirishga, elektron darsliklarni, interaktiv doskalarni foydalanishga, internet bilan ishlashga asoslanadi. Ta’lim jarayonida ushbu imkoniyatlardan foydalanish kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning har tomonlama bilim olishiga, qobiliyati va dunyoqarashi kengayishiga, mustaqil rivojlanishiga xizmat qiladigan pedagogik va psixologik imkoniyatlar yaratadi.

Kun sayin yangilanib borayotgan ilmiy va texnik rivojlanish jamiyat hayotining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini joriy etmoqda.

“XXI asr axborot texnologiyalari asri” da ta’lim tizimida yangi usul va texnologiyalardan foydalanish jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ta’limni faollashtirish o‘quvchi faoliyatining mahsuli bo‘lib, bola faoliyatini faollashtirishga qaratilgan harakat sanaladi. Ko‘pgina pedagogik adabiyotlarda agar o‘quvchi materialni tushunarli qilib, bayon qilsa, ko‘rsat- malilik hamda ta’limning texnik vositalaridan foydalansa, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ish olib borsa, o‘quv jarayoni faollashib, ta’lim samarali bo‘ladi degan fikr ilgari suriladi. Ta’limni faollashtirish yuqorida

ko‘rsatilgan faktorlar bilan bir qatorda o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini uyushtirish bilan ham bog‘liq. Fikrlash bo‘lmagan joyda faollik haqida gap bo‘lishi mumkin emas.

Demak, ta’limni faollashtirish o‘quvchi tomonidan bolaning fikrlash faoliyatini uyushtirish mahsuli bo‘lib sanaladi.

Jumladan boshlang‘ich sinflarda bolalar faolligini oshirish uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

a) O‘yin-topshiriqlar orqali;
b) Topishmoqlar orqali;
c) Interfaol usullar orqali;
d) Mashqlar orqali;
e) Qiziqarli viktorinalar orqali.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarni o‘qitishda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni bilib oladilar. O‘quvchilar kompyuter bilan ishlashda birinchi ko‘nikmalarni oladilar, o‘zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar. AKT dan foydalanish faqatgina o‘quvchilardagina emas, balki o‘qituvchilarni ham kasbiy mahorati oshishiga, kompyuter vositasida o‘qitishga hamda o‘z fani bo‘yicha bilim darajasini takomillashtirishga muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz
2. To‘raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.;Fan, 2007.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: 2018.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Hamdamova N.X.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Ma’lumki, ta’limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har to monlama barkamol yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologi yalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bor moqda. Bunday

bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy tex nologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib to pish, mustaqil o‘rganish va tanqiy fikrlash, tahlil qilish, jamoada ishlash hatto ijo diy yondashishga yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiya lanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruv chilik funksiyasini bajaradi.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savod xon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, mada niy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratil gan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texno-logiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘l lash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O‘ylay mizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda umumta’lim boshlan g‘ich sinf o‘qituvchilariga amaliy yordam beradi.

“So‘zlovchi soat” metodi

Stol ustida 1 dan 12 gacha va 5,10,15,20,25,30,35,40,45,50,55,60 yozilgan kartochkalar teskari holda qo‘yiladi.O‘quvchilar birma-bir kartochka tanlab ola dilar. Qaysi raqam yozilgan bo‘lsa,shunga doir ma’lumot aytadilar. Va kartochkani doskadagi soat rasmi chizilgan ko‘rgazmaga yopishtiradilar.

Masalan:

1-bir yil 365 yoki 366 kun 6- oltinchi sayyora Saturn

2-tabiat 2 ga bo‘linadi,jonli va jonsiz 7-yetti o‘lchab, bir kes

3-xaritalar 3 turga bo‘linadi va hokazo

4-4 ta fasl bor

5-bir qo‘lda 5 ta barmoq bor

O‘yin shartini fan,mavzu va sinfga qarab o‘zgartirish mumkin. Bu o‘yin o‘quvchilarni tezkor fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.Bu esa mantiqiy fikrlash da katta katta yordam beradi. Shu bilan birga o‘quvchilarning soat,minutga doir bilimlarini mustahkamlab boradi.

Kommunikativlikka oid“Internet” metodi

Har bir guruhga bir-biriga bog‘langan turli yoki bir xil, 2 yoki 3 xildagi tasmalar (arqon) beriladi. Bir mavzu asosida matn, masala, ma’lumotlar, qoidalar chiqarish vazifalari beriladi. Tasmalar bir-birlariga uzatilib, go‘yoki “internet”dagi so‘zlashuv

vaziyati hosil qilinadi.Kichik guruh aylana shaklida tasma (arqon) yoki tasmani ushlab turadilar. Bir mavzu yuzasidan matn yaratish vazifasi beriladi

Guruhning bir a'zosi matnni boshlab berib, boshqa bir a'zosi bilan arqon almashadi, bu ishtirokchi ham matnni mazmunan davom ettirib, boshqa ishti rokchi bilan arqonni almashadi, oxirgi ishtirokchi matnni yakunlaydi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texno logiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivoj lantirishga e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich ta'limga zamonaviy axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama bar kamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlan-tirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.

JISMONIY TARBIY FANIDAN O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Yusufov U.I.,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qaroriga muvofiq uzluksiz ta'lim, xususan Jismoniy tarbiy umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim mazmuni yangilandi, o'quv dasturlari va o'quv fanlari bo'yicha DTS kompetensiyali yondoshuv asosida qayta ishlandi. Mazkur kompetensiyali yondoshuv asosida shakllantirilgan DTS amaliyotga joriy etish ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etadi.Jahonning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish uzluksiz texnologiya ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish zarurligini ko'rsatdi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga kompetensiyali yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etishga imkon

beradigan umumiy prinsiplar yig‘indisi sanaladi. Uzluksiz texnologiya ta'lim jarayoniga kompetensiyali yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amal oshirish. talabalarning mustaqil hayotdagi turli faoliyat va yo‘nalishlardagi muammolarni o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalar, o‘zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari, shaxsiy xulosalariga asoslanib hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirish; Jismoniy tarbiy ta'lim mazmunini tanlash va metodik ta'minotini yaratishda talabalarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o‘zida o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llash, o‘zlarining hayotiy tajribalari, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o‘quv topshiriqlari bo‘lishiga e'tibor qaratish; . Jismoniy tarbiy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o‘quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, shuningdek, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko‘nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollikka ega bo‘lish, o‘quv muammolarini mustaqil hal etishga doir tajribalarni egallashlariga sharoit yaratish; Ta'lim-tarbiya jarayonining natijalari mazkur jarayonning muayyan bosqichida erishilgan natijalar, ya'ni o‘quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo‘ladigan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirganlik darajalariga qarab baho berish;Kompetensiyali yondashuvda – o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini anglash, ta'lim-tarbiya jarayonida o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini tushunish, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvi, ijtimoiylashuvi kabi ustuvor yo‘nalishlarni mo‘ljallash nazarda tutish zarur.Kompetensiya tarkib toptirish usullari va shaxs hayotidagi ahamiyatiga ko‘ra darajalarga ajratiladi. Jismoniy tarbiy o‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat texnologiya o‘quv fani orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.Tayanch kompetensiyalar – umumiy o‘rta ta'lim maktablari o‘quv rejasidan o‘rin olgan barcha o‘quv fanlari mazmuni va o‘qitish jarayoni orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar sanaladi.Umumiy (predmetli) kompetensiyalar- o‘quv rejadan o‘rin olgan ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va amaliy o‘quv fanlarni o‘qitishda o‘zaro fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish orqali tarkib toptiriladigan kompetensiyalar nazarda tutiladi.Xususiy (Jismoniy tarbiy kompetensiyalar – texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalar hisoblanadi. o‘quvchining kompetensiyasi. –Jismoniy tarbiy fani bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetentlikka yo‘naltirilgan darslarni tashkil etish va darslarning texnologik xaritasini yaratish bo‘yicha xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarga kompetentlikka yo‘naltirilgan darslarni tashkil etish bo‘yicha ma'lumotlarni berish va uni tushunarli tarzda yetkazish. "Kompetentlik" (ingl. "competence" - "qobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim soxosiga

psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan.1 Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishi shi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim,malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek,kompetensiyamutaxassislikbilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatidaqo'llay bilishni taqozo etadi.Kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada mufaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'ladigan qobliyatlar majmui. Bugungi kunda ilm-fan, texnika va axborot kommunikasiya texnologiyalar, ishlab chiqarish soxalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi ta'lim tizimi xodimlaridan ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bunda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etib, xar bir tizim xodimi, ayniqsa o'qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiy ta'lim-tarbiya ishlarining har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan xolda amalga oshirilishi, ta'limning xamma uchun tengligini ta'minlanishi, o'quvchilarni mustaqil xayotga tayyorlash, ularda fuqarolik tuyg'usi, oila va davlat oldida mas'uliyat xis qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning qizikishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari va xar tomonlama rivojlanishlari uchun ularga maksimal darajada qulay sharoitlarni yaratish ta'lim sifatini oshirishning eng muxdm omili xisoblanadi. Agarda bunday sharoitlar yaratilmasa, uzluksiz ta'lim tizimidagi majburiy bosqich bo'lgan umumiy o'rta ta'limni muvaffaqiyatli deb e'tirof etib bo'lmaydi. Shu jixatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish va uni xayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim siyosatining bugungi kundagi muxim vazifalaridan biri xisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan innovatsion pedagogik faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-metodik faoliyati xamda o'quvchilarning o'quv-tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p hollarda Jismoniy tarbiy umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq, etganda, birinchi o'ringa texnik va tashkiliy masalalar, keyingi o'ringa esa o'qituvchi va o'quvchilarni innovatsion jarayonlarga tayyorlash masalalari qo'yiladi. Innovatsiyalarni tatbiq etishga o'qituvchilarning psixologik tayyorligi pedagogik innovatsion jarayonning muxim sharti hisoblanadi. Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etishda o'qituvchilarning ilmiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish, kasbiy faoliyatini innovatsion yo'naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida axamiyat qaratish lozim.

IQTISOD FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI VA MULTIMEDIALI ILOVALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Shomurodov R.,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Iqtisod fanini o‘qitish bugungi kunda eng dolzarb ta’lim sohalaridan biri hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab iqtisodiy jarayonlar, yangiliklar va tendensiyalar o‘zgarib borayotganligi sababli, talabalar va o‘qituvchilar uchun zamonaviy va innovatsion ta’lim metodlari zarurdir. Elektron ta’lim resurslari va multimediali ilovalar iqtisod fanini o‘qitishda o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada elektron ta’lim resurslarining va multimediali ilovalarining iqtisod fani ta’limidagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Elektron ta’lim resurslari - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta’lim olishni osonlashtiruvchi onlayn materiallar, platformalar va dasturlardir. Ular o‘quvchilarga interaktiv, qiziqarli va samarali o‘qish imkoniyatlarini yaratadi. Iqtisod fanini o‘qitishda elektron resurslar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Interaktivlik: Elektron resurslar talabalarga o‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazish, turli testlar va mashqlarni bajarish, hamda o‘rganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi. Interaktiv ta’lim materiallari yordamida o‘quvchilar o‘qish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishadi.

Darslarni individualizatsiya qilish: Har bir talaba o‘z sur’ati bilan o‘rganishi mumkin. Elektron resurslar orqali o‘quvchi o‘zi uchun mos darslarni tanlab, qo‘shimcha materiallar orqali bilimini chuqurlashtirish imkoniyatiga ega.

Onlayn kurslar va seminarlar: Elektron ta’lim platformalarida masofaviy o‘qish imkoniyati mavjud bo‘lib, talabalar istalgan vaqtda va joyda darslarni tinglash va o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ta’limni qulayroq va ommaviyroq qilishga yordam beradi.

Resurslarga oson kirish: Elektron ta’lim resurslari orqali o‘quvchilarga iqtisodiyot bo‘yicha elektron kitoblar, maqolalar, videolar, va boshqa foydali materiallarga kirish imkoniyati yaratilib, o‘quv jarayonini boyitadi.

Multimediali ilovalarining o‘rni va ahamiyati

Multimediali ilovalar – bu turli xil shakllarda (grafika, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlar) taqdim etilgan materiallardir. Iqtisod fanini o‘qitishda multimediali ilovalar quyidagi afzalliklarga ega:

Vizual o‘rganishning samaradorligi: Iqtisodiyot kabi murakkab fanlarni o‘rgatishda multimediali ilovalar talabalarga mavzuni vizual ravishda taqdim etadi. Masalan, infografikalar, diagrammalar, grafikalar va animatsiyalar yordamida iqtisodiy jarayonlar aniq va tushunarli shaklda ko‘rsatiladi.

Audio va video qo‘llanma: Iqtisodiyot bo‘yicha video darslar, ma’ruzalar va podkastlar talabalarga murakkab mavzularni tushunishga yordam beradi. Masalan, iqtisodiy tushunchalar yoki nazariyalarni amaliy misollar bilan videolar orqali ko‘rsatish o‘quvchilarga materialni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘qitishning gamifikatsiya usullari: Multimediali ilovalar o‘quvchilarga o‘yin elementlarini qo‘shish imkonini beradi. Iqtisodiy simulyatsiyalar va interaktiv o‘yinlar yordamida talabalar real iqtisodiy sharoitlarga o‘xshash vaziyatlarda qarorlar qabul qilishni o‘rganishadi.

Ko‘p tarmoqli integratsiya: Multimediali ilovalar orqali turli xil texnologiyalarni integratsiya qilish mumkin. Masalan, interaktiv ta'lim platformalari, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar orqali talabalar iqtisodiyotdagi muammolarni hal qilishda turli xil vositalardan foydalanishadi.

Elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalarining integratsiyasi

Iqtisod fanini o‘qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalarining integratsiyasi ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Masalan, onlayn kurslar va interaktiv video darslar birlashtirilgan platformalar talabalarni yanada ko‘proq jalb qilishga imkon beradi. Elektron resurslar va multimediali ilovalar o‘rtasidagi sinergiya o‘quvchilarga yuqori sifatli ta'limni taqdim etadi, shu bilan birga, o‘qituvchilarga talabalarning o‘rganish jarayonini yanada samarali boshqarish imkonini yaratadi.

Xulosa.

Iqtisod fanini o‘qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalarining o‘rni juda katta. Ular o‘quvchilarga yangi bilimlarni samarali va qiziqarli tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Elektron ta'lim resurslari o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkonini berib, ta'lim jarayonining individualizatsiyasiga yordam beradi. Multimediali ilovalar esa iqtisodiy tushunchalarni aniq, vizual va tushunarli tarzda taqdim etadi, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ularning integratsiyasi o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

RUS TILI FANINI O‘QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA MULTIMEDIYA ILOVALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xusanova K.M.,
Mirzoqulova M.B.,
Navoiy shahar 6-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘qituvchisi

Bugungi kunda axborot texnologiyalari va internetning rivojlanishi bilan ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalari keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, rus tili kabi chet tilini o‘qitishda bu resurslarning ahamiyati juda katta. Elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalari nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi, balki ularga yangi o‘quv metodlari va vositalari orqali samarali ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

1. Interaktiv o‘qitish va o‘rganish jarayonini faollashtirish

Rus tili o‘qitishida interaktiv dasturlar va ilovalar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Misol uchun, o‘quvchilar bilan rus tilidagi so‘zlarni o‘rganishda, ular so‘zlarni tovushli yoki vizual ko‘rinishda eshitishlari mumkin. Bu yondashuv, shuningdek, tilni o‘rganishning barcha jihatlarini (nutq, eshitish, yozish va o‘qish) rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlari xohlagan vaqtda o‘qituvchi yordamida sinfda qaysi mavzularni takrorlash yoki ko‘proq mashq qilishlari mumkin.

2. Ko‘p tarmoqli ta'lim vositalari

Multimediya resurslari orqali rus tilini o‘rganish imkoniyatlari kengayadi. Video, audio, animatsiyalar, interaktiv testlar va o‘yinlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, rus tilidagi videolar orqali o‘quvchilar so‘zlashuvni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Shuningdek, audio fayllar orqali talaffuz va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Multimediya

resurslari o‘quvchilarga real vaziyatlarda rus tilida muloqot qilishni o‘rgatishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

3. Maqsadga yo‘naltirilgan ta'lim materiallarini yaratish

Elektron ta'lim resurslari orqali o‘qituvchilar turli darajadagi o‘quvchilar uchun moslashtirilgan materiallar yaratishlari mumkin. O‘quvchilar individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab, turli darajadagi mashqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu resurslar yordamida o‘quvchilarga xatoliklarni tuzatish, yangi so‘zlarni o‘rganish va grammatikani mustahkamlashda yordam beriladi. Masalan, onlayn platformalarda mavjud bo‘lgan testlar va baholash tizimlari o‘quvchilarni o‘z bilimlarini baholashga undaydi, bu esa ularning rivojlanish darajasini kuzatishda juda foydali.

4. Tez va samarali baholash tizimi

Elektron ta'lim resurslarining yana bir afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarning bilimini tez va samarali baholash imkonini beradi. Onlayn testlar va interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini sinashlari mumkin. Bu usul bilan o‘qituvchi o‘quvchilarning qaysi sohalarda qiyinchiliklarga duch kelayotganini tezda aniqlashi va zarur yordamni ko‘rsatishi mumkin. Bunday baholash tizimi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini real vaqtda ko‘rish imkonini yaratadi.

5. Global resurslarga kirish imkoniyati

Rus tili o‘qituvchilari va o‘quvchilari internet orqali butun dunyo bo‘ylab mavjud bo‘lgan ta'lim resurslariga kirish imkoniyatiga ega. Bu o‘quvchilarga turli xil online kurslar, ma'ruzalar va videolarni tomosha qilish, interaktiv forumlarda ishtirok etish va dunyo bo‘ylab rus tilida gaplashuvchi insonlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa rus tilini o‘rganishni yanada boyitadi va o‘quvchilarga tilda erkin fikr yuritish imkoniyatini yaratadi.

6. Motivatsiya va o‘quvchilarni jalb etish

Elektron resurslar va multimediya ilovalarining qiziqarli va o‘yin orqali o‘rgatish imkoniyatlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. O‘quvchilar o‘rgatish jarayonida yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali rus tilini o‘rganishni qiziqarli va zavqli his qiladilar. Bunday yondashuv o‘quvchilarning rus tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning o‘rganish jarayonini samarali qiladi.

7. O‘qituvchilar uchun yordamchi vosita

Elektron ta'lim resurslari o‘qituvchilar uchun ham katta yordam bo‘ladi. Ular o‘z darslarini rejalashtirishda, yangi metodikalar yaratishda va o‘quvchilarga individual yordam ko‘rsatishda samarali foydalanishlari mumkin. Multimediya vositalari orqali o‘qituvchilar turli mavzularda interaktiv darslar yaratish, bilimni mustahkamlash uchun qiziqarli va samarali usullarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa. Rus tili fanini o‘qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki o‘qitishning yangi usullarini joriy etish imkonini beradi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarni rus tili o‘rganishga yanada motivatsiya qiladi, interaktiv va qiziqarli o‘quv materiallari orqali ularning bilimlarini mustahkamlaydi. Elektron resurslar va multimediya vositalari o‘qituvchilarga esa ta'lim jarayonini yanada samarali va qulay boshqarish imkoniyatini taqdim etadi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim tizimida bu resurslarning ahamiyati juda katta bo‘lib, ular rus tili o‘qitishning samaradorligini oshiradi.

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALARNI BELGILASH USULLARI

Amonova Sh.,
Qizitepa tumanni 8-umumiy o‘rta ta'lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. Texnologiya "texnos" (techne) – mahorat, san'at va "logos" (logos) fan, Innovasion ta'lim, yangilik kiritish, kompetensiya,shakl, metod , texnologiya,

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida turli sohalarda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ularning yuksak bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlariga shart-sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonida yetuk malakali mutaxassislar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasini bajarishda texnologiya fani jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.Xozirgi kunda qator rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi tahlil qilinganda texnik-texnologik jarayonlarga jiddiy e'tibor berilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatning rivoji ishlab chiqarish sohasiga bog‘liq ekanligi, ishlab chiqarish sohasining rivoji mutaxassislar malakasiga bog‘liqligi isbotlanmoqda. Zamonaviy yondashuv va innovatsiyalar asosida o‘qitish tizimining vazifasi o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo‘lishi kerak. Innovasion ta'lim texnologiyalarining mohiyati, turlari va nazariy asoslari. Lug‘aviy jihatdan "innovasiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Innovasion ta'lim (ingl. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g‘oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Ta'lim innovasiyalari – ta'lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Zamonaviy sharoitda o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovasion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish mumkinki, texnologiya fani darslarini tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish natijasida o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishlari ortishi, amaliy mashg‘ulotlarda mehnat ob'ektlarini bajarish bo‘yicha aniq tasavvurlarga ega bo‘lishi, mehnat operatsiyalarini bajarish bo‘yicha chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishida keng imkoniyatlar ochadi. Rivojlantiruvchi ta'limning vazifasi – shaxsning individual kamol topishi uchun zarur bo‘ladigan hayotiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish sanaladi.Rivojlantiruvchi ta'limning o‘ziga xos xususiyatlari – o‘quvchilarda topshiriqlarni yechishga oid nazariy tushuncha va amaliy ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi. O‘quvchilarning ijodiy

qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasining asosiy bo‘g‘ini muammoli ta'lim yo‘nalishi sanaladi.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha rivojlangan davlatlar agrar ishlab chiqarishdan sanoat ishlab chiqarishga ya'ni yangi texnika va texnologiyalarga asoslangan avtomatik-mexanizatsiyalashgan sanoat ishlab chiqarish davlatiga o‘tib bormoqda. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda mutaxassislarning texnikaviy salohiyati muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislarning boshlang‘ich ko‘nikmalari aynan umumiy o‘rta ta'lim maktablarida texnologiya fani darslarida tarkib topadi.

“Texnologiya” materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishlash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandir.

“Texnologiya” – yunoncha ikki so‘zdan – “texnos” (techne) – mahorat, san'at va “logos” (logos) – fan, ta'limot so‘zlaridan tashkil topgan.

Texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, jumladan, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlanti¬rish kompetensiyasini tarkib toptirish imkonini beradi.Shu bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida xususiy texnologiya kompetensiyalarni tarkib toptirish yo‘llarini, ya'ni biologik ta'lim-tarbiya jarayonida DTS bilan me'yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida tarkib toptiriladigan kompetensiyalarni aniqlashi lozim. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish muammosi o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetensiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o‘qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.-488 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni. – T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi Umumiy o‘rta ta'lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori. – T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 11-son, 167-modda.
5. Sharipov S.S., Qo‘ysinov O.A., Abdullaeva Q. Texnologiya: Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2017.-240 b.
6. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU, 2018.-136 b.
7. Tohirov O‘.O. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. // O‘quv moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU, 2018.-265 b.

TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Husenov G'.H.,
Qiziltep tumanni Barkomol avlod bolalar maktabi uslubchisi

Mamlakatimizda yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimiga ham jadallik bilan kirib borayotganligi, ta'lim jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarish uchun xizmatqilayotganligibarchamizgama'lum.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining mazmuni va sifati axborotlashgan jamiyatning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. olib borilayotgan bu islohotlar o'qituvchilar va o'quvchilar oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatliligini oshirish hamda maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlarining tashkil qilinishi va uorqali o'quvchilarning turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishlaridir. Ta'lim jarayonini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limtarbiya jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quvchilarni kasb-hunargavazamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish inioshirish masalasi ommalashmoqda. Bugungi kunda jonajon O'zbekistonimizda ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida juda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bilimli, salohiyatli, zamon bilan hamnafas kadrlar, albatta, yurtimizning ertasini ta'minlaydi. Ta'limda izchil o'zgarishlarni amalga oshirishdan maqsad ham, ana shunday kadrlarni yaratishga qaratilgan. Bugungi kunning zamonaviy o'quvchisi elektron madaniyat dunyosida yashayapti. Taraqqiyot bilan bir xil qadam tashlayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi bugun o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishga texnik va psixologik jihatdan tayyordir. Barkomol avlod bolalar maktabi o'quvchilari ta'limi jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi o'quv jarayoni umumiy darajasini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan faolliklarini kuchaytiradi. O'qituvchi dars o'tar ekan u darsning ixtiyoriy bosqichini yangi texnik vositalarni joriy etish orqali jonlantirish mumkin. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish o'qituvchiga darslarda o'quv-biluv faoliyatining turli shakllaridan foydalanishga, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga va aniq maqsadga yo'naltirishga imkon beradi. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv materiali sifatini oshirishga va ta'lim samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan darsga tayyorlanishda o'qituvchi dars rejasini uning maqsadlaridan kelib chiqib tuzishi, o'quv materialini tanlab olishda esa asosiy didaktik taoyillarga amal qilishi shart: tizimlilik va ketma-ketlik, differensial yondashuv, ilmiylik va boshqalar. Biz bugun hozirgi zamon o'quvchilarni qanchalik to'g'ri tarbiyalay olyapmiz, ularga o'zlari uchun to'g'ri bo'lgan yo'nalishlarni tanlashlarida bizning ko'magimiz qay darajada bo'lmoqda? Albatta, bu savolni har bir pedagog o'z yuragidan o'tkazishi kerak. Shiddatli bir zamonda, har bir o'qituvchi o'z fani sohasida kuchli bilimlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, axborot kommunikatsion texnologilari bilimdoni bo'lishi ham talab etilmoqda.. Demak, biz avvalo, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishimiz kerak ekan. Shu sababli biz o'z fanimiz sohasida o'quvchilarimizni

qiziqishi bo‘yicha qamrab olib, ularni guruhga birlashtirib, bilimlarni o‘zlashtirishini to‘g‘ri yo‘naltirib borishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizda bu maqsadga erishishimizda onlayn testlar, maqola va referatlar, turli mavzular doirasida tayyorlangan video darslar qo‘l keladi. Ayrim o‘quvchilarimiz o‘zlariga dars beradigan pedagogning darslarni yoritishidan, mavzularni to‘liq o‘zlashtira olishmas balki. Shuni hisobga olgan holda, biz yurtimizda barcha mavzularni yoritib beruvchi video darslar bazasini yaratmog‘imiz lozim. Bizning yurtimizda malakali, bilimli pedagoglar juda ko‘p. Iqtidorli o‘qituvchilar tomonidan sodda va ravon qilib tushuntirilgan dars jarayoni hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydi, albatta. Hattoki, bu video darslar ayrim o‘qituvchilar uchun, o‘z ustida ishlashida foydali manba bo‘lishi ham mumkin. Bunday salohiyatli pedagoglar kuchidan yurtimizning har bir yerida foydalanish uchun internet tarmog‘i juda qo‘l keladi. O‘quvchilarimiz o‘zlariga tushunarsiz bo‘lgan mavzularni o‘zlashtirishida bu video darslardan keng foydalanishsin. Toki mavzuni tushunib yetganlaricha darslarni takrortakror qo‘yib ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Bir oz vaqt o‘tib yodidan ko‘tarilgan darslarni takrorlab olishga imkon bo‘lsin. O‘quvchi o‘zida paydo bo‘ladigan savollarga qancha ko‘p javob ola bilsa, shuncha uning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, fandan uzoqlashib ketmaydi. Mana shunday video darslar, ma’lumotlar bazasini shakllantirishga ko‘maklashish o‘z bilimiga, iqtidoriga ishongan har bir zamonaviy pedagogning vazifasi deb o‘ylayman. O‘tgan davr mobaynida o‘quvchilarning testga tayyorgarlik darajasi, test topshiriqlari darajasi ham mukammallashib kelmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bunda Davlat test markazi, repetitor o‘qituvchilarimiz chiroyli testlarni tuzib Davlat test markaziga taqdim qilayotgan muallif o‘qituvchilarimizning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Testlarni yechishda qulay usulni tanlab, kam vaqt sarflab to‘g‘ri javobni topish muhimdir. Bunda testlarni yechilishining turli usullarini o‘rganishda internet tarmog‘idan foydalanishning o‘rni beqiyos bo‘lmoqda. Tajribali repetitor o‘qituvchilarning sodda va tushunarli tilda misol va masalalarni yechimlarini, o‘quvchilar bilan o‘rtoqlashish imkoniyatlari yaratilmoqda. Barkomol avlod bolalar maktabi. Yangi information texnologiyalarning rivojlanishi va jamiyatning har bir sohasiga kompyuter texnologiyalari va ularga asoslangan internetning kirib kelishi natijasida ko‘pgina sohalarda juda katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Hozirgi zamon mutaxassislari faoliyat doiralari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar axborot-kommunikatsion texnologiyalar bo‘yicha keng ko‘lamdagi bilimlarga, axborot-kommunikatsiya tizimlari va ulardan foydalanish borasida yetarli darajada malakalarga ega bo‘lishlari va ertangi kun rivoji to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak.Buning uchun o‘qituvchi bir qator ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bulardan asosiylari: - texnik, ya’ni kompyuterda ishlash uchun standart dasturiy ta’minotdan foydalana olish ko‘nikmasi; - uslubiy, ya’ni o‘quvchilarni savodli o‘qitish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar; - texnologik, ya’ni turli darslarda o‘qitishning axborot vositalaridan samarali foydalanish uchun kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar. Dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘zlarini o‘rab turgan olamning axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalishga tushib olishlariga, axborot bilan ishlashning amaliy usullarini egallashga, zamonaviy texnik vositalar yordamida axborot almashishga imkoniyat beruvchi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Tarix darslarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim olish uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi, ta’lim oluvchilarning

bilim olish faoliyatini faollashtiradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari didaktik materiali mazmuni va shakli bo‘yicha turli-tumandir: elektron darsliklar, videorolik, musiqa, ma’lum mavzudagi taqdimotlar, rivojlantirish xususiyatiga ega turli testlar, topshiriqlar, keyslar va boshqalar. Darslarda axborot texnologiyalarini qo‘llash bilish faoliyatini faollashtiruvchi asosiy tamoyillar-ishonish va teskari aloqa, tadqiqotchilikni to‘liq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu tamoyillarning amalga oshirilishini axborot texnologiyalari qo‘llanilgan barcha darslarda kuzatish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash mustaqil faoliyat imkoniyatlarini kengaytiradi, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantiradi, turli ma’lumotlar tizimi, elektron kutubxona, boshqa axborot manbalaridan foydalanishga imkoniyat beradi, umumlashtirib aytganda ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab o‘tiladigan dars ishlab chiqilayotganda ta’lim oluvchilar sog‘ligiga alohida e’tibor qaratish kerak. Shunday qilib, bilish faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari yordamida tashkil qilish barcha yo‘nalishlarda o‘zini oqlaydi: bolaning umumiy rivojlanishida ko‘maklashadi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi, bola hayotiga quvonch olib kiradi, o‘quv jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligiga va ularning bir-birini yaxshiroq tushunishiga qulay sharoit yaratadi. Bunday mashg‘ulot bolalarda ruhiy ko‘tarinkilik keltirib chiqaradi, o‘zlashtirishda ortda qolayotgan o‘quvchilar ham qiziqish bilan kompyuterda ishlashadi. Elektron axborot resurslarining xilma-xilligi o‘quvchilarning alohida qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish uchun sharoitlar yaratadi. Ularning darslarda ishlatilishi o‘quvchilarning ijodiy motivatsiyalarini kuchaytiradi ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatiga intilishlarini faollashtiradi.

Kompyuterda matnli, grafikli, audio-video axborotlarni va animatsiyalarni bir joyga birlashtirish, o‘quvchilarga taqdim qilinayotgan o‘quv axborotlar sifatini va ularning bilish faoliyatini tashkil qilishning samaradorligini keskin oshiradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonining eng muhim masalalaridan biri– o‘quvchilar bilimlari darajasini oshirishga katta imkoniyatlar beradi. Bundan foydalanish esa faol, ijodkor, izlanuvchan o‘qituvchilarimizga bog‘liqdir. O‘qituvchilarning turli faoliyat yo‘nalishlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi ularning metodik va ilmiy-tadqiqot ishlari darajasi va o‘quv jarayoni samaradorligining oshishiga yordam beradi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MULTIMEDIALI VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xaitova S.E.,
Navoiy shahar 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Bugungi kunda o‘quv tarbiya jarayonini zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanib, shaxsga yo‘naltirilgan hamda boshlang‘ich ta’lim nazariyasini yaratish axborot texnologiyalarini va multimediali darslarni o‘quv jarayonida qo‘llashni rivojlantirish usullari yoritilgan.

The article discusses ways to develop the use of information technology and multimedia lessons in the educational process, creating a person-centered and primary education theory using modern teaching methods in the educational process today.

В статье рассказывается о развитии использования информационных технологий и использования мультимедийных уроков в учебном процессе, создании личностно-ориентированной теории начального образования с использованием современных методов обучения в учебном процессе.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari multimediali, intellektual.

Bugungi kun o'qituvchisiga barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetka¬zishdek mas'uliyatli vazifa yuklangan bo'lib, ta'lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni belgilab olish, zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini joriy etgan holda o'quvchilarda o'z faniga qiziqish uyg'otishlari, hurmat-ehtirom tuyg'ularini shakllantirib borish¬lari talab etiladi.

Barcha sohalar kabi ta'lim jarayonida ham axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanish muhim masalalaridan biri bo'lib ta'lim jarayonini axborotlashtirish uni moddiy bazasini boyitish, o'quv jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalari samarali foydalanish uchun kerakli zamonaviy dasturiy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham ta'limda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib ta'lim muassasalarini innovatsion faoliyati hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya tizimining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, har tomonlama yetuk bilimdon, jismoniy baquvvat, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish hamda kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqmidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir.

Buning uchun ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, iqtidorli, iste'dodli va o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga individual yondashish, har bir o'quvchining eng yaxshi sifatlarini aniqlash, uni rivojlantirish va ularning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati va shaxsiy sifatlari, intellektual xususiyatlarini aniqlagan holda har bir darsni tashkil etishga e'tibor berishimiz maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi tezkor axborot, globallashuv jarayoni biz o'qituvchilar zimmasiga juda katta vazifani yuklaydi, bu ham bo'lsa yoshlarni axborot bo'ronlaridan himoya qilish. Bugungi kunda ilg'or o'qituvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan dars o'tishini tasavvur etib bo'lmay qoldi. Chunki hozirgi tezkor davrda o'quvchilar diqqatini ilm olishga qaratish uchun quruq doska va bo'r yoki ikkita plakat kamlik qiladi. yetkazuvchisi sifatida, yangiliklardan boxabar bo'lgani holda, dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Dars berayotgan sinfiga taalluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, ularni darslarda qo'llay olishi darkor.

Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivasiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Axborot – kommunikatsion texnologiyalar – bu bilim, dalil va qonunlarni taqdim etishda barcha imkoniyatlarni o‘zida jamlab olgan usul va metodlar demakdir. Har qanday texnologiya – bu axborot texnologiyalari bo‘lib, uning negizini ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlash tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quv texnologiyasining bevosita boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kayfiyati, qiziqishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy va kasbiy ko‘nikmalarini namoyon qiladi.Internet texnologiyalarining kirib kelishi o‘quvchilarga axborot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko‘nikmalarni egallash va mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar beradi, ta'limning yangi shakllari va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Boshlang‘ich ta'lim jarayonida multimediyadan foydalanish o‘qituvchiga:

- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- bilimlarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha ma'lumot va axborotlarga ega bo‘lish;
- nazariy va mustaqil ishlashni tayyorlash ;
- fanga qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;
- ensiklopedik ko‘rinishdagi axborotlarni tezkor olish;
- mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bo‘lgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash;
- zamonaviy axborot – kommunikatsion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

Multimedia – bu obyekt va jarayonlarni an'anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, annimatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘zlashtirish;
- o‘zlashtirilgan bilimlar izchilligini ta'minlash;
-o‘z – o‘zini nazorat ko‘nikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini rivojlantirish;
- o‘quvchilarni o‘quv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida o‘quv – metodik yordam ko‘rsatish.

Boshlang‘ich sinflarda fanlarni multimedia texnologiyalari asosida o‘qitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg‘ulotlarning har bir mavzusi bo‘yicha ishlanmalar yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo‘lgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoproyektorlar orqali o‘quvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko‘rgazmali balki ovozli, annimatsiyali bo‘lishi o‘quvchilar tomonidan mavzuni mukammal o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad – aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo‘lgan o‘quv faoliyatlarining yangi turlarini yaratishdir.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilishdan ko‘zlangan bosh maqsadimiz- barkamol insonni shakllantirish orqali o‘z kelajagimizni

ta'minlashdan iboratdir. Darhaqiqat, kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash, biz pedagoglardan ma'suliyat talab qiladi. Ayniqsa, kelajak avlodda mustaqil fikrlash, mantiqiy fikr yuritish kabi ko'nikmalarni hosil qilish bugungi kun o'qituvchisining asosiy vazifasidir .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq ta'limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:www.multimedia.uz
2. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. - T.;Fan, 2007.

О СОЗДАНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Элмуродова П.Р.,
магистр Навоийского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются, какие проблемы изучаются в научных исследованиях, в области искусственного интеллекта в системе высшего образования и какие рекомендации следует дать по этим вопросам, а также на необходимости совершенствования интернет-технологий. Обосновано создание и использование образовательного контента, связанного с аудио- и видео уроками искусственного интеллекта, в образовательном процессе.

Ключевые слова: цифровые технологии, искусственный интеллект, аудио, видео, ИИ, ChatGPT, стратегия, техника, интегратор.

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda qanday muammolar o'rganilayotganligi va bu masalalarga qanday tavsiyalar berish kerakligi, shuningdek, internet texnologiyalarini takomillashtirish zarurligiga e'tibor qaratilgan. Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan audio va video darslar bilan bog'liq o'quv kontentlarini yaratish va ulardan foydalanish asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, sun'iy intellekt, audio, video, AI, ChatGPT, strategiya, texnika, integrator.

Annotation: The article focuses on what problems are studied in scientific research in the field of artificial intelligence in the higher education system and what recommendations should be given on these issues, as well as the need to improve Internet technologies. This article substantiates that the creation and use of educational content related to audio and video lessons of artificial intelligence in the educational process is a pressing issue today.

Key words: digital technologies, artificial intelligence, audio, video, AI, ChatGPT, strategy, technology, integrator.

Технологии искусственного интеллекта проникают практически во все сферы человеческой деятельности, его возможности и эффективность облегчают благосостоянии общества.

В феврале 2021 года президент Республики Узбекистана Шавкат Мирзиёев принял решение создать условия для развития технологий искусственного интеллекта. Впервые это проявилось в образовании: в 4 престижных вузах были созданы новые факультеты в области искусственного интеллекта[1]. К этим

университетам относятся: Ташкентский университет информационных технологий имени ал Хоразми, Национальный университет Узбекистана имени Улугбека, Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова, Ташкентский Технический университет имени Ислама Каримова. Искусственный интеллект, как прикладная наука была внедрена в 15 университетах республики. Также при Министерстве цифровых технологий создан Научно-исследовательский институт Развития информационных технологий искусственного интеллекта. Единственным интегратором производства и поддержки государственных информационных систем при Министерстве цифровых технологий является УЗИНФОКОМ[2]. Голосовая система «Мухлиса» и «MyID» разработаны при помощи этой организации[3]. Более 70 офисов и организаций имеют более 10 миллионов пользователей системы MyID. Подписано соглашение об использовании голосового помощника «Мухлиса» в автомобилях BYD, производимых в Узбекистане[4].

Здесь предусмотрено принятие стратегии развития техники и технологий. Недавно Евросоюз стал первым в мире, принявшим закон, регулирующий искусственный интеллект. Такое законодательство может помешать стартапам в области искусственного интеллекта работать свободно. Например, Meta и многие другие компании не представляют на европейском рынке свои проекты в области искусственного интеллекта.

Смогут ли в будущем продукты искусственного интеллекта заменить госслужащих благодаря своей эффективности и экономичности? Хороший вопрос рождается. Да, искусственный интеллект может заменить человека в некоторых областях, но количество рабочих мест в сфере технологий будет продолжать увеличиваться. Если считать только один тип специалистов, работающих с искусственным интеллектом, то этого достаточно. Например, они говорят, что если ИИ будет диагностировать болезни пациентов, то не будет необходимости в терапевте. Но он может стать оператором искусственного интеллекта, диагностирующим пациентов. Такие новые направления тоже развиваются. Возможности и преимущества этих технологий огромны. Раньше 1 анализ в неделю писали 5 человек, сейчас меньше людей выполняют эту работу за 1-2 дня. В результате экономится время специалистов и повышается эффективность работы.

Когда роботы придут в Узбекистан и работа специалистов может занять свое место. Когда это произойдет? Когда наша дешевая рабочая сила станет дороже производства роботов. Например, в некоторых ресторанах Кореи и Японии услуги по обслуживанию оказывают роботы, потому что количество молодежи там уменьшается, а зарплаты, выплачиваемые людям, значительно дорожают.

Говорят, что продукты искусственного интеллекта, такие как ChatGPT, также могут записывать научные статьи, курсовые работы или творческие работы школьников, снижая их научную ценность[5]. Поскольку начинается эра технологий, мы должны позволить нашей молодежи использовать ее и развивать в ней навыки использования искусственного интеллекта. Я считаю, что его следует контролировать только при проверке знаний. Телефон у них не отнимешь, нужно только научиться им правильно пользоваться. Потому что

студенты, которые копируют, уже копировали и писали из поисковых систем Интернета. То есть все зависит от студента, использует ли он возможности для совершенствования своих знаний, для облегчения работы или для перевода.

№ ПФ-4947 Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», 19 февраля 2018 года «Меры по дальнейшему совершенствованию сферы информационных технологий и сообщения» № ПФ-5349 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года[6]»

Результаты проводимых исследований в определенной степени послужат реализации задач, определенных в Постановлении № ПФ-5847 и других нормативно-правовых документа. В принятых документах представлены конкретные задачи и целевые направления развития и совершенствования подготовки и переподготовки кадров в сфере компьютеризации и информационных технологий. Кроме того, предусмотрены комплексные меры по расширению материально-технической и научно-исследовательской базы образовательных учреждений.

Литература

1. Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2021 года № ПП-4996, «О МЕРАХ ПО СОЗДАНИЮ УСЛОВИЙ ДЛЯ УСКОРЕННОГО ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА». https://lex.uz/docs/5297051
2. Указ Президента Республики Узбекистан , "Государственное унитарное предприятие Центр развития и внедрения компьютерных и информационных технологий UZINFOCOM" https://uzinfocom.uz/
3. https://factchecknet.uz/ru/2024/02/21/preobrazuet-li-ii-muxlisa-tekst-v-golos/
4. https://rct-serv.ru/091124/novosti-edinyj-portal-interaktivnyh-gosudarstvennyh-uslug-respubliki-uzbekistan/
5. https://openai.com/
6. Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847. «ОБ УТВЕРЖДЕНИИ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДО 2030 ГОДА». https://lex.uz/ru/docs/4545887

2-SHO‘BA: TA’LIM SIFATINI BAHOLASHDA MILLIY VA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.

KIMYO DARSLARIDA STEAM TA’LIMIGA OID INTEGRATIV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xasanova X.N.,
Navoiy viloyati PMM dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc),
Merzayeva X.J.,
Navoiy viloyati PMM Kimyo fani metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo darslarida kreativ fikrlashni o‘stirishda fanlararo integratsiyadan foydalanishning ahamiyati bayon qilingan. Kimyo fanini o‘qitishda mantiqiy tafakkurni rivojlantiradigan, fanlararo integratsiyaga asoslangan bir qator didaktik topshiriqlarni tuzish va ulardan darslarda foydalanish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.

Аннотация: В этой статье объясняется важность использования междисциплинарной интеграции для развития творческого мышления на уроках химии. Показаны способы составления и использования ряда дидактических заданий, основанных на междисциплинарной интеграции, развивающих логическое мышление в преподавании химии.

Annotation: This article explains the importance of using interdisciplinary integration to develop creative thinking in chemistry lessons. The ways of drawing up and using a number of didactic tasks based on interdisciplinary integration in the classroom, developing logical thinking in teaching chemistry, are shown.

Kalit so‘zlar: dars, topshiriq, didaktik o‘yin, kimyo, didaktika, pedagogika, o‘qitish, ta’lim, tarbiya, harakat, topshiriq.

Keywords: lesson, task, didactic game, chemie, didactics, pedagogy, training, education, upbringing,movement, task.

Turli sohalarda, jumladan ta’lim sohasida ham global o‘zgarishlar bo‘layotganligi, shunday muhitda yashashga loyiq, zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Bunday mukammal, keng dunyoqarashga ega, chuqur mantiqiy fikrlovchi, muammolarni nostandart yechish qobiliyatiga ega bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlashda barcha fanlar qatorida tabiat hodisalarining ilmiy asoslanishida, inson hayotini yaxshilashda qo‘l keladigan tabiiy fanlarni, xususan kimyo fanini ham sifatli va samarali o‘qitish zarurdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda kimyo sanoatining rivojlanishi, sohaning hayotimizda tutgan o‘rni fanni mukammal biladigan yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoniga talabning ortishiga turtki bo‘lmoqda. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarida kreativ fikrlash qobiliyati va amaliy faoliyatni rivojlantiradigan, olingan ilmiy bilimlarni kundalik turmush bilan bog‘liq holda, integrativ yondashuvlar asosida o‘qitishga imkon beradigan, darslarga bo‘lgan qiziqishni oshirishda loyihaviy, ko‘rgazmaviy va amaliy faoliyatni qo‘llash borasidagi yangicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga zaruriyat sezilmoqda.

Yunesko tomonidan XXI-asrda “Long life learning” – “Butun hayot davomida o‘rganish” tamoyillari asosida ta’lim berish konsepsiyasi tavsiya qilindi. Bu shiorga asosan inson nafaqat yoshligida, balki hayotining har qanday davrida o‘z sohasiga oid

bo‘lgan yangiliklardan xabardor bo‘lib turishi, izlanishi, yangiliklarni o‘zlashtirib borishi lozim. Kimyo darslarining samarali bo‘lishida kimyo fani o‘qituvchilari uzluksiz ravishda turli manbalardan o‘zi va faoliyati uchun zaruriy materiallarni to‘plashi va ularni tushunarli, qiziqarli tarzda o‘quvchiga yetkaza olishi zarur.

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda, jumladan respublikamizning ta'lim muassasalarida so‘nggi yillarda STEAM ta'limi asosida tabiiy fanlarni o‘qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga asoslangan, bola miyasining ikkala yarimsharini ham bir xilda rivojlanishiga ko‘mak beradigan, kreativlikni rivojlantiradigan, fanlararo integrativ fikrlash jarayonini yaxshilovchi topshiriqlar va loyihalarni o‘zida jamlagan bu metodika o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, ularning ilmiy bilimlarini ham oshirishga yordam beradi.

STEAM ta'limida kimyo fani va boshqa fanlar integratsiyasiga asoslangan topshiriqlarni bajarish natijasida maktab o‘quvchilarida quyidagi ijobiy xususiyatlar shakllanadi:

1. Ijodkorlik
2. Nostandart fikrlash
3. Tezkor fikrlash
4. Mustaqil fikrlash
5. Aniq fikrlash
6. Bir qancha tushunchalarni bog‘lay olish.

Quyida ushbu tamoyillarga asoslanilgan bir qator topshiriqlar berilgan.

1-topshiriq. Ushbu raqamlar orasida nima umumiylik bor? Umumiylikni topishda kimyo fani va matematika fani orasidagi fanlararo bog‘lanishni inobatga oling.

Javob: Yuqorida keltirilgan raqamlar He, Be, O2 elementlarining tartib raqamlari va nisbiy atom massalaridir.

2-topshiriq. Ushbu topshiriq kimyo fanining ona tili fani bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan. Bunda elementlarning kimyoviy belgilari va muayyan qo‘shimchalar berilgan bo‘lib, ulardan kerakli “so‘z birikmalari” va “gap”larni hosil qilish lozim bo‘ladi.

1) Zn + - sat olmoq = ruxsat olmoq
2) B + bo‘lmoq = bor bo‘lmoq
3) Au va Ag qimmatbaho metallardir = Oltin va kumush qimmatbaho metallardir.
4) Ag + qish = Kumush qish
5) J2 + olmoq = Yod olmoq

3-topshiriq. Ushbu kvadratlar ichida joylashgan elementlarning umumiy jihatlarini anglagan holda, noma'lum Z elementni toping.

Javob: Deyarli barcha kvadratlar ichidagi elementlarda “N” harfi ishtirok etgan. Demak markazdagi element N2 elementidir.

Yuqorida bir qator topshiriqlarda kimyo, matematika va ona tili fanlari orasida fanlararo bog‘lanishga oid bo‘lgan bir qator qiziqarli topshiriqlar berilgan. Ushbu topshiriqlardan asosan o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda, uyga vazifa tarzida o‘quvchilarning bilimini baholashda fodalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stuckey, Marc, Lippel, Marianne, Eilks, Ingo. Teaching chemistry about Stevia – a case of cooperative curriculum innovation within PROFILES in Germany. //CEPS Journal 4 (2014) 1. Pp.69-83.
2.Jeongho Cha, Su Yin Kan, Poh Wai Chia. Spot the differences Game: An Interactive method that engage students in organic chemistry learning.//Journal of Korean chemical society 2018. 159-162.
3. Xasanova X.N. Kimyo darslarida o‘qitish jarayonini takomillashtirishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. "Ta'limda innovatsiyalar, investitsiyalar va intellektual salohiyat; muammolar, tahlillar va istiqbollar mavzusidagi Respublika - amaliy konferentsiya. mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy. 2021. – B. 6-7.
4. Xasanova X.N., Nurmonov S.E. The effect of individual and group learning forms in the teaching of organic chemistry art school students. // International Multidisciplinary Research Journal akademikal. India: 3 march 2019. (85-87 bet)
5. Xasanova X. N. Dunyo mamlakatlarida maktablarda ta'lim sifatiniyaxshilashda STEAM ta'limidan foydalanishning ahamiyati. Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy metodik jurnal. –Urganch. - 3/2023. - 61-64 b.

O‘QUVCHILARNI MATEMATIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Raxmonova Sh.Q.,
Navoiiy viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti

Matematika fani har qanday ta'lim tizimining asosiy qismi bo‘lib, nafaqat ilmiy bilimlarni shakllantiradi, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, diqqatini jamlashini, analitik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘quvchilarni muammoni yechishda ijodiy yondashuvga o‘rgatish, ularga keng fikrlashni va aniq fikrlarni shakllantirishni ta'minlash maqsadida muhimdir. Ushbu maqolada, o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirishning ahamiyati, usullari va amaliyotlari haqida so‘z yuritamiz.

1. Matematik qobiliyatlar va uning mohiyati

Matematik qobiliyatlar – bu o‘quvchining matematik muammolarni tushunish, ularga to‘g‘ri va samarali yechimlar topish, matematik tasavvurni va formulalarni amalda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu, o‘z navbatida, mantiqiy tafakkur, tizimli yondashuv, analiz va sintez qilish, xarakterli nuqtalarda qarorlar qabul qilish va muammoni hal etishda ijodiy fikrlashni talab qiladi. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchining umumiy intellektual rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi.

2. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda asosiy tamoyillar

a. O‘quvchilarning individual yondashuvi

Har bir o‘quvchining matematik qobiliyati turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, matematik ta'limda individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularga mos ravishda o‘quv dasturini tuzishi kerak. Bu yondashuv o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlarini to‘liq ochishga va rivojlantirishga yordam beradi.

b. Amaliy mashg‘ulotlar

Matematik bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar yordamida mustahkamlash juda muhimdir. O‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash orqali ularni yaxshi anglaydi va mustahkamlaydi. Masalan, turli xil masalalarni yechish, real hayotdagi vaziyatlarni matematik jihatdan tahlil qilish, masalalar va vaziyatlar asosida guruhlar bo‘lib ishlash o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

c. Innovatsion pedagogik texnologiyalar

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, interaktiv ta'lim platformalari, multimedia materiallar, kompyuter dasturlari matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bu texnologiyalar orqali o‘quvchilar matematik masalalarni turli xil usullarda yechishni o‘rganadilar, shu bilan birga matematik bilimlarni yanada kengroq va chuqurroq tushunishga erishadilar.

3. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘qituvchining roli

O‘qituvchi o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. U o‘quvchilarga matematik fikrlashning asoslarini tushuntirishi, ularni mantiqiy va tahliliy fikrlashga o‘rgatishi, shuningdek, qiyin vaziyatlarda muammo hal qilishni o‘rgatishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi usullarni o‘rgatishi mumkin:

Savol berish: O‘qituvchi savollar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu usul o‘quvchining mavzu bo‘yicha tushunchalarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Izohli fikr yuritish: O‘qituvchi o‘quvchilarga masalalarni yechishda izohlar berib, ularning fikrlash jarayonini boshqaradi va to‘g‘ri yo‘nalishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Tajriba va kuzatishlar: O‘quvchilar matematik masalalarni amaliyotda bajarish orqali o‘z qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Tajribalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini sinab ko‘rishlariga imkon yaratadi.

4. O‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun tavsiyalar

Zamonaviy metodlarni qo‘llash: O‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar zamonaviy metodlarni, masalan, muammoni hal qilish orqali ta'lim, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradigan topshiriqlarni qo‘llashlari kerak.

Interaktiv darslar tashkil etish: O‘quvchilarni faollashtirish, ularni guruhlarga bo‘lish va birgalikda muammolarni hal qilish orqali matematika o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish mumkin.

Mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratish: O‘quvchilarga mustaqil ishlar, masalalar va loyihalar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlashga imkoniyat berish zarur.

Xulosa. Matematik qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini, balki ularning umumiy intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quvchilarni matematik tafakkur va analitik fikrlashga o‘rgatish, o‘zlarini ishonchli va samarali ishlashga tayyorlashda muhimdir. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar turli pedagogik metodlarni qo‘llashlari, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishlari lozim. Bu orqali o‘quvchilarda matematik qobiliyatlarni samarali rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

XALQARO BAHOLASH TA'LIM DASTURLARI TURLI DAVLATLARDAGI TA'LIM TIZIMLARIDAGI TUTGAN O'RNI

Turayeva X.I.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi tarbiya fani metodisti

Annotatsiya: Xalqaro baholash tizimlari ta'lim tizimlarining samaradorligini o'lchash va global miqyosda taqqoslash uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada xalqaro baholash tizimlarining, masalan, PISA, TIMSS va PIRLS kabi dasturlar, turli davlatlardagi ta'lim tizimlaridagi o'rni va ta'siriga bag'ishlanadi. Maqolada, birinchi navbatda, xalqaro baholash tizimlarining ta'lim sifatini o'lchash va taqqoslashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu tizimlar davlatlarga o'z ta'lim tizimlarini boshqa mamlakatlar bilan solishtirish imkonini berib, yuksak natijalarga erishish uchun ta'lim siyosatlarini yangilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Xalqaro baholash tizimlari, TIMSS, o'quvchilarning ko'nikmalari, ta'lim tizimi, PISA, PIRLS, ta'lim sifati.

Kirish: Xalqaro baholash tizimlari, masalan, PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study), va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), dunyo bo'ylab ta'lim tizimlarining samaradorligini baholashga va taqqoslashga yordam beradigan asosan yirik va global miqyosda amalga oshiriladigan tadbirlardir. Xalqaro baholash tizimlari turli mamlakatlardagi ta'lim tizimlarini taqqoslash imkonini beradi. Bu orqali davlatlar o'z tizimlarini boshqa mamlakatlardagi tizimlar bilan solishtirishi va o'z kamchiliklarini aniqlashi mumkin. Misol uchun PISA dasturi o'quvchilarning 15 yoshdagi bilim va ko'nikmalarini baholaydi va ularning natijalarini turli davlatlar bilan solishtiradi. Bu o'quvchilarning matematika, tabiatshunoslik va o'qish sohasidagi bilimlarini o'lchash orqali har bir davlatning ta'lim tizimini baholashga yordam beradi. PISA natijalari, ayniqsa, kam rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar uchun ta'lim tizimini yaxshilash bo'yicha takliflar va o'zgarishlarni kiritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Misol uchun, Singapur va Shvetsiya kabi mamlakatlar PISA natijalariga asoslanib o'z ta'lim dasturlarini yangiladi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqdi. Xalqaro baholash tizimlari ta'lim tizimlarining global miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Mamlakatlar yuqori natijalarga erishish uchun o'z ta'lim tizimlarini yaxshilashga intilishadi. Misol uchun Xitoy, Janubiy Koreya, Finlandiya kabi mamlakatlar xalqaro baholash tizimlaridagi yuqori o'rinlarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'ygan va bu orqali o'z ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirgan. Ushbu mamlakatlar ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish va o'qitish usullarini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratishgan. PISA va TIMSS kabi dasturlar o'quvchilarni ijtimoiy va iqtisodiy holatiga qarab guruhlarga ajratib baholashadi. Bu o'quvchilarning daromad darajasi, jinsi, hududi va boshqa omillar asosida qanday natijalar olishlarini ko'rsatadi va ta'lim tizimida tenglikni ta'minlash uchun qanday choralar ko'rilishi kerakligini belgilaydi. Masalan, o'quvchilarning ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanmagan qismiga ko'proq e'tibor qaratish, davlatlar tomonidan qo'llaniladigan ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ladi. Xalqaro baholash tizimi Finladiya misolida oladigan bo'lsak, bu davlat o'zining ta'lim tizimi bilan dunyo miqyosida mashhur bo'lib, bu tizimni baholashda xalqaro baholash tizimlari, masalan, PISA, TIMSS va PIRLS

xalqaro baholash dasturlari katta ahamiyatga ega. Ushbu baholash tizimlari Finlandiya ta'lim tizimining samaradorligini o'lchash va uni global miqyosda taqqoslashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Finlandiya ta'lim tizimi bu baholashlar natijalariga asoslanib o'zining kuchli tomonlarini saqlab, zaif jihatlarini takomillashtirishga harakat qiladi. PISA dasturi, har uch yilda 15 yoshli o'quvchilarning matematika, o'qish va tabiatshunoslik fanlari bo'yicha bilimlarini baholaydi. Finlandiya PISA testlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ushbu baholashlar Finlandiya ta'lim tizimining asosiy kuchli tomonlarini ko'rsatib beradi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — bu xalqaro o'quvchilarni o'qish savodxonligi bo'yicha baholash dasturi bo'lib, u 4-sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini o'lchaydi. Xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijaga erishgan davlatlardan biri Janubiy Koreya PIRLS dasturida doimiy ravishda yuqori natijalarga erishib kelmoqda, bu esa mamlakatning ta'lim tizimining o'qish savodxonligi sohasidagi kuchli tomonlarini va muvaffaqiyatli strategiyalarini ko'rsatadi. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi o'qish savodxonligini oshirishga katta e'tibor qaratadi. Maktabgacha ta'limdan boshlab, o'quvchilarga o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar mavjud. O'quvchilarga matematikadan tashqari, o'qish va yozishni ham chuqur o'rgatish tizimi ishlab chiqilgan. Janubiy Koreyada o'qituvchilarni malaka oshirish va ularning metodologiyasini takomillashtirishga katta e'tibor qaratiladi. O'qituvchilar o'quvchilarga o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanadilar. Bu o'qituvchilar o'quvchilarni faol o'qishga jalb qilishda, o'qish faoliyatlarini tushunish va rivojlantirishda samarali yondashuvlarni taqdim etadi. Janubiy Koreya o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali global ta'lim raqobatida yuqori o'rinlarni egallashga intiladi. Bu o'quvchilarga turli xil o'qish resurslari va motivatsiya manbalarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro baholash tizimlarining natijalari orqali davlatlar o'z ta'lim tizimlaridagi kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish uchun samarali choralar ko'rishga intilishadi. Maqola, shuningdek, o'qitishning sifatini oshirish uchun yangi yondashuvlar va global ta'lim standartlariga asoslangan islohotlarni amalga oshirishda bu tizimlarning ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, maqola xalqaro baholash tizimlarining ta'lim tizimlarini global miqyosda rivojlantirish va yanada samarali qilishdagi muhim rolini ochib beradi. Bu tizimlar nafaqat ta'lim sifatini baholash, balki uning yaxshilanishi uchun asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education: All Means All. UNESCO. 2020-yil
2. PISA 2018. O'qish savodxonligini qamrov doirasi. Toshkent-2021-yil
3. PISA tatqiqotlarida kreativ fikrlashni baholash doirasi. O'zbekiston Resbublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Toshkent-2020.
4. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan Axborotnoma .2020-№ 2.Toshkent-2020.

FAOLIYAT KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Oblakulov A.E.,
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola “Faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusini yoritadi va faoliyat ko‘nikmalarining ahamiyatini, ularning turlari va shakllantirish jarayonini ko‘rsatadi. Maqolada faoliyat ko‘nikmalarining ijtimoiy, kognitiv va emotsional jihatlari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida ularni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, jamoa ishlari va simulyatsiyalar kabi usullar taklif etiladi. Amaliyot va o‘z-o‘zini baholash jarayoni ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Yana maqola, shuningdek, faoliyat ko‘nikmalarining shaxsiy va professional muvaffaqiyatga ta’siri haqida fikrlar bildiradi. Adabiyotlar ro‘yxati maqola ichidagi fikrlarning ilmiy asosini ta'minlaydi. Umuman olganda, ushbu maqola faoliyat ko‘nikmalarining shakllantirish jarayonini chuqur tahlil etib, ta'lim va kasbiy rivojlanish uchun zaruriy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: faoliyat ko‘nikmalari, shakllantirish jarayoni, ijtimoiy ko‘nikmalar, kognitiv ko‘nikmalar, emotsional ko‘nikmalar, ta'lim muassasalari, interaktiv metodlar, jamoa ishlari, simulyatsiya, amaliyot, o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyat, professional rivojlanish, ta'lim jarayoni.

Аннотация: Данная статья посвящена теме “Формирование навыков деятельности” и освещает важность этих навыков, их виды и процесс формирования. В статье подробно анализируются социальные, когнитивные и эмоциональные аспекты навыков деятельности. Также предлагаются методы их развития в образовательных учреждениях, такие как интерактивные методы, командные проекты и симуляции. Процесс практики и самооценки играет важную роль в развитии навыков. Статья также содержит размышления о влиянии навыков деятельности на личный и профессиональный успех. Список литературы обеспечивает научную основу представленных в статье идей. В целом, данная статья углубленно анализирует процесс формирования навыков деятельности и предоставляет необходимые рекомендации для образования и профессионального развития.

Ключевые слова: Навыки деятельности, процесс формирования, социальные навыки, когнитивные навыки, эмоциональные навыки, образовательные учреждения, интерактивные методы, командные проекты, симуляция, практика, самооценка, личный успех, профессиональное развитие, образовательный процесс.

Annotation: This article is dedicated to the topic of “Developing Activity Skills” and highlights the importance of these skills, their types, and the process of development. It provides a detailed analysis of the social, cognitive, and emotional aspects of activity skills. The article also suggests methods for developing these skills in educational institutions, such as interactive teaching methods, team projects, and simulations. The process of practice and self-assessment plays a crucial role in skill development. Additionally, the article discusses the impact of activity skills on personal and professional success. The bibliography offers a scientific basis for the ideas presented in the article. Overall, this article deeply analyzes the process of

developing activity skills and provides essential recommendations for education and professional growth.

Key words: Activity skills, development process, social skills, cognitive skills, emotional skills, educational institutions, interactive methods, team projects, simulation, practice, self-assessment, personal success, professional development, educational process.

Kirish

Faoliyat koʻnikmalari — bu shaxsning maqsadlariga erishish, muammolarni hal qilish va jamoada samarali ishlash uchun zarur boʻlgan qobiliyatlar toʻplamidir. Bugungi kunda globalizatsiya va tez oʻzgaruvchan muhit sharoitida bu koʻnikmalarni shakllantirish har bir shaxs uchun muhimdir.

1. Faoliyat koʻnikmalari tushunchasi.

Faoliyat koʻnikmalari uch asosiy kategoriya boʻyicha tasniflanadi:

Ijtimoiy koʻnikmalar: Boshqalar bilan muloqot qilish, jamoa ichida hamkorlik qilish va tushunish. Masalan, muloqot, jamoaviy ish va konfliktlarni hal qilish.

Kognitiv koʻnikmalar: Analitik fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish. Ushbu koʻnikmalarni rivojlantirish uchun talabalar oʻz fikrlarini tahlil qilish va baholash orqali oʻz bilimlarini oshirishi mumkin.

Emotsional koʻnikmalar: Oʻz his-tuygʻularini boshqarish va boshqalar hissiyotlarini tushunish. Ushbu koʻnikmalar oʻz-oʻzini anglash va stressni boshqarishga yordam beradi.

2. Faoliyat koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni.

Faoliyat koʻnikmalarini shakllantirish jarayoni bir nechta muhim bosqichlardan iborat:

Tajriba orttirish: Talabalar amaliy mashgʻulotlar, stajirovkalar yoki guruh loyihalari orqali real hayotdagi vaziyatlarda koʻnikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Tahlil va refleksiya: Oʻz faoliyatini tahlil qilish, oʻzgarishlarni kuzatish va muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklardan saboq olish muhimdir. Bu jarayon shaxsiy oʻsishga xizmat qiladi.

Mentorlik va oʻquv dasturlari: Tajribali mutaxassislar bilan ishlash, ulardan maslahatlar olish va professional rivojlanish uchun maxsus kurslarda qatnashish koʻnikmalarni rivojlantirishda samarali.

3. Ta'lim muassasalarida faoliyat koʻnikmalarini shakllantirish.

Ta'lim muassasalarida faoliyat koʻnikmalarini shakllantirish uchun bir qancha metodlar mavjud:

Interaktiv darslar: Talabalarni faol muloqotga jalb qilish, guruh muhokamalari va munozaralar oʻtkazish orqali koʻnikmalarni rivojlantirish.

Loyihalash va jamoa ishlari: Talabalarni jamoaviy muammolarni hal qilishga undash, jamoa ichida rollarni taqsimlash va oʻzaro yordamni rivojlantirish.

Simulyatsiya va rol oʻynash: Real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish, masalan, biznes muhokamalari yoki muammo yechish simulyatsiyalari.

4. Amaliyot va oʻz-oʻzini baholash.

Amaliyot va oʻz-oʻzini baholash jarayoni koʻnikmalarni rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi. Talabalar oʻz bilim va koʻnikmalarini baholash orqali oʻz rivojlanishlarini kuzatishlari, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari mumkin.

5. Faoliyat koʻnikmalarining ahamiyati.

Faoliyat ko‘nikmalari hayotning turli jabhalarida, jumladan, professional sohada, shaxsiy hayotda va ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishishda muhimdir. Ular:

Kareraga ta’siri: Zamonaviy ish bozorida faoliyat ko‘nikmalari yuqori baholanadi, chunki ish beruvchilar samarali va moslashuvchan xodimlarni qidirmoqda.

Shaxsiy rivojlanish: Ushbu ko‘nikmalar shaxsning o‘zini anglashiga va o‘z maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Xulosa

Faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni davomiy va kompleks bo‘lib, ta’lim muassasalari, ish joylari va shaxsiy hayotda izchil rivojlanishni talab etadi. Ularning samarali shakllanishi esa shaxsiy va professional muvaffaqiyatning asosiy kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatov, S. (2020). “O‘zbekiston ta’'lim tizimida faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish.” Tashkent: Ma’naviyat.
2. Karimova, N. (2018). “Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar.” Tashkent: Fan va texnologiya.
3. G‘ulomov, M. (2021). “Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish.” Journal of Educational Sciences, 2(3), 45-50.
4. Jalilov, R. (2019). “Talabalar uchun ko‘nikmalarni rivojlantirish dasturi.” Tashkent: Ta'lim.
5. Xolmatova, D. (2022). “Faoliyat ko‘nikmalari va ularning ahamiyati.” International Journal of Education, 4(1), 12-18.

BIOLOGIYA DARSLARDA PISA TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Hamroqulova D.A.,
Samarqand tuman 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada PISA testlarini qay tartibda tuzish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qay darajada qo‘llay olish qobiliyati haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, bilim, ko‘nikma, malaka, PISA, dastur, kompyuter, integrallashgan, innovatsion, kompetensiya.

Аннотация. В этой статье обсуждается порядок, в котором разрабатываются тесты PISA, и степень, в которой знания, навыки и способности учащихся могут быть применены в хирургии.

Ключевые слова: Метод, знания, навыки, квалификация, PISA, программное обеспечение, компьютер, интегрированный, инновационный, компетенция.

Annotation: This article discusses the order in which PISA tests are designed, and the extent to which students' knowledge, skills, and abilities can be applied to surgery.

Keywords: Method, knowledge, skills, qualifications, PISA, software, computer, integrated, innovative, competence

O‘zbekiston Respublikasi Xaiq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishishga erishdi.

PISA (inglizcha-Programme for Internettional Student) turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar)hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi.Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan.

PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi:o‘qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muommolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlari. O‘zbekiston respublikasi 2021-yilda uch yo‘nalish: o‘qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo‘nalishlari bo‘yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Testlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarning mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha; Eng asosiy tushunchalarni bilish, bazaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.Xo‘sh PISA dasturining maqsadi nima, u qanday va PISA savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

XXI asr- information texnalogiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxasislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi.PISA testlari xuddi shu o‘zgarishlarni ta’lim tizimida aks ettirishi, maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarni tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganligini, ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini bilib olishdir.

PISA topshiriqlari kompyuterda bajariladi.Test topshiriqlari tayyor javobli bo‘lib,ulardan to‘g‘risi tanlanadi.Shuningdek javobsiz testlar ham bo‘ladi.Bularga o‘quvchi to‘liq yoki qisqa javob berishi so‘raladi.Ayrim test topshiriqlari bitta hayotiy vaziyatga oid, biroq turli qiyinlik darajasidagi test savollaridan iborat bo‘ladi.

1-PISA topshirig‘i. Tinch holatda odam bir marta nafas olganda va nafas chiqarganda 500 ml havo oladi va shuncha havo chiqaradi. Odam chuqur nafas olganda va chiqarganida 1500 ml havo oladi va chiqaradi.

a) O‘pkaning tiriklik sig‘imi qanday hisoblanadi.

b) O‘pkaning tiriklik sig‘imi qaysi asbob bilan o‘lchanadi.

d) Odam tinch holatda 1 minut davomida 8-9 litr havo olib shuncha havo chiqaradi. U 1 sutka davomida necha litr havo olib, necha litr havo chiqaradi.

s) Nafas olinganda o‘pkaga o‘tadigan havo tarkibida qaysi kimyoviy elementlar uchraydi?

2-PISA topshirig‘ining yechimi

a) nafas havosi + qo‘shimcha havo + zaxiradagi havo = o‘pkaning tiriklik sigi’mi

500ml + 1500ml +1500ml =3500ml

Javob:3500 ml O‘pkaning tiriklik sig‘imi.

b) O‘pkaning tiriklik sig‘imi spirometr yordamida o‘lchanadi.

d) 1 min- 8-9 litr; 1 sutka – 24 soat; 1 soat – 60 minut; 24 * 60 = 1440 min

1440 minut* 9 litr = 12960 litr

Javob: 1 sutkada 12960 litr havo olib, chiqaradi.

s) kislorod-O, azot-N, karbonat angidrid-CO2, inert gazlar va suv bug‘lari

2-PISA topshirig‘i.Og‘iz bo‘shlig‘ida yashovchi bakteriyalar tishlar kariesining sababchisi sanaladi. XVIII asrdan boshlab shakarqamishdan shakar ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan karies muammoga aylandi. Hozirgi kunda karies haqida ko‘p narsa bilamiz.

Masalan: • Kariesning sababchisi bo‘lgan bakteriyalar shakar bilan oziqlanadi.

• Shakar kislotaga aylanadi.

• Kislotatishlarning ustki qoplamini zararlaydi.

• Tishlarni yuvish kariesning oldini oladi.

1-savol: Tishlar kariesida bakteriyalar qanday ahamiyatga ega?

A) Bakteriyalar emal ishlab chiqaradi

B) Bakteriyalar shakar ishlab chiqaradi

C) Bakteriyalar minerallar ishlab chiqaradi

D) Bakteriyalar kislota ishlab chiqaradi Javob: D

Ba'zi mamlakatda bir nafar odamga to‘g‘ri keladigan kariesbilan kasallangan tishlarining o‘rtacha soni ancha yuqoridir. Bu mamlakatda karies bilan bog‘liq muammolarga ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan quyida keltirilgan savollarga javob topish mumkinmi? Har bir savolda "Ha" yoki "Yo‘q"ni doiraga oling.

2-savol: Karies bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha quyida keltirilgan savollarga ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish orqali javob topish mumkinmi?

Ha yoki Yo‘q

Vodoprovod suvi gaftor qo‘shish tishlar kariesi muammosiga ta'si r ko‘rsatadimi?

Ha/Yo‘q

Tish doktori qabulida bo‘lish pullik bo‘lishi kerakmi? Ha/Yo‘q

Xulosa qilib aytganda, PISA topshiriqlari o‘quvchining bilimni emas balki, ularning egallagan bilim va ko‘nikmalarini duch kelgan vaziyatlarda qo‘llay olishini, fikrlashini baholaydigan sistema hisonblanadi. Bundan tashqari PISA topshiriqlarida tabiiy fanlar uyg‘unligini, ularning o‘zaro bog‘liqligini, integrallashganini ko‘rish mumkin.Shu kabi innovatsion texnologiyalardan dars jarayonlarida foydalanish o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalar yanada rivojlanib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.

2. Mavlonov O. Tilavov T, Aminov B. Biologiya (Odam va uning salomatligi). Davlat ilmiy nashriyoti. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik. Toshkent, 2019-y.

STEAM TA‘LIM TEXNOLOGIYASINI MAKTABGACHA TA‘LIMDA QO‘LLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR

Mirzayeva X.U.,
Karmana tuman 23-son DMTT metodisti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta‘lim texnologiyasini qo‘llash afzaliklari va qo‘layliklari to‘g‘risida so‘z yuritilgan bo‘lib, rvojlanish markazlarida ushbu texnologiyadan foydalanish orqali bolalarning kreativ qobiliyatini, ijodkorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyaning xorijiy davlatlar tajribalari to‘g‘risida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bilish jarayoni, STEAM texnologiyasi, ijodiy qobiliyatlar, tashabbuskorlikni rivojlantirish, robototexnikaga qiziqtirish.

Kirish. Barcha bolalar jinsi, madaniyati, etnik kelib chiqishi va irqidan qat'iy nazar, o‘rganish uchun tug‘iladi va atrof olamni bilib olishga tayyor bo‘ladi. STEAM ta‘lim texnologiyasi orqali bolalar dunyoni kashf qilish va o‘rganish jarayonini boshlaydi. Bolani bilish jarayonida ishtirok etishga va umumiy bilimlarni egallashga undash kerak. 7 yoshgacha bo‘lgan bolaning har tomonlama intellektual rivojlanishidagi asosiy kutilgan natijalarga erishish ya‘ni;

- bolaning analitik fikrlash;
- axborotlarni to‘plash va ulardan foydalanish qobiliyati, bolaning rivojlanish darajasidan qat'iy nazar muammolarni hal qilish qobiliyati;
- ijodiy qobiliyatlarni va tashabbuskorlikni rivojlantirish, robototexnikaga qiziqtirish;
- aqlli miya va aqlli qo‘l strategiyasini qo‘llash malakasini oshirish juda muhimdir.

Ta'limning turli darajalarida STEAM texnologiyalarini joriy etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta'limda asosiy e'tibor loyiha-tadqiqot va o‘yin faoliyatiga qaratiladi, hayot muammolarini hal qilishda mustaqillikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi, o‘zaro hamkorlikda faoliyat mahsulotlarini loyihalash rejalashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi farmoni PF-4312 misolida ko‘rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so‘z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo‘lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Kontsepsiyaning ustivor yo‘nalishlari;

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni tatbiq etish (axborot ma‘lumotlar bazasini va multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish, uy ta‘limi va ota-onalarning ma‘lumot olishi uchun raqamli ta‘lim resurslarini tatbiq

etish, respublikaning barcha MTMlarini kompyuterlar bilan ta‘minlanishini va Internet tarmog‘iga ulanishini bosqichmabosqich amalga oshirish);

• kadrlarni tanlashda va rivojlantirishda yangi yondashuvlarni tatbiq etish (xalqaro ta‘lim standartlarini tatbiq etish, chet el ekspertlarini jalb qilish va chet elga tajriba orttirish safarlarini tashkil etish, xodimlar faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, kadrlarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish)dan iborat.

Maktabgacha ta’limni olib borishda samarli hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan yana biri STEAM texnologiyalari hisoblanadi.

STEAM - hozirgi kunda dunyo ta’lim tizimining eng asosiy urf bo‘lgan innovatsion metodlaridan biri hisoblanadi. Bir qaraganda STEAM abbreviaturasi juda murakkab ko‘rinsada, aslida sodda va aniq ko‘rinishga ega. S – science (ilm-fan); T – technology (texnologiya); E – engineering (muhandislik); A – art (san’at); M – mathematics (matematika). Oddiy so‘z bilan aytganda, zamonaviy dunyoda eng ko‘p talab etilayotgan fanlardir. Hech kimga sir emaski, ko‘plab fan tarmoqlarida katta yutuqlarga erishish uchun o‘zlashtiriladigan turli sohalardagi bilimlarning integratsiyasi talab etiladi. Aynan shunday muammolarni hal qilishda STEAM texnologiyasi yordam beradi. Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Bugungi kunda STEAM – ta‘lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan.

Bunday ta‘limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, bunda ular fikrlarni to‘plashi va fikrlar almashishi mumkin. Shuning uchun, asosiy ta‘lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta‘minlaydi.

Faol muloqot va jamoaviy ishni tashkil etishni o‘rgatadi. Statistikaga ko‘ra, 2011-yildan buyon STEAM-kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo‘lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta‘lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi. Ko‘rinib turibdiki, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limida integratsion yondashuv samarali bo‘lib, nafaqat ularning ta’lim va tarbiyasi balki, intellektual rivojlanishi va har tomonlama yetuk bo‘lishini ta’minlaydi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil, Koreya, Singapur, AQSH kabi ko‘plab rivojlangan mamlakatlar STEAM ta‘limi sohasida davlat dasturlarini amalga oshirib

kelmoqdalar. STEAM-ta'lim dasturi talabalari fizika va matematikadan tashqari robototexnika, dasturlash, o‘z robotlarini loyihalash va amalda qo‘llashni o‘rganadilar. Darslarda 3D-printerlar, vizualizatsiya vositalari va boshqa jihozlar kabi maxsus texnologik laboratoriya va o‘quv jihozlaridan foydalaniladi.

STEAM tashabbusi asoschisi Jorgette Yakman, STEM qisqartmasiga san'atni qo‘shish g‘oyasini ko‘tarishdan tashqari, 2006- yildan buyon sub'ektlarning birgalikda ishlashining va global ijtimoiy-iqtisodiy dunyoga mos kelishining rasmiy usulini o‘rganish asosida ilmiy va amaliy mashg‘ulotlar olib borgan: "Fan va texnika, muhandislik va Matematika elementlariga asoslangan san'at.

"U individual o‘qituvchilarga malaka oshirish bo‘yicha treninglar va STEAM tizimidan qanday foydalanish bo‘yicha dasturlarni taqdim etadi. 2009 yilda senator Mark Uorner Yakmanning NCTC ning STEAM 2009 yilning eng yaxshi o‘qituvchisi nominatsiyasini e'lon qildi. STEAM kuni 8-noyabr kuni nishonlanadi va innovatsiya so‘ziga bag‘ishlangan o‘yin va turli loyihalar tashkil etiladi. Bolalar va fan STEAM kuni 2015 - yilda MGA Entertainment tomonidan tashkil etilgan va rasmiy ta'tilga aylangan. "Biz bolalarga STEM va STEAM allaqachon ularning atrofida ekanligini va ularning sevimli mashg‘ulotlari aslida ilm-fan, texnika, muhandislik, san'at va matematikaga asoslanganligini anglashishimiz shart, "dedi Isaak Larian, MGA Entertainment bosh direktori. STEAM yondashuviga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o‘quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o‘quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga urg‘u berishdir.

STEM texnologiyasining mohiyati bo‘yicha xulosalar asosiysi, alohida mavzuning mazmuni emas, balki uning tarkibiy qismlarini birlashtirish va birgalikda ishlash jarayonidir. Prototipni tadqiq qilish, yaratish yoki takomillashtirish jarayonida ulanish nuqtalarini izlash kerak. Bola o‘z bilimlaridan bir nechta fanlarda foydalanishi kerak, bu esa dunyoning yaxlit tabiiy fan rasmini shakllantirishga yordam beradi. Boshqalardan o‘rganing Xitoyda biznes ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv rejasining 23 foizini tashkil etadi.

Singapur 2002 yilda shahar-davlatni ijodkorlik, innovatsiyalar va dizaynning jahon markaziga aylantirish maqsadida Singapurni o‘zgartirish tashabbusini boshlagan. STEAM iqtisodiyoti – texnologiya AQSH ta’lim islohotining markazidadir Massachusets shtatida qonunlar qabul qilindi, bunda maktablar har bir maktabning o‘quv dasturi o‘quvchilarning ijodkorligini oshirishga qanchalik hissa qo‘shayotganiga qarab -ijodkorlik deb nomlanadi.

Isroil, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Koreya, Avstraliya, Hindiston, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida STEAM ta‘lim sohasidagi davlat dasturlari joriy etilgan. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.

STEM ta'lim fanlararo va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha to‘rtta fanning yagona sxemaga integratsiyalashuviga asoslangan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisiga murojaatidan 2018- yil 1- mart kuni: "bugungi kunda eng muhim raqobat afzalligi-bilim, texnologiya. Bu hayot sifatini yaxshilash uchun haqiqiy yutuqning kalitidir.

Qisqa vaqt ichida biz ilg‘or Qonunchilik bazasini ishlab chiqishimiz, robotika, sun'iy aql, uchuvchisiz transport, elektron tijorat, katta ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va keng qo‘llash uchun barcha to‘siqlarni olib tashlashimiz kerak". Ushbu so‘zlar Stem-ta'limni amalga oshiradi va uning afzalliklarini ta'kidlaydi,va bu jarayon amalga oshirilmoqda. Ta‘limda STEAM yondashuv maktabgacha va maktab yochidagi bolalar ta‘limida loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida STEM ta'limini qanday amalga oshirish mumkin? Loyiha va eksperimental tadqiqot faoliyatini tashkil etish orqali.

Muvaffaqiyatli ishlashning majburiy sharti maqsadli qurilmalarga mos keladigan dolzarb mavzu-makon muhitini yaratishdir. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning turli faoliyatlari mazmunini integratsiya qilish, o‘yin qo‘llanmalari va materiallari makonida kesishish, mustaqil faoliyat uchun asbob-uskunalarning mavjudligi, natijalarni namoyish etish imkoniyati birlashtiruvchi omil bo‘lishi mumkin STEM ta'lim olti modul iborat. Har bir modul kompleks yechim orqali STEM ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan o‘ziga xos vazifalarni hal etishga qaratilgan: intellektual qobiliyatlarni ishlab chiqish jarayon-tadqiqot faoliyatida va maktabgacha yoshdagi bolalarning ilmiy-texnikaviy ijodiga jalb qilish.

1."F.Frebelning didaktik tizimi" ta’lim moduli-atrof-muhit ob’ektlari bilan tajriba geometrik jismlar va raqamlar bilan harakat qilish orqali matematik haqiqatni rivojlantirish-tadqiqot munosabatlarni rivojlantirish - turli burchak va proektsiyalarda loyixalar yaratish.

2."LEGO-Construction"- amaliy va aqliy eksperiment o‘tkazish, umumlashtirish, nutqni rejalashtirish va nutq sharhlash jarayoni va o‘z faoliyatining natijasi;- ona tilini yaxshi bilish (so‘z birikmalari, nutqning grammatik tuzilishi, fonetik tizim, semantik strukturaning boshlang‘ich g‘oyalari); - yangi tasvirlarni yaratish, fantaziya qilish, o‘xshashlikdan foydalanish qobiliyati. LEGO-bolalarga yoqishining sababi shuki, bir xil elementlardan butunlay boshqa konstruksiyalarni yaratish mumkin.

3. “Matematik rivojlanish” ta’lim moduli-bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish muammolarini kompleks hal etish: kattaligi, shakli, maydoni, vaqti, soni va hisob, fazovaviy mo‘ljal olish

4. "Robototexnika" ta'lim moduli-mantiq va algoritmik fikrlashni rivojlantirish; - dasturlash asoslarini shakllantirish; - rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish; - axborotni qayta ishlash; - abstrakt qilish va naqshlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi. Robotika to‘plamlari bolalarni ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda ijodkorlikka jalb qilishga yordam beradi

5.”Multstudiya” ta’lim moduli men dunyoni yarataman".

-AKT (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish;

- media texnologiyalarini o‘zlashtirish;

- badiiy va texnik ijodiyot sintezi asosida samarali faoliyatni tashkil etish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni STEAM ta’lim moduli sifatida ―Men dunyoni yarataman! animatsiya studiyasidan foydalanishning qo‘shimcha, ammo o‘ta muhim

"bonusi bu mualliflik animatsion filmini yaratish jarayonida bolalar faoliyatining deyarli barcha turlarini uyg‘un va tabiiy ravishda birlashtirishdir. Dastur bo‘yicha ishlash bolalar bilan multfilm studiyasini tashkil qilish uchun barcha talablarni hisobga olgan holda tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilgan muhitda amalga oshiriladi.

6.”Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba” ta’lim moduli-eksperimental faoliyatda atrof-muhit haqidagi g‘oyalarni shakllantiradi hamda vizual hissiy hislar jarayonida barcha jonzotlarning birligini anglaydi.

Rossiyada maktabgacha ta'lim majburiy emas, ammo olti yoshdan kichik bo‘lgan ko‘plab bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida o‘qiydilar. Maktabgacha tarbiya bolalar bog‘chasi yoki bolalar ta‘lim muassasasidan iborat. Ushbu maktab asosan bolalarning jismoniy faoliyati va ijodiga e'tibor beradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga juda yosh bolalar uchun bolalar bog‘chalari va bolalarni kelajakda o‘qishga tayyorlaydigan maxsus markazlar kiradi. Ushbu muassasalar davlat yoki xususiy shaxslarga tegishli. Xususiy korxonalar faoliyati ma'murlar tomonidan nazorat qilinadi va o‘qitish va moliyaviy yordam ko‘rsatishda ilg‘or uslublarni joriy qilishni rag‘batlantiradi. Maktabgacha ta'lim tizimini bunday tashkil etishning shubhasiz ustunligi turli xil pedagogik yangiliklarga nisbatan harakatchanlikdir. Ular 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta’lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog‘chalarni mablag‘ bilan ta‘minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog‘chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog‘chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham bor. Har bir modul muayyan vazifalarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, ularni kompleks hal etishda STEM-ta'lim maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bilim va tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning ilmiy-texnik ishiga jalb qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Namangan davlat universiteti. Maktabgacha ta‘limda steam texnologiyalari. Ma‘ruzalar matni. Namangan 2022/
2. Jurayeva T.I., Ismoilova G.T. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar - taraqqiyot negizidir / “O‘zbekiston iqtisodiyotini institutsional rivojlantirish: yutuqlar, muammolar, yechimlar” mavzusidagi ilmiy –amaliy konfrensiya materiallari to‘plami / TDIU 2016-yil 12-mart.
3. Atabayeva, K.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati/K. R. Atabayeva. // Yosh olim. 2017. - № 24.1 (158.1). - B. 7-9. — URL: https://moluch.ru/archive/158/44574/ (Murojaat sanasi: 03.06.2023).

3-SHO'BA: O'QUVCHILAR KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.

OYDIN HOJIYEVA SHE'RLARIDA OT METONIMIYA USULIDA MA'NO KO'CHISHINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Mardanov U.R.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori

O'zbek tili nutqiy vositalarga boy tillardan biridir. Ma'lumki, har qanday tilning taraqqiyoti o'sha jamiyatning, uning egasi bo'lgan millatning rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Tildagi mavjud lingvistik hodisalarni kommunikativ nuqtayi nazardan tadqiq etish hozirgi davr tilshunosligining etakchi sohalaridan biri bo'lib kelmoqda. O'zbek she'riyati misolida bu yo'nalishni tadqiq etishda til imkoniyatlarining naqadar keng ekanligini ko'rishimiz mumkin.

She'riyatimizda milliy ruh, milliy tarix va ona-Vatan tuyg'ulari behad darajada oshdi. Shoirlar endi o'z qalblarining rozlarini kuylashga, ota-bobolarimiz suv ichgan daryodan ko'proq bahramand bo'lishga alohida e'tibor bera boshladilar. Shu jumladan, shoira Oydin Hojiyeva ham o'z she'rlarida inson va tarix, inson va jamiyat, inson va tabiat mavzularini doim mahorat bilan yoritdi.

Oydin Hojiyevaning tildan foydalanishga bo'lgan talabchanligi va javobgarlik hissini shoiraning o'tli she'rlaridan ham bilib olsa bo'ladi. Bu nodir mulohazalar nafaqat badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar, balki ona tilidan foydalanuvchi barcha insonlarning hayotida asqotishi mumkin.

Oydin Hojiyeva ijodidagi metonimiyalarga oid mulohazalarni bayon qilishda o'zbek tilshunosligida qilingan ana shunday ishlarga tayanish mumkin:

Saraton*ning dami kesilar,*
Tiniq tortar daryo irmog'i
Tolzorlarda sahar uzilar
"Shakarangur", "Kelin barmog'i".
Anjirlarning *xushbo'y bargida*
Dildiraydi durdona shabnam.
Tog'liklarda, vodiy girdida
Aylanadi salqin shamol ham. (Avgust kunlari, 40)
Sim arqon bog'ladilar,
Tortdilar buldozerda.
So'ngra butoqladilar
Olmani *payhon yerda. (Olmazorda, 47)*

Sevimli shoiramiz Oydin Hojiyeva o'z she'rlari bilan hozirgi adabiy jarayonda o'z mavqeyiga ega ijodkorlardan biridir.Uning betakror asarlarida til birliklari o'z o'rnida, ma'lum uslubiy vazifa bajarishga xoslangan.

Ming turfa qush ***"Yosin"*** *o'qir,*
"Alhumdulillo"*sin.*
Sen ham namozingga o'tir,
Yam-yashil joynamoz ekan!

Metonimiyaning uslubiy mohiyati, boshqa tasviriy vositalarda bo‘lgani kabi, matnda ochiladi.

Mutaxassislar metaforani ko‘chim turlaridan eng faoli sifatida e’tirof etadilar.Bu esa o‘z navbatida o‘z isbotini topgan. Qalami o‘tkir ijodkorlar o‘zlarining betakror ijod mahsulida ko‘chimning bu turi qo‘llangan go‘zal asarlarini kitobxonlarga taqdim etganlar. O‘ziga xos iste’dod sohibasi Oydin Hojiyeva nafaqat metafora balki metonimiya asosida ko‘chimning sara namunalarini yaratdi. Shoiraning “Shohsupa girdiga rayhon sepayin” she’ri bunga yaqqol misol bo‘ladi. Mazkur she’rda boshdan oyoq metonimiyaning badiiy uslub talabiga mos ravishda qo‘llay olgan.

*Shohsupa girdiga **rayhon** sepayin,*
Kelar yo‘lingizga suvlar sepayin,
Ko‘klam yomg’riday so‘zlari mayin,
***Sadarayxon** Sizni eslatur.*

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, “Shohsupa girdiga rayhon sepayin” she’rida boshdan oyoq metonimiyaning o‘ziga xos tarzda qo‘llanganligining guvohi bo‘lamiz. She’rning dastlabki misralarida “Shohsupa girdiga **rayhon** sepayin”,- misralarida rayhon so‘zi orqali uning urug’i nazarda tutilgan. Sadarahhon so‘zi orqali esa gulni nomi nazarda tutilgan.

Bog‘lar oralab o‘tsam,
***Qirqog‘ayni** gulimsan!*
Tog‘lar qoralab o‘tsam,
Xayollari do‘limsan!(Qarz 105)

Oydin Hojiyeva she’rlarida, asosan, otlarning metonimik holatda ishlatilishiga duch kelamiz, ba’zi o‘rinlarda sonlar va sifatlar ham metonenik xarakterga ega bo‘ladi. Faktlarga murojaat qilamiz:

Ot-metonimiya:*Kuzning osmonig, aprel kunlari, yorim qoshida va b.*
***Kuzning osmoniga** yarashar bulut,*
Yarashar arg‘imchoq solgan turnalar
***Kuzining osmoniga** sokinlik*
Osmon qubbasiga tog‘lar o‘rmalar (Kuz osmoni .)
*Juda xushbo‘y edi **aprel kunlari**,*
Zarracha g‘ubor yo‘q bahor husnida.
Quzg‘aldi-yu nogoh g‘am quyunlari,
Omoch surib o‘tdi jonim ustidan. (Aprel edi xushbo‘y, musaffo …)
Ish savdosi tushib boshiga,
Jigar-bag‘rib o‘lib laqqa cho‘g‘.
*Oshiq derkan: **Yorim qoshida***
Jon bersam gar hech armonim yo‘q! (Armon, 36)

Metonimiyaning semantik-stilistik ma’nosi, ko‘rganimizdek, matnda ochiladi.Matndan ajratib olingan metonimiyaning uslubiy xususiyati haqida gapirish qiyin.

Oydin Hojiyeva she’rlaridagi metonimiyalarning, bizningcha, ma’nolari quyidagicha:

a) **kuy qo‘shiq ma’nosida:**
Boshingda ming tuman savdodir sening,
Tongan-topinganning xudodir sening,

Hasrating vidodir, xushxabaring-ishq,
***Giryalar** joningdan o'todir sening.(108)*

b) **asar o'rnida yozuvchining nomi:**

G'alaba keladi tuzday tatimli!
Dil to'lib sollonib chorpoyalarda
*Miriqib tinglaymiz **Boborahimni**!*
O'shanda bol tomib hikoyalardan… (Ota. 87)

Mazkur misolda Boborahim Mashrab asarlari nazarda tutilgan.

s) asarning nomi metonimiya usulida ko'chishi::

Iste'dodli shoira taniqli adib Oybekka bag'ishlangan quyidagi misralarda ijodkor qalamiga mansub asarlarni misralar ichiga mahorat bilan singdirib yuboradi. Bular abibning mashhur "Tog' havosi", "Oltin vodiydan shabadalar", "Dilbar davr qizi" kabi asarlaridir. Bu esa she'rning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Ustoz, Sizga salom keltirdik bugun
"Toglar havosining feruzasidan",
"Oltin vodiylarning shabadasidan"
Davr qizlarining irodasidan,
Sobit Muqonlarning ma'ruzasidan,
Ustoz, Sizga salom keltirdik bugun! (Oybek. 90)
Do'mbira chirpindi, bir tor uzildi,
***"Ming bir kecha"**dan oh, viqor uzildi,*
Shoda injulardan qator uzildi,
Vodarig', ko'zyoshlar sel bo'lsin endi! (Yodnoma. 114)

Shoiraning "Yodnoma" she'ridan olingan mazkur parchada esa "Ming bir kecha" ertagi ko'zda tutilgan. Yana bir she'rida:

Sadoga evrilib chiqar tong-azon
"Ming bir kecha"dagi mezanalardan.
Shivirlab chiqadur faromush, hayron
Muzeylar asiri-so'zanalardan.
(Qadim Afrosiyob devorlarinda. 132)
***"Boychechagim boylandi"** deb*
Aytib o'tsa bolalar.
Ko'zlariga surtsin seni
Hamalga o'ch bolalar. (Bayramda gul kabi, 75)

Yuqoridagi misralarda xalq og'zaki ijodiga mansub *"Boychechagim boylandi"*ashulasi nazarda tutilgan

d) predmet o'rida uning materiali:

Sen ayolga
***Shohi ko'ylak** olib berma,*
Gulimsan, degil!
Afsonaviy qasr qurma,
Dilimsan, degil! (100)

e)tur tushuncha o'rnida jins tushuncha o'rnida:

*Rastalarda **kundal-kimxob** tovlanur,*
Dashtlarida qulon-kiyik ovlanur. (Buxoro)

Simyog'och quchog'ida
Varrak iplari mezon.
Akaslarning sochida
Jildiraydi oq marjon.
Uyda katta dahaga
Uyg'onadi ipak qurt.
Aylanadi shohiga
Bargi tarang ***balxi tut.*** *(May manzarasi, 73)*
Nosvoy *tugib kelgan chol.*
Davralarda gap topmay,
Kalovlanib qolar lol,
Ona-Yerni bir umr
Gapirtirib kelgan chol!..(Dehqon ta'rifi 109)

z)joy nomi o'rnida unda yashaydigan odamlar:

Yigitlari Vatan uchun dovlanur,
Yovlarning boshini yanchur, ***Buxoro!*** *(Buxoro)*
Oqshomlari xayolchan,
Saharlari bir halim,
Yomg'irda, qorda ivib,
Paxta tergan ***Vatanim!*** *(Qarz. 106)*

"Buxoro" she'rida Buxoro ahli nazarda tutilgan bo'lsa, "Qarz" she'rida "Vatan" so'zi orqali vatanimizda yashayotgan insonlar nazarda tutilgan.

i)joy nomlarining metonimiya asosida ko'chishi:

Yerga boqsang-xasta jayron oh urar,
Ko'kka boqsang-ko'ngli vayron oh urar.
Shuuringda ***G'ijduvonday*** *moh turar,*
Zarafshonning po'rtanasi *bu tanda,*
Bo'ron bo'lib yashayapsan, Baxshanda. (Baxshanda, 131)
"Borsa-kelmas"*danmi yo* ***"Borsa xatar",***
Sen qaysi rabotdan kelursan, karvon?
Bazmi Jamshidgami yo qamal shahar
Hududidan qochding saqlamoqqa jon?
(Qadim Afrosiyob devorlarinda. 132)

Baliqchilar qiyqirarmi qarmoq solib?
Sado kelar gumburlagan ***Zarafshondan****,*
(Sirlashuv 107)

Mayliga, joningiz bo'lg'ay salomat,
Sizga taqdir qilgan shu yobon bilan.
Egachi-singilday bo'libsiz payvand
Xojayi Jahon*-bul* ***G'ijduvon*** *bilan.*
(Suvratga chizgilar. 130)

Farzand qobil esa-yurtining yuzi…
Qora, shiringina, issiq yulduzi.

Xojayi Jahonda *bittadir o'zi,*
Dardi ko'p-u, darmoni yo'q vatanda
Darmon b'olib yashayapsan, baxshanda.
(Baxshanda, 131)

Shoira she'rlarida o'zi tug'ilib o'sgan joy nomini metonimiya tarzida qo'llaydi.

Yozuvchi matn ustida ishlash, tasvir vositalarini istaganicha o'zgartirish, ularni turli-tuman shaklda qayta ishlash, ifodalash imkoniyatlari bor.Yozuvchi yuqoridagi misolda ana shu imkoniyatdan mahorat bilan foydalangan. Metanimiya asl ma'nosi boshqacha nom berish bo'lsada, bu hodisaning nutq jarayonida qaysi bir a'zoning, ammo eng muhim a'zoning tushib qolishi asosiy xususiyatday seziladi. Biroq muhimi shuki, tushib qolgan so'zning ma'nosi nutqda yonma-yon kelgan so'zga ko'chiriladi va undan bemalol anglashiladi.

j) fasl va burj nomlarining metonimiya asosida ko'chishi

Qaynagan dashtlarda qazib yerto'la,
Kun qaytguncha mizg'ib oladi cho'pon.
Saraton qo'lida *otash zango'la*
Har changalda to'zg'ib ketadi osmon.
(Qaynoq pallalar. 50)

Qoratol tagida Hikoyat momo
Qizlarga gap tashlar, tegishar goho:
"Puchuqlar, ***kuzak****da yeymizmi halvo!"*
Ko'ksida to'rt o'g'il-suvrat yonardi!

Ko'rib o'tganimizdek, badiiy nutqda metonimiya nutqning tejamliligini ta'minlaydi. Metonimiyalar ham yashab kelayotgan har bir milliy til qadar qadimiydir.

Bitta qismat bizga ***issiqda ,qorda***
Gulda,xazonda *ham nasibamiz bir*
Olqishda, najotda, rohat, ozorda
Hayot ikkimizga bir xilda tatir (Kuy, 64)

Saraton *selida g'arq bo'lgan hovli,*
Kun qaytib quyilar salqin halovat.
Baxsh siyoqida qo'shiqning sehri,
Sozidan yoyilar asta tilovat. (Tilsim. 83)

Yaktaklari ***javzoda***
Sizilmagan sho'r terdan.
Qo'li tegsa mabodo
Ko'chat tutmaydi yerda. (Dehqon ta'rifi. 109)

Qovunlar qarsillab polizlarida,
Qirq og'ayni gulning qirmizlarida,
Kuzning hayol kezgan kunduzlarida
Mezon *Sizni eslatur…*

Oydin Hojiyeva ijodidan keltirilgan yuqoridagi misollarda fasl va burj nomlarining metonimiya asosida ko'chganligini ko'rishimiz mumkin.

Metonimiya asosida ma'no ko'chishi so'zlashuvda obrazlilik kasb etmasa ham badiiy uslubning o'ziga xos talabi sanalishini yuqorida iste'dodli ijodkor Oydin Hojiyeva keltirilgan misollar orqali ko'rib o'tdik. Shoira she'rlarida ma'no ko'chishining barcha turlari qatorida metonimik ko'chim ham o'ziga xos uslubiy vosita vazifa bajarishga xizmat qilgan. Bu shoira g'oyaviy yetuklikka, badiiy barkamollikka erishish barobarida xalqonalikni ham yuksak darajaga ko'tara olgan. Shoira uslubidagi ushbu xususiyatlarni imkon qadar yoritib berishga urindik.

Xalqimiz ardoqlagan shoira Oydin Hojiyeva she'rlarida tilimizdagi ko'chma ma'noli so'zlardan unumli foydalangan. Oydin Hojiyeva she'rlarida qahramon va muallif nutqining qurilishi, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar muallifning yuqori saviyasiga bog'liq. Har qanday badiiy asarda har bir so'z maqsadli ravishda qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent, 1961. 223-bet.
2. Homidiy H. va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlar lug'ati.-Toshkent, 1967.
3. Hojiyeva O. Shom sh'lalari.-Toshkent: "Sharq", 2010
4. Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B.,Normatov U., Sharaffidinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1999.
5. Mahmudov. A, Nurmanov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi, Toshkent "O'qituvchi", 1995
6. Mamadaliyeva M. O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1997.

O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA

Cho'liyev E.A.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablarga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'limning vaqtinchalik o‘zgarishi, birinchi navbatda, masofadan turib turli xil ma'lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita almashish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Bunday imkoniyatlarning paydo bo‘lishi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limni o‘z vaqtida tashkil etish uchun bir qator talablarni keltirib chiqaradi: axborot almashinuvining vaqtinchalik chegarasini hisobga olgan holda, muloqot vaqtini to‘g‘ri rejalashtirish zarurati, psixologik idrokni hisobga olgan holda o‘zaro texnik-bilvosita harakatlarni bajarishda vaqtning ta'siri. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonlarini tashkil etishning fazoviy-vaqt xususiyatlariga dalil sifatida, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni turli yo‘llar bilan egallash imkoniyatlarini keltirish mumkin. Bir tomondan, ular o‘quv ma'lumotlarini izchil, bosqichma-bosqich nazorat qilish bilan taqdim etish imkonini beradi. Boshqa tomondan, o‘quvchilar jarayon va hodisalarni modellashtirish vositalari tufayli ushbu modellarni, ya'ni protsessual usulda o‘rganish orqali bir xil bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ma'lumotni elektron darsliklar, test va nazorat dasturlari, ma'lumotnomalar, o‘quv ma'lumotlar bazalari, o‘quv videolari kabi vositalarga tayangan holda taqdim etish mumkin. Jarayonlarni simulyatsiya modellari, predmetga yo‘naltirilgan muhit, kompyuter grafikasi va kompyuter modellashtirish hamda laboratoriya amaliyotlari, simulyatorlar va ularga asoslangan o‘yin dasturlari yordamida modellashtirish mumkin. Shu tariqa mikro va makroolamdagi hodisa va jarayonlarni, ichki murakkab texnik va biologik tizimlarni

hamda yuqori va juda past tezliklarda sodir bo‘ladigan turli fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish mumkin bo‘ladi. Har bir fanning o‘ziga xos ta'lim yo‘lini ta'minlovchi ochiq ta'lim tizimining yaratilishi, turli darajadagi masofaviy ta'lim tizimini yaratish, rivojlantirish va takomillashtirish bunga misoldir. Shu bilan birga, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'limni axborot-metodik ta'minlashning samarali boshqaruv tizimini yaratish masalasini hal etish zarurati paydo bo‘ldi. Axborot texnologiyalarini tahlil qilishda biz ularning tasnifiga tayanamiz. Tasniflash bir nechta asoslar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin: ma'lumotni taqdim etish usuli, bayonotning tili va fikr bildirish imkoniyati. Bir nechta usullarning kombinatsiyasi o‘rganilayotgan texnologiyalarning keng tasnifini - audiovizual va kompyuterni ikki guruhga ajratishga yordam berdi. Audiovizual texnologiyalarga misol tariqasida ta'limning turli texnologiyalarini, masalan, audioyozuvlardan foydalanishni keltirishimiz mumkin. Vizual texnologiyaga misollar statistik tasvirlar, ovozsiz kino texnologiyalari. Audiovizual texnologiyalar o‘quv elektron darsliklar, video tasmalar, audiofilmlar, o‘quv filmlari va o‘quv televideniesi ko‘rinishida taklif etiladi. O‘quv jarayonini fazoviy va vaqtinchalik tashkil etish nuqtai nazaridan, videotasma har qanday o‘quv materialini o‘quv vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan qismlarga va tarkibiy qismlarga bo‘lish uchun tayyorlanadi. Shunday qilib, asta-sekin, bosqichma-bosqich, materialni samarali o‘rganishga erishiladi va shaxsiy sur'atda o‘z-o‘zini o‘rganish imkoniyati ta'minlanadi. Birinchi farq shundaki, ta'lim mazmuni axborot fondi va ularni o‘rganish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma bo‘lgan to‘liq, mustaqil komplekslar (axborot bloklari) shaklida taqdim etiladi. Shunday qilib, talabalar uzoq vaqt mustaqil ishlaydilar, maqsadni shakllantirish, rejalashtirish, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash k‘nikmalarini shakllantiradilar. Bu ularning bilim va ko‘nikma darajasini hisobga olish, kamchilik va kamchiliklarni ko‘rish imkonini beradi. O‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyati metodik ko‘rsatmalardan, individual ijro ishlari uchun shakllardan iborat o‘quv-uslubiy majmualardan foydalanish tufayli amalga oshiriladi.

Axborot texnologiyalari orqali bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning quyidagi darajalari (yuqori, o‘rta, past) aniqlandi. Yuqori daraja - Axborot texnologiyalari asosida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni yuqori saviyada o‘zlashtirgan, shunga mos ravishda kasbiy faoliyat turlarini ijodiy ixtiro qilgan, o‘ziga ishongan, faol, o‘zini-o‘zi anglaydigan, o‘zini-o‘zi tashkil eta oladigan va baholay oladigan o‘quvchi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi va uni tarbiyaviy faoliyat amaliyotiga tatbiq etishda to‘liq shakllangan. O‘rta daraja - Axborot texnologiyalari vositasida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan etarli bilimlarni olgan, unga muvofiq kasbiy faoliyatni ixtiro qilgan, uni o‘quv faoliyati amaliyotida qo‘llashda, o‘zini o‘zi anglashda, to to‘liq shakllanmagan, o‘zini o‘zi tashkil etishda va baholashda o‘rtacha faol bo‘lgan o‘quvchi. Past daraja - Axborot texnologiyalari asosida bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun asosiy fan bo‘yicha bilimlarni egallagan, berilgan modelga qat'iy amal qilgan holda, o‘z-o‘zini tashkil etish va baholashda, uni o‘quv faoliyati amaliyotiga kirita olmaydigan o‘quvchining past darajasi.

Xulosalash

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari orqali bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ularni axborot faoliyatiga faol jalb etish, axborot texnologiyalari vositalari va usullarini mustaqil o‘zlashtirish muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalari vositalari va usullarini tarqatish, bo‘lajak mutaxassislar bilan maxsus tashkil etilgan axborot faoliyati ularning shaxsiy tajribalarini rivojlantirishga, barcha kompetensiyalarning shakllanish darajasini oshirishga qaratilgan. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning jahon tendensiyalari yangi muhit – axborot jamiyatining vujudga kelishiga olib keladi. Axborot texnologiyalari orqali bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish nafaqat ularning ta'lim sifatiga ta'sir ko‘rsatishi, balki ularning oliy ta'lim muassasasida o‘qish imkoniyatlarini oshirish uchun sharoit yaratishi tasdiqlandi. Buning uchun axborot texnologiyalari vositalaridan (yangi turdagi kompyuterlar, telekommunikatsiyalar, virtual muhit va multimedia texnologiyalaridan) foydalangan holda dars jarayonini samarali tashkil etish zarur. O‘ylaymizki, axborot texnologiyalari orqali bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ularning chuqur ilmiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati va yangilikni alohida izlanuvchanlik bilan uyg‘unlashtirish mas'uliyatini yetarli darajada ta'minlaydigan o‘qitish uslublari va texnologiyalarini ta'limga tatbiq etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. bugungi kunning asosiy talablaridan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Білім беру саласында ақпараттық – коммуникациялық технологиялардың дамуы және оны пайдаланудың негізгі бағыттары // Ғылыми журнал Қазақстан жоғары мектебі.- 2012.- №2(1). 268-271 б.б.
2. Некоторые признаки педагогических технологий// Ғылыми журнал Ізденіс. - 2012.- №3.-С.266-269.
3. Ақпараттық-коммуникациялық технологияларды пайдалану-кәсіптік білім мамандығы студенттерінің кәсіби құзырлығын қалыптастырудың маңызды элементі// Қазақстан педагогикалық ғылымдар академиясы Хабаршы. - 2014.- №3. 34-38 б.б.
4. Болашақ бастауыш сынып мамандарының коммуникативтік құзіреттілігін ақпараттық технологиялар негізінде қалыптастыру//Ғылыми журнал Қазақстан ұстазы. 2014 .- №01(1). 5-10 б.б.
5. Болашақ мамандардың құзіреттілігін ақпараттық технологиялар негізінде қалыптастыру// Жоғары оқу орынынан кейінгі білім беру жағдайындағы ғылыми - педагогикалық әлеуетті дайындаудың өзекті мәселелері атты халықаралық ғылыми - тәжірибелік конференция. - Абай атындағы ҚазҰПУ, 2012. 281-284 б.б.
6. Көркем мәтіннің жас ұрпақ тәрбиесіндегі орны // - «Әлеуметтік жаңғырту жағдайында білім беру жүйесін жетілдіру» Халықаралық ғылыми – практикалық конференция.- Ы. Алтынсарин атындағы ұлттық білім академиясы. Астана, 2013. 26-30 б.б.
7. Сущность понятия «Педагогическая технология» //Материалы VIII международной научно – практической конференций. - Чехия . 2012. – С. 8-8.Social intelligence as a condition for the development of communicative competence of the future teachers//5 th World conference on Educational Sciences.- Italy. 2013. 2-5 p.p.

9. The usage of innovation technologies in formation of professional competence of the future specialists// 2 nd Cyprus International Conference on Educational Research.- 2013. 540-543 p.p.
10. Tolerance in the System of World – View Culture and Moral Development// Middle- East Journal of Scientific Research.- 2014. 802-804 p.p.

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR KOMPETENSIYASINING O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIY-AHLOQIY TARBIYASIDAGI O'RNI

Fayziyeva M.M.,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi bo'lim boshlig'I,
Tagayev G.X.,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar kompetensiyasining o'quvchi-yoshlar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasidagi o'rni, etnografik muhit, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayonlariga singdirib borish, yoshlarni milliy – ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini aniqlash kabi masalalari tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda, yosh avlodda hayotiy ko'nikmalarni shakllanishiga ijobiy ta'sir etuvchi pedagogik tavsiyalar ham keng o'rin olgan.

Tayanch so'zlar: Milliy va umuminsoniy qadriyatlar kompetensiyasi, ma'naviy-ahloqiy tarbiya, milliy o'zlikni anglash xalqlar ma'naviy-madaniyati, ma'naviy meros. urf-odatlar va etnik madaniyatga oid an'analar.

KIRISh (INTRODUCTION)

Bugungi taraqqiyot jarayonlarida yoshlarni vatanparvar, komil insonlar qilib tarbiyalash, tarixiy, ma'naviy dunyoqarashlarini yuksaltirish ta'lim-tarbiya sohasining muhim vazifalarini tashkil etmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z fikrlarini bildirib, "Biz yoshlar siymosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!" [1:262] – degan fikrlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida milliy qadriyatlarning hayotdagi roli va o'rni oshib bormoqda. Milliy qadriyatlarga sodiq bo'lgan xalqni qul qilish, abadiy istibdodda saqlash mumkin emas. "Millatning tanazzuli milliy qadriyatlar tanazzulidir, bu oqibat-natijada ushbu qadriyatlarni egasiz qolish xavfini tug'diradi. Insoniyat tarixi muayyan etnoslarning vujudga kelishi, taraqqiyoti va tanazzuli, ularning o'rniga boshqalari vujudga kelishi bilan bog'liq jarayondir. Bunday fikr esa o'z navbatida, g'oyat muhim va dolzarb masalaga, millat o'z qadriyatlarining obyekti sifatida, o'z-o'zini saqlab turmog'i lozim, degan masalaga olib keladi" [8:127].

Shunday ekan, milliy qadriyatlar asosida yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda, kelajagi buyuk davlat qurishda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlar muhim o'rin egallaydi. Chunki, mamlakatimizda yashayotgan har bir yoshning va butun aholining ma'naviy-ahloqiy kamoloti orqali insonparvar, demokratik, huquqiy fuqarolik jamiyati, kelajagi buyuk O'zbekiston barpo etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘quvchi-yoshlar ma’naviy-ahloqiy tarbiyasida etnografik muhit hamda turmush tarzi an’analarining munosib o‘rni bo‘lib, har bir yosh avlod qalbiga o‘z turar joylari “yurt”, “vatan” kabi muqaddas tushunchalar bilan kirib boradi. Kishilarda vataniga, yurtiga mehr qo‘yish tuyg‘usi qaror topadi. Mabodo, etnosning ma’lum qismi ajralib, boshqa yerga borib joylashsalar hamki, ular ajdodlari yurtini uzoq vaqtlargacha esdan chiqarmaydilar [9:98]. Ana shu zaminni har bir qarich tuprog‘ini muqaddas sanab, uning hatto giyohu-daraxtlarini asrab avaylaydilar. Bu tuyg‘u keyinchalik ushbu hududda mavjud bo‘lgan qadriyatlar va an’analarning ham o‘zlashtirilishiga olib keladi. Xullas, inson turmush-tarzidagi kiyinish, ovqatlanish, urf-odat va an’analar, til, din, san’at namunalari qadrlanib, muayyan etnografik qarashlar tizimini shakllantiradi.

Movarounnahr zaminida azaldan ta’lim-tarbiyaga jiddiy e’tibor qaratilganligi aynan qadriyat sifatida davom etib kelmoqda va uni etnografik muhitning tabiiy komponenti sifatida ko‘rsatish o‘rinlidir. Qadimdan ota-bobolarimiz ilm va ilmli kishilarni ulug‘lab kelganlar. Hukmdorlar o‘z saroylarida ilmli kishlarga yuksak e’tirof ko‘rsatganlar. Ularning natijasi esa insonlardagi estetik va ma’naviy madaniyatda aks etgan.

Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida “Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo‘lsin”, deb ta’rif berilgan [2:125].

Etnografik muhitda “Qadriyat” – voqyelikning turli ko‘rinishlari, narsa, voqyea, hodasa, jarayon, tabiat va jamiyatga oid jihat, xususiyat va boshqalarning biror subyekt (shaxs, sinf, millat va boshqa) uchun ijtimoiy qadri va ahamiyatini anglatadigan falsafiy-aksiologik tushuncha sifatida qaralib kelingan [8:50]. Qadriyatlarning esa moddiy, ma’naviy, umuminsoniy va milliy, diniy, ijtimoiy-siyosiy turlari mavjud. Ularning barchasi inson ehtiyojlari uchun zarur bo‘lsa-da, milliy qadriyatlar ular ichida eng muhim o‘rin tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Milliy qadriyatlar qadimiy va tarixiy ildizga ega bo‘lib, uning mazmunida jinsidan qat’iy nazar, o‘z tili, dini, urf-odatlari, o‘ziga xos an’analariga e’tiqod qilish natijasida inson kamolotiga erishish, shaxsni ahloqiy shakllantirish kabi yo‘nalishlar muhim o‘rin egallagan. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun xalq pedagogikasi va ulug‘ mutafakkirlar targ‘ib etgan ta’lim-tarbiyaga oid qarashlar tizimiga tayanish zarur.

Shuningdek, har bir xalqning madaniyati va ma’naviyati umuminsoniy qadriyatlar bilan naqadar bog‘liq bo‘lgani, uning jahon sivilizatsiyasi tarixiga qo‘shgan hissasi va tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Jahondagi barcha elat va xalqlar ancha murakkab etnik jarayonni boshdan kechirganlar. Chunki har bir etnos uzoq tarixiy davr davomida turli elatlar bilan aloqada, ba’zan bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib, boshqa etnoslar bilan aralashib, ularni o‘ziga singdirib yoki tarkibiy qism qilib olish natijasida shakllanib kelgan [4:183].

Bundan tashqari, “Har qanday millat tarixiy taraqqiyot va rivojlanish jarayonida yangilanib, o‘zgarib boradigan rang-barang, sinflar va boshqalarning dialektik uyg‘unligini ifodalaydigan ijtimoiy birlik hamdir. Milliy qadriyatlar tizimi tahlilida, avvalo, millatning vujudga kelishi, o‘tmishi, buguni va kelajagi bilan bog‘liq tabiiy tarixiy qadriyatlarga e’tibor berish lozim. Har bir millat – o‘zini tashkil qilgan kishilar

uchun, avvalo, tabiiy-tarixiy birlik sifatida qadrli, u olamdagi boshqa turli-tuman xalq, elat va millatlarga o‘xshamaydigan o‘ziga xos, betakror xususiyatlarga ega” [8:131].

Darhaqiqat, bugungi kunda faqatgina chinakam ma’rifatli odam inson qadrini, milliy qadriyatlarini, bir so‘z bilan aytganda, o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning inson hamjamiyatida o‘ziga munosib obro‘li o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shunday ekan, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma’naviy-ahloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Jamiyat hayoti va ta’lim soxasida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar yoshlarni milliy – ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojlarini aniqlash va uni qondirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Shu zarurat tufayli ham o‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini tarbiyalashlari, ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol topib borishlari kabi masalalar pedagogik nuqtai nazardan alohida dolzarblik kasb etadi. Bunda badiiy adabiyot, tarix, milliy san’at va madaniyat namunalaridan foydalanishga ahamiyat berish lozim. Chunki, ma’naviy olamini boyitish, ularda mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytiradi va vatanparvallikka chorlaydi.

Milliy o‘zlikni anglash o‘z ichki ziddiyatlariga ham ega. O‘z-o‘zini anglash jarayoni real hayot vazifalariga muvofiq tarzda muayyan harakat va faoliyat yo‘nalishini tanlash asosida olib boriladi. Bu tanlov esa, inson uchun yetakchi bo‘lgan qadriyatlar majmuasi bilan belgilanadi. O‘z-o‘zini va milliy o‘zlikni anglash uchun tanlab olgan yo‘nalish ta’sirida ideallik parchalanadi. Bir tomondan milliy o‘zligini anglash darajasidagi shakllangan tasavvuri bo‘yicha o‘z millati va uning ma’naviy qadriyatlarini boshqa millatlarnikidan afzal deb biladi [6:86-87].

Bugungi kunda pedagog-olimlar yoshlarning milliy qadriyatlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojlarni shakllantirishning muhim bilish jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy, estetik, axloqiy, tarixiy va madaniy masalalarga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Ma’naviy merosimizga jiddiy e’tibor qaratilayotgan tarixiy bir jarayonda mutaxassis olimlar tomonidan ularning yozma tavsifini shakllantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki qadimiy tarixga ega bo‘lgan milliy qadriyatlarimizni xalq turmushi hamda an’anaviy madaniyatda tutgan o‘rni, ularning genezisi, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bu borada diniy e’tiqodlar (bola tug‘ilishi, tarbiyasi, sunnat va nikoh to‘ylari, motam marosimi), etnik madaniyatga oid an’analar, simvollar, moddiy madaniyat namunalari (turar joylar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlar), folklor namunalari (epos, musiqa, raqs va boshqalar) yetakchi o‘rin egallaydi. Natijada, o‘quvchilarda o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy ye’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish kabi kompetensiyalar shakllanib boradi.

O‘quvchi-yoshlar ma’naviy-ahloqiy tarbiyasida nafaqat ijtimoiy sohalar tadqiqi, balki tabiiy sohalarni o‘rganish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tabiat va jamiyat qonunlarini bilishning o‘ziga xos xususiyati shuki, tabiat va uning hodisalari bilish obyekti, ammo ularning o‘zlari bilish subyekti emas. “Jamiyat qonunlari ham bilish obyekti, ham subyektidir. Zero, jamiyat bir-biri bilan ehtiyojlar va manfaatlar

mushtarakligida uyushgan odamlar va ijtimoiy guruhlarning yaxlit birligi, birlashmasidir" [7:80-81].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha sifatida o'zbek xalqining boy tarixiy tajribasi, asriy ma'naviy merosi, go'zal urf-odatlari hamda tarixiy, mavsumiy marosimlari etnomadaniyat asosini tashkil etib kelgan. Avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan hayotiy faoliyat namunalarini an'naviy madaniyat sirasiga kiritib, o'zaro bir necha farqlanishlarni ham yuzaga keltiradi:

- qadimdan tabiiy jaroit va yashashga bo'lgan intilish etnoslarni yuzaga kelishi va rivojlanishi ta'minlagan;
- har bir etnik birlik mazmun va shakliga ko'ra hayotiy turmush tarzlari an'analarini bilan bir-birlari bilan assimlatsiya jarayonlarida rivojlantirgan;
- jahon xalqlari turmush taraqqiyoti natijasida, insonlar kundalik faoliyatining ajralmas qismi sifatida, o'z o'rni va ahamiyatini oshirib kelgan;
- o'zining tuzilishi va ahamiyatiga ko'ra asrlar davomida kundalik ehtiyoj bo'lib, kelajak avlodga meros bo'lib o'tib, hozirgi davrgacha taraqqiy etib kelgan;
- jamiyatning yuksalishiga va yosh avlodning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi [3:53].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. – Тошкент: Маънавият, 2016.
3. Doniyorov A.X. Zamonaviy etnologiyada etnomadaniyat masalalari // O'zbekiston etnlogiyasining nazariy metodologik muammolari. "Akademik Karim Shoniyozov o'qishlar" turkumida VI Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Navruz, 2014.
4. Жабборов И. Ўзбеклар (анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти). -Т.: Шарқ, 2008. Б.183.
5. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011.
6. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Назаров Қ. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Тажрибавий қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2011.
9. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / таҳрир ҳайъати: Д.А.Алимова, Э.Х. Арифханова, У.С.абдуллаев ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2001.

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Jo'rakulov T.T.,
Navoiy davlat unversiteti o'qituvchisi,
Sa'dullayeva M.L.,
Navoiy davlat unversiteti talabasi

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarga, jumladan, ta'limga ham keng kirib kelmoqda. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi bu sohaning

rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish jarayoni o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zaro hamkorligini interaktiv va samarali qilish bilan birga, ta'lim sifatini oshirish va ta'lim jarayonini yanada individuallashtirish imkonini beradi.

Ushbu ishda ta'limni raqamlashtirishda foydalanilayotgan zamonaviy usullar va texnologiyalar tahlil qilinadi. Raqamli o'quv platformalari, virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR) texnologiyalari, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar va boshqa ilg'or yechimlarning ta'lim jarayonidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'limni raqamlashtirishning asosiy tamoyillari va uning ijtimoiy-pedagogik ta'siri haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Ta'limni raqamlashtirish zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilish va samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonlarini interaktivlashtirish, shaxsiylashtirish va keng miqyosda ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu tezis ta'limni raqamlashtirishda qo'llanilayotgan asosiy usullar va texnologiyalarning mohiyatini yoritib beradi va ularning pedagogik jarayonga ta'sirini baholaydi jarayonlar quyidagilar.

1. E-learning platformalari va masofaviy ta'lim

- Onlayn ta'lim platformalari (Coursera, edX, Moodle) ta'limni global darajada tarqatish imkonini beradi.
- Masofaviy ta'lim o'qituvchilarga ko'proq erkinlik va o'quvchilarga istalgan vaqtda va joyda ta'lim olish imkonini beradi.

2. Sun'iy intellekt (AI) va ta'lim jarayonidagi avtomatizatsiya

- Sun'iy intellekt yordamida individual ta'lim yo'nalishlari yaratilib, o'quvchilarning bilim darajasi asosida moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.
- AI o'quv jarayonini tezlashtiradi va murakkab baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

3. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR va AR)

- VR va AR texnologiyalari ta'limda interaktiv va tajribaviy o'rganishni ta'minlaydi, masalan, VR yordamida ilmiy laboratoriya mashg'ulotlarini simulyatsiya qilish mumkin.
- Kengaytirilgan haqiqat orqali o'quvchilar vizual resurslardan foydalanib murakkab tushunchalarni osonroq tushunishlari mumkin.

4. Bulutli texnologiyalar va big data

- Bulutli texnologiyalar o'qituvchilar va o'quvchilarga o'quv materiallariga istalgan vaqtda va joyda kirish imkonini beradi, o'quv jarayonini moslashuvchan qiladi.
- Big data texnologiyalari orqali ta'lim natijalarini tahlil qilish, o'quv jarayonlarini yaxshilash va strategiyalarni optimallashtirish imkoniyati mavjud.

5. Gibrid ta'lim (blended learning)

- Gibrid ta'lim an'anaviy sinfda o'qitish va onlayn o'qitish usullarini birlashtirib, o'quvchilarga ko'proq moslashuvchan va boyitilgan ta'lim muhitini yaratadi.

6. O'quv jarayonini shaxsiylashtirish

- Raqamli texnologiyalar orqali har bir o‘quvchiga individual o‘quv yo‘nalishlari va tezlik bilan ta’lim olish imkonini yaratadi, bu esa o‘quvchilar samaradorligini oshiradi.

Tadqiqotda ta’limni raqamlashtirishda zamonaviy usul va texnologiyalarning samaradorligini tekshirishda aralash yondashuvdan foydalanildi. Birinchidan, hozirgi vaqtda raqamli ta’limda qo‘llanilayotgan asosiy texnologiyalarni aniqlash uchun adabiyotlarni sifatli ko‘rib chiqiladi. So‘ngra ushbu texnologiyalarning o‘quvchilar ishtiroki, ta’lim natijalari va foydalanish imkoniyatlariga ta’sirini baholash uchun so‘rovlar va eksperimental tadqiqotlar orqali miqdoriy tahlil qilinadi.

Ta’limni raqamlashtirish katta afzalliklarni, jumladan, o‘quv tajribasini yaxshilash, qulaylikni oshirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni taklif qiladi. Elektron ta’lim platformalari, sun’iy intellekt va VR kabi texnologiyalar moslashuvchan va interaktiv ta’lim muhitini ta’minlash orqali an’anaviy o‘qitish usullarini tubdan o‘zgartirish imkoniyatiga ega. Biroq, ushbu innovatsiyalardan adolatli foydalanishni ta’minlash uchun raqamli tafovut va maxfiylik muammolari hal qilinishi kerak.

Kelgusi tadqiqotlar ushbu to‘siqlarni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish va ta’limda kengaytirilgan reallik (AR) va blokcheyn kabi rivojlanayotgan texnologiyalarning imkoniyatlarini yanada o‘rganishga qaratilishi kerak. Raqamli vositalar ta’lim manzarasiga ko‘proq integratsiyalasha borar ekan, ta’lim muassasalari o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z pedagogik amaliyotlarini moslashtirishlari va doimiy ravishda rivojlantirishlari juda muhimdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Muhitdinov, A. A. “Axborot texnologiyalari va ularning ta’limdagi o‘rni” (2020).
2. G‘aniyev, M. N. “Raqamli ta’lim muhitini yaratish va rivojlantirish tamoyillari” (2019).
3. Abdullayeva, N. “O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirish: imkoniyatlar va istiqbollar” (2021).
4. Karimov, Sh. “Masofaviy ta’lim tizimida interaktiv texnologiyalarni qo‘llash” (2022).
5. Yusupov, I. “Sun’iy intellekt va ta’lim: O‘zbekistonda raqamli ta’lim tizimiga kirish” (2020).

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DASTURLASH KO‘NIKMALARINI IJTIMOIY FAOLLASHTIRISH METODIKASI

Boboqulov J.Q.,
Navoiy viloyati PMM “Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i

Zamonaviy dunyoda texnologiyalar va informatika sohasidagi bilimlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh avlodning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatish, nafaqat ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ijtimoiy faollikni oshirishga ham yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish metodikasi, o‘quvchilarni faqat texnik bilimlar bilan ta’minlab qolmay, balki ularning jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyatlarini ham rivojlantirishga qaratilgan yondoshuvni taqdim etadi.

Dasturlashning ijtimoiy faollikka ta’siri

Dasturlash faqat kompyuter bilimlari va algoritmlarni o‘rganishdan iborat emas. Bu jarayon o‘quvchilarga muammolarni tizimli tarzda hal qilish, jamoaviy ishda faol ishtirok etish, fikr almashish va yaratgan dasturlarini boshqalar bilan bo‘lishish imkoniyatlarini taqdim etadi. Dasturlash orqali o‘quvchilar o‘z ijodkorliklarini rivojlantiradilar, birgalikda ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar va turli ijtimoiy masalalarga yechim topishga o‘rganadilar.

O‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatish orqali, ularning texnik bilimlarini kengaytirish bilan birga, jamiyatdagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Dasturlashda ijtimoiy faollikning alohida o‘rni bor, chunki o‘quvchilar yaratgan dasturlari orqali jamoaga foyda keltiradilar va shu bilan birga, o‘zlarining ijtimoiy mas'uliyatini anglaydilar.

Dasturlashni o‘quvchilarning kundalik hayotiga bog‘lash

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dasturlashga jalb qilishning samarali usullaridan biri, dasturlashni ularning kundalik hayotlariga bog‘lashdir. O‘quvchilar o‘zlarining atrof-muhitidagi masalalarni hal qilish uchun dasturlar yaratishga o‘rgatilishi kerak. Masalan, o‘quvchilarga ekologik masalalar, maktabdagi muammolar yoki o‘yinlar yaratish orqali dasturlashni o‘rgatish mumkin. Bu ularni dasturlashga nisbatan qiziqtiradi va o‘zlarining kundalik hayotlariga ta'sir qiladigan yechimlar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Shu tarzda o‘quvchilar nafaqat dasturlashning texnik tomonlarini o‘rganadilar, balki jamiyatdagi ijtimoiy masalalarga yechim topishda qatnashadilar. Dasturlashni ijtimoiy masalalarni hal qilish vositasi sifatida ko‘rsatish, o‘quvchilarning jamiyatga nisbatan mas'uliyatini oshiradi.

Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish

Dasturlashning ijtimoiy faollikka ta'siri, faqat texnik bilimlar bilan cheklanmaydi. Dasturlash jarayonida o‘quvchilar bir-biriga yordam beradilar, fikr almashadilar va jamoaviy ishni rivojlantiradilar. Bu esa o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Jamoaviy dasturlash, muammoni hal qilishda guruh bilan ishlash, o‘z fikrini ifodalash va boshqalar bilan hamkorlik qilish o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, o‘quvchilar dastur yaratishda boshqalar bilan maslahatlashish, fikr almashish va o‘zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu ijtimoiy faollikni oshiradi va o‘quvchilarda jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi. Dasturlash orqali o‘quvchilar nafaqat texnik bilimlar, balki jamoaviy ishlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini ham o‘zlashtiradilar.

O‘yinlar va simulyatsiyalar orqali dasturlashni o‘rgatish

O‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatishda, o‘yinga asoslangan yondoshuvlar samarali natijalar berishi mumkin. Dasturlashni o‘yin shaklida o‘rgatish, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularga o‘rganishni qiziqarli va foydali qiladi. Masalan, Scratch kabi vizual dasturlash tillari yordamida o‘quvchilar o‘zlarining o‘yinlarini yaratishlari, animatsiyalar ishlab chiqishlari va dasturlashni o‘yin shaklida o‘rganishlari mumkin.

O‘yinlar orqali o‘rgatish, o‘quvchilarni dasturlashga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi va bu jarayonni yanada samarali qiladi. O‘yinlar, shuningdek, o‘quvchilarga jamiyatda foydali dasturlar yaratish orqali ijtimoiy mas'uliyatni oshirish

imkoniyatini yaratadi. Dasturlash o‘yinlarini yaratish, o‘quvchilarga ko‘plab muammolarni hal qilishga va ularni ijtimoiy masalalarga yechim topishga undaydi.

Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik

Ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlik, dasturlashni o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. Ota-onalar o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlashlari, ular bilan birgalikda dasturlashga oid mashg‘ulotlar o‘tkazishlari mumkin. Bu o‘quvchilarning dasturlashga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘zaro muloqotni mustahkamlaydi.

Shuningdek, dasturlash bo‘yicha jamiyatdagi mutaxassislar yoki o‘qituvchilar bilan hamkorlik qilish, o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda yordam beradi va ularni ijtimoiy masalalarda faol ishtirok etishga undaydi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish metodikasi, o‘quvchilarga nafaqat texnik bilimlar, balki jamiyatda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini ham o‘rgatadi. Dasturlash orqali o‘quvchilar ijtimoiy masalalarni hal qilish, jamoaviy ishda faol ishtirok etish va yaratgan dasturlari bilan jamiyatga foyda keltirish imkoniyatini topadilar. Bu metodika, yosh avlodning texnik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashga xizmat qiladi.

ПАРАМЕТРИК ТЕНГЛАМАЛАРНИ ЕЧИШ - ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛИ

Қурбонов М.,
Навоий вилояти ПММ катта ўқитувчиси

Параметрлар билан боғлиқ масалалар мактаб математика курсининг барча вазифалари ичида энг қийинидир. Уларни ҳал қилиш учун мантиқий фикрлаш қобилияти талаб қилинади: қарор қабул қилишнинг ҳар бир дақиқасида нима қилинганлигини, ҳали нима қилиш кераклигини, олинган натижалар нимани англатишини аниқ тасаввур қилиш керак. Параметр қатнашган тенгламаларни ечишда, биринчидан параметрларнинг берилган сонлар тўпламидаги барча қийматлари топилади ва иккинчидан ҳар бир топилган параметрга мос тенгламанинг ечимлари топилади.

Бошқача айтганда, параметрик кўринишда берилган тенгламаларни ечиш деб, тенгламада қатнашаётган параметрларнинг мумкин бўлган барча қийматларида тенгламани ечишни айтилади.

Мисол. Тенгламани ечинг: $ax=b$, $(a\neq0)$.

Ечиш:

1) $a\neq0$ да, $x=a/b$ ягона ечимга эга.

2) $a=0$, $b\neq0$ да, ечимга эга эмас.

3) $a=0$, $b=0$ да, x нинг барча қийматларини қаноатлантирувчи $0\cdot x=0$ айният ҳосил бўлади яъни берилган тенглама чексиз кўп ечимга эга.

Энди, a ва b параметрларнинг қандай қийматларида берилган тенглама манфий, ноль ва мусбат ечимга бўлишини текширамиз:

4) $x = b/a$ формуладан $a\neq0$, $b=0$ да, ноль ечимга эга эканлиги келиб чиқади.

5) Агар $a>0$ ва $b>0$ ёки $a<0$ ва $b<0$ бўлса, мусбат ечимга эга.

6) Агар $a>0$ ва $b<0$ ёки $a>0$ ва $b<0$ да, манфий ечимга эга.

Параметрик тенгламалар ва тенгсизликларни ечишнинг алгебраик , аналитик, функционал-график каби бир неча усуллари мавжуд. Айрим масалаларда эса математик таҳлил усулларидан фойдаланилади. Таьриф. Агар тенгламанинг чап ва ўнг кисмлари, номаьлум ўзгарувчига нисбатан чизикли функциялардан иборат бўлса, бундай тенглама чизиқли тенглама дейилади.

Чизиқли тенглама умумий холда ax+b=cx+d кўринишда ифодаланади. Бу ерда а, б, с, д - берилган маьлум сонлар, х эса номаьлум сон. Бу кўринишдаги тенгламаларни ечиш қуйидагича амал оширилади: ax+b=cx+d. (1), ax–cx=d–b, x(a-c)=d-b,

1. Агар a¹c бўлса, (1) тенглама ягона ечимга эга бўлади.

2. Агар a–c=0. d–b¹0 бўлса. (1) тенглама 0□x=d-b кўринншни олади, бундай тенглама х нинг хеч бир қийматида ўринли бўлмайди. Демак, бу ҳолда тенглама ечимга эга эмас.

3. Агар a–c=0 ва d–b=0 бўлса, (1) тенглама 0□x=0 кўринишни олади, бу тенглик х нинг барча қийматларида ўринли, шунинг учун (1) тенглама чексиз кўп ечимга эга бўлади. Бошқача айтганда, ҳар қандай сон унинг ечими бўлаверади.

Мисол. а нинг қандай қийматида тенглама ягона ечимга эга?

Ечиш: Биз иккала қисмнинг манфий емаслигига ишонч ҳосил қиламиз: Тенгламанинг иккала қисмини квадратга кўтарамиз:

Квадрат тенгламанинг дискриминантини топамиз:

1) Шартга кўра, тенглама битта илдизга ега бўлиши керак, бу шуни англатадики, .

Бу қийматлар тенгламани қаноатлантирадими ёки йўқлигини текширамиз:

2) Агар бўлса у ҳолда, тенгламанинг фақат битта илдизи. шартни қаноатлантиради.

а)

б) Ø

Жавоб:

Математиканинг бевосита амалий тадбиқларидан ташқари ёш авлодни ҳар тарафлама ривожланган етук кишилар қилиб тарбиялашда унинг алоҳида ўринга эга эканлигини таъкидлаш зарур. Таҳлилий мулоҳаза, мантиқий мушоҳада, фазовий тасаввур, абстракт тафаккур инсон фаолиятининг барча соҳаси учун зарур қобилиятдирки, булар математкани ўрганиш жараёнида шаклланиб, чуқурлашади. Инсон онги ҳамиша субъектив моҳиятга эгадир. Ўқувчи муайян билимларга нисбатан бефарқ бўлмай, билимлар унинг учун шахсий мазмунга эга бўлсагина пухта ўзлаштиради. Ўқитувчи бунга ўқувчида ўқув предметига нисбатан қадриятли, ижобий субъектлар муносабатини таркиб топтириш натижасида эришади

O‘ZBEKISTONDA AXBOROTLASHGAN JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI VA YECHIMLARI

Turapov V.M.,
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi asosiy muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini taklif etishga qaratilgan. Tadqiqotda raqamli tafovut, maxfiylik va xavfsizlik, ta'lim va malaka oshirish kabi muammolar keng qamrovda o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari bu muammolarni hal qilish uchun zarur strategik yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi. Yechimlar sifatida infratuzilmani rivojlantirish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish siyosatlarini kuchaytirish va ta'lim tizimini yaxshilash taklif etilgan.

Аннотация: Эта статья направлена на анализ основных проблем развития информационного общества и предложений по их решению. В исследовании всесторонне изучены такие проблемы, как цифровой разрыв, конфиденциальность и безопасность, образование и повышение квалификации. Результаты исследования помогают выявить необходимые стратегические подходы для решения этих проблем. В качестве решений предложены развитие инфраструктуры, усиление политики защиты персональных данных и улучшение системы образования.

Abstract: This article aims to analyze the main problems in the development of the information society and propose solutions. The research extensively examines issues such as the digital divide, privacy and security, education, and skill enhancement. The results of the study help identify the necessary strategic approaches to address these issues. Proposed solutions include infrastructure development, strengthening personal data protection policies, and improving the education system.

Kalit so‘zlar: Axborotlashgan jamiyat, raqamli tafovut, maxfiylik, xavfsizlik, ta'lim, malaka oshirish, AKT, infratuzilma, kiberxavfsizlik

Ключевые слова: Информационное общество, цифровой разрыв, конфиденциальность, безопасность, образование, повышение квалификации, ИКТ, инфраструктура, кибербезопасность.

Keywords: Information society, digital divide, privacy, security, education, skill enhancement, ICT, infrastructure, cybersecurity

I. Kirish. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi so‘nggi o‘n yilliklarda jadal rivojlanib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda sezilarli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Bu jarayon, asosan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. AKT rivojlanishi va tarqalishi natijasida jamiyatda yangi imkoniyatlar, shuningdek, yangi muammolar yuzaga kelmoqda. Axborotlashgan jamiyat – bu aholining axborot va bilimlarga kirish imkoniyati kengaygan, AKT har bir sohada qo‘llaniladigan va axborot oqimlari jamiyat hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko‘rsatadigan jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: iqtisodiy va ijtimoiy. Iqtisodiy jihatdan, AKT iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va yangi ish o‘rinlari yaratadi. Ijtimoiy jihatdan, AKT ta'lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va boshqa sohalarda sifatni yaxshilash imkonini beradi. Biroq, bu jarayon murakkab va ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi, ular

orasida raqamli tafovut, maxfiylik va xavfsizlik masalalari alohida o‘rin tutadi. Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi ko‘plab yangi imkoniyatlarni ochib berayotgan bo‘lsa-da, bu jarayon ko‘plab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni tahlil qilish va ularni hal qilish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishini ta'minlash uchun zarur. Asosiy muammolarni quyidagicha guruhlash mumkin:

• Raqamli Tafovut: Texnologiyaga kirish imkoniyatlaridagi farqlar. Ba'zi guruhlar AKTdan foydalana olsalar, boshqalari bu imkoniyatdan mahrum bo‘lmoqda. Bu tafovut iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni kuchaytiradi.

• Maxfiylik va Xavfsizlik: Shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanishi va kiberxavfsizlik muammolari. AKTning keng tarqalishi bilan shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanishi va kiberxavfsizlik tahdidlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

• Ta'lim va Malaka Oshirish: Axborotlashgan jamiyatda muvaffaqiyat qozonish uchun kerakli bilim va ko‘nikmalar. Ta'lim tizimi va uzluksiz ta'lim imkoniyatlari axborotlashgan jamiyatning talablari bilan mos kelishi kerak.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi muammolarni tahlil qilish va ularning mumkin bo‘lgan yechimlarini taklif qilishdir. Tadqiqot doirasida quyidagi maqsadlarga erishish ko‘zda tutilgan:

• Axborotlashgan jamiyat tushunchasini aniqroq aniqlash va uning asosiy xususiyatlarini belgilash.

• Raqamli tafovut, maxfiylik va xavfsizlik, ta’lim va malaka oshirish kabi asosiy muammolarni aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish.

• Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun samarali strategiyalarni taklif qilish va ularning amalga oshirilishi uchun tavsiyalar berish.

II. Usullar

Ushbu tadqiqot axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi muammolarni tahlil qilish va ularning yechimlarini topishga qaratilgan. Tadqiqot dizayni sifat va miqdoriy usullarni o‘z ichiga oladi. Sifat usullari intervyu va kontent tahlilini, miqdoriy usullar esa so‘rovnoma va statistik tahlillarni o‘z ichiga oladi. Birlamchi ma'lumotlar olish uchun yarim strukturalangan intervyular o‘tkazildi. Intervyular axborotlashgan jamiyatda ishlayotgan mutaxassislar, akademiklar va davlat xizmatidagi shaxslar bilan olib borildi. Har bir respondent bilan o‘tkazilgan intervyular 45-60 daqiqa davom etdi va asosiy mavzular bo‘yicha savollar berildi. Shuningdek, so‘rovnomalar orqali respondentlardan raqamli tafovut, maxfiylik va xavfsizlik, ta'lim va malaka oshirish bilan bog‘liq masalalar haqida ma'lumot yig‘ildi. So‘rovnomalar onlayn shaklda o‘tkazildi va 500 ta respondent ishtirok etdi. Ikkinchi darajali ma'lumotlar mavjud adabiyotlarni, ilmiy maqolalarni va hisobotlarni o‘rganish orqali yig‘ildi. Bu ma'lumotlar yordamida tadqiqotning nazariy asoslari va muammolarni tahlil qilish uchun zarur ma'lumotlar olindi. Intervyu natijalari kontent tahlili yordamida tahlil qilindi. Asosiy mavzular va muammolar aniqlanib, kodlash jarayoni orqali tasniflandi. Bu usul orqali respondentlarning fikr va mulohazalari asosida muammolarning chuqur tahlili amalga oshirildi. So‘rovnoma natijalari statistik tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Deskriptiv statistika va korelatsiya tahlillari yordamida respondentlarning fikrlari va tajribalari o‘rganildi. Bu ma'lumotlar yordamida asosiy muammolar va ularning tarqalish darajasi aniqlab olindi.

III. Natijalar Tadqiqot natijalari raqamli tafovutning keng tarqalganligini ko‘rsatdi. Intervyu respondentlari texnologiyaga kirish imkoniyatlaridagi farqlar haqida gapirdilar. Ko‘plab ishtirokchilar qishloq joylarida va kam ta'minlangan oilalar farzandlarining AKTdan foydalanish imkoniyatlari cheklanganligini ta'kidladilar. So‘rovnoma natijalari esa respondentlarning 65% texnologiyaga kirish imkoniyatlari cheklanganligini bildirdi. Maxfiylik va xavfsizlik masalalari ham dolzarb muammolar sifatida qayd etildi. Intervyu natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanishiga ishonch bildirmadilar. So‘rovnoma natijalari esa respondentlarning 70% shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligi borasida xavotir bildirganligini ko‘rsatdi. Ta’lim va malaka oshirish masalalari ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, respondentlarning aksariyati AKT bilan ishlash ko‘nikmalariga ega emasliklarini ta'kidladilar. So‘rovnoma natijalari respondentlarning 60% texnologik bilim va ko‘nikmalarni oshirish zarurati borligini bildirdi.

• So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 45% internetga muntazam kirish imkoniyatiga ega emas.

• Qishloq joylarida yashovchi respondentlarning 80% AKTdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan.

• Respondentlarning 70% shaxsiy ma'lumotlarning himoyalanishiga ishonchsizligini bildirdi.

• Kiberxavfsizlik bo‘yicha respondentlarning 65% kiberxurujlardan xavotirda.

• Respondentlarning 60% texnologik ko‘nikmalarni oshirish zarurati borligini ta'kidladilar.

• Ta'lim tizimining AKT bo‘yicha yetarli darajada emasligi haqida respondentlarning 55% fikr bildirdi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi asosiy muammolar tahlil qilindi va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar ilgari surildi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni olish imkonini berdi:

Tadqiqot raqamli tafovutning keng tarqalganligini va bu muammo jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytirayotganini ko‘rsatdi. Texnologiyaga kirish imkoniyatlaridagi farqlar, ayniqsa qishloq joylarida va kam ta’minlangan oilalar o‘rtasida aniq sezilmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun infratuzilmani rivojlantirish, qishloq joylariga AKT infratuzilmasini yetkazib berish va arzon narxlarda internet xizmatlarini taqdim etish zarur.

Maxfiylik va xavfsizlik masalalari ham dolzarb muammolar sifatida qayd etildi. Shaxsiy ma’lumotlarning himoyalanishi va kiberxavfsizlik tahdidlari ko‘plab respondentlarni xavotirga solmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo‘yicha kuchli siyosatlar ishlab chiqish zarur.

Ta'lim va malaka oshirish masalalari ham katta ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimining AKT bo‘yicha yetarli darajada emasligini va aholining texnologik bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarurati borligini ko‘rsatdi. Bu muammoni hal qilish uchun ta'lim tizimini axborotlashgan jamiyat talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish va uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi strategik yechimlar taklif qilinadi:

- Raqamli tafovutni kamaytirish: Qishloq joylarga AKT infratuzilmasini yetkazib berish, arzon narxlarda internet xizmatlarini taqdim etish, texnologiyaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

- Maxfiylik va Xavfsizlik Siyosatlarini Kuchaytirish: Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo‘yicha kuchli siyosatlar ishlab chiqish, kiberxavfsizlik bo‘yicha ta'lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

- Ta'lim va Malaka Oshirish: Ta'lim tizimini axborotlashgan jamiyat talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish, uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik bilim va ko‘nikmalarni oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot natijalari axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi asosiy muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan strategik yondashuvlarni ko‘rsatib beradi. Jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishini ta'minlash uchun bu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell.
2. Benkler, Y. (2006). The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom. Yale University Press.
3. Norris, P. (2001). Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide. Cambridge University Press.
4. Van Dijk, J. (2020). The Network Society. Sage Publications.
5. Webster, F. (2014). Theories of the Information Society. Routledge.
6. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.
7. Giddens, A. (2009). Sociology. Polity Press.
8. Hargittai, E. (2002). Second-Level Digital Divide: Differences in People's Online Skills. First Monday, 7(4).
9. Castells, M., & Himanen, P. (2002). The Information Society and the Welfare State: The Finnish Model. Oxford University Press.
10. Livingstone, S. (2009). Children and the Internet: Great Expectations and Challenging Realities. Polity Press.
11. Warschauer, M. (2003). Technology and Social Inclusion: Rethinking the Digital Divide. MIT Press.
12. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
13. Fuchs, C. (2020). Social Media: A Critical Introduction. Sage Publications.
14. Mansell, R., & Hwa, P. (Eds.). (2015). The International Encyclopedia of Digital Communication and Society. Wiley-Blackwell.
15. Castells, M. (2004). The Power of Identity. Wiley-Blackwell.
16. Tojiev, A. (2017). Axborotlashgan jamiyat: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti nashriyoti.
17. Karimov, O. (2019). Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
18. Usmonov, S. (2020). O‘zbekistonning axborotlashgan jamiyatga o‘tishdagi asosiy yo‘nalishlari. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
19. Rashidov, B. (2018). Raqamli xavfsizlik va uning dolzarb masalalari. O‘zbekiston Axborot Texnologiyalari Universiteti nashriyoti.

IQTISOD FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Shomurodov R.,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Zamonaviy ta'lim tizimida iqtisod fanini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining (ZAT) o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalari yordamida o‘quv jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli, interaktiv va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bu texnologiyalar ta'limning individualizatsiya qilishini ta'minlaydi. Biroq, ZATdan foydalanishda pedagogik va psixologik omillarni hisobga olish zarur, chunki ularning o‘rni ta'lim sifatini yaxshilashda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada iqtisod fanini o‘qitishda ZATning pedagogik-psixologik omillari tahlil qilinadi.

1. Pedagogik asoslar.

Pedagogik jihatdan ZATdan foydalanishning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilar quyidagi omillarni inobatga olishlari kerak:

Ta'limning maqsadi va vazifalariga moslik: Iqtisod fanini o‘qitishda ZATdan foydalanish o‘quvchilarga iqtisodiy nazariyalarni va amaliyotni tushunishda yordam berishi kerak. O‘quvchilarning bilim olishidagi samaradorlikni oshirish uchun, axborot texnologiyalari o‘quv materiallari bilan birgalikda ishlab chiqilishi lozim. ZATlardan foydalanish, o‘quvchilarga iqtisodiyotning murakkab jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini beradi.

Interaktivlik: Pedagogik nuqtai nazardan ZATdan foydalangan holda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash muhimdir. Interaktiv ta'lim texnologiyalari (masalan, onlayn testlar, viktorinalar, simulyatsiyalar) o‘quvchilarni faollashtiradi va ularning darsdagi diqqatini jamlashga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini yaratish, ularning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. F. Rajabov. Matematika: O‘quv qo‘llanma: T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.-280 b.

TA'LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdusalomova M.Sh.,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi, tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘quvchilarning bilish faolligini oshirishga doir masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, bilim, bilish jarayoni, bilish faolligi.

Аннотация: В данном тезисе освещены вопросы, связанные с повышением познавательной активности учащихся**.**

Ключевые слова: учащийся, знание, познавательный процесс, познавательная активность**.**

Annotation: This thesis highlights issues related to improving the cognitive activity of students.

Keywords: student, knowledge, cognitive process, cognitive activity.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining Ta'lim to‘g‘risidagi Qonunida ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayonni tashkil etish to‘g‘risida bayon etilgan [1].

Har qanday ta'lim jarayonining metodolik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi. “Bilish faoliyati” tushunchasi “o‘quv faoliyati” tushunchasiga qaraganda kengroq tushunchadir. Chunki uning mazmun jihati o‘quv dasturiga asoslangan rasmiy ta'lim doirasidan chetga chiqadi. Bilish ehtiyoji shu bilan tavsiflanadiki, inson qandaydir hali o‘zida bo‘lmagan narsaga, ya'ni unga noma'lum bo‘lgan bilim va xatti-harakat usullariga zarurat sezadi [6].

Bilish nafaqat fan tarmoqlarida zaruriy tushuncha, balki insonning tabiat va jamiyatda bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy-ma'naviy faoliyatining asosiy turi hisoblanadi. Bilishga ta'lim jarayonida o‘quvchilarga taqdim etilgan o‘quv

materialining o‘zlashtirilganlik darajasi, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash jarayoni orqali erishiladi [4].

Pedagogika nuqtai nazaridan, bilish – o‘quvchi faoliyatining o‘quv materiallarini ongida aks ettirish jarayonidir. Taqdim etiladigan yangi mavzular tarkibidagi bilimlar bilish obyekti bo‘lganligi uchun ham ular o‘quvchilarning bilish faoliyati tarkibiga kiritiladi [5].

Bilishning asosiy bosqichi muayyan tarzda tashkil etilgan pedagogik jarayonda sodir bo‘ladi. Pedagogik jarayonning omili subyektning bilish faolligini shakllantirishdir. Pedagogik jarayon maqsadli jarayon deb tushuniladi, mazmunga boy, tartibli o‘zaro ta’sir faol faoliyat natijasida o‘qituvchining faoliyati va o‘quvchining shaxsiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishi o‘qituvchining rahbarlik va tuzatuvchi roli asosida amalga oshiriladi [10].

N.A.Shermuxamedova bilim tushunchasiga “anglash mumkin bo‘lgan narsalarni faol o‘zlashtirish, alohida maxorat va vositalarni talab qiluvchi harakat” deb tavsiflagan [9].

O‘quvchilarda faollik darajalari bosqichma-bosqich shakllanib, bevosita ko‘rish, eshitish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlar, jismning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan tashqi faollik orqali keyingi bosqich ichki, ya’ni bilish faolligi muayyan o‘quv faoliyatini bajarish jarayonidagi fiziologik holatlar, ikkinchi tomondan, o‘quvchining ruhiy jarayonlari, uning xotirasi, idroki, tasavvuri kabi aslida ko‘rinmaydigan, lekin bilish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik-didaktik omillarni o‘z ichiga oladi [5].

Bilish faolligini oshirish bilim oluvchilarning yoshiga qarab turlicha kechadi. Jumladan E.G‘oziev ilk o‘spirinlik yoshida bilishga qiziqish asosiy xususiyat ekanligini aytgan [7]. Ularning dars jarayonlarda faol qatnashishi qobiliyat va aqliy imkoniyatlariga qarab amalga oshadi. Ilk o‘spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik, takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo‘l va vositalari esa ta’lim jarayonida yetakchilik qiladi. Ular topshiriqlarni bajarishda uning ma’nosi hamda mohiyatini to‘la anglab ish tutadilar, eslab qolish, esda qolish, esga tushirish jarayonlarning samarali usullaridan unumli foydalanadilar. Bu jarayonlar muvaffaqqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi diqqatning sifati va miqdori o‘zgaradi. Diqqatni ko‘chirish va taqsimlash sezilarli rivojlanadi, boshqalarning nuqtai nazariga e’tibor berish, ularning nutqini tinglash, yozib olish, mulohaza yuritish mahorati oshadi va aqliy qobiliyati takomillashadi.

O‘quv jarayoni o‘quvchilarning o‘quv-biluv munosabatlariga kirishish jarayoni bo‘lib, u o‘quvchilarni intellektual hamda ma’naviy jihatdan rivojlantirishga qaratiladi. Har doim o‘quvchilarga taqdim etiladigan yangi mavzular tarkibidagi bilimlar bilish obyekti bo‘lganligi uchun ham ular o‘quvchilarning bilish faoliyati tarkibiga kiritiladi. Mazkur bilimlarni muvaffaqqiyatli o‘zlashtirish uchun esa, o‘quvchilarning faolliklarini ta’minlash nihoyatda zarur hisoblanadi. Faollik esa, ishchanlik demakdir. O‘quvchilarining bilish faolligi deganda, ularning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, egallash jarayonidagi ishchanlik va faollik darajalari tushuniladi [5].

Bilish faolligini oshirishda o‘quv jarayonida izlanish, bilishga qiziqishning hosil bo‘lishi va uning o‘z yechimini topishi orqali, bilim olish va egallashga ixtiyoriy quvvat sarflashi tushuniladi. Bilish faolligi har bir o‘quvchi shaxsining o‘ziga xos

sifati bo‘lib, u ta’lim oluvchilar faoliyatining mazmuni va jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi. Bilish faolligi orqali bilimlarni o‘zlashtirishning turli usullari o‘rganiladi.

Pedagoglar oldida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirish vazifasi turadi. Bilish faolligiga asoslangan faoliyatda o‘quvchilardan o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini egallash talab qilinadi; shaxsiy**,** bu yo‘nalishning asosini o‘quvchilarning moyillikka asoslangan ehtiyojlari va hissiy-ixtiyoriy holatlari tashkil qiladi [8].

O‘quvchilar bilish faoliyatining turlarga bo‘linishi ularning xatti-harakatlari doirasi bilan bog‘liq. Faoliyatning asosiy vazifalaridan kelib chiqqan holda A.M.Matyushkin, R.Safarova, B.Adizovlar tomonidan uning ko‘rinishi ajratilgan:

1) moslashtiruvchi faoliyat, bunda o‘quvchilarning muntazam rivojlantiruvchi ta’lim jarayoniga moslashishlari ta’minlanadi;

2) maxsuldor faoliyat, bunda o‘quvchilar moslashishning muayyan doirasidan tashqarida faol harakat ko‘rsata boshlaydi [2].

Mazkur doirada o‘quvchilarning bilish faoliyati mahsuldor ahamiyat kasb etib, yangi o‘quv materiallarini bilish, u ustida fikrlash va uni chuqur o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati tizim sifatida jarayon va mazmun birligini taqozo qiladi. O‘quv biluv faoliyati ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida namoyon bo‘ladi. O‘quv biluv faoliyati muntazam tarzda bir shakldan ikkinchisiga, masalan, amaliydan nazariyga va, aksincha, nazariydan amaliyga o‘tib turadi. O‘quv biluv faoliyatini rivojlantirish, qisqartirish, kengaytirish jarayon yakunida esa uning natijalarini aniqlash va baholash mumkin. Bular o‘quv biluv faoliyatining o‘quv jarayoni bilan bog‘liq xususiyatlardir. O‘quv biluv faoliyati tizimining birinchisida o‘qitish (o‘qituvchi faoliyati), o‘qish (o‘quvchi faoliyati)ni qayd etamiz, ikkinchisida o‘qish (o‘quv faoliyati) – o‘quv materiali (faoliyat predmeti) tizimini belgilaymiz [3].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikaning “Ta’lim to‘g‘risi”gi Qonuni**.** 637-sonli. 23.09.2020. https://lex.uz/docs/5013007

2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. diss.. -T.: 2003. - 320 b .

3. Najmiddinova G.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Toshkent-2006.UDK:,371.302.372.2.

4. Pedagogik atamalar lug‘ati. Tuzuvchilar: Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q. va b. Toshkent -Fan 2008. 18-bet.

5. Safarova R., Yusupova F., Djiemuratova G., Ro‘ziyev F., Ibraximov S.. O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyixalash. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 148 b.

6. Yuldasheva M.E. Ta’lim oluvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari . J. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(6), June, 2023. https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-oluvchilarda-bilish-faoliyatini-rivojlantirishniing-nazariy-asoslari

7. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy-eksperimental tarix. Toshkent -2010. B.296.

8. Харламов И.Ф. Педагогика. - М.: Юристь, 1997, 212 с.

9. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi.Toshkent-2011.-b-13.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI RANGTASVIR FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Bazarova X.F.,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotasiya: Mazkur maqola oliy ta'lim muassasalarida rangtasvir fani bo'yicha talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, rangtasvir fanining mustaqil o'qitilishida qo'llanishi hamda talabalar ijodiy salohiyatini rivojlantirishga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: rangtasvir, axborot texnologiyalari, oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, ijodiy salohiyat

Kirish: Bugungi kunda ta'lim sohasida axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, o'qitish jarayonlarini yanada samarali va ijodiy qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat o'qituvchilarga, balki talabalar uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Rangtasvir fani kabi ijodiy yo'nalishlar uchun esa bu texnologiyalar yanada chuqurroq ma'no kasb etmoqda, chunki rangtasvir nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni ham talab qiladi. Rangtasvirni mustaqil o'qitish, talabalarga nafaqat bilim olish, balki ijodiy fikrlash va o'zini erkin ifodalash imkonini beruvchi jarayondir. Shu sababli, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga kiritish orqali talabalarga turli xil raqamli vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy salohiyatlarini rivojlantirish va zamonaviy san'at texnologiyalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Talabalar bugungi raqamli dunyoda o'z o'rnini topishi, ijodiy mahsulotlarini raqamli shaklda yaratishi va taqdim eta olishlari uchun axborot texnologiyalari bilan ishlash malakasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori texnologiyalar yordamida yaratilgan vositalar, dasturlar va platformalar rangtasvir bo'yicha mustaqil ta'lim olishda turli usullarda yordam berishi mumkin. Masalan, Photoshop, CorelDRAW kabi grafik dasturlarda ishlash, raqamli san'atni o'rganish imkoniyatlari talabalarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytirib, ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatadi. Virtual muzeylar, san'at galereyalari va onlayn darslar orqali o'quvchilar dunyo san'ati bilan yaqinroq tanishishlari, boshqa madaniyatlarning san'at asarlarini o'rganishlari va ulardan ilhom olishlari mumkin. Shu bilan birga, onlayn kurslar va virtual mashg'ulotlar talabalar uchun bilim olish jarayonini yanada moslashuvchan va qulay qiladi.

Tahlil va Natijalar.

Axborot texnologiyalari, ayniqsa, mustaqil ta'lim jarayonida rangtasvir fanini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Rangtasvir ta'limi faqat an'anaviy o'qitish metodlari bilan cheklanib qolmasdan, raqamli san'at dasturlari, onlayn darslar, masofaviy amaliy mashg'ulotlar yordamida ham talabalarga yetkaziladi. Bu texnologiyalar yordamida talabalarga rangtasvirning nazariy asoslarini, tasviriy san'at usullarini va texnik ko'nikmalarini o'rgatish imkoniyati kengaymoqda.

Bunda quyidagi axborot texnologiyalari ishlatiladi:

• Raqamli san'at dasturlari: Photoshop, CorelDRAW, Procreate kabi grafik dasturlar orqali rangtasvir texnikalarini o'rganish osonlashadi. Talabalar rang,

kompozitsiya va format bilan ishlashni o‘rganadilar va o‘z ijodiy ishlari uchun yangi g‘oyalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiradilar.

• 3D modellashtirish dasturlari: Rangtasvir va shakl yaratishda yordam beruvchi Blender, Autodesk Maya kabi dasturlar talabalar uchun yangi gorizontlarni ochadi. Ular yordamida uch o‘lchamli san’at asarlarini yaratish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish mumkin.

• Onlayn manbalar va darslar: YouTube kabi video platformalarda rangtasvir bo‘yicha amaliy darslarni tomosha qilish va mashq qilish imkoniyati kengdir. Bundan tashqari, Coursera, Udemy kabi onlayn kurs platformalarida rangtasvir bo‘yicha chuqurroq ma’lumot olish mumkin.

Mustaqil o‘qitishda raqamli manbalar va vositalar

Rangtasvir fanini mustaqil o‘qitishda talabalarga raqamli manbalar orqali ishlash imkoniyatini yaratish katta ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun tayyorlangan mustaqil ishlar vazifalarini elektron formatda olishlari, raqamli san’at vositalari yordamida o‘z ijodiy ishlarini bajarishlari ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron darsliklar va onlayn qo‘llanmalar: Talabalar rangtasvir nazariyasini va texnikasini o‘rganishda onlayn darsliklardan, san’at va rangtasvir bo‘yicha qo‘llanmalardan foydalanishadi. Elektron darsliklarda rang, tus, kompozitsiya va boshqa asosiy tushunchalar raqamli formatda vizual ifodalab berilishi o‘quvchilarning materialni yanada chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

Virtual galereyalar va san’at muzeylari: Internet orqali mavjud san’at galereyalari va muzeylari talabalarga dunyoning turli burchaklaridagi mashhur rangtasvir asarlarini ko‘rish va ulardan ilhom olish imkonini beradi. Masalan, Luvr yoki Ermitaj muzeylaridagi asarlar bilan tanishish, ularning rang va kompozitsiya usullarini o‘rganish talabalarning san’atka bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Masofaviy o‘qitish platformalari: Rangtasvir bo‘yicha mustaqil o‘qitish jarayonida Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar yordamida ustoz va talabalar o‘rtasida masofaviy mashg‘ulotlar o‘tkazish, amaliy topshiriqlar va savollarga javob olish imkoniyati mavjud.

Axborot texnologiyalarining ijodiy rivojlanish va innovatsiyadagi roli

Rangtasvir fanini mustaqil o‘rganishda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalarga ijodiy rivojlanish uchun ko‘proq imkoniyatlar beradi. Talabalar o‘z ishlarini ko‘rgazmaga qo‘yishlari, boshqa ijodkorlarning ishlarini tahlil qilishlari va san’at sohasida o‘zlariga yoqadigan yo‘nalishni rivojlantirishlari mumkin.

Ijodiy ko‘nikmalarni mustahkamlash: Raqamli san’at dasturlari talabalarga o‘z ijodiy ishlari bilan tajriba o‘tkazish imkoniyatini beradi. Ular turli ranglar va tuzilmalardan foydalanish, murakkab kompozitsiyalarni yaratish orqali o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin.

Innovatsion yondashuvlarni qo‘llash: Axborot texnologiyalari yordamida talabalar an’anaviy usullardan tashqari yangicha usullarni o‘rganishadi. Masalan, rangtasvirda raqamli grafikalar, vektor tasvirlar va 3D san’at bilan ishlashni o‘rganish talabalarga innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida rangtasvir fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish sezilarli darajada kengayib, talabalarga mustaqil ta’lim olish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratdi. Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali

talabalar masofaviy ta'lim, raqamli tasviriy san'at dasturlari, va virtual tanqid maydonchalaridan foydalanib, o'z mahoratlarini mustahkamlashlari va ijodiy tajriba olishlari mumkin bo'lmoqda. Masalan, 2022-yilgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimidagi o'qituvchilarning 65 foizi san'at va ijodiy fanlar bo'yicha raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Shu bilan birga, 2023-yilda rangtasvir ta'limi sohasida to'liq vaqtli o'qituvchilar sonining oshishi kuzatildi, bu esa yangi texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashadi. Bu tendensiya oliy ta'limda mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, raqamli vositalardan foydalanish orqali san'at ta'limini zamonaviy talablarga moslashtirishga yordam beradi. Talabalar raqamli rangtasvir dasturlari va qo'llanmalari yordamida o'z ishlarini sinchkovlik bilan tahlil qilishlari, masofaviy tanqid va fikr almashish orqali o'zaro bilim almashish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Bunday integratsiya o'qituvchilarga nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilashga, balki san'at va texnologiyani birlashtirish orqali yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida rangtasvir fanini mustaqil o'rganish jarayonida axborot texnologiyalarining qo'llanilishi nafaqat ta'limning sifati, balki talabalarning ijodiy va shaxsiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi raqamli asrda axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi tufayli talabalar rangtasvirni o'rganishda yangi usullar va vositalardan foydalanib, o'zlarini erkin va ijodiy ifodalash imkoniga ega bo'lishmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayonini faqat bilim olish bilan cheklamay, balki ijodiy muhit yaratishga va zamonaviy san'at texnologiyalari bilan tanishtirishga yo'naltiradi. Axborot texnologiyalarining qo'llanilishi talabalarga ijodiy qobiliyatlarini kengaytirish va o'z ko'nikmalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, talabalarga o'z ijodiy ishlari uchun yangi uslublarni kashf etish va o'z san'at asarlarini dunyo bilan bo'lishish imkonini beradi, bu esa ular uchun kengroq auditoriya bilan muloqot qilish va o'z ishlarini xalqaro miqyosda baholash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulova, N. (2021). "Rangtasvir ta'limida axborot texnologiyalarining ahamiyati." Oliy ta'lim muassasalarida san'at fanlarini o'qitish bo'yicha ilmiy jurnallar.
2. Karimov, Sh. (2022). "San'at ta'limida raqamli vositalardan foydalanish: yutuqlar va muammolar." Texnologik taraqqiyot va ta'lim jurnali.
3. The Art of Education University (2023). The State of Art Education 2023.
4. Jones, M. (2020). "Art Education in the Digital Age: Exploring New Technologies." Journal of Art and Design Education, 39(1), 25–35.
5. Smith, L. (2021). Digital Tools in Art Education: A Guide for Teachers. Creative Publishing.

O'QUVCHILAR KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MA'RIFATPARVAR ADIBLAR AXLOQIY QARASHLARINING O'RNI

Sharopova G.,
Karmana tuman 4-IDUM o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirishda ma'rifatparvar adiblarimizning axloqiy

qarashlaridan foydalanish va jamiyatga yetuk,komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, kompetensiya, tarbiya turlari, ilm, axloq sifatlari, qadriyatlar

Har qanday millatning intellektual salohiyati uning ma’naviy barkamolligida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy barkamollik esa ta’lim jarayonida shakllanadi.

Ta’lim – shaxsning kasbiy va ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni olish, yig‘ish, tahlil qilish va ularni hayotga qo‘llash jarayoni.

An’anaviy ta’lim tizimi zamirida XIX asrning oxiri XX asr boshida Fitrat, Avloniy va ilmiy pedagogikaning ta’lim tizimini biluvchi odamni tayyorlashga yo‘naltirgan boshqa asoschilaro tomonidan ta’riflangan g‘oyalar yotadi. Bugungi kunda bu model tushunuvchi (boshqa odamlarni, o‘zga madaniyatlar vakillarini) odamni tayyorlashga qaratilgan mo‘ljal bilan to‘ldirilishi lozim.Hamma narsa bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan dunyoda boshqa odamlarni tushunish, ular bilan muloqot qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi,barkamol shaxsni tarbiya-lashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida o‘qitiladigan umumta’lim fanlari mazmunining izchilligini ta’minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar, hamda har bir o‘quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

Tayanch kompetensiyalar:

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. Umummadaniy kompetensiyalar;
6. Matematik savodxonlik,fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish, hamda foydalanish kompetensiyasi.

Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyati ta’limni modernizatsiyalashda (ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligini), uning sifat jihatidan o‘zgarishi, tarbiyaning ustivor yo‘nalishi sifatida ijtimoiy qadriyatlarimizni mustahkamlashda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimida tarbiya mazmuni va o‘quvchining ijtimoiy hayotga tayyorgarligining sifatini aniqlash uchun qo‘llanadi.Hamda ta’limning natijaviyligi va shaxsning o‘zaro uzviy aloqador fazilatlari integratsiyalashgan tavsifini ochib beradi.Tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv dars,darsdan tashqari,ijtimoiy faoliyat jarayonida tizimli tarbiyaning xilma-xil obyekt va subyektlarini yaratish, natijaviylik ko‘rsatkichlari majmuyini ishlab chiqish va ularni har bir o‘quvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: ”Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish– turishi,bir so‘z bilan aytganda,dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti.Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli,yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin.Biz kimmiz,qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz,degan da’vat ularning

qalbida doimo aks-sado berib,o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin.Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" deya ta'kidladi.

Tarbiya tug‘ilgan kundan boshlab, inson umrining oxiriga qadar davom etadi.Tarbiya inson axloqini shakllantirar ekan,tarbiyachilar bola vujudiga ezgu xulqlarni singditib ta'lim bermog‘i lozim.

Tarbiyaning bosh maqsadi:

-o‘zlikni bilish;

-atrof-muhitni bilish;

-o‘z-o‘zini boshqarish;

-yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqimizning bosh milliy,ma'naviy-tarixiy an'analari,urf-odat hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib,amaliyotga joriy etish;

-eng ulug‘ g‘oya: mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yuksaltirish,yorug‘ va erkin, farovon hayot qurish, komil insonni tarbiyalash;

-o‘zi yashab turgan oila,mahalla, jamiyat farovonligiga xizmat etishdan iborat.

Axloqiy tarbiya va ma'rifatparvaradiblarning qarashlari o‘quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Abdulla Avloniy o‘zining qarashlarida axloqiy tarbiyani ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi.U insonni komil darajaga yetkazishda to‘rt asosiy bo‘limga ajratgan.

1. Tarbiyaning zamoni: Yosh bolalarning tarbiyasini erta boshlab,ota-ona, muallim va jamiyat birgalikda faoliyat yuritishi lozim.

2. Badan tarbiyasi. Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur.Chunki o‘qumoq,o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur.Biz sihatimizni saqlamak ila amr o‘linganmiz, shuning uchun vujudimizni hifzi sihatga zid bo‘lgan yomon odatlar ila churutmakdan saqlanmakligimiz lozimdur.

3. Fikr tarbiyasi. Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan,muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur.Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki,fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

4. Axloq tarbiyasi.Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Biz tarbiya va dars orasida farq bor, deduk,chunki: dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi –amal qiluvchi demakdur, deya ta'riflaydi.

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,

Xanjar, olmosdan bo‘lur o‘tkur.

Fikring oyunasi olursa zang,

Ruhi ravshan zamir o‘lur benur.

Har bir o‘qituvchi saboq berar ekan o‘quvchilarini nafaqat dars oluvchi, balki amal qiluvchilardan bo‘lishlariga erishishi lozim.

Avloniy yaxshi xulqlarni ham ikki qismga ajratib,bir qismi o‘z nafsimizga; bir qismini esa bir-birimizga qarshi ishlatmoq uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar deb ta'riflaydi.

Bugun nafaqat mamlakat doirasida, balki butun dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar haqidagi turli mafkuraviy xabar va ma’lumotlar tarbiyaviy jarayonda o‘qituvchilar zimmasiga katta vazifalar yuklaydi. Hozirgi ta’lim –tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish alohida ahamiyatga ega.

Aflotun inson tabiatidagi zaruruy xulosalarni va ularning qarama-qarshi jihatlarini farqlashi kerakligini tushuntiradi. U yaxshi fazilatlarga erishmoqchi bo‘lgan odam yaxshi xislatlarga intilishi zarur. Chunki fazilatlarga erishish qiyin. Odam faqat illatlardan forig‘ bo‘lgandan so‘nggina yaxshi fazilatlarga erisha oladi, deya ta’kidlaydi.

Tarbiyaviy ishlar tizimini olib borishda o‘qituvchi o‘quvchi shaxsini hurmat qilish,uni e’zozlash, kechirimli bo‘lish, tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish, unga nisbatan do‘stona munosabatda ish yuritish, ehtiyoji, qiziqishi, shasiy fazilati, iqtidori, ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olish kerak.

Abu Nasr Farobiy ta’lim faqatgina so‘z va o‘rganish bilangina bo‘ladi,tarbiya amaliy yoki tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunar berilgan bo‘lishi, o‘rganishidandir, deydi. Tarbiya aqlning yaratuvchisidir, degan ta’rifni ilgari suradi.

Ibn Sino, avvalombor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan,irodali,dono, g‘amxo‘r tarbiyachi tanlash kerak bo‘ladi, deydi.

Alisher Navoiyning asarlarida maktab va madrasalardagi ta’lim – tarbiya usullari, ta’lim olish tamoyillari, talabalarga bilim beradigan mudarris va ustoz-murabbiylarning o‘zlari dono va tarbiyasi yuksak pedagogik mahoratga ega bo‘lishi zarurligi uqtirilgan.

Ma’naviyatimizning namoyondalaridan yana biri Abdurauf Fitrat “Ta’limi o‘lgan millatning buguni ham, kelajagi ham qullikdir” deya ta’riflaydi. U ota-onaning vazifasi o‘z farzandlarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashdan iboratligi, bunga ayniqsa uch tarbiyaga:

-jismoniy tarbiya – salomatlik;

-aqliy tarbiya – sog‘lom fikrlilik;

-axloqiy tarbiya – axloqiy poklikka e’tibor berish kerakligini ta’kidlaydi.

O‘z davrining yetuk mutafakkiri Munavvar qori Abdurashidxonov kelajak yoshlariga katta umid bog‘lab, ” Yurt obro‘sini yoshlar saqlar “, deya e’tirof etadi.

Ma’rifatparvar adiblarimiz yoshlarning ilmli,aqlli, salohiyatli, sog‘lom, Vatan ravnaqi uchun fidoyi bo‘lib yetishishlari yo‘lida tinmay mehnat qiladi.Ularning vatanparvarlik, xalqparvarlik,ilm-fan taraqqiyoti haqidagi g‘oyalari hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya milliy meros hamda umumbashariy , umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘langan holda amalga oshirilmoqda. Zero, har bir millatning o‘ziga xos meros va qadriyatlariga suyangan holda tarbiyashunoslik masalalarini avlodlarga yetkazish,har birimizning ajdodlar oldidagi oliy burchimiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy.Tanlangan asarlar.I-jild. Toshkent “Ma’naviyat” 2006-yil.
2. Abdulla Avloniy.Tanlangan asarlar.II-jild. Toshkent “Ma’naviyat” 2006-yil.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar.. Toshkent “Ma’naviyat” 2009-yil.

4. Tarbiya ensiklopediyasi.O‘zbekiston miliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2010
5. Tarbiya jurnali.4-son 2010-yil.”Ta’lim- barkamol avlod tarbiyasining muhim omili” falsafa fanlari doktori N. Shermuhammedova.
6. Abu Nasr Farobiy Fozil odamlar shahri.Toshkent-2016-yil.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlar.. Toshkent “Akademnashr” 2018-yil.
8. Jadidlar To‘plam. Yoshlar nashriyoti uyi.Toshkent-2022

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Qozoqova M.V.,
Navbahor tuman 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarining roli juda katta. Ularning hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan ta’lim sohasida ham qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini yaratadi. Xususan, boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim tizimining sifatini oshirishda, o‘quvchilarda o‘zini ifodalash, ijodiy fikrlash, va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning ahamiyati, usullari va unga oid masalalar ko‘rib chiqiladi.

1. Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalarining ahamiyati

Boshlang‘ich ta’lim — bu o‘quvchilarning intellektual rivojlanishining poydevori hisoblanadi. Bu davrda o‘quvchilarda bilim olishga, yangi ma’lumotlarni qabul qilishga va ularni amalda qo‘llashga bo‘lgan qiziqish shakllanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, kompyuterlar, internet va multimedia vositalari o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘quv jarayonini yanada interaktiv qiladi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanishning bir qator foydali tomonlari bor:

Bilim olish jarayonini soddalashtirish: Internet, multimedia materiallari, elektron kitoblar va ta’lim dasturlari o‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu haqida tezkor va keng qamrovli ma’lumotlar olish imkoniyatini beradi.

Motivatsiyani oshirish: Interaktiv va o‘yin usullari yordamida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni darsga yanada faol jalb qilish mumkin. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Ijodiy yondashuvni rivojlantirish: Axborot texnologiyalari o‘quvchilarga o‘zlarining ijodiy fikrlashlarini, masalalarni yechishda yangi yondashuvlarni sinab ko‘rish imkonini yaratadi.

2. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash usullari

a. Interaktiv ta'lim platformalaridan foydalanish

Bugungi kunda interaktiv ta'lim platformalari va dasturlarining ko‘pligi o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Bu platformalar o‘quvchilarga mashqlarni va testlarni onlayn shaklda bajarishga, o‘z natijalarini ko‘rishga va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan,

matematika, til o‘rganish, tabiiy fanlar va boshqa fanlar uchun mo‘ljallangan interaktiv dasturlar o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

b. Multimedia materiallari va videolarni qo‘llash

Multimedia materiallari (videolar, animatsiyalar, simulyatsiyalar) o‘quvchilarga nazariy materiallarni o‘zlashtirishda yordam beradi. Masalan, fizika yoki biologiya fanlarida turli tajribalarni video ko‘rinishda ko‘rish o‘quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu usul o‘quvchilarni darsga yanada qiziqtiradi va mavzuga nisbatan mustahkam tushunchalar shakllantiradi.

c. Onlayn resurslar va virtual kutubxonalar

Onlayn resurslar, kutubxonalar va ma'lumot bazalariga kirish imkoniyati o‘quvchilarga darsda qo‘llaniladigan adabiyotlar va ma'lumotlarni tezda topish imkonini beradi. Virtual kutubxonalar va elektron kitoblar o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga rag‘batlantiradi, bu esa ularning bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

d. O‘yin texnologiyalari va gamifikatsiya

O‘yin texnologiyalari va gamifikatsiya o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish va motivatsiyani oshirishning samarali usulidir. Matematik masalalar, til o‘rganish va boshqa fanlar bo‘yicha o‘yin shaklida tashkil etilgan mashqlar o‘quvchilarga yanada qiziqarli va samarali ta'lim olish imkoniyatini beradi.

3. Boshlang‘ich ta'limda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda yuzaga keladigan masalalar

a. Texnik resurslar va infratuzilmaning yetishmasligi

Ba'zi maktablar va o‘quv muassasalarida zamonaviy texnik resurslar (kompyuterlar, internet, interaktiv doskalar) yetarli darajada mavjud emas. Bu esa axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning oldida to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, texnik nosozliklar, tarmoqning sekin ishlashi kabi muammolar ham dars jarayonini to‘xtatishga olib kelishi mumkin.

b. O‘qituvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasi

Ba'zi o‘qituvchilar axborot texnologiyalarini qo‘llashda yetarlicha tajriba va bilimga ega emaslar. Bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. O‘qituvchilarni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish, ularning malakasini oshirish muhim masaladir.

c. O‘quvchilarning texnologiyalarga nisbatan qiziqishining pasayishi

Ba'zi hollarda, o‘quvchilar texnologiyalarni faqat o‘yin o‘ynash yoki ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish uchun ishlatadilar. Bu ularning ta'limga nisbatan qiziqishini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun, o‘qituvchilar texnologiyalarni ta'lim jarayonida qanday qilib samarali ishlatishni o‘rganishlari kerak.

Xulosa. Boshlang‘ich ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ta'limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Buning uchun o‘qituvchilar texnologiyalarni to‘g‘ri va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda qo‘llashlari lozim. Shuningdek, texnik infratuzilmani yaxshilash, o‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari bilan ta'minlash va o‘quvchilarni texnologiyalarni ta'lim maqsadlarida ishlatishga rag‘batlantirish muhimdir. Shu tarzda, boshlang‘ich ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning o‘zini ifodalash, ijodiy fikrlash va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

MEHRLI MAKTAB DAVLAT TA'LIM MUASSASASIDA DAVOLANAYOTGAN BOLALAR UCHUN ISHLAB CHIQILGAN MAXSUS O'QUV REJALARINING AFZALLIKLARI

Alikulov A.K.,
"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi Samarqand viloyati filiali umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mehrli maktab davlat ta'lim muassasasida davolanayotgan bolalar uchun ishlab chiqilgan maxsus o'quv rejalarining afzalliklari tahlil qilinadi. Maqolada individual yondashuv, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, o'quv dasturining moslashuvchanligi, innovatsion o'qitish usullari hamda ta'limning uzluksizligini ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Maxsus rejalar bolalarning sog'lig'i va ehtiyojlarini hisobga olib, ta'lim va davolanishni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Tayanch iboralar: Mehrli maktab, maxsus o'quv rejalar, davolanish va ta'lim, individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash, moslashtirilgan dastur, innovatsion ta'lim, uzluksizlik, bolalar rivoji, ijtimoiy integratsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются преимущества специальных учебных программ, разработанных для детей, находящихся на лечении в государственном образовательном учреждении «Mehrli maktab». В статье рассматриваются такие вопросы, как индивидуальный подход, психологическая и социальная поддержка, гибкость учебных программ, инновационные методы обучения, обеспечение непрерывности образования. Специальные планы служат для координации обучения и лечения с учетом здоровья и потребностей детей. Подчеркивается, что такой подход положительно влияет на социальную интеграцию и личностное развитие детей.

Ключевые слова: Школа сострадания, специальные учебные программы, лечение и образование, индивидуальный подход, психологическая поддержка, индивидуальная программа, инновационное образование, непрерывность, развитие ребенка, социальная интеграция.

"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi nogironlik yoki uzoq muddatli tibbiy davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maxsus ta'lim muassasasidir. Ushbu maktablarda an'anaviy o'quv dasturlari moslashtirilib, o'quvchilarning salomatligi, psixologik holati va individual o'ziga xos ehtiyojlariga ko'ra qayta ishlab chiqiladi. Bu jarayon davolash bilan o'qishni uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Individual yondashuv - ta'lim jarayonida har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olib, ularga moslashgan yondashuvni joriy etishdir. Bu usul ayniqsa, maxsus ehtiyojli yoki davolanish jarayonida bo'lgan bolalar bilan ishlashda katta ahamiyatga ega. Individual yondashuv asosida moslashtirilgan o'quv rejalarining asosiy afzalligi - har bir bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslashgan yondashuv. Bu rejalar:

- Bolaning sog'lig'ini hisobga oladi va haddan tashqari yuklamalarni oldini oladi.
- Tibbiy davolash jarayonlariga mos keladigan o'quv jadvalini taqdim etadi.

• Individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqadi, bu esa har bir bolaning qobiliyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Bolalarning salomatligini hisobga olish, O‘quv dasturlari jismoniy va psixologik holatga moslashtiriladi, bu esa o‘quv yuklamalarini kamaytiradi va bolalarning o‘zlashtirish qobiliyatini oshiradi.

Shaxsiy rivojlanishga e'tibor, har bir bolaning o‘ziga xos qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirish imkonini beradi. Moslashtirilgan ta'lim rejasi, o‘quv jadvali va mavzular tibbiy muolajalar jadvaliga mos ravishda tashkil etiladi. Individual ta'lim metodlari, har bir bola uchun individual dars uslublari va vositalari tanlanadi, masalan, vizual, audial yoki interaktiv texnologiyalar.

Qo‘llash usullari:

• Diagnostik testlar orqali bolalarning ehtiyojlarini aniqlash.

• Individual ta'lim rejasini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish.

• Moslashtirilgan o‘quv materiallari va texnologiyalarni qo‘llash.

Individual yondashuvning muvaffaqiyatli joriy etilishi bolalarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ta'lim jarayonida, ayniqsa, davolanishga muhtoj bolalar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv bolalarning hissiy holatini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ta'limga bo‘lgan qiziqishini oshirishni maqsad qiladi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlashning afzalliklari:

Stressni kamaytirish, davolanish jarayonida yuzaga keladigan stress va hissiy zo‘riqishni yengillashtiradi. Psixologlar yordamida bolalarning ichki muammolarini hal qilishga ko‘maklashadi.

O‘ziga ishonchni oshirish, bolalarning o‘z qobiliyatlariga ishonchini kuchaytirish orqali motivatsiyani oshiradi. Shaxsiy muvaffaqiyatlarni rag‘batlantiradi va ularga ijobiy baho beradi.

Hissiy barqarorlikni ta'minlash, Emotsional muvozanatni tiklash uchun turli mashqlar va terapiya usullaridan foydalaniladi.

Jamiyat bilan aloqani saqlash, bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniga ega bo‘ladi. Guruh bo‘lib ishlash va o‘zaro yordamga asoslangan darslar tashkil etiladi.

Moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalarning yangi muhitga va jamiyatga moslashuviga yordam beradi. Tashkil etilgan ijtimoiy tadbirlar orqali bolalarda ijtimoiy faollik rivojlantiriladi.

Ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish, yakka o‘zi qolish holatlarining oldi olinadi, bu esa ularning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. O‘yinlar va birgalikdagi faoliyatlar orqali bolalar ijtimoiy munosabatlar o‘rnatadi.

Psixologik maslahatlar va treninglar tashkil etish, jamoaviy faoliyatlarni o‘tkazish (ijodiy ustaxonalar, tadbirlar), stressni yengillashtirish uchun meditatsiya va relaksatsiya texnikalarini qo‘llash, ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini o‘tkazish choralarini ko‘rish muhim.

Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bolalarning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati, ruhiy barqarorligi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun zaruriy

shartdir. Bu nafaqat ularning ta'limga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni kelajakdagi hayotga ham tayyorlaydi.

O‘quv dasturining moslashuvchanligi har bir o‘quvchining ehtiyojlari, qobiliyatlari va sharoitlariga mos ravishda ta'lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, sog‘lig‘i bilan bog‘liq cheklovlarga ega bo‘lgan yoki davolanishga muhtoj bolalar uchun juda muhimdir.

Tibbiy ehtiyojlarni hisobga olish, o‘quv jadvali va mavzular bolalarning davolanish jarayoniga mos ravishda tuziladi. Bolalarning jismoniy va ruhiy holatini inobatga olgan holda, yuklamalar optimallashtiriladi.

O‘quv yuklamalarini moslashtirish, ta'lim jarayonida asosiy mavzularga e'tibor qaratiladi va ularning chuqur o‘zlashtirilishi ta'minlanadi. Kerakli holatlarda qisqartirilgan dasturlar joriy qilinadi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari, davolanishni davom ettirayotgan bolalar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlari yaratiladi. Onlayn darslar va o‘quv platformalari orqali uzluksiz ta'lim ta'minlanadi.

Moslashuvchan baholash tizimi, an'anaviy baholash usullari o‘rniga o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos keladigan baholash tizimlari qo‘llaniladi. Bolalarning rivojlanish sur'atini hisobga olgan holda oraliq va yakuniy baholar qo‘yiladi.

Moslashuvchanlikning qo‘llanish usullari, individual ta'lim rejalari: Har bir o‘quvchi uchun alohida dastur ishlab chiqiladi. Moslashtirilgan jadval: Darslar va tanaffuslar davolanish va dam olish vaqtiga mos ravishda tashkil etiladi. Turli o‘quv usullari: Nazariy mavzularni o‘yinli, vizual va interaktiv usullar orqali yetkazib berish. Integratsion ta'lim: O‘quv dasturini tibbiy reabilitatsiya jarayonlari bilan birlashtirish.

Natijada, o‘quv dasturining moslashuvchanligi bolalarning ta'lim olish jarayonini davom ettirishiga, bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga va kelajakda ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Bu yondashuv orqali bolalar sog‘lig‘ini tiklab, rivojlanishdan ortda qolmaydilar, balki o‘z qobiliyatlarini to‘liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quv dasturining moslashuvchanligi ta'lim jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va sharoitlariga mos ravishda tashkil etishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar yoki davolanish jarayonidagi o‘quvchilar uchun ta'limni davom ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Tibbiy va psixologik holatga moslashtirish, o‘quv rejasi o‘quvchining sog‘ligi va tibbiy jarayonlar grafigiga mos ravishda tuziladi. Darslar davomiyligi va o‘quv yuklamalari bolalarning energiya darajasiga moslashadi.

Modul va bo‘limlarga bo‘linish, dastur mavzulari kichik modul va bo‘limlarga bo‘linib, bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladi. Bu yondashuv bolalarga mavzularni osonroq va mustahkamroq tushunish imkonini beradi.

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari, darslar onlayn shaklda yoki moslashuvchan jadval asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilar davolanish jarayonida o‘quv materiallarini o‘zlariga qulay bo‘lgan vaqtda o‘zlashtirishi mumkin.

Baholash tizimidagi o‘zgarishlar, an'anaviy baholashdan ko‘ra, bolalarning rivojlanish sur'ati va imkoniyatlarini hisobga oladigan individual baholash tizimi qo‘llaniladi. Yutuqlarni rag‘batlantiruvchi baholash usullari qo‘llaniladi.

Uzluksiz ta'lim, maxsus ehtiyojli bolalar yoki davolanish jarayonidagi o'quvchilar uchun juda muhim, chunki ularning ta'limga bo'lgan ishtiyoqini saqlash, bilimlarni samarali o'zlashtirish va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda asosiy omildir. Innovatsion yondashuvlar, masofaviy va hibrid ta'lim modellari, hamda shaxsiylashtirilgan ta'lim rejalarini joriy etish orqali o'quv jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Innovatsion o'qitish yondashuvlari raqamli texnologiyalarni, o'yinli o'qitishni va interaktiv ta'limni qo'llash orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirishga, bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga o'zlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi va ularda zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Uzluksizlikni ta'minlash ta'lim jarayonini o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va individual yondashuvni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu usul ta'limda davomiylikni ta'minlaydi, o'quvchilarni stressdan saqlaydi va ularning jamiyatga integratsiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Moslashuvchan o'quv dasturlari bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'qish imkoniyatlarini yaratadi. Bu dasturlar tibbiy davolanish jarayonida ham o'quvchilarning bilim olishni davom ettirishlariga yordam beradi, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli kirishishiga imkon yaratadi.

Barcha ushbu yondashuvlar o'quvchilarga ta'limda muvaffaqiyatga erishish, bilimlarni chuqur o'zlashtirish, va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini yaratadi. Ta'limning uzluksiz va moslashuvchan bo'lishi nafaqat o'quvchilarning bilim olish jarayonini, balki ularning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Hoshimov, Ta'limda innovatsiyalar va metodik yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti. 2013.
2. S.Juraev, Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 2012.
3. M.Abdullayeva, Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti. 2008.
4. L.S.Vygotsky, Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press. 1978.
5. J.Hattie, H.Timperley, The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 2007. 81-112.

TRIGONOMETRIK TENGLAMALAR MAVZUSINI O'TISHDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN QO'SHIMCHA METODIK ADABIYOTLARNING AHAMIYATI

Bahodirov B.B.,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Trigonometrik tenglama deb, noma'lumning trigonometrik funksiyalariga nisbatan algebraik bo'lgan tenglamalarga aytiladi. Eng sodda trigonometrik tenglamalar haqida maktab darsliklarida etarlicha to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga trigonometrik tenglamalarini echishning uchta usuli, asosan kvadrat tenglamaga

keltiriladigan va asinx+bcosx=c ko‘rinishdagi tenglamalarni echishning yordamchi burchak kiritish usuli hamda tenglamaning chap qismini ko‘paytuvchilarga ajratib echish usullari xaqida to‘xtalib o‘tilgan. Lekin bir muncha murakkabroq bo‘lgan trigonometrik tenglamalarni echish bo‘yicha etarli ma'lumotlar berilmagan. Bu esa mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish uchun darslikdan tashqari qo‘shimcha metodik adabiyotlar bilan ham ishlashni talab etadi. Trigonometrik tenglamalarni echishning yagona usuli mavjud emas. Shuning uchun har bir misolni echishda trigonometrik formulalarni yaxshi bilish va misollar echish ko‘nikmasiga ega bo‘lish talab etiladi. Ba’zan, trigonometrik bo‘lmagan tenglamalarni trigonometrik tenglamaga keltirib yechish qulayroqdir. Masalan, $z^3 - 3z = q$ tenglamani $z= 2\cos 2x$ ga almashtirish yordamida $2\cos 3x =q$ ga keltirib yechish mumkin. Trigonometriyaning matematika fanidagi tutgan o‘rnini e'tiborga olgan holda bu tenglamalarni echishning bir qancha usullarini eslatib o‘tish mumkin:

- bir jinsli tenglamalar;
- yordamchi burchak kiritish usuli;
- rasional almashtirishlar usuli;
- algebraik tenglamaga keltirish;
- yig‘indini kupaytmaga keltirish yordamida echish usuli;
- ko‘paytmani yig‘indiga keltirish yordamida yechish;
- sinus va kosinuslarning darajalarini pasaytirish yordamida yechish;
- modul qatnashgan trigonometrik tenglamalarni echish;
- nostandart-sun’iy usullar yordamida echish.

Bundan tashqari o‘quvchilar trigonometrik tenglamalarni yechganda, ba’zan tenglamaning echimlari kitobdagi javoblar bilan bir xil emaslidan ajablanishi mumkin. Kitobdagi masalaning javoblari to‘g‘rimi yoki o‘quvchining topgan echimlari to‘g‘rimi? Aslida tenglamani echishdagi tanlangan usulga qarab, tenglama ildizlarining ko‘rinishi turlicha bo‘lishi mumkin. Topilgan ildizlarning bir xilligini tekshirish uchun trigonometrik aylanadan foydalaniladi. Bunday holni aniq misolda ko‘rish uchun quyidagi tenglamani ikki usulda yechamiz.

Мисол. $\cos 3x+|\cos x|=\sin 2x$ tenglamani yeching.

Yechish: Tenglamada modul qatnashgani uchun modulni ta'rif bo‘yicha ochib chiqish kerak.

Quyidagi ikki holni qaraymiz:

а) $\cos x \geqslant 0$ - bu holda modulni berilgan ishora bilan ochamiz.

б) $\cos x < 0$ - bu holda modulni qarama qarshi ishora bilan ochamiz.

Demak, **a)** $\cos x \geqslant 0$ da, tenglama $\cos 3x+\cos x=\sin 2x$ (1) ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Tenglamani ayniy shakl almashtiramiz.

$$2\cos\frac{3x+x}{2}\cos\frac{3x-x}{2}=2\sin x\cos x \Longleftrightarrow 2\cos 2x\cos x=2\sin x\cos x$$

Barcha hadlarni tenglikning chap tomoniga o'tkazib, $2\cos x$ ni qavsdan chiqarsak,

$$2\cos 2x\cos x-2\sin x\cos x=0 \Longleftrightarrow 2\cos x\left(\cos 2x-\sin x\right)=0$$

Bundan, $\cos x=0$ yoki $\cos 2x-\sin x=0$, $\cos x=0$ da, $x=\frac{\pi}{2}+\pi n,\ n\in\mathbb{Z}$

Ikkinchi tenglamani yechamiz:

$\cos 2x-\sin x=0 \Longleftrightarrow 1-2\sin^2 x-\sin x=0$. $\sin x=t,\ |t|\leqslant 1$ belgilash kiritib,

$1-2t^2-t=0$. t ga nisbatan квадрат tenglamani yechamiz.

Tenglikni har ikkala tomonini -1 га ko'paytiramiz:

$2t^2+t-1=0$ $t_1=-1;\ t_2=\frac{1}{2} \Longleftrightarrow \sin x=-1$ ёки $\sin x=\frac{1}{2}$

$x=-\frac{\pi}{2}+2\pi n,\ n\in\mathbb{Z}$; $x=\frac{\pi}{6}+2\pi n,\ n\in\mathbb{Z}$ $x=\frac{5\pi}{6}+2\pi n,\ n\in\mathbb{Z}$

Elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalar interaktiv o‘qitishning samarali vositalari hisoblanadi. O‘quvchilarga ma'lumotni faqat o‘qib, yozib yoki tinglab olish bilan cheklanib qolmasdan, uni interaktiv tarzda qabul qilish, masalan, virtual sinflarda yoki simulyatsiyalangan o‘quv vaziyatlarida amaliyot qilish imkoniyati yaratadi. Bu, o‘z navbatida, tilni o‘rganishda faollikni oshiradi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish

Elektron ta'lim resurslari yordamida o‘quvchilarning individual ehtiyojlari inobatga olinadi. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi va qiyinchiliklari tahlil qilinib, unga moslashtirilgan o‘quv materiallari taqdim etilishi mumkin. Masalan, grammatika yoki talaffuzni o‘rganish bo‘yicha muayyan bir o‘quvchiga qo‘shimcha mashqlar berish, boshqasiga esa yangi mavzularni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday shaxsiylashtirish o‘quvchilarning o‘z kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini tuzatish imkoniyatini yaratadi.

3. O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish

Multimediali materiallar (video, animatsiya, audio va boshqalar) o‘quvchilarni qiziqtiradi va darslarni yanada qiziqarli qiladi. Video va animatsiyalar yordamida o‘qitilgan mavzularni real hayot bilan bog'lash, masalan, til o‘rganishda turli shaxslar bilan muloqot qilishni simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilarda motivatsiya oshadi. Elektron darsliklar va interaktiv mashqlar yordamida o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustahkamlashga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

4. Tezkor baholash va tahlil

Elektron ta'lim resurslari orqali o‘quvchilarning bilim darajasini tez va samarali baholash mumkin. Onlayn testlar, viktorinalar va boshqa interaktiv vositalar o‘quvchilarning natijalarini avtomatik ravishda baholaydi va tahlil qiladi. Bu o‘qituvchiga o‘quvchilarni vaqtida kuzatib borish, xatoliklarni aniqlash va kerakli yordamni ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z natijalarini ko‘rib, o‘quv jarayonidagi kamchiliklarini tezda tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5. Resurslarning mavjudligi va doimiy yangilanishi

Elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalar o'quvchilarga doimiy ravishda yangilanib turadigan materiallarni taqdim etadi. Internet orqali mavjud bo'lgan elektron darsliklar, videolar va interaktiv ilovalar o'quvchilarga har doim eng yangi ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarning bilimlarining dolzarbligini saqlab qolish va ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda yordam beradi.

Ona tili o'qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalardan foydalanishning amaliy yondoshuvlari

1. Grammatikani o'rganishda interaktiv ilovalar

Ona tili grammatikasini o'rgatishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish samarali bo'ladi. Masalan, Grammarly yoki Duolingo kabi ilovalar yordamida o'quvchilar grammatik xatoliklarni tezda aniqlashlari va tuzatishlari mumkin. Bu turdagi ilovalar o'quvchilarning tilni o'rganishda o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

2. Multimediali o'quv materiallari

O'quvchilarga hikoyalar, she'rlar, maqolalar va boshqa matnlarni video yoki audio shaklida taqdim etish orqali ularga tilning og'zaki va yozma shakllarini yaxshiroq o'rganish imkoniyatini yaratish mumkin. Masalan, YouTube yoki Khan Academy kabi platformalarda ona tili faniga oid turli video darsliklar mavjud bo'lib, o'quvchilar ularni ko'rib, yangi materialni tezda o'zlashtirishi mumkin.

Xulosa. Ona tili fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qiladi. Bunday texnologiyalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayoni shaxsiylashtiriladi, motivatsiya oshadi, o'quvchilarning natijalari tezda tahlil qilinadi va yangilangan materiallar bilan ta'minlanadi. Elektron ta'lim va multimediali ilovalar ona tili o'qituvchilariga yangi pedagogik metodlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi va ta'lim tizimining sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, A. A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: metodik yondoshuvlar va amaliyot. Toshkent: O'qituvchi. -2021 y.
2. Xodjayev, M. T. Ta'limda interaktiv texnologiyalar va multimediali vositalardan foydalanish. Toshkent: Akademiya nashriyoti. – 2019 y.
3. Shamsiyeva, S. Elektron ta'lim va pedagogik innovatsiyalar. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. – 2020 y.
4. Aminov, A. K. Zamonaviy ta'limda multimediali ilovalar va ularning qo'llanilishi. St. Petersburg: Nauka. 2020 y.
5. Mansurov, D. S., Qobilova, D. Ta'limda multimediali texnologiyalar: metodik va amaliy yondoshuvlar. Tashkent: "Shuhrat" nashriyoti. – 2021 y.
6. Yunusova, G. F. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim. Tashkent: Pedagogika nashriyoti. 2022 y.
7. Deloitte Insights. AI and Multimedia in Education: Trends and Future Perspectives. Online publication. 2023 y.
8. Mashayev, N. T., & Ismoilov, A. O'qitishda multimediali texnologiyalar va elektron ta'lim resurslari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilar Assotsiatsiyasi. 2020 y.

4-SHO‘BA: MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQARO TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLARI.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA TURIZM SHAKLLARIDAN FOYDALANISH OMILLARI

Xaydarova Sh.N.,
Navoiy davlat universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turizm burchaklarini tashkil etish, mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarni turizmga oid ilk tushunchalarni shakllantirish va bolalarni turizm imkoniyatlaridan foydalanishlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, milliy qadriyatlar, turizm, turizm burchagi, sayohat, ekskursiya, me’moriy obidalar, tabiat manzaralari, mobil avtobus, buyuk ajdodlar, muzey, mashg‘ulotlar, tarixiy bino maketlari, videorolik, sog‘lom turmush tarzi.

Аннотация: В статье рассказывается об организации уголков туризма в дошкольных образовательных организациях, формировании первых представлений о туризме в процессе обучения, использовании туристских возможностей детьми.

Ключевые слова: Дошкольное образование, национальные ценности, туризм, уголок туризма, путешествие, экскурсия, памятники архитектуры, природные пейзажи, передвижной автобус, великие предки, музей, деятельность, макеты исторических зданий, видео, оздоровительный образ жизни.

Abstract: The article describes the organization of tourism corners in pre-school educational organizations, the formation of the first concepts of tourism in the course of training, and the use of tourism opportunities by children.

Key words: Pre-school education, national values, tourism, tourism corner, travel, excursion, architectural monuments, natural scenery, mobile bus, great ancestors, museum, activities, models of historical buildings, video, health lom lifestyle.

Ta’lim tizimining ilk bo‘g‘ini hisoblanadigan maktabgacha ta’lim tizimiga ham hozirgi paytda hukumatimiz tomonidan juda katta e’tibor qaratilmoqda. Jahon hamjamiyatida ham o‘z mavqiyega ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 - yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ta’limiy (bolalar va yoshlar) turizmining rivojlanish turizm sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bolalar turizmi ijtimoiy jihatdan ham juda muhimdir. Turizm bolalarga o‘z yurtimiz va boshqa davlatlarning tarixiy va madaniy merosi bilan tanishish, chuqurroq bilish, bolalarda milliy o‘ziga xoslik tuyg‘usini uyg‘otish, boshqa millat va elatlarning kundalik hayoti va urf-odatlariga hurmat va bag‘rikenglikni tarbiyalash imkonini beradi. Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishida ham sayohatlarning roli katta. Sayohatlar, sayrlar va ekskursiyalar yosh avlodga ularning intellektual darajasini

oshirish, kuzatuvchanliklarini rivojlantirish va dunyoning go‘zalliklarini idrok etish imkoniyatini yaratadi. Turizm jismoniy charchoq, ruhiy stressni yengillashtiradigan vosita sifatida ham muhimdir. Shuningdek, bolalar turizmi yosh avlodda jamiyatda o‘zini tuta bilishi, o‘zini o‘zi tarbiyalash, zamonaviy hayot sharoitlariga moslashishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, bolalar sog‘lomlashtiruvchi turizmi – bu yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan inson va umuman jamiyatning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradigan eng samarali sog‘liqni saqlash texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ishonch bilan aytish mumkinki, bolalar turizmi – yangi avlodga insoniyat tomonidan to‘plangan hayotiy tajriba va moddiy-ma’naviy merosni topshirish, qadriyatlarni qadrlash, millatning ma’naviy tiklanish va madaniy rivojlanish, shaxsni ijtimoiylashtirish yo‘lidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini vatanimizning milliy qadriyatlarini bolalar ongiga singdirish maqsadida milliy, tarixiy qadamjolarga, zamonaviy korxona va tashkilotlarga sayohat uyushtirishni tashkil etishni ko‘zda tutadi, bolalarni milliy tariximiz bilan yaqindan tanishtirish, tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

Respublikamizda vatanimizning milliy qadriyatlarini maktabgacha yoshdagi bolalar ongiga singdirish, boy milliy tariximiz bilan yaqindan tanishtirish, buyuk ajdodlarimizning tarixda qoldirgan o‘chmas izlari bilan ularni tanishtirish, ularga nisbatan faxr-u iftixor va hurmat hissini uyg‘otish, ularga munosib avlodni shakllantirish, kelgusi hayotga tayyorlash, kasbga qiziqishlarini oshirish ishlari amaliy tarzda hali to‘la yo‘lga qo‘yilmagan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni turizmga jalb qilishning ijobiy jihatlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tarbiyalanuvchilarda turizm haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish nafaqat ta’lim sifati balki ta’lim samaradorligini oshirishda ham yaxshi natija beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni sog‘lomlashtirishning nazariy va amaliy vazifalaridan biri ular sog‘ligini saqlash va mustahkamlashning innovatsion yondashuvlarni joriy etish hisoblanadi.

Maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglariga ta’lim tizimini boyitish va chuqurlashtirish hamda ijodiy yondashgan holda kun tartibiga o‘zgartirishlar, ya’ni dastur mazmunidan tashqari boshqa turdagi faoliyatlarni ham kiritishga ruxsat berilgan. Ana shunday bolaning jismoniy, intellektual, huquqiy rivojlanishiga qaratilgan yangicha faoliyat turlardan biri – bolalar turizmi bo‘lishi mumkin. Turizm faoliyati maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan ishlashning shakllaridan biri sifatida kamdan kam hollarda qo‘llaniladi. Lekin bolalar turizmi maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik amaliyotida yordamchi vosita sifatida qo‘llash mumkin va zarurligiga aminmiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirishda turizmning elementar shakllaridan foydalanish yuzasidan tavsiya qilinayotgan tizim, bir tomondan, maktabgacha ta’lim tashkilotining sog‘lomlashtirish ishlari doirasida bolalarning faol faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, maktabgacha ta’lim tashkiloti va ota-onalar jamoatchiligi o‘rtasida o‘zaro samarali aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

Turizm deganda tabiatga chiqish tushuniladi, demak, u atrofimizdagi olamni, undagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatishni, tevarak-atrof bilan munosabatni o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. O‘zi payqamagan holda bola tadqiqiy faoliyat bilan shug‘ullanadi, unda bilish va fikr yuritish jarayonlari faollashadi, tizimlashtirish,

umumlashtirish va xulosa chiqarish malakalari shakllanadi. O‘z taassurotlari bilan do‘stlari va kattalar bilan bo‘lishish istagi paydo bo‘ladi. Nutqning har tomonlama, rivojlanishi, monologik va dialogik nutqdan foydalanish ko‘nikmasining shakllanishi, emotsional muhiti yaxshilanishi kuzatiladi. Ekologik bilimlarning asoslari hosil qilinadi, sayr davomida xavfsiz harakatlanish qoidalariga rioya qilish mustahkamlanadi. Tabiatni asrab-avaylash istagi shakllanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolalar turizmi – bu kreativ jismoniy madaniyat emas, u kam vaqt sarflash orqali salomatlik zahiralarini ko‘paytirishga, kuch va ishchanlikni qayta tiklashga, bola organizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga, jismoniy madaniyat, turizm, o‘lkashunoslik sohasidagi bilimlar hajmini boyitishga yordam qiladigan faoliyatdir. Maktabgacha tashkilotidagi turizm – bu bolalar uchun hayot va jasorat maktabidir, chunki har bir sayohat har bir pedagog va har bir boladan yangi bilim va malakalarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 - yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni.
2. 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish Konsepsiyasi.
3. Nazarova G.G. va boshqalar. Turizm huquqi-Toshkent. Talqin-2003
4. Tuxliyev N. O‘zbekistonda turizm biznesni tashkil qilish menejmenti. T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006 y.
5. Bolalikning quvnoq yozi. Turistik sanoat. 2009. - № 65-67.

ЁШЛАРНИ КАСБ-ҲУНАРГА ЙЎНАЛТИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЖАРАЁНИДА ЎРТА ОСИЁ ОЛИМЛАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ

Рахматова С.А.,
Навоий давлат университети ўқитувчиси

Касб-ҳунарга йўналтириш ҳаракатланадиган ва доимо ўзгариб турадиган тизим бўлиб, янги ижтимоий-иқтисодий тенденциялар – ижтимоий муносабатларни инсонпарварлаштириш, шахсга жамиятнинг энг олий қадрияти сифатида муносабатда бўлиш, меҳнат ресурсларининг миграцияси, худудларнинг турли соҳалар бўйича замонавий соҳа мутахассисларига бўлган эҳтиёжи каби жиҳатлар таъсирини ҳисобга олиб ташкил этиладиган фаолият соҳасидир. Шу сабабли замонавий шароитда, мактаб ўқувчиларини касб-ҳунарга йўналтириш ишларининг самарадорлигини ошириш масаласи янгича мазмунга эга бўлмоқда. Бу эса, ўз навбатида, таълим муассасаларида ўқувчиларни касб-ҳунарга йўналтириш ишларини замонавий кишилик жамиятида касб эгасига қўйиладиган талабларга тўлиқ жавоб берувчи юқори малакали мутахассисни шакллантиришнинг янги, самарали йўллари ва воситалари ёрдамида ташкил этилиши зарурлигини тақозо этади.

Марказий Осиё ҳудудида биринчи Ренессанс X-XII асрларда юзага келди ва бунинг натижасида Муҳаммад Ал-Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Маҳмуд Замаҳшарий каби буюк алломаларнинг

жаҳоншумул илмий кашфиётлари дунё тамаддуни ривожига беқиёс таъсир кўрсатди.

Юртимизда иккинчи Уйғониш, яъни иккинчи Ренессанс даври XV асрда бошланди. Бу даврда Қозизода Румий, Мирзо Улуғбек, Ғиёсиддин Коший, Али Қушчи сингари беназир олимлар, Лутфий, Саккокий, Ҳофиз Хоразмий, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Бобур Мирзо каби мумтоз шоир ва мутафаккирлар, Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд ва Хондамир каби тарихчилар, Маҳмуд Музаҳҳиб ва Камолиддин Беҳзод сингари мусаввирлар шуҳрати дунёга ёйилди. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ғурур билан "Донишманд халқимиз ҳар икки Ренессанс даврида ҳам жаҳоннинг энг илғор, тараққий этган халқлари қаторида бўлгани барчамизга улкан ғурур ва ифтихор бағишлайди", - деб, доно ва меҳнатсевар халқимизнинг жасоратига алоҳида урғу берганлар [9].

Янги Ўзбекистонда учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун илм-фан, таълим-тарбия ва маънавият соҳаларида йирик ислоҳотларни амалга оширилмоқда. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 августдаги "Камбағал ва ишсиз фуқароларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-ҳунарга ўқитишга қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-4804-сон қарори, 2021 йил 8 июндаги "Ишчи касблар бўйича кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-5140-сон қарори ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 30 декабрдаги "Умумий ўрта таълим муассасаларининг 10-11-синфлари ўқувчиларини касб-ҳунарга тайёрлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 792-сон қарори мамлакатимизда меҳнат бозорини ислоҳ қилишнинг самарали механизмларини жорий этиш, камбағал ва ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўқитиш, ишчи касблар бўйича кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш, умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларининг қизиқиш ва қобилиятларидан келиб чиқиб касб-ҳунарга йўналтириш масалаларига катта эътибор қаратилмоқда.

Маълумки, касбий шаклланиш инсоннинг ақлий қобилиятлари, жисмоний имкониятлари, муайян фаолият соҳасига лаёқати, қадриятлар тизими ва қизиқишлари, манфаатлари ва интилишлари билан узвий боғлиқ категориядир. Ёшларни касб-ҳунарга ўргатиш халқимизнинг қадимий анъаналаридан бўлиб, буюк алломалар – Абу Наср Фаробий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Юсуф Хос Хожиб, Алишер Навоий, Аҳмад Дониш, Давонийлар томонидан ёзилган асарларда касб-ҳунар эгаллаш – муқаддас ва энг зарур амаллардан бири эканлиги эътироф қилинган.

Абу Наср Форобий касб-ҳунар тўғрисида фикр билдириб, таълим – сўз ва кўникмалар мажмуи, тарбия – амалий малакалардан иборат бўлишини айтган [4. 75-78-b.]. Амалий фазилатларни шакллантириш, касб-ҳунарга ўргатиш ва уларни бажаришга одатлантиришни икки ҳил йўл билан ҳосил қилиш мумкинлигини таъкидлаган:

1) қаноатбахш ва илҳомлантирувчи сўзлар ёрдамида кўникмалар ҳосил қилинади, сўнг малакалар вужудга келтирилади. Сўз воситасида ғайратга,

шижоатга интиладиган бундай одамларни фазилат эгаси қилиш ва санъат аҳлларига айлантириш мумкин;

2) мажбур этиш усули гапга кўнмайдиганларга нисбатан қўлланилади. Уларни жузъий санъатларни эгаллашга мажбур этмаслик керак, чунки улар ўз истакларича сўз билан ғайратга кирмайдилар [5].

Фаробий касб-ҳунар ва санъатга қизиқишни тарбиявий жараён сифатида қарайди. Чунки бу жараён ёшларда муҳим касбий сифатларни шакллантиради [6].

Абу Райҳон Беруний касбларни тавсифлар экан, оғир меҳнат вакиллари – бинокор, кўмир қазувчи, ҳунарманд, фан соҳиблари меҳнатини давлатнинг таянчи, деб ҳисоблайди. Айниқса, илм аҳли меҳнатига алоҳида эътибор бериш ва уларга нисбатан хайрихоҳ бўлиш зарур. Чунки улар – маърифат тарқатувчилар, жамият равнақига ҳисса қўшувчилар, - деб билади. Кончилар, ер остида гавҳар изловчилар ва деҳқонларга амалдорлар ғамхўр бўлишлари ҳамда улар меҳнатини рағбатлантириб боришлари кераклигига уларга алоҳида урғу беради [8. 487-b].

Абу али ибн Синонинг фикрига кўра, инсонга ёшлигидан бирор касб-ҳунарни ўргатиш лозим. Ҳунар болада ахлоқий ва иродавий хислатларни таркиб топишида ёрдам беради, сабр-тоқат, чидамлилик, меҳнатсеварлик, ишбилармонлик, тадбиркорлик, зукколик каби инсоний сифатларни тарбиялайди. [2. 9-b]. Болада илм-фанга ёки ҳунар эгаллашга интилиш тарбиялашга биринчи ўринда ўқитувчи масъул эканлигини уқтиради [1.102-b].

Маълумки, меҳнат шароитидан келиб чиқиб, ҳар бир касб-ҳунар мутахассисда турли касбий-зарур сифатлар шаклланган бўлишини талаб қилади. Абу али ибн Сино ёшларга касб-ҳунар ўрганишни тавсия қилишда уларнинг мижози (темпераменти)дан келиб чиқиш муҳимлигига алоҳида эътибор қаратган. Чунки ҳар бир инсон фақат унга тегишли бўлган (индивидуал) хусусиятларга эгадир. [3]

Жалолиддин Давоний ёшларни касб-ҳунар танлашларида уларнинг қобилиятлари ва қизиқишларини ҳисобга олиш зарурлигига алоҳида эътибор қаратган. Бунинг боиси – ҳар-бир инсонда муайян касбни муваффақиятли эгаллаш учун ахамиятли қобилият мавжуд. Ёшлар ўзларидаги аҳамиятли қобилиятни шу касбни эгаллашга қаратсаларгина қисқа муддат ичида ўз касбининг устасига айланишлари мумкин бўлади, дейди.

Давоний халқ учун фойдали бўлган касб-ҳунарларни уларнинг мазмуни ва моҳиятидан келиб чиқиб қуйидагича гуруҳлайди:

1) олим ва вазирлик касби - инсон ақлига тегишли бўлиб, кишининг руҳий-маънавий қувватига боғлиқ;

2) таълим-тарбия натижасида вужудга келадиган касблар – астрономия, математика, тиббиёт ва геометрия фанлари билан шуғулланиш;

3) ҳарбийлик, чегарачилик касблари – кишидан шижоаткорлик, иродавийлик, ботирлик, қатъийлик ва жасурлик каби фазилатларни талаб қилади.

Давоний кишиларни касб-ҳунарига қараб таснифлаб, уларни қуйидаги тоифаларга ажратади: 1) қалам аҳллари (олимлар, ноиблар, мунажжимлар, қозилар, муҳандислар, мусулмон қонуншунослар); 2) жисмоний ва руҳий

тайёргарлик талаб қилинадиганлар (ҳарбийлар, чегарачилар, посбонлар, тансоқчилар); 3) савдогарлар ва ҳунармандлар; 4) деҳқонлар ва чорвадорлар [7.40-41-b].

Юсуф Хос Ҳожиб инсоннинг улуғлигини унинг ақл-идроки, сўзлаш қобилияти, билими, уқуви билан бир қаторда касб-ҳунари ҳам белгилайди. Шунинг учун ёшларни ҳунар ўрганиши уларни гўзал ва ахлоқли бўлиб вояга етишларини таъминлайди, деб хисоблайди. [10. 236-b]

Ўрта асрларда Шарқ файласуф-олимларининг диққат-эътибори марказидаги масалалардан бири – инсоннинг касбий шаклланиши бўлиб, ёшларнинг касб-ҳунар эгаллаши таълим ва тарбиянинг энг муҳим вазифаларидан бири деб қаралган. Ҳар бир конкрет касб-ҳунарни мукаммал эгаллашнинг муҳим омиллари деб инсон мижози ҳамда мазкур касбий фаолиятга мойиллик, қобилият ва қизиқишнинг шаклланганлиги, деб хисоблаганлар. Касб-ҳунарларни эса мазмуни ва моҳиятидан келиб чиқиб таснифлаганлар. Ёшлар касб-ҳунарларни муваффақиятли эгаллашларида касбий мойиллик, қизиқиш ва қобилиятлар ҳамда муҳим ижтимоий-касбий сифатларнинг шаклланганлиги алоҳида ахамиятга эга эканлигини ўз рисолаларида алоҳида таъкидлаганлар.

Халқимизнинг улуғ алломалари ва файласуфларининг ёшларни касб-ҳунарга йўналтиришга оид йиллар давомида вақт синовидан ўтган ғоя ва доно фикрлари бугунги кунда ҳам қимматли бўлиб, ўқувчи-ёшларни касбий тарбиясида муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абу Али ибн Сина (Авиценна) Даниш-наме (перев. и предис. Богоутдинова А.М.) Изд.: Таджикгосиздат, 1957. -288 с.
2. Абу Али ибн-Сино. Таълим ва тарбия хақида. –Т., 1967.
3. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. 1-жилд. – Тошкент, 1994.
4. Абу Наср Фаробий. Бахт-саодатга эришув ҳақидаги рисолалар. –Тошкент: «Фан», 1975.
5. Абу Наср Фараби. Социально-этические трактаты. Алма-Ата, 1976.
6. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
7. Аликулов Ҳ., Омонбоева Р. Жомий ва Давоний таълим–тарбия ҳақида. – Тошкент: "Ўзбекистон", 1981.
8. Беруний Абу Райхан. Памятники минувших поколений. – Т.: 1997.
9. Халқ сўзи / On-line газета, 30 сентябрь 2020 йил//https://xs.uz/uzkr/post/prezident-uchinchi-renesansdan-avvalgi-ikkita-renesans-qachon-bolib-otganini-malum-qildi
10. Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. –Т.:Фан, 1971.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КАСБИЙ МАҲОРАТИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

Ғиёсова Н.Ю.,
Навоий давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада бўлажак ўқитувчиларнинг касбий махоратини шакиллантириг педагогик ва психологик шарт-шароитлари ҳамда босқичлари мазмун моҳияти очиб берилган. Бўлажак ўқитувчининг ўз касбий фаолиятини самарали амалга ошириши учун шахсий сифатлар талқини ҳамда психологик холатлар ёритилган. Шунингдек, бўлажак ўқитувчининг касбий тайёргарлиги жараёнида касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришнинг шартлари ҳамда ижодкорлик кўникмаларини ривожлантиришнинг репродуктив, продуктив, қисман изланувчан ва креатив даражаларда ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш масалалари ёритилган

Калит сўзлар: касбий-педагогик ижодкорлик, компетенция, педагогик ва психологик шартлар, дидактик босқичлар, техник фикр юритиш, ўз кучига ишониш, ўз касб маҳоратини тинмай ошириб бориш, жараёнларни эмоционал-қатъийлик билан бошқара билиш, кўникмалар ва малакалар.

Аннотация: В статье раскрыта сущность содержания педагогических и психологических условий и этапов развития профессионально-педагогического творчества будущих учителей. Освещается трактовка личностных качеств и психологических условий, позволяющих будущему учителю эффективно осуществлять свою профессиональную деятельность. Также охвачены условия развития профессионально-педагогической творческой компетентности в процессе профессиональной подготовки будущих учителей и формирования творческих навыков на репродуктивном, продуктивном, частично исследовательском и творческом уровнях творческих способностей.

Ключевые слова: профессионально-педагогическое творчество, компетентность, педагогические и психологические условия, дидактические этапы, техническое мышление, уверенность в себе, постоянное совершенствование профессиональных навыков, умение управлять процессами с эмоциональной устойчивостью, навыки и способности.

Abstract: The article reveals the essence of the content of pedagogical and psychological conditions and stages of development of professional and pedagogical creativity of future teachers. The article covers the interpretation of personal qualities and psychological conditions that allow a future teacher to effectively carry out his professional activities. It also covers the conditions for the development of professional and pedagogical creative competence in the process of professional training of future teachers and the formation of creative skills at the reproductive, productive, partly research and creative levels of creative abilities.

Key words: professional and pedagogical creativity, competence, pedagogical and psychological conditions, didactic stages, technical thinking, self-confidence, the ability to constantly improve their professional skills.

Жамиятда амалга оширилаётган ислоҳотлар талабларига тўла жавоб берувчи, ишлаб чиқариш соҳасида юзага келган рақобатга бардошли, кескин ўзгаришларга мослаша олувчи, шунингдек, меҳнат бозорида ўқитувчилар

малакасига қўйилаётган талаблар даражасида самарали фаолият юритувчи шахсни шакллантириш жуда муҳим жараён ҳисобланади. Бу борада Давлат таълим стандартларида касб таълими ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар билан бир қаторда бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, механизми, методлари ҳамда технологияларини ишлаб чиқишга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бўлажак касб таълими ўқитувчилари педагогик ва муҳандислик билимларига эга бўлишлари кераклиги малака талаблари ва давлат таълим стандартларида белгилаб қўйилган.

Бўлажак ўқитувчининг ўз касбий фаолиятини амалга ошириши учун қуйидаги шахсий сифатлар зарур: ижодкорлик, техник фикр юритиш, ўз кучига ишониш, ўз касб маҳоратини тинмай ошириб бориш, жараёнларни эмоционал-қатъийлик билан бошқара билиш, касбий компетенциянинг юзага чиқиши натижалари шулар жумласидандир. Ижодий фаолият узоқ вақт тайёргарлик кўришни, эрудицияни, қобилиятларни талаб қилувчи ижодий жараён ҳисобланади. Ижодий фаолият – инсоннинг узоқ фаолияти асоси, барча моддий ва маънавий бойликлари манбаидир. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантиришда инсоннинг ижодкорлик фаолияти, ижодий фикрлашининг асосий унсурлари шаклланиши даражаси катта таъсир кўрсатади ва ўқитувчилик фаолиятининг сермаҳсуллигини оширади. Таълим жараёнини лойиҳалаш педагогнинг касбий фаолияти сифатида талабалар – бўлажак касб таълими ўқитувчилари томонидан уларнинг касбийпедагогик тайёргарлик жараёнида ўзлаштирилиши мумкин. Касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини амалга ошириш учун, психологик-педагогик шарт-шароитлар яратилиши лозим. Касбий-педагогик ижодкорлик фаолияти педагогик шарт-шароитлар яратишни таснифлаш негизида шахс фаолиятининг таркибий компонентлари: билиш, ижодий, коммуникатив, бадиий фаолиятлар ётиши мумкин. Шунга кўра, беш хил психологик ҳолатни ажратиш мумкин:

1. Педагогик фаолиятнинг ўзига хос услубини ва касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантириш жараёнини лойиҳалашнинг моҳиятини, тамойилларини ва жараёнларини билиш.

2. Касбий педагогик фаолиятга ҳиссий ва қадриятли муносабат, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини самарали ташкил этиш зарурлигига ишонч ҳосил қилиш.

3. Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантиришга қаратилган креатив даражада амалга ошириш қобилияти.

4. Жамоавий фаолият жараёнида бошқа одамлар билан ўзаро коммуникатив компетенцияга йўналтирилган алоқаларни йўлга қўйиш.

5. Касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантиришга йўналтирилган таълим жараёни лойиҳасини мантиқий ва уйғунлаштиришга бўлган эҳтиёж ва қобилият.

Бўлажак касб таълими ўқитувчилари касбий-педагогик ижодкорликларини ривожлантиришнинг биринчи шарти бошқа олий таълим муассасалари сингари педагогик йўналишдаги таълим тизимида ҳам илғор, инновацион ва етакчи бўлган билим олиш технологияларини яратиш жараёни билан боғлиқ.

Талабаларнинг билим олишида касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантириш жараёнини такомиллаштириш шартли равишда икки йўналишга ажратилади. Биринчи йўналиш ташқи омиллар ва таъсирларга қаратилган. Бўлажак касб таълими ўқитувчисининг касбийпедагогик ижодкорлик фаолияти мазмуни, уни ташкил этиш тамойиллари, босқичлари, таркибий қисмлари, ўқув жараёни лойиҳалаш даражалари ҳақида билимларни ишлаб чиқиш, ўқувчиларнинг олий таълим муассасаларида касбий мустақил фаолиятларини бошқариш учун ахборот базасини шакллантиришидир. Касбий-педагогик ижодкорлик компетенциясини ривожлантиришнинг иккинчи йўналиши талабанинг шахсига йўналтирилган. Бу рефлексив фаолият: уларнинг шахсий хусусиятларини ўрганиш, педагогик ижодий фаолиятнинг индивидуал услубини онгли шакллантириш, шунингдек, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини шакллантиришнинг индивидуал услуби ҳисобланади.

Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик ижодкорликларини ривожлантиришнинг иккинчи шарти – педагогик қадриятлар тизимини шакллантириш билан боғлиқ лойиҳалаш фаолиятидир. Касбий-педагогик ижодкорликларини ривожлантиришда ўқитувчининг ўз-ўзини такомиллаштириш ва ўзини намоён қилиш билан боғлиқ қадриятлари, яъни келажакдаги ўқитувчининг репродуктив фаолиятига эътибор қаратилади. Учинчи шарти технологик-фаолият турига киради, чунки у ўқув жараёнини ишлаб чиқиш ва бажариш операциялари ва амалиётларни ўзлаштириши билан боғлиқ бўлиб, ушбу тадбирларни бажариш учун кўникмалар шакллантирилади. Касбий-педагогик ижодкорлик кўникмаларини ривожлантириш доимий равишда амалга оширилади: биринчи навбатда репродуктив, продуктив, қисман изланувчан ва креатив даражаларда ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш вазифаси муҳим ҳисобланади.

Тўртинчи шарт ўқитувчининг коммуникатив қобилиятлари билан боғлиқ. Ўқув жараёнида касбий-педагогик ижодкорликни ривожлантириш усулларини ўзлаштириш жараёнида ўқувчиларни мустақил мулоқотчанлик фаолиятига жалб қилиш мумкин. Контекстли таълим ва ўқув амалиёти асосида амалга ошириладиган таълим касбий-педагогик ижодкорлик орқали амалга оширилиши мумкин. Таълим технологияларининг турли хил вариантларини муҳокама қилиш, уларнинг афзалликлари ва камчиликлари, муайян таълим технологияларини ишлаб чиқишда биргаликдаги тадбирлар, таълим жараёнини тақлид қилиш – буларнинг ҳаммаси коммуникатив қобилиятни талаб қилади.

Ўқитувчининг касбий-педагогик ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришнинг бешинчи шарти бўлажак ўқитувчининг малакаси, интуицияси ва шахсий имтиёзларига асосланган эстетик хусусиятга эгалиги. Ушбу тадбирларнинг натижаси педагогик жараённинг нозик, чиройли ва уйғун лойиҳасини амалга оширади. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг эстетик дидини ривожлантириш, жумладан, лойиҳалаш фаолияти ривожланишига таъсир қилади. Касбий-педагогик ижодкорлик фаолиятини бошқаришнинг педагогик шартлари педагогик жараёнлар тузилишига асосланган ҳолда ажратилиши мумкин: мақсад, мазмун, услуб ва воситалар, ташкилий шакллар, натижалар. Қуйида педагогик шартларни кўришимиз мумкин:

1. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик ижодкорлик кўникмаларини ривожлантиришга қаратилган мақсадларни белгилаш.

2. Педагогик таълим мазмунига ўқув жараёнини ишлаб чиқишнинг тамойиллари ва тартиби ҳақида маълумот киритиш.

3. Ўқитувчининг касбий-педагогик ижодкорлик кўникмаларини ривожлантириш ишларига йўналтирилган технологик таълимни танлаш. 4. Касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришнинг ноанъанавий шакллари.

5. Натижаларни мониторинг қилиш – касбий-педагогик ижодкорлик компетентлиги даражаларини аниқлаш.

Педагогик шартлар ва босқичлар жуда ҳам шаффоф бўлиши лозим. Уларни қуйидагича изоҳлаш мумкин:

Биринчидан, бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбийпедагогик ижодкорлигини ривожлантириш фаолияти учун билим, кўникма ва малакаларини ошириш учун педагогик фаолиятни педагогик таълимнинг мақсад ва вазифалари тизимига киритиш зарур.

Иккинчидан, мақсадга мувофиқ, "касбий-педагогик ижодкорлик" тушунчаси умумий касбий тайёргарлик мазмунига киритилган. Ўқитувчининг касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантириш фаолияти мазмуни, тамойиллари, стратегияси ва жараёнлари ҳақида маълумотни ўз ичига олади.

Учинчидан, касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришни ўқитиш усуллари ва воситаларини тушунтиришлар, мунозаралар, мустақил иш, машқ қилиш, таҳлил қилиш, моделлаш, лойиҳалаш ва бошқалар.

Тўртинчидан, касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришдаги машғулотларни ташкил этиш шакллари усуллар бўйича аниқланади. Ҳар қандай фаолиятнинг ривожланиши ушбу фаолиятга қўшилиш йўли билан содир бўлгандан сўнг, асосий шакллар фаол шакллар – дидактик ўйинлар ва малакавий педагогик амалиёт шаклида бўлиб ўтади.

Бешинчидан, таълим натижаси – ўқув жараёнини ишлаб чиқиш қобилияти – аниқлаш ва баҳолаш жараёни ҳисобланади. Бунинг учун талабаларнинг касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантириш мезонлари ва даражаларини аниқлаш ва уни қандай ташхис қилиш кераклиги аниқланади.

Шундай қилиб, бўлажак ўқитувчининг касбий тайёргарлиги жараёнида касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантириш учун қуйидаги шартлар бажарилади:

1. Касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришнинг моҳияти, мазмуни, педагогик фаолиятнинг индивидуал услубларини билиш, хусусан, уларнинг ҳаракатларининг босқичма-босқич амалга оширилишига эришиш.

2. Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этишда касбийпедагогик фаолиятга экологик нуқтаи назар.

3. Репродуктив, изланувчи ёки ижодий даражада олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини самарали ташкил этишга йўналтирилган имкониятлардан фойдаланиш.

4. Жамоавий фаолият жараёнида ижтимоий малакани ривожлантириш (касбий фаолиятни моделлаштириш моделлари).

5. Таълим жараёни лойиҳасини мантиқий жиҳатдан чиройли тарзда яратишга бўлган эҳтиёж ва қобилият.

6. Олий таълим муассасаларида педагогик жараённи бўлажак касб таълими ўқитувчисининг касбий-педагогик ижодкорлик компетенетлигини ривожлантириш фаолиятини эгаллашга қаратилган мақсади.

7. Педагогик таълим мазмунига оид(умумий касбий бўлинма) таълим жараёни касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигининг табиати, тамойиллари ва тартиби ҳақида маълумот.

8. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган талабаларни ўқитиш технологияси.

9. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий-педагогик ижодкорлик компетенетлигини ривожлантириш жараёнини ташкил этишнинг ноанъанавий шакли.

10. Натижаларнинг назорати – бўлажак касб таълими ўқитувчилари томонидан ўқув жараёнида касбий-педагогик ижодкорлик компетентлигини ривожлантириш қобилиятини аниқлаш ва баҳолаш. Бўлажак касб таълими ўқитувчиси томонидан касбий-педагогик ижодкорлик компетентликларини ривожлантириш фаолияти муваффақиятли амалга оширилиши учун психологик ва педагогик шартлар асосида дидактик жараён ташкил этилиши бўлажак мутахассисларнинг етук, жаҳон талабларига жавоб берадиган тарзда тайёрланишига замин тайёрлайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қўйсинов О.А., Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография. Т.:"Фан", 2009. - 92б.

2. Исмаилова З.К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш: Дисс. ... пед. фан. ном. – Т.: 2000. – 186 б.

3. Kuysinov O.A. Developing Professional-Pedagogical Creativity of Future Professional Education Teachers based on Competencial Approach // Eastern European Scientific Journal. - Germany, 2018. №4. – P.257-263. (13.00.00; №1).

4. Муслимов Н.А. Бўлажак ўқитувчининг лойиҳалаш фаолияти. 2012. Ўқув қўлланма. 6,1 б.т.

ZAMONAVIY JAMIYATDA MAKTABGACHA YOSHDGI BOLALARDA AGRESSIVLIK MUAMMOSI VA YECHIMLARI

Meyliyeva N.G.,
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi,
Rabbimova H.A.,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqola bolalardagi tajovuzkorlikning kuchayishi va uning zamonaviy jamiyatdagi salbiy oqibatlari haqida so'z yuritadi. Agressivlik — bu bolalar tomonidan ko'rsatiladigan, boshqa shaxslarga zarar etkazishga yoki haqorat qilishga qaratilgan xatti-harakatlarning har qanday shaklidir. Maqolada bolalardagi tajovuzkorlikning shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, jumladan, oilaviy, shaxsiy va vaziyat omillari keng ko'lamda tahlil qilinadi. Oilaviy befarqlik, kattalar bilan hissiy aloqaning yo'qligi, bolalarda xavfsizlikka bo'lgan ishonchsizlik va jismoniy faoliyatning cheklanishi kabi omillar, shuningdek, bolaning sog'lig'i va atrof-muhitining ta'siri tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Maqolada shuningdek, tajovuzkorlikni oldini olish va bolalarning salbiy xulq-atvorlarini tuzatishga yordam beradigan psixologik va tarbiyaviy yondoshuvlar muhokama qilinadi. Maqola bolalar tarbiyasida ijtimoiy va psixologik aspektlarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: bolalarda tajovuzkorlik, agressiya, shaxsiy xususiyatlar, oilaviy omillar, hissiy beqarorlik, jismoniy faoliyat cheklanishi, psixologik rivojlanish, tarbiyaviy yondoshuvlar, bolalar psixologiyasi,oziq-ovqat va xulq-atvor.

Аннотация: Статья рассматривает проблему увеличения агрессивности у детей и её отрицательные последствия для современного общества. Агрессия — это любой вид поведения, направленный на оскорбление или причинение вреда другому человеку. В статье анализируются основные факторы, влияющие на формирование агрессии у детей, такие как семейные, личностные и ситуативные. Такие факторы, как безразличие родителей, отсутствие эмоциональной связи с взрослыми, неуверенность в безопасности ребенка и ограничение физической активности, а также здоровье ребенка и влияние окружающей среды могут способствовать увеличению агрессивности. В статье также обсуждаются подходы к предотвращению агрессии и коррекции негативного поведения детей через психологические и воспитательные меры. Акцентируется внимание на значении социальных и психологических факторов в воспитании детей.

Ключевые слова: Агрессия у детей, Личностные характеристики, Семейные факторы, Эмоциональная нестабильность, Ограничение физической активности, Психологическое развитие, Воспитательные подходы, Психология детей, Питание и поведение.

Abstract: The article discusses the issue of increasing aggression in children and its negative consequences for modern society. Aggression is defined as any behavior aimed at insulting or causing harm to another person. The article analyzes the main factors influencing the development of aggression in children, including family, personal, and situational factors. Family indifference, lack of emotional connection with adults, insecurity in a child's environment, and restrictions on physical activity, as well as the child's health and the influence of the surrounding environment, contribute

to heightened aggression. The article also addresses methods for preventing aggression and correcting negative behaviors in children through psychological and educational approaches. The significance of social and psychological factors in child rearing is emphasized.

Keywords: Aggression in children, Personality traits, Family factors, Emotional instability, Restriction of physical activity, Psychological development, Educational approaches, Child psychology, Nutrition and behavior

Kirish. Bolalarning agressivlik holatini kuchayishi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biridir. So‘nggi yillarda agressiv bolalar soni keskin oshgan bo‘lib, bunday xulq-atvorlarning sabablarini aniqlash, ularning oldini olish va tuzatish zarurati hayotiy ahamiyat kasb etmoqda. Agressiv bolalar psixologiyasi va tarbiyasida ko‘plab ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Asosiy qism. Agressivlik - bu insonning o‘zaro munosabatlarda boshqa shaxsni zarar yetkazishga yoki haqorat qilishga qaratilgan xatti-harakatlaridir. Agressiya esa shaxsning bu xatti-harakatlarga moyilligini ko‘rsatadigan xususiyat sifatida ta’riflanadi. Agressiv xulq bolalarning psixologik va hissiy holatlarini, ularning shaxsiy xususiyatlarini aks ettiradi. Agressiv bolalar ko‘pincha o‘zlarini nazorat qilishda qiynaladi, o‘z xatolarini boshqalarga yuklaydi, o‘zini doimiy ravishda dushmanlikka tayyor holatda his qiladi va ko‘pincha ziddiyatlar va janjallarga olib keladigan harakatlarni amalga oshiradi.

Agressivlikni shakllantiruvchi omillar: Bolalarda agressivlikning shakllanishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Bu omillar oilaviy, shaxsiy va vaziyat omillari sifatida uch guruhga bo‘lingan.

1.Oilaviy Omillar. Oilaviy muhit bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning bolaga bo‘lgan munosabati, oilaviy aloqalar va hissiy atmosferaning to‘g‘riligi bolaning xulq-atvoriga bevosita ta’sir qiladi:

Ota-onalarning befarqligi yoki bilimsizligi: Oiladagi hissiy beqarorlik va ota-onalarning bolaga bo‘lgan befarq munosabati bolada xavfsizlik hissining yo‘qligiga olib kelishi mumkin. Bunday bolalar o‘zlarini doimiy ravishda himoyasiz his qiladilar va agressiv xatti-harakatlar orqali o‘zlarini himoya qilishga harakat qilishadi.

Oiladagi hissiy aloqalarning yo‘qligi: Oilada doimiy janjallar, hissiy aloqaning yo‘qligi va bolalarga bo‘lgan yetarli e’tibor, agressiv xatti-harakatlarning shakllanishiga olib keladi. Bolalar o‘zlarini sevishmaganini his qilib, ba’zan o‘z g‘azabini atrofdagilarga yo‘naltiradilar.

Bolaning shaxsiyatiga hurmatsizlik: Bolaga hurmatsizlik va kamsitish, ota-onalar tomonidan haqoratli va noxush so‘zlarning ishlatilishi tajovuzkorlikni(kaltaklash, jismoniy tan jarohat) keltirib chiqarishi mumkin. Bolalar o‘zlarini kamsitilgan his qilishadi va bunday vaziyatda ular o‘z g‘azabini boshqalarga qarshi yo‘naltiradilar.

Jismoniy va hissiy faoliyatni cheklash: Bola kun davomida o‘z hissiyotlarini ochiq ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, u ichki g‘azabni to‘plab, bu o‘zgarishlarni jismoniy yoki og‘zaki tajovuzga aylantirishi mumkin.

2.Shaxsiy Omillar: Bolalarning shaxsiy xususiyatlari ham agressivlikni shakllantirishi mumkin. Bolalarning ichki hissiy holatlari va ularning xavfsizlik hissi agressiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin:

Ongsiz xavfni kutish: Agar bola onasining homiladorlik davridagi stress yoki xavfsizlikni his qilmagan bo‘lsa, bola uchun tashqi dunyo xavfsizdek ko‘rinmaydi. Bu bolada doimiy xavfni kutish va har bir vaziyatda tahdidni ko‘rish hissi hosil bo‘lishi mumkin.

O‘z xavfsizligiga ishonchsizlik: Bola o‘zini xavfsiz his qilmasa, unda agressivlik o‘zini himoya qilish usuli sifatida shakllanishi mumkin. U o‘zini har doim doimiy xavf ostida deb hisoblaydi va bu uning ruhiy holatini beqarorlashtiradi. Misol sifatida shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagog va ishchi xodimlar tomonidan bolaga nisbatan nomunosib munosabat (qo‘rqitish, tahdid qilish,) bolani tushunmaslik, uni holatini anglamaslik natijasida bolada turli agressiv holatlar namoyon bo‘ladi.

Hissiy beqarorlik: Bolalar ko‘pincha hissiy tebranishlarga duchor bo‘lishadi, ayniqsa 7 yoshgacha bo‘lgan davrda. Ushbu beqarorlik ularni tajovuzkor harakatlarga olib kelishi mumkin, chunki bola o‘zining hissiy holatini tartibga solishda qiynaladi. Misol sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bolada hissiy befarqlik bo‘lishi kerak. Hissiyotlarini boshqara olmaslik lozi. Sababi bolada agressiv holat bo‘lganida yig‘i, baqirish kabi holatlar sodir bo‘ladi. Bu esa juda ham yaxshi. Bunday holat bo‘lmasa bolada kuchli stress, qotib qolish, nutqining yo‘qolishi kabi tibbiy nosog‘lom muhit yuzaga keladi.

3. Vaziyat omillari: Vaziyat omillari, ya'ni bolaning tashqi muhiti, sog‘ligi yoki kundalik hayotidagi stresslar ham agressivlikni kuchaytirishi mumkin:

Yomon sog‘liq yoki ortiqcha ish: Agar bola yaxshi uxlolmasa, kasal bo‘lsa yoki asabiylashgan bo‘lsa, bu uning xulq-atvorini salbiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. U ko‘pincha agressivlik bilan javob beradi.

Oziq-ovqat ta'siri: Ba'zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar ortiqcha shokolad yoki shirinlik iste'mol qilganda, ular asabiylashish va agressivlik ko‘rsatadi. Oziq-ovqatning psixologik ta'siri bolalar ruhiyatida muhim o‘rin tutadi.

Bolalar uchun zamonaviy multifilmlar: Zamonaviy multifilmlar bolalarni kuchli stressga tushirib qo‘yadi. Sababi multifilmlar jarayonlarini o‘zi agressiv holatda bo‘ladi. Har bir jatayoni tezlik bilan olongan va fon ostiga qo‘yilgan musiqalari ham haddan tashqari kuchli ton bilan yoziladi.

Agressivlikning oldini olish va yechimlari: agressiv bolalarni tarbiyalashda oilaviy muhit va hissiy muhit juda muhimdir. Bolalar uchun doimiy va xotirjam oilaviy atmosfera yaratish, ularga sevgini va e'tiborni ko‘rsatish, hissiy aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, bolaning ichki g‘azabini sog‘lom yo‘llar bilan ifodalash imkoniyatlarini taqdim etish zarur. Maktablarda va oilalarda bolalar uchun hissiy va jismoniy faollikni ta'minlash, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bolalarning agressiv xatti-harakatlarini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, agressivlikka olib keluvchi omillarni bartaraf etish, bolalarga hissiy xavfsizlikni ta'minlash va o‘zlarini sevishlarini anglashga yordam berish, ularning psixologik holatini mustahkamlash uchun muhimdir.

Xulosa: Bolalarda tajovuzkorlik va agressiyaning shakllanishiga bir nechta omillar sabab bo‘ladi. Oilaviy muhit, shaxsiy xususiyatlar va tashqi omillarning o‘zaro ta'siri bolalarning xulq-atvoriga katta ta'sir ko‘rsatadi. Agressivlikni oldini olish va unga qarshi kurashish uchun oilalar va jamiyat o‘zgarishlarni amalga oshirishi, bolalar uchun salbiy omillarni bartaraf etishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jerome Kagan. "The Development of Aggression in Children" (Bolalarda agressiyaning rivojlanishi). 1990 y
2. Z.T.Nishonova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov darslik "Psixologik xizmat" Toshkent-2013
3. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti -2010
4. OwlCation:"Agressiyaning sabablari:psixologik nuqtai nazar". OwlCation:owlcation.com saytidan 2019-yil 7-0ktabrda olingan.
5. "Agressiv xatti-harakatlarning buzilishi" Sog'lom bolalar. Qabul qilingan sanasi:2019 yil 7-oktabr, Sog'lom bolalar: healthychildren.org.
6. Z.T.Nishonova, F.N.Vahobova. S.T.Madaliyeva "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" Faylasuf nashriyoti -2013
7. Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Qayumova, Malohat A'zamova, "Maktabgacha pedagogika" Tafakkur nashriyoti Toshkent-2019

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN GENDER YONDASHUV ASOSIDA TA'LIMIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Mansurova S.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i,
Ochilova M.,
Navoiy shahar DMTT metodisti

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning gender o'ziga xosliklarini inobatga olib a'lim jarayonini tashkil etishning muhimligi, adabiyotlar tahlili, tarbiyalanuvchilarni bilish jarayonlarini bir biridan farqlanishi bilan birga ularni gender stereotiplari mavjudligi darajasi gender rollarini identifikatsiyalash to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tafakkur strategiyasi, bolalarni individual o'ziga xosliklari, reprezentativ tizim, bolalarni neyropedagogik imkoniyatlari, bosh miya yarimsharlari funksiyalarining asimmetriyasi, o'ng va chap yarimshari yetakchi bolalar, ta'limda gender yondashuv.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda ular asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur hujjatlarda ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini sog'lom va barkamol shaxs qilib voyaga yetkazish hamda ularni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratish kabi maqsad va vazifalar qo'yilgan.

2019 yil 16 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha

[1] O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 16.12.2019y.595-sonli Qonuni, https://lex.uz/docs/4646908

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-son qarorida bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirish, ularga ta’lim-tarbiya berishda sohaga yangidan innovatsion usul va metodlarni qo‘llash, tizimga zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va adabiyotlar bilan ta’minlash, ta’lim jarayoniga innovatsion g‘oya va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalariga[1] e’tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PQ-3955-sonli qarori[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-son Farmoni[3]da maktabgacha ta’lim tizimini fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash hamda 2020 yil 22 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qaror[4]lari bo‘yicha bir qator vazifalarni amalga oshirish soha mutaxassislarning pedagogik mahorati va kreativ qobiliyatlariga nisbatan talablarning ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, ertangi kunimiz bo‘lgan yosh avlodni sog‘lom va barkamol bola shaxs qilib tarbiyalash, tizimga yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalarni joriy etish va maktab ta’limiga tayyorlash kabi muhim vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Demak, hozirgi tarbiyachi-pedagog o‘z ustida tinmay ishlashi, maktabgacha ta’lim sohasida kechayotgan yangilanishlarni bilishi, doimiy o‘zgarib turuvchi nostandart sharoitlarda amaliy faoliyatga innovatsion tayyorligini ta’minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bu esa qo‘shimcha, mustaqil ta’lim hamda noan’anaviy tizimlarini yaratishga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq, ta’lim-tarbiya jarayonini bosqichma-bosqich individuallashtirish maqsadida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish vazifasi yuklatilgan[5].

Ta’lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim faoliyatini individual yondashuv asosida tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir bolaning individual xususiyatlarini tushunishni anglatadi. Individual

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori. https://lex.uz/docs/4327235

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori. https://lex.uz/docs/3923110

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. https://lex.uz/docs/5841063

4 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori https://lex.uz/docs/5179335

[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori https://lex.uz/docs/5179335

yondashuvning asosiy vazifasi esa rivojlanishning individual usullarini, bolaning imkoniyatlarini aniqlab, har bir shaxsning faolligini ta'minlashdan iborat.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qiz va o‘g‘il bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ta'limda gender yondashuvni tashkil etish muhimligini e'tirof etishimiz kerak. Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining mutaxassislari zimmasiga ulkan mas'uliyatni yuklaydi. Gender xususiyatlar qiz va o‘g‘il bolalarni ta'limiy faoliyatdagi o‘xshashliklar va farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshishiga olib keladi. U yoki bu jinsga mansublik bola shaxsining imkoniyatlarini belgilaydi. Gender pedagogikasi hamda psixologiya sohasida ta'lim jarayonini tashkil etishga qiz va o‘g‘il bolalar orasidagi gender xususiyatlarni hisobga olish bo‘yicha keng ko‘lamda tadqiqotlar amalda oshirilmoqda. Jinsga asoslangan ta'lim-tarbiya – bolalarni kelajakdagi hayotga tayyorlashda har tomonlama ta'sir ko‘rsatadigan ta'limiy-tarbiyaviy, ma'rifiy vositalar yig‘indisidir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida gender xususiyatlarni hisobga olish tabiiy pedagogik hodisa sifatida tadqiq etish mumukin. Biroq didaktikada ushbu hodisaning ilmiy talqini mavjud emas. Ta'lim-tarbiya jarayonida gender xususiyatlarni hisobga olmasdan turib, ta'lim natijasining samaradorligini ta'minlash mumkin emasligi barcha mutaxassislarga ayon bo‘lmoqda. Ayniqsa, ruhshunoslar bu sohada bir qator yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar. Chunki, bu bosqichda bolalar o‘ta murakkab psixikaga ega bo‘lgan shaxsga aylanayotgan davri bo‘lib, ular bilimlarni o‘zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Ushbu o‘ziga xosliklar – tafakkur strategiyasi, xotira va diqqatning turlari, yetakchi reprezentativ tizimlar kabi bir qator individual sifatlar u yoki bu darajada inson jinsiga ham bog‘liq ekanligidadir.

K.X.Allaberdievani maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari mavzusidagi dissertatsiya ishida bola shaxsini neyropedagogik imkoniyatlarini inobatga olish muhimligini ta'kidlaydi. Tarbiyanuvchilarni ijodiy faolligini shakllantirish nafaqat bolaning intellektual rivojlanish darajasini balki individual o‘ziga xos imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi mumkinligini tadbiq etgan[1].

I.I.Tuychieva maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini fikrlash faolligini rivojlantirish masalasidagi tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlarni qo‘yidagicha keltirib o‘tgan[2] (qarang:1-rasm).

O‘g‘il bolalar	**Qiz bolalar**
Tafakkur tarzi	
O‘g‘il bolalarda chap yarim shar rivojlangan bo‘ladi, alohida o‘zi ishlashga moyillik bildiradi, topshiriqni qilishda diqqatni to‘plash bir muncha qiyroq	Qiz bolalarda o‘ng yarimsharlar rivojlangan bulib, jamoa bo‘lib ishlashni yaxshi ko‘radi, ichan, hamma narsani obrazli ko‘radi, voqea va hodisalarni

[1] Allaberdiyeva K.X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.

[2] Tuychiyeva I.I. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.

kechadi, ma'lumot va axborotni sekin, lekin izchil o'zlashtira oladi, voqea va hodisalarni dastlab mohiyatini anglab, keyin harakat kiladi.	obrazli ko'radi hamda mohiyatni sekinroq anglab yetadi.
Nutqni rivojlanganligi	
O'g'il bolalar nutqini rivojlanganli fikr bildirishda o'z g'oyalarini gapirib berishda qiynaladi, so'z boyligi kam, nutqida gaplar bog'lanishi, mantiqiy fikrlashi, muhim vaziyatlarda gapirishi yaxshi rivojlangan bo'ladi.	Qiz bolalarning so'z zahirasi kam, tez va ko'p gapiradi, o'qish tezligi yaxshi rivojlangan, imlosi, nutqida tuyg'ularini bayon etishi yaxshi.
Harakat sur'ati	
Berilgan topshiriqni sekinlik bilan bajaradi, yuqori sur'at kerak, mashg'ulot o'rtasi va yakunida ish qobiliyati yuqoriroq tarzda kechadi.	Mashg'ulot jarayonida ishga tez sur'atda kirishadi, yuqori darajada berilgan topshiriqlarni ko'tara olmaydi, tez charchoq sezadi, lekin tirishqoq va berilgan topshiriqni qunt bilan bajaradilar.
Idrok etish imkoniyatlari	
O'g'il bolalar maqtovni yaxshi ko'radilar. O'z faoliyatiga berilgan baho berilishini va maqtovni yaxshi ko'radi, berilgan ma'lumotlarni takrorlashni yoqtirmaydilar, diqqati pasayib ketadi, eng avval ma'noni anglaydi keyin harakatga kirishadi, axborotni umumiydan xususiyga taqdim etilganda yahshiroq tushunib yetadilar.	Qizlar kattalardan ijobiy tassurot qoldirishni yaxshi ko'radi, har qanday holatlarda ham ijobiy baholanishlarni istaydi, berilgan topshiriqlarni ko'p takrorlashni yoqtiradilar, ma'noni anglab yetishlari uchun ko'p vaqt talab qilishadi, ularda ko'rgazmali obrazli tafakkur rivojlangan.

1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlar

G.R.Qurbonovaning maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruhi bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasi mavzudagi tadqiqot ishida, bolalarda gender stereotiplari mavjudligi darajasi gender rollarini identifikatsiyalashni vitagen axborot bilan uyg'unlashtirib, jinsiy rolning dualistik xatti-harakatlariga ustuvorlik berish asosida intensivligini bevosita hisobga olish asosida aniqlashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalar bergan[1].

D.R.Gulyamov, Q.M.Nurboev, V.J.Anvarovalar neyropedagogikaga oid ilmiy ishlarida bolalarni maktabga tayyorlash, boshlang'ich sinfda ta'lim-tarbiya berish davrida ularning bilimlarni o'zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o'ziga xosliklar ega bo'lib, ulardan biri – inson jinsining bosh miya yarimsharlari funksiyalarining asimmetriyasi bilan uzviy bog'liqligi, deb xulosa qilganlar. Tadqiqotchilar o'g'il va qiz bolalar tarbiyasidaa, eng avvalo, ularning nutqi va tafakkurini rivojlantirish masalalariga ikki xil yondashish maqsadga muvofiq deb

[1] Qurbonova G.R. MTT katta guruh bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasi: Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2022. – 10b.

hisoblab, bunda bolalarni alohida guruhlarga ajratib ta'lim-tarbiya berishni emas, balki shu o'ziga xosliklarni hisobga olib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni taklif qiladilar[1].

Boshqacha qilib aytganda, o'g'il va qiz bolalarda ilk yoshlaridanoq bosh miya faoliyati bir-biridan farq qilganligi tufayli, psixik jarayonlarning kechishi ham bir-biridan ajralib turadi. O'g'il va qiz bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ularning nutqi va tafakkuri turlicha tezlik va hajmda rivojlanadi. Bolalar yoshining barcha diapazonlarida qiz bolalarning audial (verbal) xotira hajmi o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha kengligi bilan farq qiladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bilish jarayoni samaradorligini yanada oshirish uchun ushbu jarayonning turli bosqichlarida ta'lim oluvchilar bosh miya yarimsharlarining har birini faollashtiruvchi, ya'ni "miyaga kirish" imkonini beruvchi turli metodlarni sintezlash talab qilinadi[2]. Chunki ijodiy, ilmiy, evristik vazifalar nafaqat **o'ng yarimshari yetakchi**, balki asosan ratsional-belgili tafakkur xos bo'lganligi bois asosan analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktiv operatsiyalarni bajarishga moyillik ko'proq kuzatiladigan **chap yarimshari yetakchi** bo'lgan bolalar uchun ham berilishi ularga o'z kuch va qobiliyatlarini sinab ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Pedagogikada gender yondashuv – shaxsning gender xususiyatlarini va jinslararo munosabatlarning pedagogik jihatlarini tahlil qilish metodologiyasi bo'lib, u erkak va ayolning xususiyatlarini, rollarini, ijtimoiy maqomlarini oldindan belgilash nuqtai nazaridan uzoqlashishga imkon berib, xulq-atvorning gender shaklini qat'iy belgilanishi tushuniladi.

"Ta'limiy faoliyatga gender yondashuv" atamasiga quyidagicha ta'rif beramiz: *tarbiyachining ta'limiy faoliyatga metodologik yo'nalganligi bo'lib, faoliyatning tegishli bosqichida tarbiyalanuvchilarning jinsi, fikrlash strategiyasi, ma'lumotlarni qabul qilish va o'zlashtirish mexanizmlaridagi o'ziga xosliklarni hisobga olib ta'lim jarayonida ularni ijtimoiy mavqeining tengligini tan olgan holda cheklaydigan gender stereotiplaridan ozod qilish orqali takrorlanmas individuallikni rivojlantirishni tashkil etilishi*.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limiy faoliyatini gender yondashuv asosida tashkil etilish:

1) ta'lim jarayonini tarbiyalanuvchilar shaxsiga yo'naltirish va bilish faolligini oshirish hamda ular shaxsini qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish, psixik va aqliy rivojlanishini to'g'ri yo'naltirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash va individualligini qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi;

2) ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga, ularda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, taxmin qilish, tasavvur qilish ko'nikmalarini izchil shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Gulyamov D.R, Nurboev Q.V, Anvarova V. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir / -Toshkent, "Pedagogika" J., №2, 2016. –B.37-42.

[2] Кузьмина А.Т. Нейропедагогический подход к обучению в начальной школе через исследовательскую деятельность учителя // Эл.журнал "Непрерывное образование: XXI век". Выпуск 3 (autumn 2014). –С.1-9

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori https://lex.uz/docs/5179335
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-son qarori https://lex.uz/docs/5179335
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 16.12.2019y.595-sonli Qonuni, https://lex.uz/docs/4646908
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori. https://lex.uz/docs/4327235
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarori. https://lex.uz/docs/3923110
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
7. Allaberdiyeva K.X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.
8. Gulyamov D.R, Nurboev Q.V, Anvarova V. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga doir / - Toshkent, “Pedagogika” J., №2, 2016. –B.37-42.
9. Кузьмина А.Т. Нейропедагогический подход к обучению в начальной школе через исследовательскую деятельность учителя // Эл.журнал “Непрерывное образование: XXI век”. Выпуск 3 (autumn 2014). –С.1-9
10. Tuychiyeva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.
11. Qurbonova G.R. MTT katta guruh bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasi: Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2022. – 10b.

PEDAGOGNING ELEKTRON PORTFOLIOSI VA UNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Fayzullayeva Z.A.,
NavDU o‘qituvchisi,
Akbarova A.Sh.,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada portfolioning turlari, ko‘rinishlari, pedagogning elektron portfoliosini shakllantirish yo‘llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: portfolio, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, portfolio sayti, veb sahifa, elektron taqdimot, natijalar papkasi.

Аннотация: В статье описаны виды, типы портфолио, способы формирования электронного портфолио учителя.

Ключевые слова: портфолио, профессиональная деятельность учителя, сайт портфолио, сайт, электронная презентация, папка результатов.

Annotation: In the state described types, types of portfolios, sposoby formation of the electronic portfolio of the teacher.

Keywords: portfolio, professional activity of teachers, site portfolio, site, electronic presentation, folder of results.

XXI asrda talim sohasi juda katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda barcha ta'lim-tarbiya jarayonida kechadigan ishlar electron bajarilmoqda. Nafaqat pedagogik faoliyat, balki pedagoglar barcha yo‘nalishdagi amalga oshirgan ishlarini internet tizimida joylashtirishlari mumkin.

Portfolio so‘zi inglizcha "portfel", zarur ishlar va hujjatlar uchun papka. Fransuzcha– bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq. Italiyancha– hujjatlar solingan papka, pedagogning ma'lum bir vaqt oralig‘ida erishgan kasbiy yutuqlari va faoliyat natijalarini qayd etish usuli [1].

• Faoliyati davomida kasbiy sohadagi erishilgan yutuqlarini namoyish etuvchi majmua;

• pedagogning dars berayotgan fani bo‘yicha o‘quv materiallarini talabalarga

• etkazib beruvchi vosita;

• pedagog va talabalar o‘rtasidagi o‘quv muloqotini ta'minlashga xizmat qiluvchi tizim;

• talabalar bilan teskari aloqani o‘rnatishga xizmat qiluvchi hamda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini monitoring qilish tizimi.

• bilimlarning samarali o‘zlashtirilishiga intilish;

• pedagogik faoliyat natijalarini tashhis qilish.

Bundan tashqari portfolio o‘qituvchiga o‘z yutuqlarini yanada kengroq va xilma-xil taqdim etish imkonini beradi.

"The Teaching Portfolio" kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga ko‘ra o‘qituvchi portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Portfolio – o‘qituvchining kasbiy faoliyatida turli pedagogik masalalarni hal eta olish malakalarini ko‘rsatuvchi, shuningdek o‘qituvchining professionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallarni qamrab oladi[2].

Portfolio quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

•portfolio sayti (sayt ko‘rinishidagi portfolio);

•veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);

•elektron taqdimot;

•natijalar papkasi.

Elektron portfolio ko‘rgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega:

•zamonaviyligi;

•tezkorligi (kerakli o‘zgarishni tezda kiritish imkoniyati);

•funksionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb-mutaxassislarga, qiziquvchilarga o‘z tajribasini namoyish etish ikmoniyati) hamda o‘z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o‘zida doimiy ravishda to‘ldirib borish mumkin bo‘lgan raqamli ta'lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;

•effektivligi (o‘qituvchini o‘z-o‘zini baholashi, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta'sir ko‘rsatish);

Portfolioning taqdimot shakli ma'lumotlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko‘proq ma'lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet izimining o‘quv jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo‘lga qo‘yish orqali samara berishi mumkin [3].

Shuning uchun, portfolioni tarmoqda sayt-portfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Pedagoglar o‘zlarining elektron portfoliolariga (ularga berilgan maxsus login) kirganida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

1. “Pedagog” menyusining “Sozlovlar” qismiga o‘tadilar. “Sozlovlar” qismi olti punktdan iborat bo‘lib, unda o‘qituvchilar quyidagi amallarni bajaradilar:

- “Parolni o‘zgartirish”–elektron portfolio tizimidagi shaxsiy parolni o‘zgartirish. Buning uchun “Joriy parol” maydoniga joriy parolni, “Yangi parol” va “Parolni takrorlang” maydonlariga o‘rnatilmoqchi bo‘lgan yangi parolni ikki marta kiritiladi hamda tasdiq kodini kiritib “Parolni saqlash” tugmasi bosiladi;

- “Rasmni o‘zgartirish” – portfolioda aks etadigan rasm blankasining o‘rniga o‘zining rasmini o‘rnatish. Bunda ikki usul mavjud:

a) “Rasmni yuklash” qismini tanlanadi va hajmi 512 Kb dan oshmaydigan “jpg” formatdagi rasmni ma'lumot tashuvchi (kompyuter xotirasi, CD yoki DVD disk, flesh xotira) dan tanlab, “Saqlash” tugmasini bosiladi;

b) Agar komyuter yoki noutbukda veb-kamera mavjud bo‘lsa “Veb kameradan rasm tushirish” qismini tanlab, “Capture” so‘ng “Upload” tegmalarini bosib rasm o‘zlartiriladi.

- “Shaxsiy ma'lumotlarni tahrirlash” – portfoliodagi anketa (anketa, kasbiy va qo‘shimcha) ma'lumotlarini tahrirlash. Bunda har bir maydonni diqqat bilan tanishib, xato yoki o‘zgargan ma'lumotlar mavjud bo‘lsa uni tahrirlab tasdiq kodi kiritiladi va “Saqlash” tugmasi bosiladi;

“Sozlovlar” menyusining keyingi uch qismi professor-o‘qituvchining kasbiy faoliyati natijalari asosida to‘ldiriladi.

- “O‘quv va o‘quv-metodik faoliyat”– bu bo‘lim to‘rtta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular:

1.“Petentlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari”;

2.“Model va dasturlar yaratishdagi ishtiroki”;

3.“Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishga doir o‘quv-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi ishtiroki”;

4.“Nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar”.

- “Ilmiy tadqiot faoliyati” – bu bo‘lim uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular:

1.“Monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi”;

2.“Respublika va holqaro miqiyosdagi ilmiy konferensiyalardagi tezislar”;

3.“Mablag‘ bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishidagi ishtirok”.

- “Tashkiliy-metodik faoliyat” – bu bo‘lim iikita tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, ular:

1."Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va halqaro olimpiada, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalar";

2."Ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi".

Pedagoglarning yuqoridagi faoliyat natijalaridan qaysilari mavjud bo'lsa o'sha qismni tanlaydi va shu faoliyat natijasi haqidagi ma'lumotlarni kiritish formasi hosil bo'ladi. Unda faoliyat turilaridan kelib chiqib bir-biridan biroz farq qiluvchi ma'lumotlarni (manba nomlanishi, nashr yili, hammualliflar soni) va tasdiqlovchi hujjat nushasini kiritish maydonlari mavjud bo'ladi. Ma'lumotlar va hujjat nushasini kiritib "Saqlash" tugmasini bosish orqali kasbiy faoliyat natijasi haqidagi ma'lumotlar to'ldirib boriladi.

"Pedagog" menyusining "Fanlarim" qismida professor-o'qituvchilar o'zlari dars berayotgan fanlari haqidagi ma'lumotlar, fan sillabusi va turli elektron mabalarni kiritishlari mumkin. Buning uchun dastlab "Fan qo'shish" tugmasini bosish orqali yangi fan haqidagi ma'lumotlarni kiritish formasiga o'tiladi. Ushbu formada "OTM", "Kafedra", "Yo'nalish", "Fan o'qitiladigan til", "Fanning nomlanishi" va "Fanning sillabusi" ni kiritilib "Saqlash" tugmasi bosiladi.

Fan haqidagi ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, fanlar ro'xatidan yangi kiritilgan fanni tanlanadi. Bunda ikkita "Sillabus" va "Manbaalar" nomli qismlardan iborat oyna ochiladi. Bu oynaning "Manbaalar" qismiga o'tib "Manbaa qo'shish" tugmasi bosiladi va fanga elektron formatdagi manbaalar (fanning o'quv va ishchi dasturlari, nazorat savollari, taqdimotlar, ma'ruza matnlari va h.) kiritiladi[5].

"Pedagog" menyusining "Yozishmalar" qismida professor-o'qituvchilar o'zlarining talabalari tomonidan berilgan savollarga javob berishlari yoki fikr almashishlari mumkin.

Shunday qilib, taklif etilayotgan elektron portfolio pedagoglarning kasbiy faoliyatlari monitoringini olib borish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagoglar va talabalarning virtual muloqotini tashkillashtirish, ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagoglarda ahamiyatli kasbiy natijalarni namoyish etish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi hamda portfolioda to'plangan ma'lumotlar pedagogning kasbiy guvohnomasi sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Aldjanova "O'quv portfoliosi – bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompitentlikni shakllantirish vositasi sifatida" Pedagogik ta'lim jurnali, 2012 yil 4-son, 46-bet.
2. S. Musayeva "Portfolioning maqsad va mohiyati" Pedagogik ta'lim jurnali, 2013 yil 1-son, 20-bet.
3. www.portfolio.bimm.uz – elektron portfolio tizimi.
4. http://www.uchportal.ru/
5. http://portfolio.bimm.uz/

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Fayzullayeva Z.A.,
NavDU o'qituvchisi,
Aimbetova A.T.,
Navoiy viloyati Konimex tumani "Oltin kalit" nomli 2-son DMTT yordamchi – tarbiyachisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassalarida interfaol usullar yordamida o'qitish, interfaol usullar, interfaol metodlar, imkoniyatlar, yutuq va kamchiliklar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, usullar, qulaylik, o'qitish, o'ziga xos xususiyatlar, ta'lim, tarbiya, faollik, texnologiyalar, jarayon, pedagogik muhit.

Аннотация: в данной статье говорится об обучении с использованием интерактивных методов в дошкольных образовательных учреждениях, интерактивных методах, интерактивных методах, возможностях, достижениях и недостатках.

Ключевые слова: интерактивные методы, методы, удобство, обучение, особенности, образование, воспитание, деятельность, технологии, процесс, педагогическая среда.

Abstract: this article talks about teaching using interactive methods in preschool educational institutions, interactive methods, interactive methods, opportunities, achievements and shortcomings.

Key words: interactive methods, methods, convenience, teaching, specific features, education, upbringing, activity, technologies, process, pedagogical environment.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va ta'lim oluvchilarning ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda pedagogik jarayonning kafolatli natijasini ta'minlovchi bir qator pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar mavjud. Interfaol metodlarni ko'rib chiqishdan avval "interfaol" so'zining lug'aviy ma'nosini bilish lozim. "Interfaol" tushunchasi inglizcha "interact" "inter" sozlaridan olingan bo'lib – "birgalikda", "act" – "harakat qilish" degan ma'noni bildiradi. Bugungi kunda "Interfaol metodlar" barcha ta'lim tizimlarida faol qo'llanilmoqda. Buni biz juda ko'p adabiyotlardan va samarasi ta'lim jarayonidan ham bilishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'limda interfaol usullar- bu tarbiyalanuvchilar orasida hamda tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasida o'zaro harakatni talab qiluvchi usullardir. Interfaol usullar bolaning yuqori faolligini, olingan ma'lumotlarni ijodiy qayta anglashini taqozo etadi. Bular: Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, juftlikda ishlash, rolli o'yinlar, ishchanlik o'yinlari, bahs-munozara va boshqa jarayonlarda namoyon bo'ladi.Endi yuqorida qayd etilgan har bir usulni alohida ko'rib chiqamiz.

Aqliy hujum-tarbiyachi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan har bir bola o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi jarayondir. Buning mohiyati «Bir kalla yaxshi, ikki kalla undan yaxshi» tamoyili bo'yicha tarbiyachi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlay olishda bo'lib, istisno tariqasida ta'lim oluvchining barcha fikrlari, jumladan, aytarli

to‘g‘ri bo‘lmaganlari ham inobatga olinadi. Bayon etilgan fikrlar keyingi tahlilda bolalarning qo‘yilgan savol yoki muammoni to‘g‘ri tushunishlariga imkon beradi. (Bolalarga savol beriladi. Barcha g‘oya va takliflar tarbiyachi tomonidan yozuv taxtasiga yozib boriladi).

Kichik guruhlarda ishlash- bolalarning o‘zaro muloqot va fikr almashuviga asoslangan.Bunda guruhda tahlil qilish, baholash, tekshirish asosida muayyan mavzu yoki savollar ishlab chiqiladi. Kichik guruhlarda ishlash 4-5 boladan iborat guruhlar tuziladi va har bir guruhdagi tarbiyalanuvchilar birgalikda harakat qiladi.

Rolli o‘yinlar-bolalarga biror muammoli vaziyat berildi. Bolalar bu muammoni yechimini rollar orqali ifodalab berishadi. Bolalar bu usul «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Ularga amaliy ish faoliyatida qo‘llash mumkin bo‘lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko‘rish va tekshirish imkoniyatlarini beradi.

Ishchanlik o‘yinlari-bunda bolalar mavjud materialdan foydalanib biror narsani (predmetni) kichik guruhlarga bo‘lingan holda yasaydilar. Bunda bolalarda o‘ylash, to‘g‘ri maqsadni qo‘yish, tejamkorlik xislatlari rivojlanadi.

Biz maktabgacha ta’limda interfaol usullarni qo‘llaydigan pedagoglarga quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Mashg‘ulotlarni o‘yin tarzida, erkin sharoitda, dam va ko‘ngilochar tadbirlar shaklida tashkil eting;
- tarbiyalanuchilarini mustaqil izlanishlarini ta’minlang;
- tarbiyalanuvchilarning faolligiga erishing;
- tarbiyachi sifatida yo‘naltirib, yordam berib, boshqarib turing;
- interfaol usullar ishtirokidagi mashg‘ulot tarkibining asosiy qismiga emotsional zo‘riqishni bartaraf etuvchi o‘yinlar kiriting.

Xulosa o‘rnida Xitoy xalq maqolini keltirishni lozim deb topdik: «Menga gapirsang esdan chiqaraman, menga ko‘rsatsang eslab qolishim mumkin, menga o‘zim ishlashimga imkoniyat ber, shunda bu batamom meniki bo‘lib qoladi».Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga faqat so‘zlab, ko‘rsatib bermasdan, balki o‘zlarini mustaqil bajarishiga o‘rgatsak kelajakda barkamol, har tomonlama rivojlangan mustaqil vatanimizning mustaqil farzandlarini tarbiyalashdek muqaddas vazifani ado eta olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha pedagogika. F.R.Qodirova. Toshkent,2019 yil.
2. Tasviriy faoliyatda interfaol metod va didaktik o‘yinlar. S.B.Sanayeva. Navoiy.2021 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘ri sida”gi Qonuni. Toshkent, 2020- yil.
5. Oliy ta’limning “Davlat ta’lim standartlari”. Toshkent, 2021-yil.

BOLALAR UCHUN TANLANADIGAN O‘YINCHOQLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Fayzullayeva Z.A.,
NavDU o‘qituvchisi,
Ahmadova M.J.,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim-tarbiya omillari, o‘yinchoqlardan foydalanish, o‘yin faoliyati, to‘plamlar, interfaol metod va usullarning ahamiyati, o‘yinchoqlarning xususiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yinchoqlar, o‘yin faoliyati, taassurot, interfaol yondashuv, ta'sir kuchi, yosh xususiyati, rivojlanish, foydalanish, ko‘nikmalar, ta'lim.

Аннотация: в данной статье говорится о воспитательных факторах, использовании игрушек, игровой деятельности, наборов, значении интерактивных методов и методов, характеристиках игрушек.

Ключевые слова: игрушки, игровая деятельность, впечатление, интерактивный подход, влияние, возрастная характеристика, развитие, использование, навыки, обучение.

Abstract: this article talks about educational factors, the use of toys, game activities, sets, the importance of interactive methods and methods, the characteristics of toys.

Key words: toys, game activity, impression, interactive approach, influence, age characteristic, development, use, skills, education.

Bolalar - bizning hayotimiz davomchisi, kelajagimizdir. Ularga beriladigan ta'lim-tarbiya omillari juda muhimdir. Bu omillardan biri o‘yinchoqlar orqali amalga oshrilish jarayonidir. O‘yinchoqlar kichkintoylar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.Ularni borliqdagi narsalar bilan tanishib, narsa, hodisalar haqida xulosa chiqarishga yordam beradi.

O‘yinchoqlardan foydalanish vaqtida uning tarkibiga e'tibor berish kerak. Bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar foydalanish jarayonida ularning nafas yo‘liga, terisiga, ko‘zlari va oshqozoniga zarar keltirmasligi zarur[ ].

Bolalar uchun o‘yinchoqlarda va o‘yin to‘plamlarida har bir modda uchun maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmagan taqdirda, ma'lum miqdorda moddalar yoki reaktivlar bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlarning gigiyenik xavfsizligi, toksikologik-gigiyenik ko‘rsatkichlari, elektr energiya bilan tutashtiruvchi yoki tutashish xususiyatiga ega bo‘lgan qismlari, shuningdek, kabellar va simlar elektr toki rishi xavfini bartaraf etish maqsadida izolatsiyalangan va mexanik himoyalangan bo‘lishi kerak.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘yinchoqlar yordamida turli tovushlar chiqarishi, qiyqirib o‘z xursandchiliklarini bildirishi mumkin. Bir yoshga to‘lgan bolalar ongli nutqqa birinchi urinishlarini qilishadi. O‘yinchoqlar nutq ko‘nikmalarni to‘gri shakllantirish uchun muhim hisoblanadi.Ular uchun tavsiya etiladigan o‘yinchoqlar quyidagilar:

1. Turli xil narsalar tasvirlangan kartalar.
2. Gapiradigan o‘yinchoqlar.

3. Tovushli kitoblar.

O‘yinchoqlar bolalari jismoniy rivojlanishida ham muhim. Ushbu ko‘nikmani rivojlantirishga quyidagi o‘yinchoqlar mos keladi.

1. Qo‘g‘irchoqlar uchun aravachalar.

2. Endigina yurayotgan bolalar uchun g‘altakchalar. Bu bolaning yurishida yaxshi yordam berdi.

3.Turli xil sirtlarga ega maxsus matlar. Bolalarda oyoqlar to‘g‘ri rivojlanishida yordam beradi.

Bolalarda mayda motorikani rivojlanishida yordam beradigan o‘yinchoqlar turli xil shaklli o‘yinchoqlar, kublar, xamir, plastilin, barmoq bo‘yoqlaridan iborat.

O‘yinchoqlar badiiy didni rivojlantirish uchun imkon beradi.

O‘yinchoqlar bolani ko‘ngil ochishi yoki uni chalg‘itishining oson usuli emas, avvalambor bu uning rivojlanishiga va o‘rganishi uchun vosita. Iqtidorli rivojlantirish uchun kerak.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun yumshoq yoki plastmassa kubiklarni sotib olish ma'qul, vaqt o‘tib u mustaqil kubikdan minoralar qurishni o‘rgangach, yog‘och mahsulotlarni sotib olishingiz mumkin.

1-2yoshli bolalar uchun mozaika katakchalaga joylashgan katta detall bilan bo‘lishi kerak. Yildan yilga siz jumboq to‘qishni o‘rganishingiz mumkin. Dastlab 2 qismga bo‘lingan oddiy rasmlar. Siz ularni printerda chop etish orqali o‘z qo‘lingiz bilan qilishingiz mumkin. Vaqt o‘tishi bilan qisimlar soni ko‘payib boradi va 2yoshga kelib 8-10qismli rasmlarni yig‘a boshlaydi.

Obyektlarni o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslashni o‘rgatadi, fikrlash va idrok etishga yordam beradi. Bolani o‘yinchoq bilan to‘g‘ri tanishtirish muhim. Dastlab, uning yaltiroq sirti, yog‘och qog‘irchoqning go‘zalligiga e'tiborni qaratib, so‘ngra ichini ochib avvalgisi bilan solishtirish kerak.

Bolalarga xamir va plastilindan ham foydalangan holda o‘yin tashkil etish mumkin, Bu bolada mayda matorikani rivojlantiradi, Lekin bu mahsulotlarni tez- tez yangilab turish kerak.Bolalarni qum bilan o‘ynashlari ham mumkin.

Bola tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ota-onalarga va katta yoshdagi insonlarga quyidagilarni tavsiya qilishimiz mumkin:

1. O‘yinchoqlar sotib olishda shlab chiqaruvchining sertifikatiga qarang.

2. O‘yinchoqlarni faqat tabiiy ranglariga qarab sotib oling.

3.Yoshga mos keladigan o‘yinchoqlar sotib oling. Mahsulotda yosh chegarasi belgilangan bo‘lishi kerak.

4. Yog‘ochdan tayyorlangan o‘yinchoqlar sotib oling.

5. O‘yinchoq bolani hid bilish organlariga kuchli ta'sir ko‘rsatmasligi lozim.

6. O‘tkir uchli bo‘lmagan o‘yinchoq sotib oling.

7. Ovozli va musiqiy o‘yinchoqlar ovoz balandligi 65 DBdan oshmasligiga ishonch hosil qiling.

8. Qo‘g‘irchoqlar va hayvonlar kabi obrazli o‘yinchoqlar tabiiy ko‘rinishda bo‘lishi kerak.

9. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mustahkam qattiq shaqildoqlar, og‘irligi 100gdan oshmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova Sh.A “Maktabgacha pedagogika”.“Tafakkur sarchashmalari”T:. 2013 y.

2. Kayumova N.M. "Maktabgacha pedagogika" TDPU nashriyoti T:. 2013 y.
3. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006
4. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti 2020 yil.
5. Г.П. ЭРМАТОВА - АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ РОЛЬ НАРОДНОГО ФОЛЬКЛОРА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ. 12 (91) Год:2022
6. "Bolalar o'yinchoqlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyuldagi 451-son qarori.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Файзуллаева З.А.,
преподаватель кафедры дошкольного образования НавГУ
Келдиёрова М.А.,
ДОУ «Пахтаой» №8 Карманинского района Навоийской области,
помощник – воспитатель,

Аннотация: В данной статье рассмотрена роль информационных технологий в организации системы дошкольного образования на основе современных требований, повышении эффективности, мотивации детей к исследовательской деятельности, повышении эффективности образования в достижении здорового и всестороннего взросления.

Ключевые слова: ребенок, образование, воспитание, игра, информационные технологии, интерактивные технологии, мультимедиа, аудио, видео, анимация, программа.

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, samaradorlikni oshirish, bolalarni izlanish faoliyatiga undash, sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: bola, ta'lim, tarbiya, o'yin, axborot texnologiyalari, interfaol texnologiya, multimedia, audio, video, animatsiya, dastur.

Annotation: This article reflects on the importance of information technology in improving the effectiveness of education in organizing the preschool education system based on modern requirements, improving efficiency, encouraging children to research activities, developing healthy and comprehensively mature.

Keywords: child, education, upbringing, game, information technology, interactive technology, multimedia, audio, video, animation, application.

Показывает, что сегодня формирование компьютерной грамотности у дошкольников, обучение их элементарному обращению с компьютером и подготовка к школьному обучению являются одними из актуальных вопросов. Маленькие дети проявляют любопытство к окружающему миру, происходящим событиям и предметам. Им нравится все брать, пальпировать, ходить и двигать.

Компьютерные игры усиливают это любопытство учащихся. В результате происходит формирование их психического развития. Мультимедийные компьютерные игры повышают любознательность воспитанников на основе:

1) чтобы объект игры, отображаемый на экране, имел эффект анимации, и чтобы они постоянно двигались и полировались;
2) в звуке;
3) в музыке;
4) в анимации;
5) в мультипликации.

Эти" компьютерные " психолого-педагогические воздействия во время игры не только усиливают любознательность маленьких детей, но и повышают их мотивацию к обучению.

Из приведенной информации становится ясно, что информационные технологии в формировании воспитания детей дошкольного возраста то есть использование мультимедиа является одним из основных вопросов эффективного его применения в дошкольных образовательных организациях на сегодняшний день.

Методика подготовки мультимедийных средств и формирования компьютерной грамотности детей персональные компьютеры являются основным техническим средством мультимедийной техники. Тренировка с полным набором технических инструментов, богатая экспонатами, утренники, занятия и кружковые занятия по обучению иностранным языкам оказывают положительное влияние на раскрытие способностей и одаренности у ребенка, его развитие.

В частности, возможности информационных технологий и инноваций оказывают положительное влияние на психическое интеллектуальное развитие детей, в связи с чем, государственные требования к знаниям дошкольников, приобретение знаний и умений на основе государственной образовательной программы "Первый шаг", средства информационно-коммуникационных технологий и умение правильно их использовать 6-7-летний ребенок, получающий образование на основе современных, передовых технологий, должен к школьному обучению направляется физически подготовленным, обладающим достаточными интеллектуальными навыками, психологически подготовленным.

При использовании дошкольных образовательных организаций в учебно-воспитательном процессе требуются дополнительные инструменты - компакт-диски, различные презентации, слайды и др. Учебно-воспитательный материал в мультимедийных средствах будет носить динамический характер, который будет представлен анимацией. Традиционные наглядные материалы, используемые в системе образования, носят статический характер.

Например, в процессе обучения букве а традиционным способом воспитатель показывает ребенку ее форму из бумаги или картона (статический инструмент). Буква а при отображении на мультимедийном носителе вибрирует на экране компьютера (монитора), привлекая внимание детей (динамический носитель). В настоящее время бурно развивается разработка различных мультимедийных средств обучения и их внедрение в учебно-воспитательный

процесс. В связи с тем, что методика их использования в учебно - воспитательном процессе дошкольными образовательными организациями не разработана, воспитатели-педагоги воспринимают мультимедийные средства как мультимедийную технологию. Еще одним благоприятным аспектом формирования компьютерной грамотности у воспитанников ДОО является то, что в процессе использования мультимедийной технологии оценка знаний воспитанников осуществляется также посредством тестовых вопросов, рисунков, игр, упражнений, презентаций, которые вводятся в память компьютера. В этом случае воспитанники обязаны найти правильные ответы на поставленные вопросы. Также стоит отметить, что помимо специального учреждения, производящего мультимедийные средства, в каждой дошкольной образовательной организации могут применяться программные и ролевые мультимедийные средства (DVD-диск), которые воспитатели могут изготовить самостоятельно. DVD-видеодиск как технический носитель мультимедиа имеет несколько преимуществ.

С помощью диска можно увидеть полный по этапам изучаемый материал, в некоторых случаях отдельные его элементы, при необходимости материал демонстрируется повторно. На DVD - видеодиск также будут размещены схемы, рисунки, графики.

Дидактические средства мультимедийной технологии полностью соответствуют дидактическим требованиям образования. Одним из основных требований реализации мультимедийного компьютерного обучения в дошкольных образовательных организациях является формирование у детей компьютерной грамотности и обеспечение их самостоятельной работы на компьютере. Поскольку основная цель от формирования компьютерной грамотности воспитанников направлена на использование компьютера при осуществлении учебно-воспитательного процесса, воспитатель под своим контролем с помощью "мыши" переходит к выполнению различных развивающих игр, математических действий, экологических заданий и аналогичных задач. После того, как у воспитанников сформируются полные практические навыки и умения пользоваться "мышкой", они приступают к самостоятельной работе.

Даже в этом случае воспитатель постоянно следит за их работой. Еще одним благоприятным аспектом формирования компьютерной грамотности у воспитанников дошкольной образовательной организации является то, что в процессе использования мультимедийной технологии оценка знаний воспитанников осуществляется также через тестовые вопросы, картинки, игры, упражнения, презентации, которые вводятся в память компьютера. В этом случае воспитанники обязаны найти правильные ответы на поставленные вопросы. Как известно, основной целью дошкольного образования является формирование личности ребенка здоровым и зрелым, подготовленным к обучению в школе способом. В реализации этой цели, исходя из того, что нынешний век-это информационный век, внедрение информационно-коммуникационных технологий в учебно-воспитательный процесс в дошкольных образовательных организациях является требованием времени.

Сегодня основными задачами воспитателей дошкольных образовательных организаций являются дальнейшее развитие у детей одаренности и способностей, развитие у них перспективы получения знаний. Соответственно, если воспитатель использует на занятиях различные образовательные педагогические программы, электронные пособия, педагогические игры, барьер между воспитателем и воспитанником исчезает, характер детей раскрывается шире. У детей повышается наблюдательность, внимание к памяти т.к.в обучении нет обязательного обучения, положительный результат достигается добровольным получением знаний. Использование педагогических и информационных технологий в дошкольных образовательных организациях является одной из актуальных проблем современности.

Наблюдения показывают, что 80-90% детей интересуются компьютерными играми. Это свидетельствует о том, что с помощью разнообразных игр, занятий, показа рисунков в цветном изображении маленьких детей, в зависимости от их интересов, можно формировать их мировоззрение, нравственную культуру.

Список использованной литературы

1. Аупов Т.Х., Ахмаджонов Х.И., Имамкариева Ш.R. Эффективные методы обучения. –Т.: 2003.
2. Азизходжаева H.N. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. –Т.: 2006.
3. Гульбоев Т. Новые педагогические технологии и их внедрение в образовательный процесс. - Навои, 2001.
4. Очилов М. Новые педагогические технологии. Карши, Насаф, 2000.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Hamroyeva A.F.,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti talabasi

Zamonaviy dunyo, o'zgaruvchan texnologiyalar va globalizatsiya jarayonlari bilan birga maktabgacha ta'lim tizimiga yangi yondashuvlar va innovatsiyalarni kiritishni talab etmoqda. Maktabgacha ta'lim, bolalar hayotining eng muhim vaqti bo'lib, ularning intellektual, emotsional, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. Shu sababli, ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar, yangi pedagogik texnikalar va ilg'or metodlar qo'llanilishi, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va bolalar rivojlanishini yanada samarali qilish uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va amalga oshirish usullari haqida so'z yuritamiz.

1. Innovatsion yondashuvlar — ta'lim tizimining yangilanishi

Innovatsion yondashuvlar, asosan, o'quv jarayonini yangilash, samaradorligini oshirish va o'quvchilarning ijodiy, intellektual va emotsional rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar pedagogik metodlarni, ta'lim texnologiyalarini va bolalar bilan ishlashni yangi shakllarda qo'llashni anglatadi. Bu yondashuvlar, shuningdek, ta'lim tizimining davomli takomillashuviga imkon yaratadi va bolalarni jismoniy, emotsional va aqliy jihatdan yaxshiroq rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini yaxshilash, bolalarni yanada rivojlantirish, pedagoglarning malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta'limni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, yangi pedagogik metodlar va ilg‘or yondashuvlar bolalar uchun ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

2. Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari

a. Ijodiy va interaktiv yondashuvlar

Maktabgacha ta'limda bolalar bilan ishlashda ijodiy va interaktiv yondashuvlar qo‘llanilishi zarur. Bu yondashuvlar bolalarga o‘yin va faoliyat orqali bilim olish imkoniyatini yaratadi. Ijodiy yondashuvlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv usullar bolalarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va ularning qiziqishlarini oshiradi.

b. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (internet, kompyuterlar, multimedia vositalari) ta'lim jarayoniga jiddiy ta'sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta'limda kompyuterlar, planshetlar, mobil ilovalar va o‘yin dasturlari orqali bolalar turli mavzularni o‘rganishlari mumkin. Interaktiv dasturlar va o‘yinlar orqali o‘quvchilarning ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi. Bu texnologiyalar yordamida bolalar nafaqat ma'lumot olishadi, balki o‘z bilimlarini mustahkamlash va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

c. Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning)

Loyiha asosida ta'lim (PBL) – bu bolalarga ma'lum bir mavzuni o‘rganish uchun amaliy loyihalarni yaratish va amalga oshirishni o‘rgatish usulidir. Bu usul bolalarning ijodiy yondashuvini rivojlantiradi, muammoni hal qilishda mantiqiy fikrlashni qo‘llashga yordam beradi. Loyiha asosida ta'lim bolalarga jamoaviy ish qilish, o‘zaro muloqot qilish va o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatini beradi. Bu metod bolalar uchun bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va ularni real hayotga tatbiq qilishga imkon yaratadi.

d. Sensorli va amaliy faoliyat orqali ta'lim

Sensorli faoliyat, bolalar uchun rivojlanishning muhim qismidir. Bolalar dunyoni organik ravishda bilishadi, turli materiallar bilan ishlash orqali o‘zlarining sezgirliklarini rivojlantiradilar. Amaliy faoliyat, masalan, rasm chizish, qumda o‘ynash, qo‘l mehnati, musiqa va boshqa interaktiv faoliyatlar bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Bu usul maktabgacha ta'limdagi innovatsion yondashuvlardan biri sifatida bolalarga mustahkam ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon yaratadi.

3. Innovatsion yondashuvlarning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati

a. Bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir

Innovatsion yondashuvlar bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Ta'limni qiziqarli va interaktiv qilish, bolalarni turli faoliyatlar orqali o‘rgatish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, hamda mustaqil ish qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, bu yondashuvlar bolalar o‘rtasida muloqot, hamkorlik va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

b. Pedagoglarning malakasini oshirish

Innovatsion yondashuvlarni qo‘llash o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishga ham yordam beradi. Pedagoglar yangi metodlarni o‘rganish, texnologiyalarni samarali qo‘llash, bolalar bilan yanada samarali ishlashni o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, maktabgacha ta’limning sifatini oshiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

c. Maktabgacha ta’lim tizimining takomillashuvi

Innovatsion yondashuvlar maktabgacha ta’lim tizimining takomillashishiga, uning jamiyat ehtiyojlariga moslashishiga yordam beradi. Bu, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yangilanishiga, yangi pedagogik metodlar va texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tizimida innovatsiyalarni amalga oshirish bolalar uchun ta’limning yanada sifatli, qiziqarli va amaliy bo‘lishiga xizmat qiladi.

4. Xulosa

Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar bolalar rivojlanishini yangi darajaga olib chiqadi, pedagoglar va ta’lim tashkilotlarini yangilanishga undaydi. Bu yondashuvlar ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va bolalarning ehtiyojlariga mos qiladi. Innovatsion metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarga ijodiy fikrlash, mustaqil ish qilish, muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkin. Shu tarzda, maktabgacha ta’limdagi innovatsion yondashuvlar jamiyatning kelajakdagi rivojlanishiga mustahkam asos yaratadi.

DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Shodiyeva B.X.,
Navoiy davlat universteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini didaktik o‘yinlar orqali qanday qilib rivojlantirish haqida so‘z ketgan. Didaktik o‘yinlar avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhimdir. Sababi ushbu o‘yinlar orqali bolalar nutqiy kompetensiyasi balki, jismoniy, aqliy hamda fiziologik jihatlarini rivojlanadi. Ushbu maqolada bolalar nutqiy kompetensiyasi balki, aqliy, jismoniy va fiziologik jihatlarini rivojlantirish haqida fikrlar bayon etilgan. Hamda bir qancha didaktik o‘yinlar misol keltirilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, maktabgacha ta’lim, nutq, kompetensiya, bola, didaktik o‘yin, muloqot.

Annotation: this article tells about how to develop speech competence of preschool children through didactic games. Didactic games are first of all important for preschool children. The reason is that through these games children develop speech competence but also physical, mental and physiological aspects. This article describes the development of mental, physical and physiological aspects of children's speech competence. An example of many didactic games is also given.

Keywords: preschool age, preschool education, speech, competence, child, didactic game, communication.

Аннотация: В данной статье речь шла о том, как развивать речевую компетентность дошкольников с помощью дидактических игр. Дидактические игры важны, прежде всего, для дошкольников. Причина в том, что с помощью этих игр дети развивают речевую компетентность, а также физические,

умственные и физиологические аспекты. В данной статье излагаются мысли о развитии речевой компетенции детей, а также умственных, физических и физиологических аспектов. А также несколько дидактических игр.

Ключевые слова: дошкольный возраст, дошкольное воспитание, речь, компетентность, ребенок, дидактическая игра, общение.

Kirish. Maktabgacha yosh davri - bu bolalar uchun nutq va fikrlash koʻnikmalarining asoslari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda oʻzgaruvchan va faol muhitda, bolalar turli vaziyatlar va oʻyinlar orqali oʻz muloqot koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Bolalar nutqini rivojlantirishning samarali usullaridan biri didaktik oʻyinlardir. Didaktik oʻyinlar - bu bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga ta'lim berishning samarali va oʻylab chiqarilgan shaklidir.

Didaktik oʻyinlar orqali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda oʻzining samaradorligi bilan ajralib turadi. Oʻyin bolalarga yuqori darajada oʻrganish jarayonini taqdim etib, oʻrganish va rivojlanishning tabiiy va qiziqarli shaklini ta'minlaydi. Ushbu maqolada didaktik oʻyinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi rivojlanishini koʻrib chiqamiz.

Maktabgacha ta'lim - bu bolalarning dunyoqarashini shakllantirish, jamiyatda oʻz oʻrnini topishga tayyorlash, turli ijtimoiy koʻnikmalarni oʻrgatish jarayoni hisoblanadi. Bu davrda bolalarning nutqini rivojlantirish, soʻzlashuv koʻnikmalarini oshirish, fikrlash va tushunishni chuqurlashtirish juda muhim ahamiyatga ega.

Nutqiy kompetensiya - bu faqat soʻzlashuv va talaffuz masalalarini qamrab olmay, balki bolalarning muloqot qilish, fikrlarini aniq ifoda etish, tinglash va tushunish kabi koʻnikmalarini ham oʻz ichiga oladi.[1]

Didaktik oʻyinlar va ularning ahamiyati

Didaktik oʻyinlar - bu oʻrganish jarayonini oʻyin shaklida tashkil etish boʻlib, ular orqali bolalar oʻzlarini qiziqarli va faol tarzda ifoda eta olishadi. Didaktik oʻyinlar bolalar psixologiyasiga mos boʻlib, ularning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va motivatsiyalarini hisobga olib tashkil etiladi. Oʻyinlar bolalarga ma'lum bir maqsadni amalga oshirishni, qoidalarni bajarishni va ijodiy yondashuvni oʻrgatadi.

Didaktik oʻyinlar orqali bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy vazifalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

Ijtimoiylashuvni kuchaytirish: Oʻyinlar bolalarning oʻzaro muloqotini ragʻbatlantiradi, shuningdek, ular bir-birlarining fikrlarini tinglash va ularga javob berish orqali muloqot koʻnikmalarini oʻrganadilar.

Fikr va til rivojlanishi: Oʻyinlar orqali bolalar koʻproq soʻzlar oʻrganadilar, turli mavzular haqida suhbatlashishadi. Bu esa ularning lugʻat boyligini oshiradi.

Qiziqarli va samarali oʻrganish: Oʻyinlar bolalar uchun oʻrganishni koʻproq qiziqarli va samimiy qiladi, chunki ular vaqtni oʻynab oʻtkazishadi, bu esa oʻrganish jarayonini tabiiy ravishda samarali qiladi.

Didaktik oʻyinlarning bolalar nutqini rivojlantirishdagi asosiy afzalliklari:

Ijtimoiy koʻnikmalarni shakllantiradi: Oʻyin davomida bolalar bir-birlari bilan muloqot qilib, oʻz fikrlarini bildirishadi, bu esa ularning kommunikatsiya koʻnikmalarini rivojlantiradi.

Nutqning rivojlanishiga hissa qoʻshadi: Bolalar oʻyinlar orqali yangi soʻzlar oʻrganadilar, soʻzlashuv va nutqni toʻgʻri qurish koʻnikmalarini egallaydilar.

Kreativlikni rag‘batlantiradi: Didaktik o‘yinlar bolalarga tasavvur qilish, ijodiy fikrlash va o‘z xohish-istaklariga asoslanib harakat qilish imkoniyatini yaratadi.

Diqqatni jamlashni oshiradi: O‘yinlar bolalarni o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashishga va diqqatni muayyan ob’ekt yoki vazifaga jamlashga o‘rgatadi.[2]

“HAYVONOT BOG‘I”o‘yini

Maqsad: 5yoshdan 7yoshdagi bolalarda yovvoyi hayvon rasmini quyida berilgan reja asosida tavsiflash orqali ekspressiv lug‘at boyligini, bog‘langan nutqni shakllanganlik darajasini aniqlaydi.

Jihoz: turli yovvoyi hayvonlar tasvirlangan predmetli rasmlar.

O‘yinning tartibi: Tekshiruvchi bolaga rasmga diqqat bilan qarab, quyidagi reja asosida uni tavsiflab berishni taklif etadi:

A)Tashqi qiyofasi.

B)Nima bilan oziqlanishi.[3]

“SAVOLLI ERTAK”o‘yin

Maqsadi: 5-7yoshli bolalarda so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni rivojlantiradi. Leksik zaxirani kengaytiradi. Savollarga javob berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolada xotira va diqqatni rivojlantirish.

Jihoz: Ertak yoki bolalar hikoyasi.

O‘yinning tartibi: Siz ertakni o‘qib berasiz. Payti-paytida to‘xtab, bolaga savol bering. Masalan, qizchada qanday rangdagi shapka bor edi? Yoki, qiz kulchalarni kimga olib kelgandi? Bosqichma-bosqich oddiy savollardan murakkabroq, javob berishni talab qiladigan savollarga o‘tish mumkin. Masalan, “Bo‘g‘irsoq” ertagini o‘qib, so‘rang: “Siz nima deb o‘ylaysiz, bo‘g‘irsoq quyondan qanday qochib ketdi?”

Tarbiyachining roli - Tarbiyachining didaktik o‘yinlarni samarali tashkil etishdagi roli juda muhim. Tarbiyachi bolalarga o‘yinlarni tushunarli va qiziqarli tarzda tashkil etishi, o‘yin davomida bolalarga doimo yordam berishi, nutqiy kamchiliklarini aniqlab, tuzatishga harakat qilishi kerak. Tarbiyachi bolalarning nutqini rivojlantirishda turli metodlar va yondashuvlarni qo‘llashi, o‘yinlarni individual va guruhli tarzda tashkil qilish orqali har bir bolaning ehtiyojini inobatga olishi lozim.[4]

Xulosa: Didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O‘yinlar bolalarga tilni o‘rganishda, so‘zlashuvda va muloqot qilishda yordam beradi. Didaktik o‘yinlar nafaqat bolalarning nutqini rivojlantirish, balki ularning ijodiy, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli, tarbiyachilar o‘yinlarni o‘quv jarayonida keng qo‘llashlari va bolalarning nutqiy rivojlanishiga doimiy e'tibor berishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Google Scholar (https://scholar.google.com)
2. O‘zbekiston Milliy Kutubxonasida (https://www.natlib.uz/)
3. “Maktabgacha ta'limda nutqiy rivojlanish” (muallif: N. Ismoilova, R. Tursunov)
4. “Didaktik o‘yinlar va ularning maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri”(muallif: L. Mirzaeva).

MAKTABGACHA TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR MOAMMO VA YECHIMLARI

Barotova M.M.,
Karman tumani 17- DMTT direktori,
Kutlmuratova G.K.,
Shimbay rayoni 34-sonli DMTT tarbiyachisi

Annotatasiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalalari xususida.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tizimi, yosh avlod, aqliy intellektual, ko'nikma, ma'naviy salohiyat, maktabga tayyorlash, takomillashtirish.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom qilib voyaga yetkazish, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimidagi ilg'or xalqaro tajribani hayotga tatbiq etish, xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan hisoblanadi.Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Tizimda qanday muammolar mavjud va ular qay tariqa hal qilinmoqda? Sohada qanday yangiliklar kuzatilmoqda? Islohotlardan nimalarni kutish mumkin? Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida o'zgarishlar talaygin maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim muassasalari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi MTMlarga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi marta hammaga mavzuiy rejalashtirish dasturlari tarqatilgan. "Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili – ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari.Yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida - bola va uning manfaatlari. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

Mazkur maqolada maktabgacha ta'limni rivojlantirishda xorijiy davlatlarning me'yoriy huquqiy xujjatlarini implementatsiya qilinishi hamda xorijiy mamlakatalarda maktabgachga ta'limni tizimli tashkil etish bosqichlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tarbiyachilarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish

zarurati paydo bo‘ldi. Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni, 2017- yil 9-sentabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturini amalda joriy etish, shu asosda maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. “Maktabgacha ta’limda zamonaviy yondashuvlar” modulining ishchi o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta’lim 7 muassasalari tarbiyachilariga ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiya, integratsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me’yoriy hujjatlar, o‘quvmetodik adabiyotlar, o‘quv metodik majmualarniishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta’lim muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha sohaga oid bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017- 2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ – 2707 -sonli, “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 9-sentabrdagi PQ – 3261-son qarorlari, “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198Implemizatsiya – (inglizchada “amalga oshirish, amalga oshirish, amaliy tatbiq etish”) - bu xalqaro majburiyatlarni ichki miqyosda haqiqatda amalga oshirish, shuningdek, xalqaro huquq normalarini milliy huquq tizimiga kiritishning o‘ziga xos usuli. Amalga oshirishning asosiy talabi - xalqaro tuzilmaning maqsad va mazmuniga qat'iy rioya qilishdir. Amalga oshirish usullari quyidagilardan iborat: Amalga oshirishning asosiy talabi - xalqaro tuzilmaning maqsad va mazmuniga qat’iy rioya qilishdir. Amalga oshirish usullari quyidagilardan iborat: -inkorporatsiya; -transformatsiya; -umumiy, alohida yoki maxsus havola. Inkorporatsiya qilingandan so‘ng xalqaro huquq normalari hech qanday o‘zgartirishlarsiz amalga oshiruvchi davlat qonunlarida so‘zma-so‘z takrorlanadi. O‘zgartirish jarayonida tegishli xalqaro shartnoma normalarining ma'lum bir qayta ishlanishi ular milliy qonunchilikka o‘tkazilganda sodir bo‘ladi (odatda bumilliy huquqiy an'analar va huquqiy texnika standartlarini hisobga olish zarurati tufayli yuzaga keladi). Umumiy, xususiy yoki maxsus havolada xalqaro huquq normalari qonun matniga bevosita kiritilmaydi, ular faqat eslatib o‘tiladi. Shunday qilib, havola orqali amalga oshirilganda, milliy huquqiy normani qo‘llash dastlabki manba - tegishli xalqaro shartnoma matniga bevosita murojaat qilmasdan imkonsiz bo‘lib qoladi. Bir qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar

avtomatik ravishda milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga muvofiq (15-moddaning 4-qismi) Rossiya Federatsiyasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari vaBir qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar avtomatik ravishda milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi.. Agar Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida qonunda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi. Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barchaYaponiya - juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehnatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayaBolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. O‘g‘ilga oilaning bo‘lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar.Bolalar bog‘chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko‘nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘la olishni o‘rgatishdan iborat. Shuningdek, og‘zaki nutq, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatishga ham katta e’tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o‘yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg‘otiladi. Shuni aytish mumkinki implentatsiya jarayonida xalqaro huquq normalarini milliy qonunlar va qonun osti hujjatlariga aylantirish orqali ichki darajada xalqaro majburiyatlarni amalda bajarish tizimli ravishda qator davlatlarga amalga oshiriladi.Bunda bir qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar avtomatik ravishda milliy qonunchilikning bir qismiga aylanmoqda. Bularni bari ta’lim jarayonini isloh qilishda xalqaro tajribalarni almashishda va o‘zaro davlat kesimida moslashtirgan holda amaliyotda qo‘llashga keng sharoit yarati berilmoqda.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Qo‘chqarova F.B.,
Nurota tumani 10-sonli DMTT metodisti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning milliylik xususiyatlari milliy o‘yinlar vositasida ijtimoiy faolligini hamda odob-axloqni o‘rgatish haqida yoritilgan.

Аннотация: В статье описывается социальная деятельность и воспитание манер дошкольников посредством национальных игр.

Abstract: The article describes social activity and manners training of preschool children through national games.

Kalit so‘zlar: o‘yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy ta’sir, munosabat, didaktik o‘yin, harakatli o‘yin.

Ключевые слова: игра, речь, правило, действие, социальное воздействие, отношение, дидактическая игра, игра-действие.

Key words: game, speech, rule, action, social influence, attitude, didactic game, action game.

O‘zbek millyo‘yinlarining tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. O‘yinlar xalqning o‘zi singari qadimiy va boy tarixga ega. Milliyo‘yinlarining nomlanishi va ularning o‘ynalishi tarkibi to‘g‘risida turkiy zabon olim Maxmud Qoshqariy o‘zini “Devonu lug‘otit turk” asarida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Qashqariy keltirgan ma’lumotlar o‘yinlarning tarixiy zaminiga va asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat o‘yin nomlari va o‘yinlarning uynalishi tarkibi avloddan-avlodga o‘tib kelgan.Shunday savol tug‘iladi qanday o‘yinlari bo‘lgan? O‘zbek halqining shox asari hisoblangan.”Devonu lug‘atit turk” da o‘yinlar to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Afsuski, qadimiy o‘yin nomlari tadbiq etilmagan, o‘yinlarning uynalishi tartibi tiklanmagan.Qashqariy lug‘atida zikr etilgan o‘yinlar nomini va uning tartibini tiklash va tadbiq etish katta ahamiyatga ega. Zero, o‘yinlar xalq madaniyatining ajralmas bir bo‘lagidir. “Devonu lug‘atit turk” da anchagina o‘yinlarning nomlari keltirilgan. Ayrim o‘yinlarning uynalish tartibi batafsil keltirilgan. Hozirgi kunda bolalar sevib uynayotgan yong‘oq, poylamasingari o‘yinlar.X-XII asrlarda ham ommaviy bo‘lgan. Bu hodisaning hozirgi nomi do‘l “Devonu lug‘atit turk” da yong‘oq o‘yini bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan anchagina hodisalarining nomlari qayd etilgan. “Chavgon” haqidagi ma’lumotlarni A.Navoiy, Bobur, va boshqa klassiklar asarlarida ham uchratish mumkin. Firdavsiyning “Shoxnomasi” da esa chavgon haqida voqea bayon qilinadi.M.Qashqariy o‘yin nomini chavgon to‘pini uradigan cho‘p nomidan olinganligini ta’kidlaydi.Chavgon cho‘pi shu nom bilan atalgan bo‘lib fors-tojikcha so‘zdir.Uning ma’nosi “uchi egri, uzun tayoq” degani.Qashqariy lug‘atidan o‘rin olgan bolalarning sevimli o‘yinlaridan biri “Ko‘chirma o‘yini” ya’ni o‘n to‘rt degan o‘yindir.Biz o‘zga xalqlar tarixiy, madaniyatini va udumlarini o‘rganib hurmatini joyiga qo‘yib keldigu, o‘zimizning tariximiz fani, madaniyati, urf-odatimizni o‘rganmadek. Unga hurmatsizlik qildek.Natijada bugungi kunga kelib tarbiyaviy ishlarga ko‘plab kamchiliklarimiz ko‘rinib qoldi.Xalqimiz ko‘psohalarda millatchilikda ayblanib urf-odati va an’analari ta’qiqlab kelindi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy o‘yinlar asosida bolalarda odob-axloqni o‘rgatish juda muhim va samarali yondashuvdir. Milliy o‘yinlar xalqning ma’naviy boyligi bo‘lib, ular bolalarning ruhiy rivojlanishi, ma’naviy tarbiyasi va milliy qadriyatlarni anglashida katta rol o‘ynaydi.

Milliy o‘yinlarning ahamiyati:

Madaniy merosni saqlash: O‘yinlar bolalarga milliy an’analar va qadriyatlarni o‘rgatadi.

Axloqiy tushunchalarni shakllantirish: Halollik, hurmat, birdamlik kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Jamoada ishlash, o‘zaro hurmat qilish va muloqot qilish qobiliyatlarini oshiradi.

Ijodkorlik va tafakkurni rivojlantirish: Har bir o‘yin bolalarning fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Odob-axloqni rivojlantirishda milliy o‘yinlarning turlari:

1. Jismoniy faoliyatga asoslangan o‘yinlar:

"Oq terakmi, ko‘k terak" – jamoaviy tartib va birdamlikni o‘rgatadi.

"Chillak" – qat’iyat va sabrni tarbiyalaydi.

2. Ijodiy va rolli o‘yinlar:

“Tush o‘yini” – ijodiy fikrlashni rivojlantiradi va bolalarga hayotiy qoidalarni o‘rgatadi.

“Kim yutdi?” – halollik va mashaqqatni qadrlashni ta’minlaydi.

3. Topishmoqlar va aqliy mashqlar:

Topishmoq va masalalar bolalarni ziyraklikka va mantiqiy fikrlashga undaydi.

Masalan, “Tepa-tepa et” kabi o‘yinlar bola tafakkurini charxlaydi.

Tarbiyaviy jarayonda e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatlar:

O‘yin mazmunini to‘g‘ri tanlash: Har bir o‘yin bolaning yoshiga va rivojlanish bosqichiga mos bo‘lishi kerak.

Tarbiyaviy maqsadni belgilash: O‘yindan oldin pedagoglar bolalarga o‘yin orqali qaysi odob-axloq qoidalarini o‘rgatmoqchi ekanliklarini aniq belgilab olishlari zarur.

Pedagogning ishtiroki: Pedagoglar o‘yinni boshqarish va unda faol ishtirok etish orqali bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirishlari lozim.

Tajriba va tahlil: O‘yindan so‘ng natijalarni tahlil qilish va bolalar bilan fikr almashish odob-axloq qoidalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o‘yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o‘zaro yordam, o‘rtoqlik, do‘stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog‘chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta’minlash uchun yosh guruhlarida rang-barang o‘yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o‘yinlar qoidalarining ichki, April 25, 2024 263 yashirin tabiati bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o‘ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidali o‘yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo‘ladi.

Bu o‘ynovchiga suyujetni osonlik bilan o‘zgartirish, qo‘shimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o‘yinlar bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi va ularga ulkan ta’sir ko‘rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o‘yinlardan foydalanish xato bo‘lur edi. Bolalarning qoidali o‘yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalar harakatlarning muayyan normalarini so‘ng esa bolalarning bir-biriga bo‘lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o‘zini va o‘zi bilan birga o‘ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalami bajarishdagi mustaqillik o‘yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o‘ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo‘ladi. O‘yinning ijtimoiy O‘yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg‘ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagi o‘qishga ishtiyoq uyg‘onib qoladi. Ammo bolalar uchun o‘yinning qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o‘yinlar qiziqtira boshlaydi. Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakatlariga taqlid qilib, o‘ynar ekan, shu qatorda ularning ma’nosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni engishga o‘rganadi. Unda harakat ko‘nikmalariga hosil bo‘ladi va tasavvuri tobora boyib boradi. Bundan tashqari, o‘yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo‘lishi uchun uchungina emas, balki ularga, aqliy, ma’naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plashib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qat’iyatini

ko‘rsatish, jamiyat oldida faqat o‘zining emas, balqi o‘rtoqlarining hatti harakatlari uchun ham javobgralik hissini seza olishni o‘zida shakllantirib borishi zarur.

Xulosa: Milliy o‘yinlar orqali bolalarda odob-axloq qoidalarini shakllantirish nafaqat milliy madaniyatni saqlash, balki kelajak avlodni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon faqat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan cheklanib qolmay, oilada ham davom etishi lozim. Shu tariqa bolalar odob-axloqli, jamiyatga foydali insonlar bo‘lib voyaga yetadi.Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o‘yinlar katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlari taklid qilish tabiatida bo‘ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o‘zgacharoq faxmlaydi, kuzatiladi. O‘yindagi ba'zi narsalarni o‘yiniga kiritadi va shu o‘yin vositasida o‘zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo‘ladi. Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Xo‘jayev. “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar”. TOSHKENT – 2022
2. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta- maxsus ta'lim muassasalari uchun darslik. T.:, “Istiqlol”, 2006 y.
3. Imomova SH.M., Norova F.F.Учебные методы организации спортивнооздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.
4. Soliyev I. et al. The role of aesthetic education in introducing children to the environment //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 801-804. International scientific and practical conference“current issues of special pedagogy and pre-school education: problems, solutions and development prospects” April 25, 2024 264
5. Sobirovich S. I. et al. Socio-personal and mental development of a preschooler //Ijodkor o‘qituvchi. – 2022. – T. 2. – №. 23. – C. 50-54.
6. Soliyev I. et al. Tarbiyalanuvchilar ijtimoiy faolligini oshirishda foydalaniladigan milliy o‘yinlar //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 83-86.
7. Tursunaliyeva D. et al. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida o‘yin faoliyatining o‘rni //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №.5 Part 2. – С. 129-131.

MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHLARI BOLALARINI SAVODGA O‘RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Fayzullayeva Z.A.,
NavDU o‘qituvchisi,
Ro‘ziqulova Sh.A.,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari, ularni talim-tarbiya jarayoniga joriy

etgan holda samarali mashg‘ulotlar o‘tkazish, kompyuterli ta’limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlar orqali bola savodxonligini oshirish uchun multimediyalar tayyorlash, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi ma'lumotlarga barqaror qiziqishni shakllantirishi va muammolarni hal qilishga yordam berishi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, multimediali taqdimot, kompyuter o‘yinlari, kompyuter modellari, intellektual faoliyat, interaktivlik.

Аннотация: В данной статье изложены соображения о преимуществах использования мультимедийных технологий в дошкольных образовательных организациях, эффективного обучения с их внедрением в учебно-воспитательный процесс, подготовки мультимедиа для повышения грамотности ребенка посредством компьютерных обучающих и развивающих игр, развития познавательных способностей, формирования устойчивого интереса к новой информации и помощи в решении задач.

Ключевые слова: информационные технологии, мультимедийная презентация, компьютерные игры, компьютерные модели, интеллектуальная деятельность, интерактивность.

Annotation: this article describes the advantages of using multimedia technology in preschool educational organizations, conducting effective training with their introduction into the educational process, preparing multimedias to increase child literacy through computer educational and developmental games, developing cognitive abilities, forming a stable interest in new information and helping to solve problems.

Keywords: Information Technology, Multimedia Presentation, computer games, computer models, intellectual activity, interactivity.

Rivojlanayotgan zamonaviy axborot jamiyati sharoitida bolalarning maktabgacha tayyorlov yoshdan boshlab kompyuterni erta o‘rganishi ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Bundan tashqari,zamonaviy axborot texnologiyalari butun hayotimizni va bolalarimizning har jabhasini qamrab olmoqda.Maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar uchun ta’lim va o‘yin faoliyatini AKT siz zamonaviy globallashuv asrida tasavvur etib bo‘lmaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.Har bir faoliyatni Kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etish tarbiyalanuchilar uchu qulay sharoit yaratadi.

Multimedia vositalari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish quyidagi afzalliklarga ega:

A) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyati bor;

B) ta’lim-tarbiya olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;

V) ta’lim-tarbiya olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

G) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo‘lganda amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga erishiladi.

Kompyuterli didaktik o‘yinlar ta’lim bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonini amalga oshirishga yordam qiladi. Kompyuter va uning xotirasidagi ta’limiy o‘yinlar birgalikda, multimedia texnologiyasi (kompyuterli ta’lim)ning o‘yinlar bo‘yicha asosiy didaktik vositasi hisoblanadi.

Kompyuter xotirasidagi o‘yinlardan tashqari, qo‘shimcha didaktik o‘yinlar tayyorlash mumkin maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o‘rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, bolaning xotiraga olish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida eng qulay va tez-tez qo‘llaniladigan vosita bu multimediali taqdimotlardir.Bular orqali bolalar xrijiy tillar,matematika va san’atni o‘rganishlari mumkin.Bular brachasi barchasi bolalar uchun qulay sharoit yaratadi.

Tarbiyachilar va bolalarning ota-onalari maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligini baholaydilar. Multimediali taqdimotlarning afzalliklarini ma'lum bir kontekstda bilimlarni taqdim etishda, o‘rganish uchun motivatsiyani oshirishdadir, chunki, kamchiliklar bolaning jismoniy va ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan omillardir. Xuddi shunday nuqtai nazar, ota-onalar tomonidan ham ifodalanadi.[1]

Boshqa tomondan,ota-onalar uchun ham bolalarining maktabgacha yoshda AKTdan vositasida ta’lim olishi tez o‘zlashtirishi va jamiyatga qulay moslashishi uchun qulaydir.Multimedia taqdimoti kompyuter dasturlari yordamida axborotni taqdim etishning qulay va samarali usuli hisoblanadi. U dinamikani, tovushni va tasvirni, ya'ni bolaning e'tiborini eng uzoq vaqt ushlab turadigan omillarni birlashtiradi. Ingliz maqolida shunday deyilgan: "Men eshitdim va unutdim, ko‘rdim va esladim". "Bir marta eshitgandan ko‘ra, yuz marta ko‘rgan afzal" rus maqolining o‘xshashligi.

Olim va fiziologlarning fikricha, inson bir vaqtning o‘zida eshitgan narsasining 20% va ko‘rgan narsasining 30% va ko‘rgan va eshitgan narsasining 50% dan ortig‘ini eslab qoladi.

Innovatsion kompyuter texnologiyalari bolalarning ta'lim faoliyatini, ularning hissiy holatini faollashtiradi va umuman, aqliy jarayonlarni (diqqat, xotira, fikrlash...) rivojlanishiga yordam beradi. taqdimotlari yordamida o‘qish va yozishni o‘rganishga tayyorlash uchun maxsus tashkil etilgan tadbirlarning ayrim bosqichlarini ko‘rib chiqishni taklif qilaman .

Taqdimotlar allaqachon tashkiliy jihatdan bolalarning e’tiborini jalb qilishga yordam beradigan bosqich, uning maqsadi – o‘rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish, yangi tovushlarni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish.

Ekranda ma'lumotni taqdim etish bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi; harakatlar, tovush, animatsiya uzoq vaqt davomida bolaning e'tiborini tortadi. Multimedianing uslubiy kuchi shundaki, u ovozli va vizual tasvirlarning muvofiqlashtirilgan oqimini idrok etganda bolani qiziqtirish va o‘rgatish osonroq bo‘ladi.

Kompyuterlar tug‘ilishdan boshlab yosh bolalarni o‘rab oladi. 6-7 yoshli bola allaqachon shaxsiy kompyuter bilan erkin muloqot qila oladi. Shu sababli, zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolaning motivatsiyasini oshirish va o‘rganishni yaxshilash uchun noyob imkoniyatga ega bo‘lgan vositalardan biri bu kompyuterdir. Har bir tarbiyachi mashg‘ulot faoliyatini tayyorlash va o‘tkazishda AKTdan foydalanishi

lozim, chunki bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun tarbiyachi zamonaviy metodlar va yangi ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishi kerak.

To'g'ridan-to'g'ri o'quv faoliyatini tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limni zamonaviylashtirish, ta'lim faoliyatini zamonaviy innovatsion fikrlaydigan bolaning dunyoqarashiga yaqinlashtirish imkonini beradi,

Ta'limni tashkil etishda axborot texnologiyalarini faol joriy etish. jarayon bizga quyidagi muammolarni hal qilish imkonini beradi: Multimedia texnologiyalaridan foydalanganda bolalarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshadi, bolalarning kognitiv qobiliyatlari darajasi va bilim sifati oshadi.

Multimedia texnologiyalari an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning turli shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi:

- audio-video tasvirlar,
- matn animatsiyasi

Bularning barchasi,bolalar uchun tushunish,anglab yetish jarayonini komplekslashtirib ko'rsatib beruvchi va rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi motivlardir.Ammo,bu jarayonda foydalanish uchun muhim talablar bor.

SanPiN talablariga ko'ra, kompyuterdan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri ta'lim faoliyati 5 yoshli bolalar uchun 10 daqiqa va 6-7 yoshli bolalar uchun 15 daqiqani talab qiladi. Ishlayotganda bolalar ekrandan 2-3 m dan yaqinroq va 5-5,5 m dan uzoqroq bo'lmagan masofada joylashtiriladi. 5-7 yoshli bolalar uchun kompyuterdan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari kuniga bir martadan ko'p bo'lmagan va haftada uch martadan ko'p bo'lmagan holda amalga oshirilishi kerak.

Shunday qilib, multimedia texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda intellektini,ongini oshirishga yordam beradi va ekranda ko'rgan bir qator ijobiy natijalarni amalga oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suyumov J. "Мировая наука" №6(63) 2022 science-j.com
2. Abduqodirov A.A. Pedagoglar malakasini oshirishda masfali o'qish metodikasi //Axborot kommunikatsiya texnologiyalari dasturiy pedagoglar va muammolarni va yordamni yaratish: tajriba va muammolar //Il.- uslub.konf.mat..(23 iyun, 2004 yil) . – T., 2004.
3. Alimov SH. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan'anaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlar. Andijon 2009.
4. Aripov M. Informatika va axborot texnologiyalari asoslari. – T.: Universitet, 2001.

TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN KO'RGAZMALI VOSITALARGA QOYILADIGAN TALABLAR

Fayzullayeva Z.A.,
NavDU o'qituvchisi,
Xolmurodova M.N.,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalar, audiovizual va vizual vositalarni qo'llash haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali qurollar, vizual, audiovizual, an'anaviy, ko'rgazmali, og'zaki vositalar.

Аннотация: В этой статье освещается информация об использовании наглядных, аудиовизуальных и визуальных средств, используемых в процессе обучения.

Ключевые слова: наглядные пособия, наглядные, аудиовизуальные, традиционные, наглядные, словесные средства.

Annotation: This article highlights information about the use of visual, audiovisual and visual means used in the learning process.

Keywords: visual aids, visual, audiovisual, traditional, visual, verbal means.

Mamlakatimizda ta'lim tizimlarini nufuzini oshirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va e'tibor pedagog xodimlarining o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlariga zamin hozirlamoqda.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish tushunchasini XVII asrda Yan Amos Komenskiy (1592-1670) "Orbis Sensualium Pictus" ("Nafosat olamining surati") kitobida rasmlarni o'quv qo'llanma sifatida taqdim etganida kuzatilishi mumkin. Bu kundalik hayotning 150 ta rasmlari bilan tasvirlangan [1]. Xuddi shunday, Jan Russo (1712–1778) va J.X. Pestalotsi (1746–1827) o'qitishda ko'rgazmali va o'yin materiallaridan foydalanish jarayonini tadbiq etishgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida AQSh qurolli kuchlarida rasm va boshqa ko'rgazmali qurollardan muvaffaqiyatli foydalanish ko'rsatma vositalari samaradorligini isbotladi. Diafilmlar, mikro shakllar, slaydlar, proektsiyalangan shaffof bo'lmagan materiallar, lenta yozish va kartochkalardan tortib audiovizual materiallarning har xil turlari mavjud.

Hozirgi raqamli dunyoda audiovizual yordam vositalari DVD, PowerPoint, televizion o'quv seriallar, YouTube va boshqa onlayn materiallar kabi bir nechta multimediyalar bilan keskin o'sib bormoqda. Audiovizual vositalarning maqsadi o'qituvchining bolalarga ma'lumotni sodda, samarali va tushunarli tarzda bayon etish qobiliyatini oshirishdir[1]. Vizual ko'rsatma mavhum g'oyalarni bolalar uchun yanada aniqroq qiladi. Audiovizual resursdan foydalanishni rag'batlantirish va foydalanishni qo'llab-quvvatlashdagi muhim rollarni tushunishlari uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qitish va o'rganishda audiovizual materialdan foydalanish va foydalanmaslik o'rtasida sezilarli farq mavjud.

1. O'qitish-o'qitish jarayonini samaraliroq qilishda pedagog-murabbiylar mahoratini mustahkamlash.
2. Tarbiyalanuvchilar e'tiborini jalb qilish va ushlab turish.
3. Tarbiyalanuvchilarning turli darajalarida qiziqish uyg'otish.
4. Oddiy va oson bajariladigan dars rejalarini ishlab chiqish.
5. Guruhni yanada interaktiv va qiziqarli qilish uchun.
6. Tarbiyalanuvchilarga yo'naltirilgan yondashuvga e'tibor qaratish [2].

Zamonaviy dunyoda biz o'quv jarayonini takomillashtirish uchun raqamli vositalardan foydalanamiz. Hozirgi kunda biz mashg'ulotlarda foydalanadigan eng keng tarqalgan vosita bu PowerPoint slaydlari bo'lib, bu mashg'ulotni yanada qiziqarli, dinamik va samarali qiladi. Bundan tashqari, bu yangi mavzularni osonlikcha tanishtirishga yordam beradi. Audiovizual vositalardan foydalanish bolalarni kontseptsiyani uzoqroq vaqt davomida eslab qolishga majbur qiladi. Ular so'zlar bilan

bir xil ma'noni anglatadi, ammo aniq tushunchalar beradi, shuning uchun ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish guruhdagi intizomni saqlashga yordam beradi, chunki bolalarning barcha diqqatlari o'rganishga qaratilgan. Ushbu interfaol mashg'ulot, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan tanqidiy fikrlash va mulohazalarni rivojlantiradi.

Audiovizual o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali muloqot qilish imkoniyatlarini beradi.

Bolalar rag'batlantirilganda va biror narsaga qiziqish bildirganda o'rganadilar. An'anaviy og'zaki ko'rsatmalar talabalar uchun zerikarli va og'riqli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, audio-vizualdan foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishini oshirib, mashg'ulotga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish orqali ichki motivatsiyani ta'minlaydi.

Bir vaqtning o'zida juda ko'p audiovizual materiallar zerikishni keltirib chiqarishi mumkin degan fikrga ega bo'lish kerak. U samarali amalga oshirilgan taqdirdagina foydalidir.

Ovozli vizual vositalar o'quv jarayonini o'qitish uchun muhim vosita ekanligi aniq. Bu ta'lim jarayonini samarali o'tkazishda yordam beradi va bolalar tushunchalarni yaxshiroq va uzoqroq vaqt davomida o'rganadilar va saqlaydilar. Audiovizual vositalardan foydalanish bolalarning tanqidiy va tahliliy fikrlarini yaxshilaydi.Vizual taqdimot orqali mavhum tushunchalarni olib tashlashga yordam beradi. Biroq, ushbu yordam vositalaridan noto'g'ri va rejasiz foydalanish o'quv natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, o'qituvchilar ushbu yordam vositalaridan foydalanishning maksimal afzalliklariga erishish uchun malaka oshirish orqali yaxshi o'qitilishi kerak. O'quv dasturi audiovizual vositalar orqali faoliyatga asoslangan ta'limning variantlari mavjud bo'ladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, hukumat maktablarda audiovizual vositalarni sotib olish uchun mablag' ajratishi kerak.

Ta'lim jarayonida texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta'lim berish, bilimni tez va oson o'zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o'z isbotini topmoqda. Ma'lumki, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini bo¬yitadi, o'quv materiali ta'limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia-bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audiosamara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi. Gipermedia-bu multimediali obyektlarda qo'llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog'liq kompyuter fayllaridir. Ta'limni kompyuter va boshqa internet-texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchilklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog'liq muammo bo'lishi ham mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD-disklari deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etilishi mumkin.

Ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, qiziqtirish juda muhim. O'qitishni qiziqarlilashishi hamda unda barcha talabalarning to'liq fikru-zikri bilan faollashishi asosida ta'lim jarayoni juda samarali o'tadi. Bunda ko'rgazmali vositalar ham muhim o'rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan

natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi natijasida avvalo, ta'limning universal ta'siri, uning asosida esa-foydali malaka va ko‘nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, ta'lim berish uchun mo‘ljallangan matnga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo‘shqin tarzda namoyon etishi, mashg‘ulotlar o‘tkazish va o‘qitilayotgan ma'lumotni o‘zlashtirishni, umuman, butun ta'lim jarayoni samarasini oshirishi, talabalarda o‘z egallagan bilimlariga baho berish imkoniyatini ta'minlashi zarur. Aynan shu nuqtai nazardan, zamonaviy multimediali texnologiyalarning tatbiq etilishi yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni hal qilishda va an'anaviy o‘qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko‘mak beradi.

Multimedia stendlari vositasida bolalar har qanday axborotni nafaqat ko‘rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishlari osonlashadi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi [3]:

• jadval va rasmlarni rangli, ovozli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;

• interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;

• darsning nazariy materialini boyitib borish;

• axborotlarning muntazam ravishda yangilab turish;

• ta'lim jarayonida o‘quvchi-talabalar bilan ko‘proq individual ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarilarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;

• ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o‘rganish;

• ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomillashtirib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O‘.Q., Usmonberdiyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma; -T.:«Fan», 2006.

2. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X, Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). Qarshi: Nasaf, 2011.

3. Boqiyev R., R.Mehmonov, D. Xusniddinova. Bolalar bog‘chasida boshlang‘ich kompyuter savodxonligi. Toshkent: Iqtisod -moliya, 2010. b.

4. www. technomag.edu.ru

5. www.hrea.org/pubs/tips.html

6. www.press-service.uz

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ВОСПИТАТЕЛЯ С РОДИТЕЛЯМИ В ДДО

Хамраева Ф.Р.,

Воспитатель дошкольной образовательной организации №15.

г.Зарафшон.

Воспитание подрастающего поколения в современном обществе является предметом особой заботы. Родители являются первыми педагогами, они обязаны

заложить основы физического, интеллектуального развития личности, ребёнка в детском возрасте. Взаимодействие родителей с детским садом приводит к лучшему воспитанию детей в детском возрасте. Взаимодействие – представляет собой способ организации современной деятельности, которая шляется с помощью общения. Детский сад и семья должны стремиться к созданию единого пространства в развитии ребёнка.



Современные тенденции в развитии дошкольного образования объединённые одним важным и значимым критериям – его качеством, которые непосредственно зависит от уровня профессиональной компетентности педагогов и педагогической культуры родителей.

Взаимодействие родителей и детей дошкольного организации редко возникает сразу. Это длительный процесс долгий и кропотливый труд, требующий терпеливого, не неуклонного следование выбранной цели. Надо найти пути сотрудничества с родителями, ведь у нас одна цель – воспитать будущих созидателей жизни, каков человек – таков мир, который он создает вокруг себя.





Надеемся что наши дети когда вырастут будут любить и оберегать своих близких и будут служить Родине.

Родители бывает лидерами, исполнители, активисты, негативисты и наблюдателей. Родители – лидеры, которые умеют и с удовольствием участвует воспитательная – образовательном процессе, видят ценность работы детского учреждения.

Родители – исполнители, которые принимают участие при условии значимой мотивации.







Родители – негативисты, это наиболее опасная группа родителей которые все равно чем-то бывают недовольны. Зачастую они не знают Сами как поступить в той или иной ситуации, но все свои промахи приписывают педагогом.

К счастью у нас их было немного и они «стеснялись» процессе жизни нашей группы.

Родители – наблюдателей, тоже достаточно сложная категория родителей. Главная задача педагога не дать возможность таким родителям присоединиться к и «негативистам» постоянно создавать для них позитивные образы в ходе педагогического процесса.

Лидеров родители надо выбирать родительским комитетом, а исполняющий негатив и наблюдатели сделать членами родительского комитета.



Сформировала основные положения группы так:

1. Создание условий для благоприятного климата взаимодействия с родителями.
2. Установление доверительных и партнёрских отношений с родителями.
3. Вовлечение семьи введены образовательное пространство.
4. Пропаганда здоровый – жизни.
5. Работа с родительским комитетом группы:

Беседы с детьми и родителями, тренинги, тесты, консультации. Занятия с участием родителей, выставка детских работ, изготовленных вместе с родителями:

- Совместные экскурсии
- Дни открытых дверей
- Участия родителей в подготовке и проведении праздников, досуга, утренников.
- Совместные нетрадиционные редко – детские собрание.
- Совместной деятельности на центрах развития.



Непонимание между семьей и детским садом в семь тяжести ложиться на ребёнка, мы педагоги очень часто испытываю небольшие трудности в общении родителями по этой причине. Как изменить такое положение я убедилась, что вместо весело шагать по просторам, постепенно уходит непонимание недоверия родителей. Не останавливаюсь на достигнутом и, продолжаю искать новые пути сотрудничество с родителями, ведь у нас одна цель.



В результате повысился уровень воспитательная – образовательной деятельности родителей, что способствовало развитию их творческой инициативы. Родительские собрания провожу нетрадиционной форме, берут тесты «Насколько знаете своего ребёнка», «Чего вы ждёте от детского сада», экскурсии в городскую библиотеку, музей, хлебобулочные цех запись, спортивные конкурсы: «Папа, мама и я, спортивная семья».



Открываются "утренняя гимнастика в семье", чтение книги в кругу семьи и в кругу детей в детском саде, акции «каждому ребёнку по одному по одной книге», домашнее задание, выставки на каждое время года (поделки, рисунки). Мастер-классы: по рисованию песочный и манный класс, рисование не на асфальте, Заливки гипса для Закрашивания детей, лиц вопросы с родителями детьми, викторины по программе "zoom" .

Деятельности на центр развития, видео ролики с участием родителей и детей на праздники: "день семьи", "Конституция", "день независимости", "день защитники Родины" на " Навруз" и так далее.

Мы тоже с детьми в детском саду сделали видео поздравления на 8 марта. Каждую пятницу родители поочерёдно приходят и читают детям книги и сними обсуждают и играют.





Родители для нас воспитатели приготовили поздравительный видеоролик и так родители стали активными участниками разных дел в группе, не переменными помощниками, научились взаимодействовать друг с другом роли игровых партнёров.

Совместная подготовка сблизило меня и родителей, родителей и детей, подружилась семьи. Атмосфера доброжелательности стала характерные для других общих дел в группе. У многих родители открыли скрытые таланты которые они не подозревали. Опыт работы показала: позиции родители как воспитатели стала более гибкой, теперь они ощущают себя более компетентными в воспитание детей.



ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗНОСТИ РЕЧИ У СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОЗНАКОМЛЕНИЯ С ВОЛШЕБНЫМИ СКАЗКАМИ

Азимова М.У.,
Навоийский государственный университет и.о доцент кафедры Дошкольного образования,
Иткинина Наргиза Рафаилевна,
Навоийский государственный университет студентка

Аннотация: посвящена исследованию методов формирования образной речи у старших дошкольников через знакомство с волшебными сказками. В статье рассматриваются значение сказок для развития речи, особенности восприятия сказочных образов и влияние художественного текста на формирование выразительности и богатства речи детей. Особое внимание уделено педагогическим приемам, способствующим развитию образного мышления и языковых навыков у дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, образная речь, волшебные сказки, старшие дошкольники, развитие речи, сказкотерапия, воображение, ролевые игры, выразительность речи, педагогические приемы.

Annotatsiya: Maqolada bolalarda obrazli nutqni shakllantirish metodlarini bolalarning ertaklar bilan tanishuvi orqali rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot qilingan. Maqolada ertaklarning nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati, bolalar tomonidan ertak obrazlarini qabul qilish xususiyatlari va badiiy matnning bolalarning ifodalilik va nutq boyligini shakllantirishga ta'siri ko‘rib chiqiladi. Bolalarda obrazli tafakkur va til malakasini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik usullarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, obrazli nutq, ertaklar, katta yoshdagi maktabgacha bolalar, nutq rivojlanishi, ertakoterapiya, tasavvur, rolli o‘yinlar, nutq ifodaliligi, pedagogik usullar.

Abstract: This article is devoted to the study of methods for developing figurative speech in older preschoolers through exposure to fairy tales. The article examines the significance of fairy tales for speech development, the unique aspects of how children perceive fairy-tale images, and the impact of literary texts on the formation of expressiveness and richness in children’s speech. Special attention is given to pedagogical techniques that foster the development of figurative thinking and language skills in preschoolers.

Keywords: preschool education, figurative speech, fairy tales, older preschoolers, speech development, fairy tale therapy, imagination, role-playing games, expressiveness of speech, pedagogical techniques.

Формирование образной речи у старших дошкольников является одной из важных задач дошкольного образования. Образная речь включает в себя использование выразительных средств языка, таких как метафоры, эпитеты, сравнения, и помогает ребенку точнее, ярче и эмоциональнее выражать свои мысли и чувства. Наиболее эффективным средством для развития образного языка у детей является художественная литература, особенно сказки, которые содержат яркие образы и эмоционально насыщенные ситуации.

Целью данной статьи является исследование процесса формирования образной речи у старших дошкольников посредством знакомства с волшебными сказками и выявление педагогических приемов, способствующих развитию образного мышления и выразительности речи у детей.

Роль волшебных сказок в формировании образной речи дошкольников

Сказки представляют собой уникальный инструмент, благодаря которому дети могут развивать творческое мышление и речевые навыки. Волшебные сказки обладают рядом особенностей, которые делают их особенно эффективными для формирования образной речи:

Яркость и выразительность образов. В сказках представлены герои и события, которые запоминаются благодаря своей необычности и выразительности. Например, такие персонажи, как Баба-Яга, Змей Горыныч или Илья Муромец, становятся для детей образцами, которые они воспроизводят в собственной речи.

Простота и повторяемость. Структура сказки часто повторяется, что помогает детям усваивать речевые обороты, типичные для сказочной речи, и применять их в собственном общении.

Насыщенность художественными средствами. Сказки богаты эпитетами, метафорами, сравнениями, которые дети начинают использовать в повседневной речи. Например, выражения вроде "высокий как дуб" или "быстрый как ветер" формируют представления о красоте и выразительности языка.

Исследования показывают, что при регулярном прослушивании и обсуждении сказок дети расширяют свой словарный запас, учатся использовать слова и выражения для описания героев, событий и эмоций. Через сказки происходит обогащение речи, развитие умения передавать настроение и эмоции, что способствует активному формированию образной речи.

Психологические аспекты восприятия волшебных сказок детьми дошкольного возраста

Старший дошкольный возраст (5-7 лет) является периодом интенсивного формирования воображения и развития речи. Дети в этом возрасте начинают осознанно воспринимать и анализировать содержание сказок, выделять в них главных и второстепенных персонажей, эмоционально откликаться на события и мотивы. Психологи отмечают, что у детей развивается так называемое "ролевое" воображение, что позволяет им не только понимать, но и активно воспроизводить характеры сказочных персонажей, их действия и речи.

В процессе восприятия сказки у ребенка развивается способность к образному мышлению: дети начинают представлять себе описанные в сказке сцены и героев. При этом сказки, как правило, предлагают детям доступный символический язык, помогающий им выразить свои эмоции и переживания. Под влиянием сказок дети учатся переносить на себя качества и поведение любимых персонажей, что положительно сказывается на развитии выразительности их речи.

Педагогические приемы для формирования образности речи у старших дошкольников через сказки

Для того чтобы процесс ознакомления со сказками был наиболее эффективным, педагоги и воспитатели могут применять различные методические приемы, способствующие развитию образной речи у дошкольников.

Чтение и обсуждение сказок

Чтение сказок вслух помогает создать атмосферу погружения в сказочный мир. После прочтения важно обсудить с детьми прочитанное, задавать им вопросы о характере героев, их действиях и мотивах, а также побуждать к обсуждению необычных и волшебных деталей сказки. Вопросы типа "Как бы ты поступил, если был бы на месте героя?", "Что тебе понравилось в этом герое?" стимулируют детей на выражение собственных мыслей и использование выразительных средств речи.

Ролевые игры по мотивам сказок

Ролевые игры позволяют детям не только рассказывать сказку, но и действовать, как ее персонажи. В ходе таких игр дети приобретают опыт использования образной речи, подражая любимым персонажам, употребляя их

фразы и манеры. Например, детям можно предложить сыграть сцену встречи Ивана-Царевича с Кощеем Бессмертным. Ролевая игра развивает у детей способность создавать образы и эмоции, что способствует закреплению образных выражений в речи.

Создание собственных сказок и историй

После знакомства с несколькими сказками можно предложить детям создать свою собственную историю, используя любимых героев или вводя новые персонажи. Педагог может поощрять детей к придумываю необычных и волшебных качеств, характеристик персонажей и их речи, используя эпитеты, сравнения, метафоры, что способствует обогащению и разнообразию речи.

Иллюстрация сказок

Иллюстрация — важный метод, который помогает детям визуализировать образы и выражать их в рисунках. После прочтения сказки детям можно предложить нарисовать любимого героя или сцены из сказки. Этот прием стимулирует воображение и помогает детям выработать образы, которые они затем воспроизводят в речи.

Анализ эффективности использования волшебных сказок для формирования образной речи

На практике методика работы с волшебными сказками показывает, что дети, регулярно знакомящиеся с волшебными сказками, имеют более развитую и выразительную речь по сравнению с теми, кто не получает достаточного контакта с художественными текстами. Дети, активно участвующие в обсуждении, ролевых играх и творческих заданиях, начинают проявлять навыки образного мышления и легко используют такие элементы речи, как эпитеты, метафоры и сравнения.

Проведенные исследования подтверждают, что дети старшего дошкольного возраста, которым регулярно читают сказки и обсуждают их содержание, активнее развивают умение описывать героев, действия и события, их речь становится более красочной и эмоционально насыщенной. У них формируются навыки образного мышления, и развивается способность эмоционально воспринимать и оценивать поступки героев, что способствует созданию насыщенной и выразительной речи.

Формирование образной речи у старших дошкольников является важной задачей дошкольного образования, и использование волшебных сказок — эффективный инструмент в этом процессе. Волшебные сказки помогают детям обогатить словарный запас, развить образное и креативное мышление, расширить эмоциональные и речевые возможности. Педагогам рекомендуется включать в процесс обучения методы и приемы, направленные на активное погружение детей в мир сказки, так как именно этот жанр позволяет наилучшим образом сформировать у детей яркую, выразительную и образную речь.

Список литературы

1. Бетенькова, И. П. Развитие образной речи дошкольников через сказку. – Москва: Учпедгиз, 2018.

2. Васильева, Н. В. Методы формирования выразительной речи у детей дошкольного возраста. – СПб.: Детство-Пресс, 2019.

3. Лисина, М. И. Психология общения и речевое развитие детей. – М.: Просвещение, 2016.
4. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2015.
5. Эльконин, Д. Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISHDA MUSIQANING O‘RNI

Bo‘ronova O.S.,
Zarafshon shahar 18-son DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Zotan, bolajonlarning faoliyati juda maroqli, o‘ziga xos go‘zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo‘lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma’naviy zavq beruvchi ana shu go‘zal tuyg‘u bolalar va o‘quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo‘ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma’naviy go‘zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Kalit so‘zlar: Musiqa, estetik, musiqiy estetik tarbiya, badiiy-estetik tarbiya.

Musiqa – turli tuman tovushlar bilan obraz yaratib beruvchi , g‘oyaviy emosional mazmuniga ega bo‘lgan san’atning bir turi hisbolanadi.

Musiqa estetikasi – musiqa san’atining mohiyati, badiiy shakllari va uslublarini o‘rganadigan fan.

Musiqa darsi “San’at darsi” deyilishiga sabab - musiqa o‘qituvchisining ijodkorligi, u bir soatlik darsda ssenariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. «Estetika» atamasining tub ma'nosi yunoncha “estezis” so‘zi bilan aloqador bo‘lib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma'nosini bildiradi.

Musiqiy estetik san’atning mohiyati, maqsadi va vazifalari haqidagi tushunchalar qadimgi Sharq va O‘rta Osiyoda ham o‘z taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan va rivojlangan. Buni biz qadimiy yozma va og‘zaki yodgorliklar, me'moriy obidalar, miloddan avvalgi VIII—VII asrlarda yaratilgan zardushtiylikning muqaddas “Avesto” kitobi orqali yaxshi bilamiz.

Ayniqsa, Qur'oni Karim, hadisi sharif kabi islom dunyosining qomusiy kitoblarida estetikaning qonuniyatlari haqida yetarli darajada tushunchalar berilgan. Ma'lumki, IX asrdan boshlangan Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari ijodida ham estetikaning barcha kategoriyalari o‘z aksini topgan. Bugungi kunda estetika turmushirnizning barcha sohalariga kirib bordi, desak yanglishmaymiz. Estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi va dizayn, go‘zallik intilish, tabiat estetikasi, mehnat va nafosat, turmush estetikasi tushunchalari shular jumlasidandir.

Go‘zallikka intilish insonning doimiy, ijtimoiy, hayotiy ehtiyojidir. Go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojiaviylik va kulgililik estetikaning asosiy kategoriyalaridir. San'atning estetik mohiyati, hayot bilan aloqasi san'at turlarining vujudga kelishi, hozirgi zamon san'atining asosiy turlari va ularning o‘zaro aloqalari estetikada o‘z aksini topmoqda. Sharq allomalaridan biri Nuriddin Abdurahmon Jomiy tafakkur durdonalari yig‘ilgan «Bahoriston» kitobida ota-bobolarimizning go‘zallik va xunuklik haqidagi teran fikrlarini keltiradi.

Yusuf ibn Husayn Roziy: -Hamma yaxshiliklar bir uyda, uning kaliti-tavoze (go‘zal xulq) va kamtarinlikdir, hamma yomonliklar boshqa bir uyda, uning kaliti - manmanlikdir, -der edi. Bu fikrlarni Mavlono Jomiy she'r bilan shunday bayon qiladi:

Yaxshiliklar bir xonaga jam, Uni ochar manmanlik iti.
Kamtarlikdir uning kaliti. Ehtiyot bo 'I, toyib ketmagil,
Yomonliklar boshqa xonada, Shundan kelar yuzing shuviti.

“Bahoriston”ning yana bir o‘rnida Iskandar Rumiyga hind hakimi bunday deydi:

Tan qindir, ammo jon — qindagi qilich,
O‘tkirlik, kesmoqlik — qilichning ishi.

Donishmand bu bilan odamzodning tashqi qiyofasi emas, sofdilligi, qalb go‘zalligi muhim ekanligini aytadi. Yoshlarimiz jamiyatda munosib o‘rin topib, go‘zal xulqi bilan izzat-hurmat ko‘rishi uchun donishmand ota-bobolarning pand-nasihatlarini diligajo qilishi ham estetik tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. Insonning chehrasi, qomatidagi go‘zallik muayyan ahamiyatga ega, ammo bu to‘la ma'nodagi go‘zallik emas. Insonning tashqi qiyofasi uning botiniy olami, xulqi, fe'1-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi kabi sifatlar bilan uyg‘unlashsa, bu-mukammal go‘zallik sanaladi.

Go‘zallikka intilish insonning doimiy ijtimoiy hayotiy ehtiyojidir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida shakllanadi. Go‘zalik qurshovida yashagan inson bilan uning aksi bo‘lgan muhitda o‘sgan inson o‘rtasida keskin farq bo‘ladi. Go‘zallikka intilish insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetaklaydi, uning estetik his-tuyg‘usini rivojlantiradi. Estetik his-tuyg‘u-kishilarning go‘zal va xunuk, fojiali va kulgili voqealarni idrok etish va baholash qobiliyatidir. Ezgulikka, go‘zallikka intilish-estetik ehtiyojdir. Bu ehtiyoj mehnatda ham, san'atda ham, kishilararo axloqiy munosabatlarda ham go‘zallik bo‘lishini taqozo etadi.

Musiqiy estetik tarbiyaning faoliyati. Musiqa insonga tez ta’sir etuvchi, emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi ham psixologik, ham tarbiyaviy vositadir. Xalqimizda «Qush uyasida ko‘rganini qiladi» degan maqol bor. Har bir bola birinchi tarbiyani o‘z ota-onasidan, oila a’zolaridan, o‘z atrofidagi yaqin kishilardan oladi. Oiladagi ijobiy muhit, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, bir-biriga bo‘lgan hurmat va e’tibor, mehribonlik, o‘zaro yordam va ularning musiqaga bo‘lgan munosabatlarini bolalarda dastlabki tushuncha va ko‘nikmalarining rivojlanib borishida asosiy o‘rin tutadi. Bolalar shaxsi uning faoliyati jarayonida tarkib topadi.

Zotan, bolajonlarning faoliyati juda maroqli, o‘ziga xos go‘zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Bu xil fazilatlar bolalarga xos bo‘lgan doimiy extiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma’naviy zavq beruvchi ana shu go‘zal tuyg‘u bolalar va o‘quvchilarning ayniqsa, nafosat tarbiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Binobarin, bolada namoyon bo‘ladigan ilmiy badiiy-estetik tarbiya muhim ma’naviy go‘zallikka puxta, zamin hozirlaydi.

Insonning jamiki faoliyati uning borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan barcha ta'lim-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-musiqiy, estetik jihatdan go‘zallikka intilish doimiy, ijtimoiy, hayotiy ehtiyoji sifatida bog‘cha yoshidan boshlab olijanob fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog‘chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo‘lib voyaga yetishishida xizmat qiladi.

Musiqiy estetik didini shakllantirishda bolajonlarni milliy qadriyatlar, xalq musiqa ijodi namunalari misolida musiqa san'ati va uning estetik go‘zalligini ongli ravishda idrok etish o‘rgatish, go‘zallikni his etgan holda zaruriy bilim va ko‘nikmalarni tarkib toptirish maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda musiqa rahbarlarining oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bolajonlarning voqelikka estetik munosabatda bo‘lishlarida musiqa san'atining o‘rin katta. Go‘zallik insonning estetik va badiiy didini o‘stiradi. Zero, san'at-hayotni go‘zallik qonunlari asosida idrok qilishdir. San'at asarlari ta'sirida shodlik va qayg‘u kabi kechinmalar paydo bo‘ladi. Go‘zal obrazlar kishilarga hayot ma'nosini anglashga, hayotda o‘z o‘rnini topishga, qadr-qirnmatini tanishga ko‘maklashadi.

San'atning estetik mohiyati, hayot bilan aloqasi. San'at o‘zining tarixiy taraqqiyotida kishilarning orzu-umidlarini namoyon etuvchi, uning sezgilarini, his-tuyg‘ularini aks ettiruvchi vosita sifatida katta ahamiyat kasb etib keladi. San'at turlaridagi timsollar ham o‘z tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan: musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr, badiiy adabiyot, kino san'atida voqea-hodisalar bevosita tasvirlansa, musiqa, raqs, amaliy san'at ijodkorning voqea-hodisalar to‘g‘risidagi g‘oyaviy-hissiy holatlari ifodalanadi. Musiqiy nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, ehtirosli va sehrliki, unda moddiy va ma'naviy joziba uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Insonning nafosat olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, o‘zlashtirish maqsadi, ya'ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriyati paydo bo‘ladi.

Estetika inson tomonidan voqelikni nafis idrok etishning eng umumiy qonunlari to‘g‘risidagi fandir. Tilimizda «go‘zal», «chiroyli» degan so‘zlar bor. Chiroyli narsa ko‘z bilan ko‘riladi. Go‘zallik ham ko‘z bilan ko‘riladi, ham dil bilan his qilinadi, ong bilan idrok etiladi. Estetika nafosat tarbiyasining umumiy tamoyillari va ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab oladi. Bu-estetik idrok, estetik kechinma, estetik zavq, estetik mulohaza, estetik did, estetik qarashlardir. Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Tarbiyalanuvchilarning yoshiga mos musiqiy asarlarni kuylash, tinglash hamda raqssona harakatlar bajarilishi natijasida unutilmas xotiralar, taassurotlar muhirlanib qoladi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Masalan:

«Alla». O 'zbek xalq qo 'shigi barcha insonlar ayniqsa bolajonlarimizning sevib tinglaydigan, qizlar bolalar sevib kuylaydigan xalq qo‘shiqlaridan biri hisoblanadi. Har bir ona o‘z allasiga ijodkorona yondashadi. Shuning uchun ham onalar tilidan kuylanadigan allalarning turlari ko‘p. Onalar o‘z farzandlari uchun kuylagan allalarda o‘zining butun dardu hasratlarini, orzu-o‘ylarini-yu, istaklarini qo‘shib aytadilar.

Allalar melodik matni oddiygina tuzilishga ega. Ayrim allalar sof xalq asarlari bo‘lsada ular ma'lum darajadagi murakkabligi bilan ajralib turadi. Xususan, radio va televideniye orqali ko‘p martalab kuylanadigan allalardan bin haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Uxla bolam, do‘mboqqinam alla-yo alla,
Shirin qo‘zichog‘im alla-yo alla.
Osmondagi yulduzingga-yo alla
Dengizdagi qunduzingga-yo, alla,
Kecha to‘yib uxlasang-go alla,
Orom o‘tar kunduzingga-yo alla.

Mazkur allaning melodik ohanggi nihoyat darajada hassoslik bilan yaratilgan va bu yoqimli kuy aynan onalar allasi uchun yaratilgandek tuyuladi. Bu asarni bolalar bilan o‘rganish jarayonida o‘tkaziladigan savol-javoblar orqali o‘quvchilarda onalarga mehr, ayollarimizga cheksiz hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish kabi muhim ma'naviy-axloqiy hislatlar shakllanadi. Allalarni kuylashdan oldin o‘quvchi-bog‘cha bolalari bilan oilada farzand tug‘ilganidan so‘ng o‘tkaziladigan turli an'analar; isiriq solish, chaqaloqqa ism qo‘yish, chaqaloqning qulog‘iga azon aytilishi, so‘ngra beshikka belash, sochqi sochish, yong‘oq chaqishlar, alla aytishlar va hokazo xalq udumlari haqida qiziqarli suhbatlar olib borish mumkin. Alla qo‘shig‘ini kuylaymiz.

«Alla» qo‘shig‘i (M.Ismoilova notaga olgan)

Mashg‘ulotlar jarayonida Xonanda O‘zbekiston xalq artisti Saodat Q'obulova, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Habiba Oxunova, O‘zbekiston xalq artisti Zamira Suyunovalar tomonidan kuylangan allalardan namunalar tinglash, barcha o‘quvchi-bolajonlar bilan «Alla» ga bag‘ishlangan suhbatlar, badiiy-musiqiy kechlarning o‘tkazilishi musiqa mashg‘ulotlarini yanada qiziqarliroq o‘tkazishga imkon beradi. Bunday suhbatlar, savol-javoblar, qo‘shiq tinglash va «Alla» kuylashlar o‘quvchi-bolajonlar ongida onalarga mehr, kichiklarga shafqat kabi muqaddas tuyg‘ularni mukammal singdirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, inson ruhiyati xususiyatlarini o‘rganmay turib, uning estetik qarashlarini o‘rganish, uni tushunish mumkin emas. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish jarayonida asosan musiqa mashg‘ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo‘lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzshyoev, Sh. O‘zbek xalqining an’analari va bayramlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Nashriyoti.
2. Iskandarov, A. Yangi yil bayrami: Tarixiy asoslar va zamonaviy nishonlash usullari. Tashkent: O‘zbekistonda Madaniyat.
3. Jumaniyozov, N. Yangi yilning xalqdagi o‘rni va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi.
4. Suvonov, R. O‘zbek xalqining bayram an’analari. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Tursunov, M. O‘zbekistonda bayramlar va ularning tarixiy rivoji. Toshkent: Universitet nashriyoti.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK JIHATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TA’LIM VA TARBIYA BERISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Xasanova N.,
Karmana tumani 8-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o‘ziga xos psixologik jihatlarini hisobga olgan holda, oilaviy hamkorlikda ta'lim-tarbiya berish haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs, maktabgacha yosh psixologiyasi ,ta'sir qilish kuchi.

Kirish. Maktabgacha ta'lim yoshi-bu har bir shaxsning eng dolzarb,eng mutakkab va eng hal qiluvchu davri hisoblanadi. Aynan mana shu davrda bola hayoti davomida oladigan bilimlarga poydevor quradi. Qanchalik mustahkam poydevor bo‘lsa,bola hayotidagi turli vaziyatlarga aql bilan ilm bilan yechim topishga undaydi. Bu poydevor albatta maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachining zakovatiga topqirligiga, o‘z ustida ishlashiga, izlanishiga bog‘liq.

“O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim, aks holda u qurigan daraxt va toshga aylanib qoladi.Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganday, kelajakda bunday ustozdan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi” Adolf Destervergning ushbu so‘zlari qanchalik haqiqat va dolzarbligi necha zamonlardan buyon o‘z tasdig‘ini topib kelmoqda.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi avvalo bola psixologiyasidan xabardor bo‘lmog‘i lozimki,bola ruhiyatidagi o‘zgarishlar,bu yosh psixologiyasining o‘ziga xosliklarini hisobga olmay turib, bolaga ta'lim-tarbiya berish yaxshi natijalar bermasligi ma'lum.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruh tarbiyachilari bola yoshini hisobga olgan holda;

3-4 kichik yosh guruhlarda tarbiyachi "yoqimli munosabatlar" beruvchi,onadek mehribon va muloyim ta'sir etuvchi bo‘lmog‘i, reaksiya bildirmasligi bolaning ayni bog‘chaga kelgan ko‘nikish davrida yaxshi natija berishiga yordam beradi.Yani, bola bu davrda yangi muhitga ijtimoiy moslashsa ham,jismoniy javob berishi mumkin yoki aksincha.(Bolada moslashish davrida shamollash, yoki, injiqlanib yig‘lash holatlari kuzatiladi.)

Shunday paytda bolalar onalaridek mehribon,ularni kerakligicha erkalatadigan insonga tez moslashadilar.

4-5 yoshli o‘rta guruhlarda bolalar tarbiyachilarini "Mohir odam"rolida ko‘rishni xohlaydilar.Ya'ni bu yosh guruh bolalari bilan ishlayotgan tarbiyachi endi,kuzatuvchanlik,tartiblilik bilan bir qatorda chizish va yasash,qo‘shiq aytish va raqs tushish,mohir aktyor kabi qobiliyatlarini ham ishga solib,ta'lim-tarbiya bermog‘i maqsadga muvofiqdir.

5-6-7 katta va tayyorlov guruhi tarbiyachilari endi yanada o‘z ustida ishlab,bilimini oshirib borishi lozimki,bu yosh bolalari o‘z tarbiyachilarini "bilimli odam"rolida ko‘radilar.Ular tarbiyachilarini hamma narsani bilishadi,barcha savollarimizga to‘g‘ri javobni faqat tarbiyachilarimizdan olamiz degan fikrda bo‘lishadi.Shunday ekan bu yosh bolalarini tarbiyalayotganda faqatgina dastur asosida tayyorlanishni o‘zi endi kamlik qiladi.Dunyo sirlariga juda qiziquvchan yoshdagi bolajonlar endi sizni shoshirib qo‘yishadi?

Masalan: “Nega qo‘ziqorin chaqmoq chaqqandan keyin chiqadi?”, “Nega yer dumaloq shaklda?”, “Nega hamma sayyoralar quyosh atrofida aylanadi?” kabi savollariga javob topib, ilmiy asoslangan holda,bolalar yoshiga nisbatan sodda tilda tushuntirib berish vazifasi ham turadi.

Maktabgacha ta'lim davrining turli yosh guruhlarida;

-sezgi,

-idrok,

-xotira,

-tafakkur,

-hayol,

-nutq,

-hissiyot,

-diqqat kabi psixik jarayonlarni va holatning namoyon bo‘lishi va taraqqiy etishi,takomillashuvi kuzatiladi .Bu jarayonlar albatta har bir shaxsning psixologik xususiyatlari, qiziqishi, temperamenti, qobiliyati, xarakteri, malaka va odatlariga ham bevosita bog‘liqdir. Al Xorazmiy: "Shaxsiy ruh miyada bo‘lib, ular badan a'zolariga asab orqali tarqaladi" - deya fikr bildirganlar o‘z asarlarida.

Demak, har bir bola ruhiyati alohida bir olam,unlarning qiziqishlari va odatlari bir-biriga o‘xshamaydi.Aynan shu psixik xususiyatlar va psixik jarayonlarni hisobga olgan holda har bir shaxsga alohida yondashilsagina ijobiy ustunlikka erishish mumkin.

Buning uchun esa albatta ota-onalar bilan hamkorlik,ularni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari va psixologik jarayonlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ish jarayonimda shunday holatlar bo‘ladiki, juda faol, qiziquvchan, muloyim va samimiy bola qaysidir sabab bilan jizzaki, qo‘rs va xattoki urushqoqlik holatlarini namoyon etadi. Mashg‘ulotga umuman qiziqish bildirmaydi, o‘z hayollari bilan bo‘lib qoladi. Albatta buning sababi oila atalmish qo‘rg‘onda yuz bergan bo‘ladi. Uydagi ijobiy ijtimoiy muhit bolaning psixologik taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Oiladagi salbiy qarashlar, salbiy ijtimoiy muhit ham o‘z o‘rnida bolaning axloqiy tarbiyasiga,psixikasiga yomon ta'sir etmay qolmaydi. Bola jisman guruhda bo‘lsa ham hayolan u boshqa muhitda bo‘lishi,diqqatini jamlay olmasligi, buning natijasida idrok va xotiraning yomonlashuviga olib kelishi mimkin. Bunday holatlarning tez-tez takrorlanishi esa bolada o‘z hissiyotlarini jilovlay olmasligiga va xatto nutqiga ham yomon ta'sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu o‘rinda yosh ota-onalar bilan bir necha tavsiyalarimni o‘rtoqlashmoqchiman;

Avvalo har qanday oilaviy masalalarni kattalar o‘zaro, bolalarga eshittirmay hal qiling va faqat ijobiy fikrlarnigina o‘rtoqlashing. Shuni unutmanki, oiladagi janjallarni ko‘rib o‘sgan bolalarda ham bu holatlar takrorlanishi mumkin. Avval tengdoshlari bilan, keyin kattalarga gap qaytarish, oilali bo‘lganida esa oilaviy tinchlikka erisha olmasligi aynan uni bolalikdagi ota-onasining dahanaki janjallari sabablidir.

Har qanday vaziyatda ham farzandingizni tinglay oling, unutmang u sizning mehringiz va ko‘magingizga muhtoj. Kelajakda shu birgina sabr bilan tinglay olganingiz,farzandingizni ham boshqalarni tinglay olishiga,sabr bilan ish ko‘rishiga va sizga mehr-muhabbatga tarbiyalasa ajab emas.

Farzandingizni boshqalarni hurmat qilishga o‘rgating va bunga o‘zingiz o‘rnak bo‘ling.Unutmang,har bir ishdagi yaxshi natijalar,o‘zaro hurmatdan boshlanadi.Hech qachon unutmang,bolangizni ko‘z o‘ngida uning tarbiyachisi yoki,o‘qituvchisiga qo‘rs muomala qilmang!Bu bilan,o‘sha kundan boshlab bolani ta'lim-tarbiya olishini cheklaysiz.Chunki bola bu muomalangizga guvoh bo‘lsa,kattalarni hurmat qilmay boshlaydi.Qancha e'tirozingiz va talabingiz bo‘lsa,alohida tarbiyachining o‘zi bilan gaplashing.

O‘ziga nisbatan ishonch ruhini tarbiyalang. "Mumkin emas", "Uddalay olmaysan", "Lapashang" kabi so‘zlarni mutloqo ishlatmang.Undan ko‘ra, "mumkin emas"ishni qilishi nima oqibatlarga olib kelishi haqida tushuncha bering.Bolalar aynan mumkin emas ishlarga juda qiziquvchan bo‘lishini yodingizdan chiqarmang!

"Uddalay olmaysan"ni o‘rniga, harakat qil iborasini qo‘llang. Senga ishonaman, albatta uddalaysan, avvalgidan ko‘ra ancha yaxshi uddalading kabi jumlalarni ko‘proq ishlating.

O‘yinchoqlari bilan bo‘lishishni o‘rgating.Birovga yaxshilik qilib xursand bo‘lishga tarbiyalang.Emotsional holatlar shaxsning psixologik holatlarini shakllanishini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolangiz bilan ijtimoiy doirani yarating,yaxshi xulq-atvorini maqtang,u bilan suhbatlashing,o‘zaro yordamni,bolaga e'tiborni jalb qiling. Birovlar haqida gapirayotganda ehtiyot bo‘ling. Bolalar juda "yuqtirib"oluvchan bo‘lishadi.

Bolangiz bilan gaplashganda badiiy tilda, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilib so‘zlashing. Bilasizmi,bola kommunikativ tajribasining asosiy manbai uning oilasi bo‘lib, u zamonaviy jamiyat bilimlari,qadriyatlari,an'analari va tajribasi dunyosiga qo‘llanma hisoblanadi.Aynan ota-onadan bola tengdoshlari bilan muloqot qilish qoidalarini o‘zlashtiradi,erkin muloqot qilishni o‘rganadi.

Bolaning aynan maktabgacha ta'lim yosh davridan boshlab,uning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi.Rus pedagoglaridan P.F.Lesgaftning fikricha,insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki,ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi.

Haqiqatdan ham bolaning maktabgacha yoshdagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki,bu davr bolaning kelgusi o‘sishida albatta o‘z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi davr ta'sir o‘tkazish kuchi jihatidan g‘oyat mas'uliyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, har bir bola alohida bir olam,shaxs ekanligini xis qilib, unda sodir bo‘layotgan psixik jarayonlarni hisobga olib ta'lim va tarbiya berishgina yaxshi natijalarga sabab bo‘ladi. Tarbiyachi har bir bola kelajagiga befarq bo‘lmasdan, ota-onasi bilan erinmay pedagogik va psixologik bilimlarini o‘rtoqlashsa, o‘z ustida izlansagina jamiyatimizga ijtimoiy moslashgan, aqliy va axloqiy taraqqiy etgan, psixologik va jismoniy rivojlangan bolalarni tarbiyalab bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalr psixologiyasi "Faylasuflar"nashriyoti Toshkent-2017
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi Toshkent-2022

БОЛАЛАР ОВҚАТЛАНИШИНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ

Рўзиқулова М.Ж.,
Кармана тумани 23-ДМТТ тарбиячиси

Овқатланиш одамнинг, хусусан ёш боланинг соғлом ўсишида муҳим шарт шароитлардан бири ҳисобланади. Ҳукуматимиз томонидан мактабгача таълим ташкилотлари болаларнинг соғлом ва ҳавфсиз овқатланишлари, доимо лаззатли, витаминларга бой турли хил таомлар истеъмол этишлари учун барча тадбирлар амалга ошириб келинмоқда.

Соғлом овқатланиш –- жисмоний ва руҳий фаровонликни қўллаб-қувватлайдиган озуқавий моддаларга бой таомлардан баҳраманд бўлишдир.

Болаларнинг боғча ёшидан тўғри овқатланишга одатланиши улғайганда нотўғри овқатланиш оқибатида юзага келадиган касалликлар олдини олиш имконини беради. Бугунги кунда давлатимиз томонидан малга оширилаётган ислоҳатларга мактабгача таълим соҳасини ривожлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Бунинг натижасида, қисқа муддатда мактабгача ёшдаги болаларнинг асосий қисми мактабгача таълим ташкилотларига қамраб олинди. Мактабгача таълим ташкилотларида тарбияланаётган болаларнинг тўғри ва соғлом овқатлантириш масаласи ҳам муҳим ҳисобланади. Бунда тарбияланувчилар рациони фойдали, мутаносиб бўлиши ҳамда унда умумий мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларининг ёшлари инобатга олинган ҳолда тузилиши лозим. МТМларда соғлом овқатланишни йўлга қўйиш учун хавфсиз, тўйимли ва соғлом озиқ-овқат маҳсулотларининг доимий таъминотини кўзда тутувчи стандартларга узлуксиз равишда амал қилиш керак.

Кейинчалик диеталик овқатларни кўплаб касалликларни ривожланишини олдини олади. Болалар таомномасида сабзавотли салатлар янги мевалар, ҳар куни учинчи таом сифатида янги ёки қуруқ мевалардан тайёрланган компот, кисель ёки сутли ичимликлар, шунингдек, болалар учун сабзавотли, бутқали мевалар кўпроқ киритилиши лозим.

Болага кун давомида иккита сабзавотли таом, бир маротоба ёрмалик таом берилиши мақсадга мувофиқидир.



Давлат мактабгача таълим ташкилотларида мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги томонидан тасдиқланган ҳамда Республика санитария-эпидемология осойишталиги ва жамоат соғлиги хизмати билан келишган мавсумий кузга, қишки, баҳорги ҳамда ёзги таомномалар асосида таомлар тайёрланади.

Болалар тўғри овқатланишини ташкил қилишда гуруҳлардаги барча шароитлар етарли бўлиши муҳим аҳамиятга эгадир. Болаларни ўзларига мос идиш-товоқлар билан таъминланиши, стол атрофида ўтиришга қўлай шароит яратиш лозим. Таомлар ўта қайноқ ёки совуқ бўлмаган ҳолда бўлиши керак.

Болаларни овқат таомномасига кўкатлар кўпроқ киритилиши лозим. Янги кўкатлар, сабзавотлар овқатни витаминга бойитади ҳамда унга чиройли кўриниш ва маза беради. Истеъмол маҳсулотлари боланинг ёшидан келиб чиқиб, тақсимланса, организм керакли озуқа манбаига эга бўлади.

MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOG-XODIMLARINI KASBIY KOMPETENSIYALARI

Nasridinova M.I.,
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 17-sonli DMTT uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim mutaxasislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o‘ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В государстве рассматриваются педагогические и психологические особенности процесса подготовки будуших специалистов дошкольного образования к инновационной профессиональной деятельности.

Annotation: The article examines the pedagogical and psychological features of the process of preparing future preschool education specialists for innovative professional activities.

Tayanch so‘zlar: Pedagogik, psixologik xususiyatlari innovatsion kasbiy faoliyat, pedagogik amaliyot, ilg‘or tajribalar, hamkorlik.

Ключивые слова: педагогические, психологические особенности, инновационная профессиональная деятельность, педагогическая практика, лучшие практики, сотрудничество.

Key words: pedagogical, psychological characteristics, innovative professional activity, pedagogical practice, best practices, cooperation.

Mamlakatimizda ta‘lim tizimlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqasa ilk pog‘ona maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini tashkil etish va uni boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonda “Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish”[1] kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqish, ushbu tizimni boshqarish infrastrukturasini takpmillashtirish vazifasi qo‘yilib, ilmiy-metodik ta’minotni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikamiz hukumati maktabgacha ta’lim oldiga qo‘yayotgan vazifalarning aksariyati pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati va boshqaruvchilik salohiyatiga bog‘liq. Maktabgacha ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan maqsadlarga erishish tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi.

Dunyoda yetakchi ilmiy tadqiqot va ta’lim muassasalarida bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini tayyorlash jarayonini innovatsion yondashuv asosida loyihalash va bo‘lajak tarbiyachillarni muayyan kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini rivojlantirish kasbiy yetuklikka erishish jarayonida pedagogik, psixologik qadriyatlarini tatbiq etish bo‘yicha YUNESKO boshchiligida ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida global axbarot oqimlarini jadallashuvi, fan-texnika rivojlanishi, maktabgacha ta’lim tarbiyachisining kasbiy layoqatini

rivojlantirishga bo‘lgan talablar ortganligi, bo‘lajak pedagog-tarbiyachilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilayotgan vazifalarni xalqaro yondashuvlar asosida rivojlantirish mazmuni va texnologiyasini takomillashtirish ehtiyojini keltirib chiqardi. Respublikamizda bugungu kunda “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va tarbiyachilarning malaka darajasini yuksaltirish”[2] kabi muhgim vaqzifalar hozirgi kunda maktabgacha ta’lim oldida turgan dolzarb biri hisoblanadi.Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi ―2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi va uning asosida dastur ishlab chiqildi. Mazkur qaror maktabgacha ta‘lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish, farzandlarimizni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart - sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda[3].

Bugungi kunning tarbiyachisi zamon bilan hamnafas bo‘lishi va innovasiyalardan xabardor bo‘lishi va ish faoliyatida ulani qo‘llay bilishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkiloti innovatsion faoliyatining tarkibiy tuzilmasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

*Rivojlantiruvchi dasturlar bo‘yicha ishlash;

*Loyiha va dasturlarni ishlab chiqish;

*Axbarot texnologiyalaridan foydalanish;

*Tanlov va konkurslarda ishtirok etish;

*Murabbiylik;

*Tarbiyachi bilan ishlashning faol shakllari;

*Zamonaviy rivojlantiruvchi o‘yinlarni qo‘llash;

*Maktabgacha ta’lim tashkilotidan innovatsion faoliyat;

*Muammoli guruhlar bilan ishlash;

*Ijodiy guruh bilan ishlash;

*bolalar va tarbiyachilar portfoliosini tuzish;

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlarini hozirgi kun jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohatlaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirish va amaloyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion kasbiy faoliyatni amalga oshirishdagi asosiy subyekt tarbiyachidir. Tarbiyachi shaxsi uchun zarur sifatlar esa quyidagilardan iborat:

O‘z kasbining sir asrorlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi;

O‘z faoliyatida zamonaviy bilimlar va maktabgacha ta’limning me’yoriy-huquqiy asoslariga tayana olish ko‘nikmasini egallashi;

Izlanuvchanlik;

Maktabgacha ta’lim sohasidagi yangiliklarni o‘zlashtirishga intiluvchanlik;

Keng siyosiy dunyoqarashga ega bo‘lishi;

Fidoyilik, masuliyatlilik,poklik,qatiylik, jamoa manfaati yo‘lida jonbozlik ko‘rsatish, mehnatsevarlik, adolatlilik, o‘ziga va o‘zgalarga talabchanlik hamda tejamkorlik sifatlarini egallashi;

Oz faoliyatida so‘z bilan ish birligini ta'minlash tamoyillariga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari;

Innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarni ham alohida e'tiborga olish zarur;

Yuqorida basyon etilgan fikr - mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta'limda barcha faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog va tarbiyachilar oldiga murakkab vazifalar qo‘ymoqda shu bois bo‘lajak pedagog- tarbiyachilarda ilmiy dunyoqarash va yuksak ma'naviy hislarni rivojlantirish hamda jamoada, jamiyatda o‘zini munosib tuta bilish ko‘niikmalarini tarkib toptirish tizimli tarzda amalga oshirilishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi, 2016-yil, 8 - dekabr.
2. 2017– 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha [Matn] / O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.:
3. “2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. // «Xalq so‘zi», 2016- yil 31- dekabr.

TA'LIM JARAYONIDA QO‘LLANILADIGAN KO‘RGAZMALI VOSITALARGA QOYILADIGAN TALABLAR

Ravshanova Yu.G.,
Navoiy viloyati Zarafshon shahar 17-sonli DMTT uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida qo‘llaniladigan ko‘rgazmali vositalar, audiovizual va vizual vositalarni qo‘llash haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘rgazmali qurollar, vizual, audiovizual, an'anaviy, ko‘rgazmali, og‘zaki vositalar.

Аннотация: В этой статье освещается информация об использовании наглядных, аудиовизуальных и визуальных средств, используемых в процессе обучения.

Ключевые слова: наглядные пособия, наглядные, аудиовизуальные, традиционные, наглядные, словесные средства.

Annotation: This article highlights information about the use of visual, audiovisual and visual means used in the learning process.

Keywords: visual aids, visual, audiovisual, traditional, visual, verbal means.

Mamlakatimizda ta'lim tizimlarini nufuzini oshirish bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik va e'tibor pedagog xodimlarining o‘z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlariga zamin hozirlamoqda.

Darhaqiqat, ta'lim-tarbiya jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish tushunchasini XVII asrda Yan Amos Komenskiy (1592-1670) "Orbis Sensualium Pictus" ("Nafosat olamining surati") kitobida rasmlarni o‘quv qo‘llanma sifatida taqdim etganida kuzatilishi mumkin. Bu kundalik hayotning 150 ta rasmlari bilan tasvirlangan [1]. Xuddi shunday, Jan Russo (1712–1778) va J.X. Pestalotsi (1746–1827) o‘qitishda ko‘rgazmali va o‘yin materiallaridan foydalanish jarayonini tadbiq etishgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida AQSh qurolli kuchlarida rasm va boshqa ko‘rgazmali qurollardan muvaffaqiyatli foydalanish ko‘rsatma vositalari samaradorligini isbotladi. Diafilmlar, mikro shakllar, slaydlar, proektsiyalangan shaffof bo‘lmagan materiallar, lenta yozish va kartochkalardan tortib audiovizual materiallarning har xil turlari mavjud.

Hozirgi raqamli dunyoda audiovizual yordam vositalari DVD, PowerPoint, televizion o‘quv seriallar, YouTube va boshqa onlayn materiallar kabi bir nechta multimediyalar bilan keskin o‘sib bormoqda. Audiovizual vositalarning maqsadi o‘qituvchining bolalarga ma'lumotni sodda, samarali va tushunarli tarzda bayon etish qobiliyatini oshirishdir[1]. Vizual ko‘rsatma mavhum g‘oyalarni bolalar uchun yanada aniqroq qiladi. Audiovizual resursdan foydalanishni rag‘batlantirish va foydalanishni qo‘llab-quvvatlashdagi muhim rollarni tushunishlari uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qitish va o‘rganishda audiovizual materialdan foydalanish va foydalanmaslik o‘rtasida sezilarli farq mavjud.

1. O‘qitish-o‘qitish jarayonini samaraliroq qilishda pedagog-murabbiylar mahoratini mustahkamlash.
2. Tarbiyalanuvchilar e'tiborini jalb qilish va ushlab turish.
3. Tarbiyalanuvchilarning turli darajalarida qiziqish uyg‘otish.
4. Oddiy va oson bajariladigan dars rejalarini ishlab chiqish.
5. Guruhni yanada interaktiv va qiziqarli qilish uchun.
6. Tarbiyalanuvchilarga yo‘naltirilgan yondashuvga e'tibor qaratish [2].

Zamonaviy dunyoda biz o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun raqamli vositalardan foydalanamiz. Hozirgi kunda biz mashg‘ulotlarda foydalanadigan eng keng tarqalgan vosita bu PowerPoint slaydlari bo‘lib, bu mashg‘ulotni yanada qiziqarli, dinamik va samarali qiladi. Bundan tashqari, bu yangi mavzularni osonlikcha tanishtirishga yordam beradi. Audiovizual vositalardan foydalanish bolalarni kontseptsiyani uzoqroq vaqt davomida eslab qolishga majbur qiladi. Ular so‘zlar bilan bir xil ma'noni anglatadi, ammo aniq tushunchalar beradi, shuning uchun ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish guruhdagi intizomni saqlashga yordam beradi, chunki bolalarning barcha diqqatlari o‘rganishga qaratilgan. Ushbu interfaol mashg‘ulot, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan tanqidiy fikrlash va mulohazalarni rivojlantiradi.

Audiovizual o‘qitishda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samarali muloqot qilish imkoniyatlarini beradi.

Bolalar rag‘batlantirilganda va biror narsaga qiziqish bildirganda o‘rganadilar. An'anaviy og‘zaki ko‘rsatmalar talabalar uchun zerikarli va og‘riqli bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, audio-vizualdan foydalanish ta'lim oluvchilarning qiziqishini oshirib, mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishlarini rag‘batlantirish orqali ichki motivatsiyani ta'minlaydi.

Bir vaqtning o‘zida juda ko‘p audiovizual materiallar zerikishni keltirib chiqarishi mumkin degan fikrga ega bo‘lish kerak. U samarali amalga oshirilgan taqdirdagina foydalidir.

Ovozli vizual vositalar o‘quv jarayonini o‘qitish uchun muhim vosita ekanligi aniq. Bu ta’lim jarayonini samarali o‘tkazishda yordam beradi va bolalar tushunchalarni yaxshiroq va uzoqroq vaqt davomida o‘rganadilar va saqlaydilar. Audiovizual vositalardan foydalanish bolalarning tanqidiy va tahliliy fikrlarini yaxshilaydi.Vizual taqdimot orqali mavhum tushunchalarni olib tashlashga yordam beradi. Biroq, ushbu yordam vositalaridan noto‘g‘ri va rejasiz foydalanish o‘quv natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchilar ushbu yordam vositalaridan foydalanishning maksimal afzalliklariga erishish uchun malaka oshirish orqali yaxshi o‘qitilishi kerak. O‘quv dasturi audiovizual vositalar orqali faoliyatga asoslangan ta’limning variantlari mavjud bo‘ladigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, hukumat maktablarda audiovizual vositalarni sotib olish uchun mablag‘ ajratishi kerak.

Ta’lim jarayonida texnik vositalar va multimedia texnologiyalari asosida ta’lim berish, bilimni tez va oson o‘zlashtirilishi, ularning tushunarli va xotirada yaxshi saqlanishiga yordam berayotganligi amalda o‘z isbotini topmoqda. Ma’lumki, multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonini bo¬yitadi, o‘quv materiali ta’limiy axborotlarni idrok etishni yanada samaralilashtirish imkonini beradi. Multimedia-bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interaktiv dasturiy ta’minot boshqaruvi ostida o‘zaro vizual va audiosamara ta’siridan iborat bo‘lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni bir raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi. Gipermedia-bu multimediali obyektlarda qo‘llaniladigan gipermatnli vositalar bilan bog‘liq kompyuter fayllaridir. Ta’limni kompyuter va boshqa internet-texnologiyalaridan foydalanib tashkil etishda, turli afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim kamchilklar ham mavjud: bu aloqa liniyalari bilan bog‘liq muammo bo‘lishi ham mumkin. Mazkur muammolarni CD-ROM va DVD-disklari deb ataladigan optik kompakt disklar yordamida hal etilishi mumkin.

Ta’lim oluvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb etish, qiziqtirish juda muhim. O‘qitishni qiziqarlilashishi hamda unda barcha talabalarning to‘liq fikru-zikri bilan faollashishi asosida ta’lim jarayoni juda samarali o‘tadi. Bunda ko‘rgazmali vositalar ham muhim o‘rin tutadi, ular axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi natijasida avvalo, ta’limning universal ta’siri, uning asosida esa-foydali malaka va ko‘nikmalar, nihoyat keng doiradagi salohiyatlari shakllanadi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, ta’lim berish uchun mo‘ljallangan matnga jalb eta olishi, barcha ruhiy va didaktik omillarni hisobga olishi, jarayonlarni jo‘shqin tarzda namoyon etishi, mashg‘ulotlar o‘tkazish va o‘qitilayotgan ma’lumotni o‘zlashtirishni, umuman, butun ta’lim jarayoni samarasini oshirishi, talabalarda o‘z egallagan bilimlariga baho berish imkoniyatini ta’minlashi zarur. Aynan shu nuqtai nazardan, zamonaviy multimediali texnologiyalarning tatbiq etilishi yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni hal qilishda va an’anaviy o‘qitish usulining bir qator kamchiliklarini bartaraf etishga ko‘mak beradi.

Multimediya stendlari vositasida bolalar har qanday axborotni nafaqat ko‘rib, balki eshitib ham xotiralarida saqlab qolishlari osonlashadi. Ta’lim jarayoniga

zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini beradi [3]:

• jadval va rasmlarni rangli, ovozli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitish;

• interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;

• darsning nazariy materialini boyitib borish;

• axborotlarning muntazam ravishda yangilab turish;

• ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilan ko'proq individual ishlash, ularning darsga qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarilarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;

• ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, voqelikni kompleks o'rganish;

• ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, shakllari va usullarini, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali takomillashtirib borishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonberdiyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma; -T.:"Fan", 2006.
2. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X, Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o'quv-uslubiy qo'llanma).Qarshi: Nasaf, 2011.
3. Boqiyev R., R.Mehmonov, D. Xusniddinova. Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi. Toshkent: Iqtisod -moliya, 2010. b.
4. www. technomag.edu.ru
5. www.hrea.org/pubs/tips.html

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASRINING BA'ZI MUAMMOLARI

Fayzullayeva M.O.,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Hozirgi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilib borilayotgan islohotlar kelajak avlodni yutuk kadrlar bo'lib yetishishi uchun poydevor bo'lmoqda. Xususan, president maktablarining ochilishi, fanlar kesimida olimpiadalarning o'tkazilishi, ko'pdan - ko'p maxsus ixtisoslashgan maktablarning ochilishi shular jumlasidandir.

Umumta'lim maktablarida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish hamma maktablarda ham sezilarli darajada yaxshi emas. Darslarni nazariy va amaliy qismlarini o'qituvchi o'quvchilarga yetkazib berishi uchun slaydlardan foydalanib, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'quvshilarga yetkazib berish uchun elektron doskalar va televizorlarni o'rni be'qiyosdir, lekin hamma maktablarda ham bu vositalar talab darajasida emas. Darslardagi ko'rgazmalarni oladigan bo'lsak, o'quvchilar mavzuni tushunishi uchun kam misollar va korgazmalar berilgan.

2020-yil mamalakatimizda pandimiya sababli karantin bo'lganligi uchun oquvchilarda telefon, kompyuter orqali internet va ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish kuchaydi. Lekin shu o'rinda ta'limga afzal bo'lgan tarafi onlayn ta'limning kirib kelishi bo'ldi. Bu onlayn ta'lim jarayonida turli oiladagi bolalar ozlariga kerakli bo'lgan darslik va ma'lumotlarni olish bilan birga boshqa, axloqiga salbiy ta'sir

qiladigan axborotlarni ham oldi. Dars qilaman deb telefonni olgan bola, tarbiyasiga mos holda boshqa ma'lumotlarni ham oldi. Onlayn ta'lim tizimida telekommunikatsiya vositalaridan hamma ham bir xil yaxshi axborot olmadi. Misol uchun onlayn ta'limda televideniya orqali telekanallarda o'quvchilar uchun darslar onlayn tarzida olib borildi. Fanni o'rganmoqchi, mavzuni tushinmoqchi bo'lgan o'quvchilar o'tilganlarni o'zlashtirishdi, lekin tangani ikkinchi tarafi bo'lganidek ota-onasidan dars qilaman, tvdagi darslarni tushinmayapman, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'rgnaman deb, oila a'zolarini ishonchiga kirib, telefonni olib dars bohona boshqa axborotlarni oladigan o'quvchilar ham shakllandi. Undan kiyin ustozlar o'quvchilarini barchasi haqida ma'lumot olib turishi uchun telegram ijtimoiy tarmog'idan guruppa ochishdi, bu guruppada albatta boshqa ustozlar ham bo'ladi.

XXI asr - Axborot texnologiyalari asri, ya'ni telekommunikatsiya vositalarni rivojlanish asri bo'lib tarixga kirib keldi. Bu davrda internet tarmoqlarida biz uchun kerakli ma'lumotlar juda ko'p, ulardan o'z o'rnida, o'z ehtiyojlarimiz uchun to'g'ri foydalanishimiz zarur. Ayni vaqtda umumta'lim maktablarida internetning sust ishlashi sababli o'qituvchilarnng kundalik kom platformasini to'ldirishlari qiyin bo'lmoqda. Shahar maktablarida internet tarmog'i yaxshi ishlaydi, qishloq sharoitida esa hamma maktablarda ham emas, ba'zilarida internetning sust ishlashi platformalarning sekin ishlashiga sabab bo'lmoqda, buning oqibatida o'qituvchining foizi tushib ketadi va oyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Telekommunikatsiya vositalarining yaxshi taraflari, ustozlar telefoni orqali, agar internet tezligi yaxshi bo'lsa, kundalik kom ya'ni onlayn jurnal to'ldirish osonlashgan, avvalgidek o'qituvchilar jurnal ko'tarib, uni to'ldirib yozib vaqt ketkizishmaydi va bir jurnalni to'ldirish uchun navbat ham kutishmaydi.

Ustozlar oyliklarini ijtimoiy tarmoqlar orqali, ya'ni oylik bot orqali ish haqlarini qanday miqdorda tushgani va nimalarga qaytarilgani haqida ma'lumotni bilib boradi. Hozirgi vaqtda ko'pgina shahar va qishloq maktablarida 9-11 sinf o'quvchilarida telefon ishlatish muammosi dolzarb muammolardan bo'lib qoldi. Ayni vaqtda bolalarni darsga qiziqtirish ustozni vazifasi bo'lsa uni yanada takomillashtirish uyda ota-onani asosiy vazifasidan biridir. Ma'lumki tarbiya, odob-axloq, hurmat bo'lgan joyda albatta bilim ham yuqori bo'ladi. O'quvchi o'yinqaroq, qiziquvchan bo'lsayu darsda yaxshi ishtirok etib, uyga borganda uni takrorlamasa, yani ota-ona uyda nazorat qilmasa, makatabda o'zlashtirib, xotirasiga saqlagan ma'lumotlar tez orada o'chadi. Bu dastlab o'quvchi uchun ham, ota-ona uchun va ustoz uchun ham yomon natija.

Ota-onalarimiz farzandim ommaviy axborot vositalaridan foydalansin, jahon bilan hamnafas bo'lsin deb umumta'lim maktablarda o'qiydigan farzantlariga telefon, kompyuter, planshet olib berishadi, lekin bu vositalardan foydalanishlarini nazorat qilishmaydi va ishlatish jarayonini tekshirishmaydi. Bolani hamma xohishi o'zida bo'lsa turli ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarga(ya'ni yolg'on, buxton, qalbaki vedeolar o'z yoshiga mos bo'lmagan video roliklar) kirib qoladi, shu o'inda maktabdagi darslarni va vazifalarni ham unutishadi. Bu o'rinda ota-onaning asosiy vazifasi, farzandida yoshligidan boshlsab telefondan foydalanish madaniyatini shakllantirish zarur. Oilada bolani yoshligidan boshlab kitobga mehrini o'yg'otish ayni haqiqatdir. Ta'lim tizimi bizni yoshlarga ayni paytda katta imkoniyatlar berayotgan bir vaqtda, bizni yoshlarimiz bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanislari zarur.

MAKTABGACHA TA'LIMDA MARKAZLAR FAOLIYATINING ZAMONAVIY PEDAGOGIK INNOVATSION KLASTERI

Mirzayeva Sh.O'.,
Muzrabot tumani. 10-sonli MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat turlari oldidagi roli, eksperimental – tajriba faoliyatlarining bola rivojlanishidagi o'rni, va ularning mohiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, zamonaviy maktabgacha ta'lim yoshidagi bola, rivojlantiruvchi markazlar, eksperimental – tajriba faoliyat turi.

Аннотация: статье анализируются основная цель дошкольного образования в дошкольных образовательных учреждениях, роль инновационных педагогических технологий в деятельности дошкольного образования, роль экспериментальной деятельности в развитии ребенка и их сущность.

Ключевые слова: инновация, инновационные педагогичкские технологии, современный дощкольник, центры развития, экспериментальный - вид деятельности .

Abstract: The article introduces primary goal of preschool education, innovative pedagogical technologies in preschools, the role of experimental activity in the development of the child and their essence.

Keywords: innovation, innovative pedagogical technologies, modern preschool age child, development centers, experimental - type of activity.

O'tgan davrlar mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha, keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlar sonini yanada oshirishga va shuningdek ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Bularga maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish masalalarini hal etish zarurligi misol bo'lib, bular maktabgacha ta'limni sifatli ta'lim bilan ta'minlanishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiysiyosiy hayotda erkin, mustaqil faoliyat ko'rsata olish, yuksak darajadagi pedagogik mahoratga ega bo'lishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi ya'ni poydevori hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, kelajakdagi hayotiy vaziyatlarga moslashishni va shu bilan birga bolani tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan,

mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish va shu bilan birga qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida “Maktabgacha ta’lim xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish, 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish” kabi muhim ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Sohadagi islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimi isloh qilindi, o‘rta maxsus, kasbhunar ta’lim tizimi qayta ko‘rib chiqildi, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi.

Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni ayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi.

Bugungi kunda MTTda markazlarda o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar innovatsiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Ta’kidlangan vazifalar ijrosi sifatida tadqiqotning ustuvor konsepsiyasi MTTda markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri tushunchasiga, uning tarixiy taraqqiyoti va davriy o‘zgarishlar mazmuni bo‘yicha keltirilgan tavsiflarni tahlil etish maqsadga muvofiq.

MTTda innovatsiyalarni joriy qilish mavjud ish uslublariga nisbatan yangicha yondoshuvlarni talab qiladi. Ana shunday innovatsiyalardan biri klaster modeli bo‘lib, bugungi kunda ta’lim sohasiga ham kirib kelmoqda.

Klaster (cluster) so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, tarjima qilinganda “to‘plam”, “to‘p”, “guruh”, “konsentratsiya”, “guruhlarga to‘plash”, “to‘plamlarda o‘sish” kabi ma’nolarni anglatadi.

Klaser atamasi dastlab statistika va kompyuter sohasida, keyinchalik esa iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo‘llanila boshlangan.

Garvard biznes maktabi professori, iqtisodiyotdagi klaster nazariyasining asoschisi M.Porter tomonidan klasterning shakllanish mexanizmini o‘zaro raqobatbardoshlikning o‘sishiga sabab bo‘ladigan bevosita bog‘liq sohalarning jamlanishi deb tushuntiradi.

Ta’lim klasteri milliy pedagogikamizda innovatsion yondashuv bo‘lib, o‘zida nafaqat ta’lim turlari o‘rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta’limni boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq sohalarni ham jamlaydi.

Klaster yondashuvi ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘lik umumiy

yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Bu esa muammoning umumiy metodologik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlari bolaning o‘sish va rivojlanish taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Chunki maktabgacha ta’limning umumiy maqsadi bolani maktab ta’limiga sifatli tayyorlashdan iborat.

Barkamol shaxs sifatlari maktabgacha ta’limdan boshlanadi. Bola ijtimoiy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun ijtimoiy va bilish kompetensiyasini egallab boradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatining pedagogik innovatsion klasteri quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

Oila <MTT<Maktab <Oliy ta’lim

Endi pegagogik klaster tuzilishiga izoh beramiz:

Bola tug‘ilganidan uch yoshgacha oilada ta’lim tarbiya oladi. Ijtimoiy hayotga moslashadi. Bu yoshda barcha informatsiyani oila a’zolaridan o‘rganib, o‘zlashtiradi va ushbu davrlar ichida bolada “men” konsepsiyasi shakllanadi.

Uch yoshdan yetti yoshgacha bo‘gan davr bola hayotining eng asosiy rivojlanish davri hisoblanadi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha bola hayoti davomida oladigan barcha informatsiyaning 70% ini aynan maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri kelar ekan. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar o‘sishi va rivojlanishida tarbiyachining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko‘ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkonini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko‘nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqilizlanish, tadqiqot jarayoniga qo‘shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlantirish markazlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun turli xil usullar, uslublar va o‘yin shakllaridan foydalanish: suhbat, hikoya, axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, video namoyishlari, ijodiy faoliyat, tajribalardan foydalanib faoliyat olib borish ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Maktabgacha ta'limga zamonaviy yondashuv so‘nggi yillarda mashhurlikka erishdi, ko‘plab o‘qituvchilar va siyosatchilar uni keng qo‘llashni targ‘ib qilmoqdalar.

Shunga qaramay, hali ham o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud, masalan, malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi, maktabgacha ta’lim muassasalarining yuqorI sifatli dasturlarini moliyalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barnett, W. S., & Frede, E. C. (2017). The need for high-quality preschool in an era of accountability. The Future of Children, 27(2), 17-34.

2. Diamond, A., Barnett, W. S., Thomas, J., & Munro, S. (2007). Preschool program improves cognitive control. Science, 318(5855), 1387-1388.

3. Hirsh-Pasek, K., Golinkoff, R. M., Berk, L. E., & Singer, D. G. (2009). A mandate for playful learning in preschool: Presenting the evidence. Oxford University Press.

4. Feruzabonu Bobir Qizi Umarova, & Nilufar Avloqulovna Sodiqova
(2021). Maktabgacha ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuv. Scientific progress, 2 (2), 1218-1221.

STEM TA'LIMI EKOLOGIYA DARSLARDA O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA FANLARARO BOG'LANISH VA AMALIY YONDASHUVNI QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH

Raxmonova Z.,
Navoiy viloyati barkamol avlod bolalar maktab uslubchisi

Annotatsiya: STEM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga fan, texnologiya. muhandislik va matematika

Kalit so'zi. STEM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, elektrtexnik ishlari, robototexnika, xalq hunarmandchiligi va boshqa amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2018-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning II bo'lim, 11-bandida – umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEM (fan, texnologiya. muhandislik va matematika) ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish uchun, avvalo, ta'lim ishtirokchilari – pedagoglar, metodistlar, o'quvchilar, ota-onalar va boshqalar STEM ta'limi yo'nalishida o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlar haqida ma'lumotlarni bilishi hamda ularni amaliyotda qo'llash uchun malakalarga ega bo'lishlari zarur bo'ladi. Hozirgi vaqtda texnologik inqilob mavjud. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Zamonaviy maktablarda robot dizayni, modellashtirish va dizayn loyihalashtirish ishlari yetakchi o'rinni egallamoqda. Mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirish uchun ko'proq texnik ta'lim talab etilayotganligi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bugungi kunda STEM ta'limi jamiyat va davlatning rivojiga katta hissa qo'shadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini bermoqda.

Ma'lumki, zamonaviy ta'lim tizimi, an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, amaliyotda o'rganilayotgan ilmiy-nazariy va metodik uslubni kundalik hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatishga imkon beradigan aralash muhit hisoblanadi. Matematika va fizika bilan bir qatorda o'quvchilar robototexnika va dasturlashni o'rganadilar. Bu jarayonda o'quvchilar aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlarini amaliyotdagi natijasini shaxsan ko'rib turadilar. STEM ta'limining muhimligi shundaki, haqiqiy fan sohasida ta'lim sifatining pastligi, moddiy-texnika bazani yetarli darajada emasligi, o'qituvchilar va o'quvchilarning sust motivatsiyasi – bularning barchasi ta'lim tizimining eng katta muammosidir.

Shu bilan birga, bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgan davlatimiz yuqori texnologiyalar sohasidagi fanlarning turli xil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, bugungi kunda STEM ta'limi birinchi o'rinda turadi. Bu esa kelajakda texnologik jarayonni rivojlantirish va mamlakatimizda ilmiy va muhandislik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplanishiga yordam beradi.STEM atamasi ilk bor AQSHda maktab dasturiga kiritilgan bo'lib, o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlaridagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu

yo'nalish kengaytirilib, atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga "R" – robotics – robototexnikani qo'shib, STREM deb "A" - art - san'atni qo'shib, STEAM deb atala boshlandi. Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'ymoqda. Bu esa o'quvchilarni jamiyatda yashashga tayyorlay olishi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni o'quvchida shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta'limi dasturining asosini tashkil qiladi. STEM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilash va ijodiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda turli konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEM ta'limi o'quvchining rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, texnalogiya fani kundalik hayotimizda doimiy qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi matematik hisob-kitoblar bilan bog'langandir.

STEM ta'limiy yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchida qiziquvchanlikni rivojlantiradi. O'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, uning yechimini topishning algoritmini ishlab chiqishni, natijalarini tanqidiy baholashni, fikrlashni muhandislik stilini shakllantirishga olib keladi. Jamoaviy faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi o'quvchi rivojlanishining yuqori bosqichga ko'tarilishini va kelajakda to'g'ri kasb tanlashga zamin yaratadi. STEM ta'limiy yondashuvi – o'quvchilarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy

Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga, o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

Ekologiya fanida STEM ta'limining vazifasi, o'quvchilarni texnologiya faniga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. STEM mashg'ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo'lsa o'quvchilar mashg'ulot vaqtida zerikishmaydi va darsdan unumli foydalanadilar.

STEM maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida. STEM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortishish kuchi o'rganilganda doskada formulalarni yozish tushuntirilsa, STEM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, elektrtexnik ishlari, robototexnika, ekologiya faniga xalq hunarmandchiligi va boshqa amaliy ishlarni bajarish orqali o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017.-102b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017.-488 b.

МУНДАРИЖА

Kirish……3

1-SHO'BA: TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA MULT'MEDIALI ILOVALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Mo'minov S.M.	Ta'lim-tarbiya jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish tendensiyalari	5
Mirsanov U.M.	O'quvchilarning dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda virtual muhitlardan foydalanish usuli	8
Pulatov J.	"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	15
Xaliqova G.T.	Zamonaviy informatika va axborot texnologiyalari ta'limida o'qituvchilarning kasbiy yuksalishi va 4k-ko'nikmalarni rivojlantirish	17
Saidova F.A.	Maktabgacha ta'limda faoliyatlar jarayonida bolalarning savodxonligini oshirishda zamonaviy yondoshuvlar	20
Shadiyev B.M.	Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi	23
Muxamadiyeva L.	Dars jarayonida multmedia texnologiyalarining o'rni	25
Murtazoyeva S.M.	Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalarining o'rni va ahamiyati	27
Qurbonova X.T.	Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	30
Hamdamova N.X.	Boshlang'ich ta'lim darslarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	32
Yusufov U.I.	Jismoniy tarbiy fanidan o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari	34
Shomurodov R.	Iqtisod fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediali ilovalarning o'rni va ahamiyati	37
Xusanova K.M., Mirzoqulova M.B.	Rus tili fanini o'qitishda elektron ta'lim resurslari va multimediya ilovalaridan foydalanishning ahamiyati	38
Amonova Sh.	Texnologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni belgilash usullari	40
Husenov G'.H.	Ta'lim jarayonini rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'rni	42
Xaitova S.E.	Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalari va multimediali vositalaridan samarali foydalanish	44
Элмуродова П.Р.	О создании искусственного интеллекта в высшем образовании	47

2-SHO'BA: TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MILLIY VA XALQARO BAHOLASH TIZIMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.

Xasanova X.N., Merzayeva X.J.	Kimyo darslarida steam ta'limiga oid integrativ topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati	50
Raxmonova Sh.Q.	O'quvchilarni matematik qobiliyatlarini rivojlantirish	52
Turayeva X.I.	Xalqaro baholash ta'lim dasturlari turli davlatlardagi ta'lim tizimlaridagi tutgan o'rni	54
Oblakulov A.E.	Faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish	56
Hamroqulova D.A.	Biologiya darslarda pisa topshiriqlaridan foydalanish	58
Mirzayeva X.U.	STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	61

3-SHO'BA: O'QUVCHILAR KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.

Mardanov U.R.	Oydin Hojiyeva she'rlarida ot metonimiya usulida ma'no ko'chishining uslubiy xususiyatlari	66
Cho'liyev E.A.	O'qitishda foydalaniladigan ta'lim texnologiyalarining ayrim xususiyatlari haqida	71
Pulotov A.M., Rahmonov U. U., Hamdamova R.G'.	Tabiiy fanlarda loyiha ishlarini tashkil etishda integratsion yondashuv	73
Astanakulov K.M.	Boshlang'ich maktab yoshiga xos bo'lgan bilish jarayonlarining o'ziga xosligi	77
Djurayeva P.S.	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kompetentligini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati	83
Fayziyeva M.M., Tagayev G.X.	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar kompetensiyasinining o'quvchi-yoshlar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasidagi o'rni	89
Jo'rakulov T.T., Sa'dullayeva M.L.	Ta'limni raqamlashtirishning zamonaviy usullari va texnologiyalari	92
Boboqulov J.Q.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dasturlash ko'nikmalarini ijtimoiy faollashtirish metodikasi	94
Қурбонов М.	Параметрик тенгламаларни ечиш - ўқувчиларнинг ижодий қобилятини ривожлантириш омили	96
Turapov V.M.	O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat taraqqiyotidagi muammolar tahlili va yechimlari	98
Shomurodov R.	Iqtisod fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik omillari	102
Shomurodov R.	Iqtisod fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	104

Soliyeva N.A.	Tabiiy fanlarni o‘qitish, o‘rganish va baholashni tashkil qilishda Blum taksonomiyasidan foydalanish	105
Yunusova N.A., Kamolova Sh.X.	Biologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish	108
Ilyasova U.A.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida izoterapiyaning psixologik ahamiyati	110
Yusufov U.I.	Jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni samarall foydalanish usullari	113
To‘rayeva D.I., To‘rayeva H.I.	Musiqa va tarbiya darslarini integratsion usulda tashkil etish	115
Nurmatova Z.A.	Ikkinchi xorijiy tilni o‘rgatishda kommunikativ til o‘rgatish yondashuvidan foydalanish	118
Ro‘ziyeva L.I.	Boshlang‘ich ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlar	120
Saidova Z.A., Xo‘jaqulova M.A.,	Tabiiy fanlarini o‘qitishda innovatsion metodikalar	123
Rajapova F.Z., Nazarova G.O.	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini savodxonlikni oshirishda axborot texnologiyalarning o‘rni	125
Saytova G.	Maktab o‘quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik omillari	126
Xudoyorova M.X., Berdiyeva B.T.	Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	128
Erkinov R.I., Berdiyeva N.M.	Jismoniy tarbiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning jihatlari	130
Usmonova D.N.	Boshlang‘ich ta’limda axborot texnologiyalari va multimediali darslarni tashkil etish	131
Abdullayeva T.N., Murtozayeva I.N.	Boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyaning o‘rni va ahamiyati	133
Nurmatova D.N., Maxmudova M.Q.	Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish	135
Xatamova S.T., Xoliqova N.K.	Boshlang‘ich sinflarda ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash	137
Temirova D.N., Ravshanova S.R.	Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan dars jarayoni	139
Mansurova N.Sh.	Umumta’lim maktablarida rus tili fanini o‘qitishning interfaol usullari	141
Ulashova G.M., Odilova N.H.	Boshlang‘ich ta’limda o‘quv jarayonini takomillashtirishning dolzarb masalalari va innovatsion yechimlar	143
Otaqulov S.R.	“Vatan tayanchi” harakati: mazmun-mohiyati, huquqiy va tashkiliy asoslari	145

Shodiyeva N.R.	To‘plam va qism to‘plam haqida ba’zi mulohazalar	148
Abdusalomova M.Sh.	Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish pedagogik muammo sifatida	150
Bazarova X.F.	Oliy ta’lim muassasalaridagi rangtasvir fanidan mustaqil ta’limda axborot texnologiyasidan foydalanish	153
Sharopova G.	O‘quvchilar kompetensiyasini rivojlantirishda ma’rifatparvar adiblar axloqiy qarashlarining o‘rni	155
Qozoqova M.V.	Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari	159
Alikulov A.K.	Mehrli maktab davlat ta’lim muassasasida davolanayotgan bolalar uchun ishlab chiqilgan maxsus o‘quv rejalarining afzalliklari	161
Bahodirov B.B.	Trigonometrik tenglamalar mavzusini o‘tishda dars samaradorligini oshirish uchun qo‘shimcha metodik adabiyotlarning ahamiyati	164
Fozilova N.T.	Features of translation of business documents (In the example of trade agreements)	167
Меликулова Н.Х., Облокулова М.Ш.	Метод монтессори в инклюзивном образовании: эффектиные подходы и практическое применение	171
Fayziyeva U.O.	O‘smirlarda huquqiy ongni shakllantirishning psixologik va pedagogik tadqiqot muammosi sifatida	177
Alijonova R.F.	Axborot texnologiyalari o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirishda yordamchi, ammo o‘qituvchi emas	179
Rajabova D., Tanatarova X., Abdijamilova Z.	Ona tili fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslari va multimediali ilovalardan foydalanishning ahamiyati	182

4-SHO‘BA: MAKTABGACHA TA’LIMDA XALQARO TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR MUAMMO VA YECHIMLARI.

Xaydarova Sh.N.	Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirishda turizm shakllaridan foydalanish omillari	185
Рахматова С.А.	Ёшларни касб-ҳунарга йўналтиришни ташкил этиш жараёнида ўрта осиё олимларининг тарбиявий ёндашувлари	187
Гиёсова Н.Ю.	Бўлажак ўқитувчиларда касбий маҳоратини шакиллантириш технологияси	191
Meyliyeva N.G., Rabbimova H.A.	Zamonaviy jamiyatda maktabgacha yoshdgi bolalarda agressivlik muammosi va yechimlari	196
Mansurova S., Ochilova M.	Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan gender yondashuv asosida ta’limiy faoliyatini tashkil etishning muammo va yechimlari	199
Fayzullayeva Z.A., Akbarova A.Sh.	Pedagogning elektron portfoliosi va uni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari	204

Fayzullayeva Z.A., Aimbetova A.T.	Maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol usullar yordamida o'qitishning o'ziga xos tomonlari	208
Fayzullayeva Z.A., Ahmadova M.J.	Bolalar uchun tanlanadigan o'yinchoqlar va ularning ahamiyati	210
Файзуллаева З.А., Келдиёрова М.А.	Приоритетные направления использования информационных технологий в дошкольных образовательных организациях	212
Hamroyeva A.F.	Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati	215
Shodiyeva B.X.	Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	217
Barotova M.M., Kutlmuratova G.K.	Maktabgacha ta'limda xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlar moammo va yechimlari	220
Qo'chqarova F.B.	Maktabgacha yosh davridagi bolalarda milliy xususiyatlarni shakllantirish yo'llari	222
Fayzullayeva Z.A., Ro'ziqulova Sh.A.	Maktabgacha tayyorlov guruhlari bolalarini savodga o'rgatishda multimedia texnologiyasidan foydalanish	225
Fayzullayeva Z.A., Xolmurodova M.N.	Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalarga qoyiladigan talablar	228
Хамраева Ф.Р.	Взаимодействие воспитателя с родителями в ДДО	231
Азимова М.У., Иткинина Н.Р.,	Формирование образности речи у старших дошкольников в процессе ознакомления с волшебными сказками	237
Bo'ronova O.S.	Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o'rni	241
Xasanova N.	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning psixologik jihatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya berishdagi muammolar va ularning yechimi	244
Рўзиқулова М.Ж.	Болалар овқатланишининг муҳим жиҳатлари	247
Nasridinova M.I.	Maktabgacha ta'limda pedagog-xodimlarini kasbiy kompetensiyalari	249
Ravshanova Yu.G.	Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalarga qoyiladigan talablar	251
Fayzullayeva M.O.	Ta'limda axborot texnologiyalari asrining ba'zi muammolari	254
Mirzayeva Sh.O'.	Maktabgacha ta'limda markazlar faoliyatining zamonaviy pedagogik innovatsion klasteri	256
Raxmonova Z.	STEM ta'limi ekologiya darslarda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni qiziqishlarini rivojlantirish	259

"UMUMTA'LIM MAKTABLARI TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI" MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2024-yil, 29-noyabr.

Texnik muharrir Axmedov S.T.

"Qo'ldovli yangi obod" x/k matbaa bo'limida chop etildi.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №30. hajmi 266 bet. Format A5. 2024-yil.